

A.G. AZIMOV, R.X.YULDASHEV,
E.N.YUSUPXODJAYEVA

NEFT VA GAZ KIMYOSI

TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

A.G. AZIMOV, R.X.YULDASHEV, E.N.YUSUPXODJAYEVA

NEFT VA GAZ KIMYOSI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

UO'K: 547.912 (075)

KBK 35.514

A-37

A-37

A.G.Azimov, R.X.Yuldashev, E.N.Yusupxodjayeva. Neft va gaz kimyosi. (O'quv qo'llanma). –T.: «Fan va texnologiya», 2017, 332 bet.

ISBN 978-9943-11-654-2

Ushbu o'quv qo'llanmada neft va gazni fizik-kimyoviy xossalari, ularni tadqiqoti va tarkibiy qismlarga ajratish usullari hamda neft va gazni tarkibiga kiruvchi birikmalarning asosiy sinflarining xossalari va reaksiyalari ko'rib chiqilgan. Neftning hosil bo'lishi, termik va termokatalitik o'zgarishlari kimyosi, neft va gaz uglevodorodlarining hidrogenolizi va boshqa reaksiyalari jarayonlari masalalari yoritilgan. Yoqilg'i va moylar asosiy turlarining tarkibi va ekspluatatsion xossalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekistondagi tabiiy gaz, gaz kondensatları va neft haqidagi ma'lumotlar keltirilib, tahlil qilingan.

Ushbu o'quv qo'llanma 5321300 – Neft, neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi, shu bilan birga 5630100 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bakalavriyat ta'lim yo'nalishlari hamda 5A321302 – Neft va gazni qayta ishlash va uning kimyoviy texnologiyasi mutaxassisliklari uchun mo'ljallangan «Neft va gaz kimyosi» fani bo'yicha tayyorlangan bo'lib, u quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi: kirish, neft va tabiiy gazlar, neftni sinflash va tovar neft mahsulotlarining tafsifi, neft va neft mahsulotlarining fizik-kimyoviy xossalari, neft va gaz tarkibini ifodalash va aniqlash usullari, neft va gaz tarkibining o'rGANISH va komponentlarni ajratib olish usullari, neftning kimyoviy tarkibi, neftning getroatomli birikmalari va mineral komponentlari, neft' va neft' fraksiyalarini sanoatda qayta ishlash kimyoviy jarayonlari, neftni qayta ishlashtda hosil bo'ladigan to'yinmagan uglevodorodlar va ularning fizik-kimeviy xossalari, ishlatalishi.

Neft va gaz kimyosi, neftni qayta ishlash sanoati muhandis-texnik, ilmiy xodimlari va ushbu sohalar bo'yicha kadr tayyorlovchi Oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarini va talabalari uchun mo'ljallangan.

UO'K: 547.912 (075)

KBK 35.514

Taqrizchilar:

M. Tillashayxov – texnika fanlari nomzodi, Toshkent kimyo texnologiya instituti dotsenti;

M.N. Musayev – dotsent, Toshkent davlat texnika universiteti «Neft va gaz» fakulteti dekani.

ISBN 978-9943-11-654-2

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil rivojlanish yo‘li bilan dadil qadam qo‘ymoqda. Ushbu yillarda eng qiyin o‘tish bosqich-administrativ buyruqbozlikdan markazlashgan rejali tizimga, erkin bozor iqtisodiyoti asoslarini qurish yo‘lini bosib o‘tildi. Bugun mamlakatimizda makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishildi, tarkibiy o‘zgarishlar dasturi amalga oshirilmoqda, ishlab chiqarish modernizatsiya va texnik qayta qurollantirilmoqda, yangi sohalar yuzaga keltirilmoqda, iqtisodiyotni keyingi barqaror va dinamik o‘sishi uchun kerakli poydevor va sharoitlar yaratilmoqda.

Mamlakatimizga tabiat mo‘l-ko‘l in’omlar bergen. Amudaryo va Sirdaryo oralig‘iga joylashgan O‘zbekiston o‘z tabiiy-iqlimiylar sharoitlari bo‘yicha Markaziy Osiyoning eng ma’qul regionlaridan biri bo‘lib, juda boy mineral xom ashyo resurslariga ega. Uning zaminida D.I.Mendeleev jadvalidagi hamma kimyoviy elementlar mavjud.

Respublika oltin zaxiralari bo‘yicha jahonda to‘rtinchchi o‘rinni, uni qazib olish bo‘yicha, ettinchi, paxta tolasi ishlab chiqarish bo‘yicha, to‘rtinchchi, eksporti bo‘yicha, ikkinchi o‘rinlarni, uran va mis zaxiralari bo‘yicha mos ravishda ettinchi va o‘ninchi o‘rinlarni egallaydi. O‘zbekiston rangli va nodir-er metallari, neft, gaz, qurilish materiallari, fosforitlar, turli tuzlar, kvars va boshqa foydali qazilmalarni katta zaxiralariga ega bo‘lib, ularni ratsional va kompleks holda ishlatishga intilmoqda. Xuddi shu bois xorij kapitali (investitsiya) asosida foydali qazilmalarni qazib olishni tashkil qilish va ularni kompleks qayta ishslash, mamlakatimiz rivojining eng zaruriy birinchi darajali vazifalaridan bo‘lib, xalqimizning asriy istaklariga mos keladi.


O‘zbekistonni zamona viy neft-gaz sanoati – iqtisodiyotning eng yirik sohalaridan biri bo‘lib, mamlakatning eng zarur energetik bazasidir. Sohada talaygina ilmiy-texnik potensial vujudga keltirilgan, uni rivojlanishida ma’lum yutuqlarga erishilgan.

Yoqilg‘i energetik kompleksni tezkor rivojlantirish – davlatimiz siyosatidagi asosiy yo‘nalishlardan biridir.

Qo‘lingizdagagi ushbu qo‘llanma neft va gazni tarkibini, uning kimyoviy xossalalarini o‘rganishga bag‘ishlanganligi uchun soha bo‘yicha ayrim ma’lumotlarni keltirib o’tmoqdamiz.

I BOB. JAHON BO'YICHA NEFT VA GAZ ZAXIRALARI


Tabiiy gaz zaxiralariga nisbatan neftni butun dunyo bo'yicha zaxiralari oxirgi uch o'n yillikda asta-sekin oshib boryapti. 1990-yillar oxirida Markaziy va Janubiy Amerika, shuningdek, Yaqin Sharqda ham keskin o'sdi. 2001-yil oxiriga kelib dunyo bo'yicha gaz va neft zaxiralarini mos ravishda 5,451 trln fut³ (1 fut³ = 0,028 m³) va 1032 mlrd. brl.(1barll=159l) ni tashkil qiladi. 1970-yilga nisbatan 2001-yilning oxirida gaz va neft zaxiralarini mos ravishda taxminan 24,4% va 69% ga oshdi (1.1-rasm):



1.1-rasm. Tabiiy gaz va neft bo'yicha dunyo zaxiralarining o'sishi

Dunyo bo'yicha gaz zaxiralarini regionlar bo'yicha keyingi o'rghanishga qaraganda (NG-R) maksimal oshishi Osiyo-Tinch okean regioniga to'g'ri keladi. Gaz zaxiralarining eng past ko'rsatkichi Shimoliy Amerikada bo'ldi. Biroq bu erda 1980-yilning o'rtalaridan


boshlab o'sishni kamayishi kuzatiladi. Ushbu holat xavotirli tendensiya bo'lib, oxirgi o'n-yillik davomida Shimoliy Amerika gaz sarfi (yiliga dunyo bo'yicha gaz iste'molining o'rtacha 30%) bo'yicha 2-o'rinni egallaydi. Dunyo gaz zaxiralari o'zgarishini o'rganish Shimoliy Amerikada ortishi eng kam bo'lganligini, 1990-yillarda ortish tendensiyada hamma ko'rsatkichlar bo'yicha eng pastidir (1.2-rasm):



1.2-rasm. Dunyo regionlarida tabiiy gaz va neft zaxiralarining o'zgarishi (1990-yilga nisbatan)

Oxirgi o'n-yillik davomida neft zaxiralaring maksimal qisqarishi (Oil-P) Shimoliy Amerikaga to'g'ri keladi (1.3-rasmga qarang). Shimoliy Amerika neft zaxiralaring kamayishi xavotirlikni oshiradi, chunki bu davrda Shimoliy Amerika neft iste'moli bo'yicha eng yirik (yiliga dunyo bo'yicha iste'molning o'rtacha 30%) regiondir.

Dunyo bo'yicha neft zaxiralari haqida 2001-yilning oxiriga berilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ularning ko'p qismi (dunyo zaxiralaring taxminan 67%) Yaqin Sharqda joylashgan. Biroq gazning eng katta zaxiralari (dunyo bo'yicha umumiyligining taxminan 39%) G'arbiy va Sharqiylar Evropaga, ayniqsa, sobiq Ittifoq davlatlariga (MDH) to'g'ri keladi.




1.3-rasm. Ayrim davlatlar bo'yicha 2000-yilda neft zaxiralari va yillik qazib chiqarish nisbatlari (R/P)

Zaxira va qazib olish nisbatlari koeffitsiyenti R/P yangi zaxiralar topilmay qolgan taqdirda ham konkret yoqilg'i zaxirasi necha yilga etarli bo'lishini ifoda etadi.

2000-yil ma'lumotlari bo'yicha neft qazib chiqaruvchi dunyoning asosiy davlatlari nefti uchun R/P koefitsiyent zaxiralarni tez qisqartirib boruvchi davlatlarni aniq ravshan identifikatsiyalab beradi (1.3-rasm).

Eng oxirgi debid ma'lumotlariga asoslangan holda uch asosiy neft qazib chiqaruvchi davlatlar – Saudiya Arabiston, Rossiya va AQSh zaxiralari mos holda taxminan 89, 21 va 10-yilda tugallanadi. Qazib chiqarilgan neft (Oil-P) ma'lumotlari ham dunyo bo'yicha yig'ma ko'rsatgichga nisbatan foiz (%) larda 1.3-rasmda keltirilgan.

Dunyo bo'yicha eng ko'p gaz iste'mol qiluvchi va gaz ishlab chiqaruvchi davlat – AQSh da, agarda zaxirani hech qanday qo'shimcha o'sishlari ko'zda tutilmaydi deb faraz qilinsa, gaz zaxirasi taxminan 9-yilga etishi kutilmoqda (1.4-rasm).



1.4-rasm. Ayrim davlatlar bo'yicha 2000-yilda tabiiy gaz zaxiralari va yillik qazib chiqarish nisbatlari

Rossiya dunyo bo'yicha eng yirik gaz qazib oluvchi davlat, bunga qarama-qarshi o'larоq, agarda qazib olish bo'yicha 2000-yil ko'rsatkichidan kelib chiqilsa, 82 yillik zaxiraga egadir.

1.1.O'zbekistonda neft va tabiiy gaz sanoatini tarixi

O'zbekistonda neftni sanoat miqyosida qazish usuli 1885-yilda boshlangan. Farg'ona vodiysining ikki qudug'idan olingen neft katta bo'limgan zavodda haydalgan, ishlab chiqarilgan kerosin esa aravalalar va tuyalarda Andijon, Toshkent. Qo'qondagi paxta tozalash zavodlari, juvozxonalar va aholini maishiy ehtiyojlari uchun jo'natilgan. Mazut temir yo'lida yonilg'i sifatida ishlatilgan.

Respublikamizda qazib olinayotgan neftning hajmi o'z-o'zini ta'minlash uchun etarli emas edi. O'tgan asrning 80-yillarda o'rtacha 6,0 mln. tonnagacha neft keltirilar edi. O'sha davrda gazni hududdan eksporti 7-8 mlrd. m³ ni tashkil qilgan.

O'zbekiston gaz sanoati yarim asrlik tarixga ega. Qizilqum cho'lidiagi birinchi Setalan tepa gaz koni 1953-yilda ochilgan. 1962-yili Gazli gaz konining ishga tushirilishi bilan Ural sanoat obyektlari va o'tmishdagি sobiq Ittifoqining Evropa qismini tabiiy gaz bilan ta'minlash uchun Buxoro-Ural va O'rta Osiyo – markaz transkontinental gaz o'tkazgich quvurlar yotqizildi.

Suyuq uglevodorodlar va tabiiy gaz hajmlarini doimo o'sish holida qazib chiqarish neft-gazni qayta ishlash sanoatini va gaz-kimyoiy nimsohalarini vujudga keltirish va rivojlanadirish fundamenti bo'lib qoldi.

Respublika hududida Oltiariq (1906-y.) va Farg'ona (1958-y.) neftni qayta ishlash zavodlari, Muborak gazni qayta ishlash zavodi (1972-y.), oltingugurtni tozalash inshooti bilan birga Sho'rtan gaz kompleksi (1980-y.) va Buxoro neftni qayta ishlash zavodi (1997-y.) qurilib ishga tushirildi. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodida 2000-yilda gidrodesulfurlash qurilmasi ishga tushirish bilan birga rekonstruksiya qilindi. Polietilen olish bo'yicha Markaziy Osiyo regionidagi birinchi korxona Sho'rtan gaz kimyo majmuasi (2001-y.) qurib ishga tushirildi.

O'zbekiston Respublikasi XXI asrga neftni qayta ishlashga yuqori texnologiyalarni joriy qilib, rivojlanishning ekstensiv yo'lidan intensiv yo'liga o'tdi.

Neft va gazni qayta ishlashni zamonaviy ahvoli

1992-yili O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan belgilab berilgan quyidagi uch strategik vazifani yechish lozimdir:

1. Respublikaning neft bo'yicha ehtiyojini qondirish maqsadida neft va gaz kondensatini qazib chiqarishni oshirish. Birinchi vazifaning bajarilishi qator yirik va bebahoh konlar bo'lmish; Ko'kdumaloq, Alan, Urga, Janubiy Tandircha va boshqa konlarning tezkor o'zlashtirilishi va ishga tushirilishi, O'zbekistonni neft mustaqilligiga erishishini ta'minlaydi.

2. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini Jahon standartlari darajasigacha ko'tarish maqsadida neft va gazni qayta ishlash texnologik jarayonlarini chuqurlashtirish. Bu vazifani hal etish uchun 1997-yilda yangi zamonaviy Buxoro neftni qayta ishlash zavodi qurib ishga tushirildi. Ishlab turgan Farg'onan NQIZ rekonstruksiyasida yangi gidrodesulfurlash qurilmasi qurildi.

Neftni qayta ishlashga yangi texnologiyalar kiritilishi oqibatida rangsiz neft mahsulotlarini ishlab chiqarish miqdori, qayta ishlanayotgan xom ashyo hajmi kamaytirilgan holda saqlab qolindi. Xuddi shunday ijobiy manzarani gazni qayta ishlash sohasida ham kuzatish mumkin.

2001-yilda Sho'rtan gaz kimyo majmuasini ishga tushirish bilan Markaziy Osiyo regionida yangi sohaga asos solindi. Asosiy mahsulot – polietilen bilan bir qatorda, kriogen texnologiyani ishlab chiqarishga qo'llash hisobiga tabiiy gaz tarkibidan propan–butan fraksiyasi ajratib olinadi. Natijada suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini Respublikada 2 martadan ortiq ko'paytirish imkonini berdi. Suyultirilgan gaz ishlab chiqarish ishlab turgan gazni qayta ishlash zavodlarida tabiiy gazni chuqur qayta ishlash texnologiyalarini qo'llash asosida ham amalga oshirildi.

3. O'zbekistonning neft-gaz sohasini ishonchli xom ashyo bazasi bilan ta'minlash uchun yangi konlarni ochish yo'li orqali uglevodorodlar, ayniqsa, suyuq zaxiralarini oshirib borish.

Uchinchi vazifani echish uchun, «O'zbekneftegaz» Milliy Xolding kompaniyasi tomonidan Respublika hududida uglevodorod xom ashvosini yangi konlarini ochishga yo'naltirilgan neft-gaz

konlarini 2005-yilgacha davrga mo‘ljallangan qidiruv ishlarini jadallashtirish istiqbolli dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu vazifani echish uchun 2000-yili O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qilgan bo‘lib, unda neft va gaz geologiya–qidiruv ishlari hajmlarini dinamik o‘stirish ko‘zda tutilgan.

Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan asosiy choralar natijalari oqibatida 2002-yilda birinchi bor uglevodorod xom ashyosi zaxiralarini o‘sish sur’ati, uni qazib olishga nisbatan o‘tib ketdi. 2000-2002-yillarda neft va gazning 12 ta yangi konlari ochildi, ulardan 5 tasi yuqori, istiqbolli porloq Ustyurt regionidadir.

O‘zbekiston er osti neft-gaz bo‘yicha katta potensialga egadir. Respublika hududining 60% ga yaqini neft va gazga istiqbolli. O‘zbekiston hududi quyidagi 5 ta neft-gaz beruvchi regionlarga bo‘linadi:

1. Ustyurt. 2. Buxoro. 3. Janubiy–G‘arbiy Xisor. 4. Surxondaryo.

5. Farg‘ona. Ushbu regionlarda hozirgacha neft va gazning 187 ta koni ochilgan.

Ulardan 91 tasi – gaz va gazokondensat konlari bo‘lib, qolgan 96 tasi – neft–gazli, neft–gazokondensatli va neft konlaridir. 47% ochilgan konlar ishlab chiqarishga joriy qilingan. 35% – o‘zlashtirish uchun tayyorlab qo‘yilgan, qolganlarida esa razvedka ishlari davom etmoqda.


Respublikada neftning istiqbolli resurslari fondi uchun 76 ta, gaz uchun esa – 90 ta maydon kirgan. Neft va gaz bugungi resurslarini pul ekvivalenti bilan baholanganda 1 trilliondan ortiq AQSh dollariga teng bo‘lib, tayyorlab qo‘yilgan va aniqlangan istiqbolli neft va gaz ushlagichlarni mavjudligi O‘zbekistonning hamma neft-gaz beruvchi regionlarida razvedka va qazib olish ishlarini muvafaqqiyatli olib borishga imkon beradi.

O‘zbekiston yirik yoqilg‘i–energetik resurslari ishlab chiqaradigan Markaziy Osiyo regioni davlatlaridan biri bo‘lib, tabiiy gaz ishlab chiqarish hajmi–yiliga 60 mlrd. m³ dan ortiq va suyuq uglevodorodlar bo‘yicha esa 8 mln. tonnaga yaqindir.

O'zbekistonda neft, gaz va gazokondensatini qazib chiqarish

Soha bo'yicha 2002-2010-yillarga mo'ljallangan "Neft va gaz sanoati o'sish konsepsiysi" ishlab chiqilgan bo'lib, unda asosiy strategik echimlar aniqlangan. Ular geologiya-qidiruv ishlarini kuchaytirishga, uglevodorod xom ashysini qazib olishni oshirishga, neft va gazni qayta ishlash tizimi, gazni tashishga yo'naltirilgan. Konsepsiyaviy qarorlar Respublika iste'molchilarini yoqilg'i-energetik resurslar bilan kafolatli ta'minlash va neft-gaz sohasi mahsulotlarini eksportini oshirishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasida qazib olinayotgan tabiiy gazning 60% ga yaqinini iqtisodiyot sohalari va xalq xo'jaligi ishlatadi, 40% dan ko'prog'i esa eksport qilinadi. Neft va kondensat qazib chiqarish-yillik umumiyligi hajmi kelajakda barqaror 8-10 mln. tonna qilib mo'ljallanib, O'zbekiston iste'molchilarini neftni qayta ishlash mahsulotlari bilan to'la ta'minlaydi va Respublikaning eksport potensialini oshiradi.



1.5-rasm. O'zbekiston Respublikasida uglevodorodli xom ashyonini qazib olish dinamikasi

1.2. Tabiiy gazni qayta ishlash va undan mahsulotlar ishlab chiqarish

Gazni qayta ishlash – Muborak gazni qayta ishlash zavodi (MGQIZ) va «Sho'rtanneftgaz» unitar shub'a korxonasini qayta ishlash qurilmasida hamda Sho'rtan gaz kimyo majmuasida (ShGKM) amalga oshiriladi. Muborak GQIZ da gazni qayta ishlash asosiy jarayoni quyi haroratlari separatsiyaga asoslangan bo'lib, tabiiy gaz tarkibidan suyultirilgan gaz, gazokondensati va oltingugurt ajratib olinadi. Ushbu zavodlarda har-yili 28 mlrd. m³ dan ortiq hajmda tabiiy gaz qayta ishlanadi. Ushbu quvvatlarni ushlab turish uchun kelajakda ma'naviy eskirgan qurilmalari o'rniغا yangi bloklarni kiritish istiqbolli rejalarini mo'ljallangan.

«Sho'rtanneftgaz» unitar shub'a korxonasi qayta ishlash qurilmasi gazni seolit yordamida oltingugurtli birikmalaridan tozalash texnologiyasiga asoslangan.

Sho'rtan GKM-yiliga 4,5 mlrd. m³ gazni qayta ishlashga, 125 ming tonna polietilen, 137 ming tonna suyultirilgan gaz, 130 ming tonna engil kondensat, hamda 4,2 mlrd. m³ tovar gaz va 4 ming tonna oltingugurt ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Tozalangan tovar gaz magistral gaz-transport tizimiga beriladi.

Sho'rtan GKM texnologiyasi 150 xilga yaqin yuqori. o'rta va chiziqli quyi bosim polietilenlarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan.

Sho'rtan GKM da ishlab chiqarilayotgan polietilen eksport uchun hamda polietilen asosida ishlab chiqarilgan buyumlarni eksport qilishga va Respublika ichki iste'molchilari uchun mo'ljallangan.

Ushbu majmua mahsuloti yangi ishlab chiqarishlarni rivojiga, pylonka ishlab chiqarish zavodi va kabel sanoati ehtiyojini qondirish uchun, to'qimali qoplarni tayyorlash korxonalarini tasma-iplar bilan ta'minlashga, oziq-ovqat va sanoat tovarlarini qadoqlash va boshqa-larga ishlatiladi.

Sho'rtan GKM ni ishga tushishi - O'zbekiston birinchi Prezidenti I.A Karimov tomonidan aniqlab berilgan strategik vazifalardan biri bo'lgan – Respublikaning xom ashyo resurslarini chuqurroq qayta ishlashni ta'minlaydi.

1.3. Neft va gaz kondensatini qayta ishlash, undan olinadigan mahsulotlar

Neft va gaz kondensatini qayta ishlash Respublikaning Farg'ona va Buxoro neftni qayta ishlash zavodlarida amalga oshiriladi. Farg'ona zavodi – yoqilg'i-moy yo'nalishida bo'lib, qayta ishlash quvvati yiliga 5,5 mln. tonnani tashkil qiladi.

Ushbu zavodda Markaziy Osiyo regionida analogi yo'q neft mahsulotlarining keng assortimenti ishlab chiqariladi. Neft mahsulotlari xalqaro standartlariga to'la mosdir. Xususan, chiqarilayotgan dizel yoqilg'isi eksportga yo'naltirilgan mahsulotdir.

Farg'ona NQIZ da boshqa davlatlarga eksport qilinadigan moylarning yangi turlari bo'lmish transmissiya, motor moylarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Buxoro NQIZ da xalqaro standartlarga javob beruvchi yuqori sifatlari benzin, dizel yoqilg'isi, aviakerosinlar ishlab chiqariladi.

Ishlab turgan neft zavodlarining umumiy quvvati yiliga 11,2 mln. tonna neft va gaz kondensatini qayta ishlab berishga moslashgan.

O'zbekistonning neft va gaz sanoati 2009-2012-yillar mobaynida hamma ishlab chiqarish va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha g'oyat muvafaqqiyatli o'sish sur'atlarini ko'rsatdi.

1.4. Neft va gazning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Yuqorida biz neft va gazning insoniyatga juda qadimdan ma'lum bo'lganligi xususida qisqacha to'xtalgan edik. Endi neft, gaz va ulardan olinadigan mahsulotlarning xalq xo'jaligida tutgan o'rni, ularga bo'lgan ehtiyojning ortishi sabablariga javob topishga harakat qilamiz.

1860-yilda dunyo miqyosida ishlatilgan energiyaning 74% o'tin va surragatlardan (yoqilg'ining sun'iy turlari: pista ko'mir, torf, yonuvchi slanes va boshq.) 24,7%- ko'mirdan va 1% - neftdan (tabiiy gaz bilan birga) olingan. Ko'rinish turibdiki, o'sha vaqtida neftning salmog'i umumiy energiya miqdorida juda kam, gazning ulushi esa deyarli yo'q bo'lgan. 1900-yilga kelib o'tin va surragatlar salmog'i 51,6% ni tashkil etadi, 43,9% esa ko'mirdan olindi, neftning salmog'i 3,6% ga etdi, yonuvchi gazniki esa 0,9% ni tashkil etdi. Shundan

so'ng energiya manbai sifatida ko'mirning salmog'i tez o'sa borib, 1910-yilda butun energiyaning 65% ko'mirga to'g'ri keldi, o'tin 16%, o'simlik va hayvonot chiqindilari - surragatlar 14%. neft 3% ni tashkil etdi. Tabiiy gazdan o'sha davrda foydalanimagan.

1930-yillarga kelib ahvol o'zgara boshladi, ko'mirning energiya manbai sifatidagi salmog'i 50% ga tushdi, neftning salmog'i 15% ga etdi, gaz ham ishlatila boshlandi va u 3% ni tashkil qildi. Qolganlari gidroenergiya, o'tin va surragatlarga to'g'ri keldi.

1970-yillarga kelib butun dunyo energiya balansida neft 34%, gaz 18% ni tashkil etdi, ko'mir 32%, o'tin 10%, energiyaning boshqa manbalari 6% ni tashkil etdi,

1998-yilda energiyaning manbalari quyidagicha taqsimlandi: neft-39%, gaz-22%, ko'mir-26%, gidroelektrostansiylar-7%, atom elekrostansiylari-6%. Ko'rinish turibdiki, neft va gaz energiya manbalarining 61% ini tashkil qilgan.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda neft va gaz butun jahon energiya balansining 75% ini, transportning esa 100% ini tashkil qilmoqda. Nima uchun neft va gaz keyingi vaqtarda butun jahon energetika manbai bo'lib kelmoqda, bunday ahvol davom etaveradimi yoki neft va gaz qachongacha boshqa yoqilg'ilar ichida asosiy mavqeni egallaydi?

Ushbu savollarga javob axtarmoq uchun, uning imkoniyatlarini solishtirish maqsadida 1 kg yonganda 7000 kkal energiya beruvchi yoqilg'ini «shartli yoqilg'i» deb qabul qilamiz va boshqa yoqilg'ilar energiyasini unga taqqoslasmiz:

Bunda: benzin 1 kg-1,49 shartli yoqilg'i;

Neftning o'zi 1 kg - 1,43 shartli yoqilg'i;

Mazut 1 kg - 1,37 shartli yoqilg'i;

Tabiiy gaz 1m³ ~ 1,17 shartli yoqilg'i;

Ko'mir 1 kg - 0,67 shartli yoqilg'i;

Torf 1 kg - 0,35 shartli yoqilg'i;

O'tin 1 kg - 0,27 shartli yoqilg'i; Ko'rinish turibdiki, boshqa yoqilg'ilarga nisbatan neft va gaz hamda uning mahsulotlari bir necha barobar ortiq energiya berish imkoniga ega ekan.

Neft va gaz qazib chiqarish ko'mir va torfga nisbatan osonroq, shu bilan birga ularni iste'molchilarga etkazib berish bilan bog'liq ishlar ham ancha qulay va arzon. Masalan: 1965-yilda Shebelino

gazkondensat konidan 24,6 mlrd. m³ gaz chiqarilgan (30 mln. tonna shartli yoqilg‘iga teng). Unda 162 nafar muhandis, 464 nafar texnik va ishchilar ishlagan. Shuncha quvvatga ega bo‘lgan ko‘mir yoqilg‘isini olish uchun esa 50 shaxta va 60000 ishchi kerak bo‘ladi. Ko‘mirga nisbatan neft qazib chiqarishdagi ish unumdorligi 6 marta, gazniki esa 55 marta ortiq. Neftning tannarxi ko‘mirnikidan 3-4 marta kam bo‘lsa, gazniki 33 marta kamdir. Boshqa yoqilg‘ini gaz bilan almashtirganda har 1000 m³ gaz davlatga katta foyda keltiradi. Neft qazib chiqarish va tashish uchun ketadigan harajatlar ko‘mirkiga nisbatan 1,7 marta, gazda esa 3,37 marta arzon tushadi.

Gazni sanoatda ishlatish ish unumdorligini oshiradi, sanoat chiqindilari hajmi o‘z-o‘zidan kamayadi. Masalan, mis erituvchi pechlarda ko‘mir o‘rniga gaz ishlatilganda energiya sarfi 25% ga kamayadi, unumdorligi 10-12% ga ortadi, mis chiqindilari 17% ga kamayadi.

Gazdan sanoatda, xalq xo‘jaligidagi va ma‘ishiy kommunal xo‘jalikda foydalanish juda ko‘p qulayliklarga ega. Avvalo, insonning turmush sharoitlari yaxshilanadi, shaharlarning ozodaligi ta‘minlanadi, ekologik sharoitlar yaxshilanadi. Masalan, oila sharoitida 1000 m³ gazni ishlatilishida mamlakatimiz aholisi o‘rtacha foyda ko‘radi.

Demak, neft va gaz yoqilg‘isi turli energiya manbalariga nisbatan ham qulay, ham arzon va ekologik jihatdan foydal ekan.

Neft qazib chiqarishning XX asr mobaynida o‘sish va rivojlanishini jadvalda keltiramiz (1.1-jadval). Undan ko‘rinib turibdiki, 1900-yilda, ya’ni asr boshida neft chiqarish atigi 20 mln. tonna atrofida bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1950-yillarda 520 mln. tonnaga etgan, ya’ni 1900-yildagi miqdordan 26 marta oshgan, asr oxiriga kelib esa bu ko‘rsatkich deyarli 3,6 mlrd tonnaga etdi yoki asr boshidagidan 180 marta oshganligini ko‘ramiz. Dunyo miqyosida gaz qazib chiqarishning ko‘lami neftdan ortiq bo‘lib, katta odimlar bilan rivojlanmoqda.

Ma’lumki, neft va gaz faqat yoqilg‘i energetika manbai sifatida emas, balki kimyo sanoatining xom ashyosi sifatida ham juda katta ahamiyatga ega.

Chunonchi, tabiiy gaz va neft bilan birga chiqadigan yo‘ldosh gazlardan: etan, etilen, polietilen, etil spirti, atsetilen, propan,

propilen, polipropilen, plastik massalar, butan, butilen, izobutan, butadien, sintetik kauchuk, benzol, atseton, turli eritmalar: fenol, fenolformaldegid qatrlari, fenolformaldegid, plastifikatorlar, sun'iy tolalar, oltinguturt, qorakuya va yana ko'plab mahsulotlar olinadi. Hozirgi kunda gazdan olinayotgan mahsulotlarning turlari kundan kunga ortib bormoqda.

Gazdan olinayotgan mahsulotlar oyna va po'latning, jun va ipakning, yog'och va donning o'rnnini bosmoqda. 1 tonna sintetik kauchuk olish uchun 2 tonna etil spiriti yoki 9 tonna don yoki 22 tonna kartoshka yoki 30 tonna qand lavlagi kerak bo'ladi. Ushbu mahsulotlarni 5 tonna suyultirilgan gazdan ham olish mumkin, uning tannarxi esa boshqa mahsulotdan olinganga nisbatan ancha arzon. Bunday qulaylik boshqa moddalar olishda ham kuzatiladi. Chunonchi, ammiak olishda 1000 m^3 gaz ishlatalganda 1,69 \$, metanol olishda 2,11 \$, atsetilen olishda 0,44 \$ foyda keltirishi mumkin. Gaz kondensatlaridan ham xalq xo'jaligi uchun ko'plab foydali mahsulotlar: (benzol, toluol, ksilol)lar, rangsiz yoqilg'ilar (benzin, ligroin), sintetik kauchuk uchun mahsulot (izobutan, izopropan) olinadi.

1.1-jadval

Dunyo mamlakatlarida neft qazib chiqarishning o'sish ko'rsatkichlari

Mamlakatlar, qit'alar	Neft qazib chiqarilgan-yillar va miqdori										
	1900	1910	1920	1930	1940	1950	1960	1970	1980	1990	2000
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Shimoliy Amerika	8,467	28,67	60,58	123,2	186,5	274,3	370,7	556,4	859,9	898,7	-
AQSh	8,334	28,63	60,55	123,0	185,4	270,3	345,0	474,2	682,2	443	291,2
Kanada	0,113	0,043	0,026	0,02	1,7	3,97	25,7	60,36	60,9	99,7	100,0
Meksika									105,8	156,0	152,5
Venesuela			0,6	18,69	25,34	74,8	151,0	193,2	112,8	119,0	152,0
Yaqin va O'rta Sharq			1,57	6,39	14,16	87,8	268,6	692,9	852,8	898,5	109,0
Saudiya Arabistonni					0,69	27,4	61,5	179,8	496,3	410,0	403,2

Eron			1,67	6,27	9,08	33,2	52,0	197,7	76,0	166,0	178,4
Iraq				0,12	3,31	6,81	48,0	76,8	132,6	15,1	159,1
Quvayt						17,22	84,0	137,3	83,4	9,4	80,7
Liviya								159,2	85,9	76,6	70,4
Nigeriya							0,8	53,42	101,8	97,3	99,6
Indone-ziya	0,425	1,6							78,5	78,8	69,0
Buyuk Britaniya									80,5	93,1	126,9
Norvegiya									24,4	93,5	160,8
Xitoy									106,1	139,0	169,8
Rossiya	9,927	9,6	3,8	18,4	31,1	37,8	148,0	358,0	603,2	515,0	317,6
O'zbekiston	.									1,247	7,570
Dunyo bo'yicha	19,8	44,78	93,5	220,0	294,0	520,0	1154	2267	3082	3225	3455,0

II BOB. NEFT, TABIIY GAZLAR VA GAZOKONDENSATLAR

2.1. Neft, gaz, gazokondensatlar va ularning xossalari

Neft va gaz geologiyasi fani oldida turgan asosiy vazifalardan biri neft uyumining ichki tuzilishini, shuningdek, neft qatlamining gaz, kondensat va suvga to‘yinganligini o‘rganishdir.

Neft, gaz va gazokondensatlar uglevodorod aralashmalaridan iborat bo‘lib, tarkibi asosan uglerod va vodorod elementlaridan tarkib topgan.

Tabiiy sharoitda uglevodorodlar o‘zining fizik holati bo‘yicha; CH_4 dan C_4H_{10} gacha gazlar, C_5H_{12} dan $\text{C}_{16}\text{H}_{34}$ gacha suyuqliklar, $\text{C}_{17}\text{H}_{36}$ dan $\text{C}_{56}\text{H}_{114}$ gacha qattiq uglevodorodlardan iboratdir. Qattiq holatdagi uglevodorodlar parafin, serezin kabi moddalarni tashkil qiladi.

Neftning kimyoviy va izotop tarkibini o‘rganish, er qa’rida uning kimyoviy jarayonlar ta’sirida o‘zgarishini tushunish uchun ahamiyatlidir.

Neftni tekshirish davomida qo‘yidagilar aniqlanadi:

- neftning kimyoviy element tarkibi;
- guruhli tarkib, ya’ni neftning turli sinf yoki guruh birikmalari;
- birikmalarning individual kimyoviy tarkibi va neftning izotop tarkibi yig‘indisidan iboratdir.

Uglevodorodlarning qaysi qatorda ko‘p yoki ozligiga qarab, ularni tasnifi tuzilgan. Quyida neftning uglevodorod tarkibiga qarab guruhli tasnifi berilgan. Bu tasnifga asosan neft oltita sinfga bo‘linadi:

1) metanli (Me); 2) naftenli-metanli; 3) naftenli (Na); 4) metanli-naftenli-aromatik; 5) aromatik-naftenli; 6) aromatik (Ar).

Oltinchi sinfdagi neft tabiatda kam uchraydi.

Neft shamol ta’sirida sekin-asta tarkibidagi engil bug‘lanadigan uglevodorodlar yo‘qoladi. Natijada ularning o‘mini smola va asfaltenli birikmalar egallaydi va ularning miqdori ortadi. Burg‘ulash jarayonida smolali birikmalarining zichlashishi, oksidlanishi va

qattiq massaga aylanishi mumkin. Bunday o'zgarishlar natijasida maltalar hosil bo'ladi.

Ma'lta-quyuq, yopishqoq, kislород va oltingugurtga boy modda bo'lib, qora neftga o'xshaydi, zichligi birga yaqin, ba'zida undan ham ortiq. Keyinchalik o'zgarishi natijasida u asfaltga aylanadi.

Parafinli neftlardan ozokerit minerali hosil bo'ladi. U tashqi ko'rinishidan asal arining mumiga o'xshaydi, shuning uchun ko'pincha tog' mumi yoki mineral mum deyiladi.

Ozokerit-asosan qattiq, qisman suyuq va gaz holatidagi parafin qatoridagi (C_nH_{2n+2}) uglevodorodlar aralashmasidan iborat.

Uni quruq haydash natijasida quyidagi miqdorda (%) mahsulot olish mumkin: benzin- $3,67 \div 4,32\%$; kerosin- $5,67 \div 23,63\%$; parafinlar- $56,84 \div 82,33\%$; smola-2%; gaz va koks-6%. Ozokerit kimyoiyi tarkibi jihatidan parafinli nest tarkibiga yaqin: uglerod $84,0 \div 86,0\%$ ni, vodorod $13,7 \div 15,3\%$ ni tashkil qiladi.

Agarda ozokeritni tarkibida asfaltenli birikmalar bo'lsa, unda kislородning miqdori $4 \div 5\%$ ga etadi. Ozokerit tarkibidagi suyuqlik va gazlar miqdoriga qarab qattiq, mo'rtdan to moysimongacha bo'lishi mumkin. Uning zichligi $0,90 \div 0,94 \text{ g/sm}^3$ gacha o'zgaradi. Ozokerit suvda erimaydi, ammo har xil smola, benzin, neft, xloroformda yaxshi eriydi. Eritmasi yashil rangli fluoressensiya (nurlantirilganda yaltirab ko'rindi) beradi. Ozokerit yaxshi dielektrik xususiyatiga ega, tez yonadi va yorqin tutunli alanga beradi.

Ozokeritdan sanoatda qimmatbaho mahsulot-serezin olinadi. Serezin ozokerit yoki neftdan olingan qattiq uglevodoroddir. Uni formulasi $C_{37}H_{76}$ dan $C_{53}H_{108}$ gacha. U yomon kristallanadi, odatda amorf yoki mayda kristall holida bo'ladi. O'zbekistonda ozokerit koni Farg'ona vodiysida Sho'rsuv maydonida eosen qatlamlarida ochilgan. Dunyoda eng katta ozokerit koni Borislav konidir. Bundan tashqari Farg'ona vodiysida Moylisoyda, Baykal ko'li atrofida, Shimoliy Kavkazda (Maykop rayonida), Gruziyaning Lexidari shahrida, AQSh ning Yuta va Texas shtatlarida, Meksikaning Chixuaxua shahrida, Vengriyaning Penora maydonida, Ruminiyaning Slavniki va Sitrizini konlari atrofida ochilgan.

Kimyoiyi tarkibi jihatdan ozokeritga yaqin va unga o'xhash minerallar toshko'mir konlariда uchraydi. Bularga moysimon, yarim suyuqlik holatidagi xrizamatit minerali misol bo'la oladi. U Saksoniya

(Germaniya)ko'mir konlarida topilgan. Angliya va Vengriyadagi ko'mir konlarida Urietit minerali topilgan. Tabiatda aniq kristall tuzilishga ega bo'lgan mineralogik birikma ko'rinishida parafin uchraydi, uni gatchetitlar deyiladi. Gatchetitlar Polsha, Vengriya, Angliya, Belgiya va boshqa mamlakatlarda uchraydi.

Neft va yopishqoq bitumlar guruhi naftoidlar ham kiradi.

Naftoidlar deb otqindi (mamatik) tog' jinslarida uchraydigan neftsimon tomchi suyuqliklarga aytildi. Genetik jihatdan organik moddali Lokal termik jarayonda qayta haydalganda hosil bo'ladi. Naftoidlar keng tarqalgan bo'lishiga qaramay amaliy ahamiyatga ega bo'lmagan kam miqdorda uchraydi. Ular Gruziyada, Bolgariyada, Skandinaviya yarim orollarida, Janubiy va Shimoliy Amerikada va boshqa joylarda mavjud.

Parafinli uglevodorodlar yoki alkanlarning umumiyligi formulasi – S_nN_{2n+2} . Bular to'yangan uglevodorodlar ham deyiladi. Alkanlar normal tuzilishga (misol uchun $CH_3-CH_2-CH_2-CH$ butan) va tarmoqlangan tuzilishga (masalan, : $CH_3-CH-CH_3$ izo - butan ega bo'ladilar.

Oddiy a'zolari o'z molekulasida birdan beshgacha uglerod atomidan tashkil topgan uglevodorodlar normal haroratda gaz hisoblanadi. Uglevodorodlarning beshdan o'n beshgacha uglerod atomidan tashkil topganlari suyuq va undan yuqorilari qattiq holatda bo'ladilar.

Parafin - metan - alkan - to'yangan uglevodorodlar vakili.

Parafinli utlevodorodlar reaksiyaga juda kam kirishishi bilan ajralib turadi, kimyoviy jihatdan turg'un. Naftenli (polimetilen) uglevodorodlar yoki sikloalkanlar.

Umumiyligi formulasi C_nH_{2n} , uglerod atomi o'z sikliga uchta yoki ko'proq metilen guruhlarini biriktirib olishi mumkin. Neftlarda uglevodorodlarning C_5 va C_6 siklli tuzilmalari keng tarqalgan.

O'zlarining, kimyoviy xususiyatlari bo'yicha naftenli uglevodorod alkanlarga yaqin. Naftenli uglevodorodlarning muhim xususiyatlaridan biri, ularning izomerlanish xususiyatiga egaligidir. Katalitik va termik jarayonlar ta'sirida olti a'zoli sikllar tizimi besh a'zoliga oson o'tadi. Masalan: siklogeksanni metilsiklopentanga o'tishi shular jumlasidandir.

Aromatik utlevodorodlar (arenlar). Ularning oddiyalarini umumiyligi ifodasi C_nH_{2n-6} va o'zining tarkibi benzol aromatik yadrosi

deb ataluvchidan tarkib topgan. Bu birikmalar ancha mustahkam. Shuningdek, ular yuqori reaksiyon faollikka ega (albatta, metanli va naftenlilarga nisbatan); ular ancha engil ajralishi mumkin.

Arenlar yuqori erish qobiliyatiga ega bo'lib, cheklanmagan miqdorda bir-birida va boshqa erituvchilarda eriydilar.

Yuqorida keltirilgan uglevodorod birikmalarini nefting asosiy massasini tashkil etadi. Holbuki, ulardan tashqari neft tarkibida smola va asfalten, kislород va oltingugurt ham uchraydi. Ayrim hollarda smola va asfalten miqdori 10-20% gacha etadi. Nefting qoraligi, uning zichlik va qovushqoqlik kattaliklarini, shuningdek, unda engil fraksiyalarining kamligini tavsiflaydi.

Nefting oksidlanish jarayoni tabiatda ancha keng tarqalgan. Nefting oksidlanishi to'yingan qatlama yuzaga chiqqanida kislород bilan o'zaro reaksiyaga kirishishi natijasida sodir bo'ladi. Bundan tashqari neft uyumiga erigan kislородли va sulfatdan tashkil topgan infiltrasion suvlarning singishi natijasida, shuningdek, suv-neft urulashmasini yuzasi chegaralarida sulfit va oksidlangan uglevodorodlarni tiklash yuzaga kelishi mikroorganizmlar ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Nefting fizik-kimyoviy xossalari boshqa jarayonlar ta'sirida (parchalanish, siriqish, oltingugurtlanish) ham o'zgarishi mumkin. Shunday qilib, nefting turliligi uning ikkilamchi o'zgarishi bilan uzviy bog'liqidir.

Ayrim tadqiqotchilarining fikricha, nefting qayta tuzilishida oksidlanish jarayoni asosiy ahamiyatga ega. Boshqa bir guruhi tadqiqotchi-olimlarning fikricha, tiklanish (qaytarilish) jarayoni asosiy ahamiyatga egadir. Biroq G.A. Amosov, N.V. Vassoevich, A.A. Karsevlar o'tkazgan tadqiqotlar neft fizik-kimyoviy xossalarining o'zgarishiga tabiatda oksidlanish va qaytarilish jarayonlarining (ma'lum bir geologik va geokimyoviy sharoitlar bilan bog'liq) ta'siri juda katta ekanligini ko'rsatadi.

Nefting fizik-kimyoviy xossalari haqida shuni aytish lozimki, bu hodisalar faqat ikkilamchi hodisalar bilan bog'liq emas.

I.M. Gubkin neft xossalaring turliligini birlamchi sabablar bilan tushuntiradi. Organik moddalar tarkibida nefting hosil bo'lishidagi geokimyoviy sharoit va neft-gaz hosil qiluvchi jinslarning litologik xususiyatlariga ham bog'liq.

Asfalt-mum aralashmalar ba'zan neft tarkibining 40% ini tashkil qilishi mumkin. Kimyoviy tarkibi bo'yicha bu moddalar yuqori molekulyar organik birikmalardan iborat bo'lib, tarkibi uglerod, vodorod, oz bo'lsada kislorod, oltingugurt va azotdan tashkil topgan. Bu aralashmalar ko'proq neytral mumlardan tashkil topgan bo'lib, oddiy holatda suyuq yoki yarim suyuq holatda bo'ladi. Rangi to'q sariqdan-jigarranggacha o'zgarib, zichligi 1000-1070 kg/m³ ni tashkil qiladi. Rangi to'q bo'lishi asosan neytral mumlarning ko'pligidan dalolat berib turadi. Neytral mumlar juda yaxshi adsorbsiyalanadi va asfalten holatiga o'tadi.

Qattiq parafinlarga uglevodorodlarning C₁₈H₃₈ dan C₃₅H₇₂ gacha bo'lган qismi kiradi. Ularning erish harorati 27÷71°C ni tashkil etadi. Parafinlar neft harakatlanayotgan vaqtida, termodinamik sharoitlar o'zgarishi natijasida, mayda plastiksimon kristall holdagi tasmachalar hosil qiladi. Bu tasmachalar o'zaro birlashib har xil tugunchalar hosil qilishi mumkin. Bu jarayonlar natijasida parafin moddalari neftdan ajralib chiqqa boshlaydi. Ayniqsa, ajralib chiqish jarayoni neft qudug'i ichida yoki yig'uvchi quvurlar ichida kuchayadi va natijada quvurlarning ichki yuzasiga parafin moddalari yopishib qolib neft harakatini qiyinlashtirib, oqibatda umuman suyuqliqni harakatini to'xtatib qo'yishi mumkin. Parafinlar neft tarkibida 1,5-2,0% bo'lsa, quvurlar ichida ajralib chiqishi boshlanadi, ayniqsa, bu jarayon neft haroratining pasayishi va undan erigan gazlarning ajralib chiqishi bilan keskin tezlashadi.

Neft tarkibidagi serezinlarga uglevodoroddar qatoridagi eng og'ir birikmalar, ya'ni C₃₆H₇₄ dan yuqoridagilari kiradi. Serezinlarning erish harorati 65÷88°C ni tashkil etadi. Neftga nisbatan serezinlarning zichligi va qovushqoqligi ancha kattadir. Serezinlarning kristallanish jarayoni juda kichik ignasimon kristall zanjirlardan boshlanadi. Ammo bu ignasimon kristallar bir-biri bilan o'zaro birlashmaganligi sababli, qotib qoluvchi moddalar hosil qilmaydi va neft harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Neftning tarkibida qatlama holatida albatta qandaydir miqdorda erigan gaz bo'ladi. Neft harakatga kelgandan keyin esa, ayniqsa, quduq ichiga kirgandan keyin erigan gaz ajralib chiqqa boshlaydi.

Neftlarni tarkibidagi parafin miqdoriga qarab quyidagicha guruahlarga ajratish mumkin:

- 1) kam parafinli, bunda parafin miqdori 1,5% gacha bo'lishi mumkin;
- 2) parafinli, bunda parafin miqdori 1,5÷6,0% gacha bo'lishi mumkin;
- 3) ko'p parafinli, bunda parafin miqdori 6,0% dan yuqori bo'lishi mumkin.

Nestlarni tarkibida oltingugurt miqdoriga qarab quyidagicha sinflarga ajratish mumkin:

- kam oltingugurtli, bunda oltingugurt miqdori 0,5% gacha bo'lishi mumkin;
- oltingugurtli, bunda oltingugurt miqdori 0,5÷2,0% gacha bo'lishi mumkin;
- ko'p oltingugurtli, bunda oltingugurt miqdori 2,0% dan yuqori bo'lishi mumkin.

Agarda nest tarkibidagi oltingugurt miqdori 0,5% dan yuqori bo'lsu, u holda bunday nestlar tarkibidagi oltingugurt sanoat ahamiyatiga ega bo'lib, undagi oltingugurt ajratib olinadi.

Nestlarni tarkibida mum miqdoriga qarab quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) kam mumli, bunda mumning miqdori 5% gacha bo'lishi mumkin;
- 2) mumli, bunda mum miqdori 5-15% gacha bo'lishi mumkin;
- 3) ko'p mumli, bunda mumning miqdori 15% dan yuqori bo'lishi mumkin.

Yuqori mumli nestlar tarkibidagi noyob metallar (vannadiy, titan, nikel va boshqalar) ayrim hollarda sanoat ahamiyatiga ham ega bo'lishi mumkin.

Neftning fizik xossalari

Neftning asosiy fizik xossalariiga uning zichligi, qovushqoqligi, sirt taranglik kuchlari, neftning qotishi va erishi, issiqlik beruvchanlik xususiyatlari, siqiluvchanligi, reologik xususiyati, elektr xususiyati, molekulyar massasi, neftning issiqlikdan kengayish xususiyatlari, hajm koeffitsiyenti, neftning kirishishi, neftni to'yinganlik bosimi, issiqlik xossalari, optik xususiyatlari va boshqa xossalari kiradi.

Quyida nefting fizik ko'rsatkichlarini yaxshi tushuntirish maqsadida 2.1-2.4-jadvallar orqali O'zbekiston neft konlari hududlaridagi neftlarning fizik xossalarini ko'rsatkichlari berilgan.

2.1.2. Tabiiy gazlar

Tabiiy gazlar asosan metandan tashkil topgan ($80\div95\%$), qolgani metan gomologlaridan—ozroq miqdorda etan, propan, butan va ayrim hollarda juda oz miqdorda pentandan iborat. Metan— rangsiz, hidsiz va havodan engil gaz. Chuqurlikda hosil bo'lgan metan gazidan yuzada paydo bo'ladigan metan izotop tarkibi bo'yicha bir-biridan tubdan farq qiladi.

Tabiiy gazlar – uglevodorodlar va uglevodorod bo'limgan birikmalardan tashkil topgan aralashmadir. Ular qatlamlarda gaz holda yoki neft va suvda erigan holda uchraydi.

Tabiiy gaz – gaz konlaridan olinadigan gazlarning umumiyo ko'rnishi C_nH_{2n+2} ifodasi bilan aniqlanib. metan gomologlari qatoridan tashkil topadi. Tabiiy gaz tarkibida uglevodorodlardan tashqari boshqa gazlar—azot (N_2), uglerod (IV) oksidi (CO_2), vodorod sulfid (H_2C), merkaptanlar shuningdek, inert gazlar; argon (Ar), geliy (Ne), kripton (Kr), ksenon (Xe) bo'lishi mumkin, merkaptanlar (ba'zan tiospirtlar deyiladi) juda o'tkir, o'ziga xos hidi bilan ajralib turadi.

2.1-jadval

Buxoro-Xiva viloyatidagi neftgaz konlar neftlarining fizik ko'rsatkichlari

Konlarning nomi	Uyum yoki gorizont	Zichligi, g/sm ³	Qovush-qoqligi, mPa·s	Neftni qayta hisoblash koefitsiyenti, %
1	2	3	4	5
G'arbiy Toshli	XIII-gorizont	0,984	6	0,909
G'arbiy Toshli	XVa-gorizont	0,894	1,6	0,909
G'arbiy Yulduzqoq	XII-gorizont	0,870	1,30	0,654

G'arbiy Yulduzqoq	XVa-gori-zont	0,851	1,7	0,740
Ianubi-G'arbiy Yulduzqoq	XIIIb-gori-zont	0,776	0,35	0,600
Sharqi Toshli	XII-gori-zont	0,911	5	0,819
Sharqi Toshli	XIII-gori-zont	0,901	8,8	0,819
Sharqi Toshli	XV-gori-zont	0,894	4,1	0,73
Shimoliy O'rtabuloq	XV-gori-zont	0,887	2,7	0,84
Jarqoq	XIII-gori-zont	0,826	1,23	-
Jarqoq	XV-gori-zont	0,841	1,35	-
Oqjar	XV-gori-zont	0,878	5,28	-
Oqjar	XVI-gori-zont	0,912	5,28	-
Gazli	XIII-gori-zont	0,821	0,64	-
Qorovulbozor-Saritosh	XIII-gori-zont	0,776	1,16	-
Qorovulbozor-Saritosh	XV-gori-zont	0,893	2,40	-
Umid	XV-gori-zont	0,891	1,17	0,909
Sho'rchi	XV-gori-zont	0,878	1,72	-
Sho'rchi	XVI-gori-zont	0,895	1,70	-
Sho'rchi	XVII-gori-zont	0,881	1,70	-
Quruq	XVHP+X VPR-g	0,866	1,28	0,91
Qoraxitoy	XV-gori-zont	0,881	2,10	-

Surxondaryo viloyatidagi neftgaz konlar neftlarining fizik ko'rsatkichlari

Konlarning nomi	Uyum	Zichligi, g/sm ³	Qovush-qoqligi, mPa·s	Neftni qayta hisoblash koeffitsiyenti birlik ulushida, %
1	2	3	4	5
Lalmikor	I-IV-gorizont	0,9	3,5	0,882
Kokaydi	I+II+III-gor.	0,94	129	0,841
Xaudag	I-IV-gorizont	0,945	40	0,89
Amudaryo	I+II+III-gor.	0,98	30	0,97
Qoshtar	I+II+III-gor.	0,98	30	0,95
Mirshodi	I+II+III-gor.	0,963	63,5	0,932

Farg'onada viloyatidagi neftgaz konlar neftining fizik ko'rsatkichlari

Konlarning nomi	Uyum	Zichligi, g/sm ³	Qovush-qoqligi, mPa·s	Neftni qayta hisoblash koeffitsiyenti, %
1	2	3	4	5
Tergachi	KKS	-	1,6	0,805
Tergachi	V-gorizont	0,829	1,6	0,91
Tergachi	VII-gorizont	0,837	1,6	0,835
Kosonsoy	III-gorizont	0,825	1,24	0,9
Polvontosh	BRS+I+III-gor.	0,843	5	0,9
Polvontosh	IV+V+VI-gor.	0,853	4	0,9

Polvontosh	VII+VIII-gor.	0,853	4	0,91
Andijon	KKC+I-gor.	0,865	3	0,9
Andijon	V-gorizont	0,837	2,2	0,873
Andijon	VII-gorizont	-	-	0,935
Janubiy Olamushuk	Ia+l-gorizont	0,83	2,5	0,85
Janubiy Olamushuk	Ib-gorizont	0,84	2,5	0,85
Janubiy Olamushuk	KKC	0,843	2,3	0,88
Janubiy Olamushuk	III-gorizont	0,86	4	0,92
Janubiy Olamushuk	V+VI+VII-gor.	0,853	1,48	0,92
Janubiy Olamushuk	XVIII-gorizont	0,858	2,35	0,9
Janubiy Olamushuk	XIX+XXII-gor.	0,815	1,2	0,9
Shaxixon Xo'jaobod	BRS+I-gor.	0,855	3	0,985
Shaxixon Xo'jaobod	III-gorizont	0,863	4,8	0,909
Shaxixon Xo'jaobod	XX+XXII-gor.	0,809	0,9	0,7
Shaxixon Xo'jaobod	XXIII-gor.	0,83	0,8	0,85
Shaxixon Xo'jaobod	XXVIII-gor.	0,83	0,8	0,84
Xo'jaobod	III-gorizont	0,875	4,8	0,7
Xo'jaobod	VII-gorizont	0,830	4,0	0,76
Xo'jaobod	VIII-gorizont	0,858	6,05	0,7
Bo'ston	Ia+I+KKC	0,86	2,3	0,85
Bo'ston	III-gorizont	0,854	3,44	0,85
Bo'ston	XXX-gorizont	0,851	9,34	0,82
Xodji-Osmon	XVIII-gorizont	0,802	1,2	0,92

Xartum	III-gorizont	0,857	3,3	0,07
Xartum	VI-gorizont	0,865	0,87	0,90
Xartum	VIII-gorizont	1,19	0,09	0,826
Xartum	XXII-gorizont	0,836	1,2	-

Tabiiy gaz konlaridan chiqadigan gazlar tarkibining 90-98% ini metan tashkil qiladi. Gazlar tarkibida to'yingan uglevodorodlardan tashqari, to'yinmagan uglevodorodlar ham bo'lishi mumkin.

Gazlar tarkibidagi nietan va og'ir uglevodorodlarga qarab quruq (qashshoq) va moyli (boy) gazlarga bo'linadilar. Agar gazlar tarkibida metan ko'p bo'lsa, quruq va aksincha kam bo'lsa, moyli deyiladi. Misol uchun Shebelin, Shimoliy Stavropol, Gazli konlarining gazlari tarkibini 97% gacha metan tashkil qiladi.

Tabiiy gazlar qanday uyumlardan olinayotganiga qarab, quydigicha tavsiflanadi:

1) Sof gaz konlaridan olinadigan tabiiy gazlar. Bu gazlarda hech qanday suyuq holatdagi uglevodorod bo'lmaydi va ular quruq gazlar hisoblanadi.

2) Neft bilan birga olinadigan yo'ldosh gazlar. Yo'ldosh gazlar tarkibida metan kamroq miqdorda, lekin etan, propan, butan va yuqori uglevodorodlar ko'p bo'ladi.

Neft bilan birga olinadigan gazlar quruq, yarim yog'li va yog'li guruhlarga bo'linadi. 1 m³ quruq gazlar tarkibida benzin miqdori 75 g ga to'g'ri keladi. Bunday gazlarning nisbiy zichligi (havoga nisbatan) 0,75g/sm³ da bo'ladi. Yarim yog'li gazlar tarkibida benzin miqdori 75-150 g ni tashkil etadi. Nisbiy zichligi 0,9÷1,0 g/sm³. Yog'li gazlar tarkibida benzin miqdori 150 g dan yuqori bo'ladi va uning nisbiy zichligi 1,15÷1,40 g/sm³ gacha etishi mumkin.

3) Gaz-kondensat konlaridan olinadigan gazlar. Bu gazlar quruq gazlar bilan suyuq holatdagi kondensatlar aralashmasidan iborat bo'ladi.

Avval aytib o'tganimizdek, gazlar tarkibida vodorod sulfid bo'ladi. Vodorod sulfid (H_2S)-undan palag'da tuxum hidi keladigan juda zaharli gazdir. Odatda tarkibida vodorod sulfid bo'lgan gaz konlarini ishlatalish ancha murakkablashadi, chunki olinayotgan gaz

tarkibida qancha vodorod sulfid bor ekanligini oldindan bilish taqozo etadi.

Tabiiy gazlar vodorod sulfid bo'yicha ham o'z tasnifiga egadir. Faqat bu tasnif vodorod sulfid bo'yicha aytilmasdan, balki oltingugurt miqdori bo'yicha yoritiladi:

1) oltingugurtsiz tabiiy gazlar, bunda vodorod sul'fid 0,001% hajmgacha bo'lishi mumkin;

2) kam oltingugurtli gazlar, tarkibida 0,001% dan 0,3% gacha vodorod sulfid bo'lishi mumkin;

3) o'rtacha miqdordagi oltingugurtli gazlar, bunda vodorod sulfid 0,3% dan 1,0% gacha bo'lishi mumkin;

4) yuqori miqdordagi oltingugurtli gazlar, bunda vodorod sulfid 1,0% dan ko'proq bo'lishi mumkin.

Bu tasnisiga qarab konlardagi gaz tayyorlash inshoatlari ham har xil bo'ladi. Oltingugurtsiz va kam oltingugurtli gaz konlarida oltingugurtni tozalovchi inshoatlar qurilib, tabiiy gaz oltingugurtdan to'la tozalanib, undan sof holdagi oltingugurt ajratib olish mumkin.

Agar tabiiy gaz tarkibida oltingugurt qolib, iste'molchilarga shu holda etkazilsa, zaharlanish mumkin, hatto portlash hodisalari ham bo'lishi mumkin.

O'zbekistondagi Qultog', Pomuk, Zevardi, Sho'rtan, Olan kabi konlar o'rtacha miqdordagi oltingugurtli konlarga O'rtabuloq, Dengizko'l, Kandim kabi konlar o'ta yuqori oltingugurtli konlarga kiradi. Ulardan olinayotgan tabiiy gazlardan, asosan Muborak gazni qayta ishslash va Sho'rtan gazni tozalash zavodlarida sof oltingugurt ajratib olinmoqda.

Tabiiy gazlar tarkibida 0,05% dan yuqori geliy bo'lsa, uni ham ajratib olinishi shart. Chunki geliy xalq xo'jaligining juda ko'p tarmoqlari uchun ishlatiladi.

Tabiiy gazlarning asosiy fizik xossalari – uning molekulyar massasi, namlik miqdori, zichligi, siqiluvchanlik, qovushqoqligi, kritik parametrlari kiradi. Tabiiy gazlarning asosiy fizik va kimyoviy xossalari 2.4-jadvalda berilgan.

Gazokondensatlar

Kondensatlar – tabiiy holatda qatlama suyuq bo'lgan eng engil uglevodorodlardir. Bularga pentan (normal va izomer holda), geksan, geptan kabi engil uglevodorodlar kiradi. Kondensatlar gazokondensat konlarida tabiiy gaz tarkibida erigan holda uchraydi.

Kondensatlarning qanday holda ekanligiga qarab beqaror va barqaror kondensatlarga bo'linadi. Beqaror kondensat qatlamdag'i yoki kondensatlarni ajratib oladigan asbob-uskunalargacha bo'lgan harakatdag'i gazzarda erigan kondensatlarga aytildi.

2.4-jadval

Tabiiy gazlar tarkibidagi asosiy birikmalarning fizik va kimyoiy xossalari

Ko'rsatkichlar	Metan	Etan	Propan	Izobutan	Normal butan	Izopenitan	Normal pentan	Geksan	Uglerod (IV) oksidi	Vodorod sulfid	Azot	Suv bug'i
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
Kimyo-viy formulasi	CH ₄	C ₂ H ₆	C ₃ H ₈	i-C ₄ H ₁₀	n-C ₄ H ₁₀	i-C ₅ H ₁₂	n-C ₅ H ₁₂	C ₆ H ₆	CO ₂	H ₂ S	N ₂	H ₂ O
Molekulyar massasi	6,04	30,07	44,097	58,124	58,124	72,151	72,151	86,178	44,011	34,082	28,016	18,016
Uglerod miqdori, %	74,9	79,96	81,80	82,7	82,66	83,23	83,23	83,6	27,29	-	-	-
Gaz doimiyisi, j/kg °K	21	78	89	43	43	15	15	6	89	45	97	63

Eriish harorati, $^{\circ}\text{S}$, 760 mm s.u.b.o ⁺ .	182,5	172,5	187,5	145,0	135,0	160,6	129,7	95,5	56,6	82,9	209,9	0
Qay- nash harorati, $^{\circ}\text{S}$, 760 mm s.u.b.o ⁺ .	161,3	88,6	42,2	10,1	0,5	8,0	6,2	9,0	78,5	61,0	195,8	100
Kritik par- metrlari harorat, $^{\circ}\text{K}$	90,5	90,0	69,6	94,0	20,0	60,8	70,2	97,8	94,5	73,5	26,0	647,3
Mutloq bosim	4,7	4,9	4,3	3,7	3,8	3,3	3,4	3,9	7,5	9,2	3,5	22,5
Gazning zichligi, $^{\circ}\text{S}$, 760 mm s.u.b.o ⁺ . kg/m^3	0,717	1,144	1,967	2,598	2,598	3,220	3,220	3,880	1,977	1,539	1,251	0,805
Havoga nisbatan nisbely zichligi	0,944	1,038	1,523	2,007	2,007	2,488	2,488	2,972	1,520	1,191	0,970	0,622
Solish- tirma hajmi, $^{\circ}\text{S}$, 760 mm s.u.b.o ⁺ . m^3/kg	1,400	0,746	0,510	0,385	0,385	0,321	0,321	0,258	0,506	0,650	0,799	1,248
Suyuq holat- dagi	416	546	5585	600	6625	637	664	625	950	634	634	1,0

zichligi $^{\circ}\text{S}$, 760 mm s.u.b.o'. va qay- nash haro- ratida kg/m^3												
Solish- tirma issiqlik sig'imi, $^{\circ}\text{S}$, 760 mm s.u.b.o'.	2220	1729	1560	1490	1490	1450	1450	1410	842	1060	1040	2000

Barqaror kondensat deb, maxsus kondensat ajratib oluvchi asbob-uskunalarda ajratib olingen tayyor holdagi mahsulotga aytildi.

Shuni ham aytish kerakki, qatlama ichida boshlangan gazo-kondensat harakati, to u kondensat ajratuvchi asbob-uskunalarga borguncha juda murakkab jarayonlardan o'tadi. Bu jarayonlar erigan holdagi kondensat boshlang'ich termodinamik holatlarining o'zgarishi natijasida gazdan ajralib chiqib, qatlama g'ovaklarida cho'kib qoladi, ayniqlsa, bunday ajralishlar quduq atrofida ko'plab yuz berishi mumkin. Natijada, bu ajralish va cho'kib qolishlar kondensatning ma'lum bir qismini qatlama ichida qolib ketishiga, ya'ni olib bo'lmas yo'qotishlarga olib keladi.

Kondensatlarning yo'qotilishiga termodinamik holatlarni o'zgarishidan tashqari yana juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, gazzkondensat aralashmasining qatlama ichidagi va quduqdan ko'tarilishidagi harakat tezligi, bosimlar va haroratlar ayirmasi, gazzkondensat ajratib oluvchi asbob-uskunalar qanchalik yaxshi ishlashi kabi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Odatda qatlama holatida aniqlangan beqaror kondensatdan 60-85% gacha barqaror kondensat olish mumkin.

2.2. Neft va gazning hosil bo'lish gipotezalari

Neft va gazning hosil bo'lishi haqida juda ko'p farazlar mavjud. Bu muammo XVII asrdan boshlab shu kunga qadar davom etmoqda. Ushbu o'tgan davr mobaynida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga asoslanib ularni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Organik gipoteza tarafdorlari.
2. Anorganik gipoteza tarafdorlari.
3. Mikstgenetik gipoteza tarafdorlari.

Organik gipoteza tarafdorlari

Organik gipoteza tarafdorlari farazlariga ko'ra, neft biosferadagi organik moddalarning qayta o'zgarishidan hosil bo'lgan mahsulot deb hisoblanadi. Unga ko'ra tirik mavjudotlar halok bo'lgandan so'ng ularning molekulyar tuzilishini qayta o'zgarishidan hosil bo'ladigan mahsulotlar bilan neft orasida o'zaro molekulyar bog'-liqlik va o'xshashlik borligi aniqlandi. Uglevodorodning, umuman nefstning tarkibida azotli, oltingugurtli va metallorganik birikmalarning molekulyar tuzilishi va tarkibi o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, organik moddalarning molekulyar tuzilishi bilan genetik o'xshashligi borligi tasdiqlandi, bu o'z navbatida nefstning noorganik sintez yo'li bilan hosil bo'la olmasligini ko'rsatdi. Organik moddalar va nefst uchun umumiyligi bo'lgan muhim xususiyatlaridan biri, ularning optik faolligidir. Nefstning optik faolligi asosan triterpan va steran turidagi uglevodorodlar bilan bog'liq, bunga gopan ($C_{27}H_{46}$) misol bo'la oladi. Uning molekulyar tuzilishida organik moddalarga (dengiz suv o'tlari, bakteriyalar) xos bo'lgan to'rtta geksanaften xalqalar qatnashadi.

1888-yilda nemis olimlari G. Geffer va K. Engler hayvonot qoldiqlaridan neft olish mumkinligini laboratoriya usulida isbot qildilar. Ular 400 daraja harorat va 10 atmosfera bosim ostida seld yog'ini haydar, undan har xil mahsulot va gaz olishga tuyassar bo'ldilar.

1919-yilda xuddi shunday tajribani akademik N.D. Zelinskiy qayta amalga oshirib, o'simlik qoldig'idan shunga o'xshash mahsulotlarni oladi.

Neftning organik moddalardan hosil bo'lishidan darak beruvchi yana bir muhim dalillardan biri, unda son-sanoqsiz «molekulyar qazilmalar» – xemofossilarning bo'lishidir, ya'ni bioorganik moddalardan meros bo'lib o'tgan molekulyar strukturalardan iboratligidir. Neftni mukammal o'rghanish uning tarkibida aniqlanilayotgan xemofossillar sonining oshishiga olib kelmoqda. Xemofossillar miqdori neft tarkibida 30-40% gacha etishi mumkin deb hisoblanmoqda. Neftning muhim biogen belgilaridan biri, tirik modda xususiyatiga ega bo'lgan izoprenoidli uglevodorodlardan, ayniqsa, fitan va pristanlardan tarkib topganligidir. Pristan ayrim hayvonlar tanasida uchraydi. Uglevodorodlarning har bir turi organik sintezning yuqori bosqichida sun'iy sintez yordamida olinishi mumkin. Uning sintezi tabiiy sharoitlarda ham sodir bo'ladi. Lekin, C₂₀H₄₂ uglevodorodi nazariy jihatdan 366319 izomerli strukturaga ega, ammo neftda ko'p miqdorda. ulardan faqat biri – tirik moddadan iborat fitan qatnashadi. Meros biogen strukturalarga ko'plab n-alkanlar (S₁₇ va undan yuqori) kiradi, ular uzun zanjirli kislorodga boy biokimyoiy birikmalar – mumlarning termokatalizidan hosil bo'lib, neftdagi miqdori 10-15%, ba'zan 40% gacha bo'ladi. Biogen yog'li kislotalardan hosil bo'ladigan n-alkanlarning «toq» parafinlari «juft»lariga nisbatan ko'p bo'ladi.

Neftning hosil bo'lishi murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u cho'kindi tog' jinslarining hosil bo'lishi bilan bog'liqidir. Bu jarayonning sodir bo'lishi uchun yirik dengiz va okean havzalari qulaydir. Bulardan tashqari ko'l va daryolar o'zidan iborat havzalari ham shunday vazifani o'tashi mumkin. Aytilgan havzalarda albatta suv bo'lishi kerak, bo'lmasa quruqlikdagi organik materiallar oksidlanishi natijasida torf va ko'mirga aylanishi mumkin.

Har bir dengiz va okean o'zining o'simlik va hayvonot olamiga ega. Neft va gaz hosil bo'lishida esa okean va dengizlarning katta hajmini egallovchi mikroorganizmlar (planktonlar) muhim ahamiyatga ega. Demak, neft va gaz hosil bo'lishida albatta suvli muhit bo'lishi zarur.

Shu o'rinda Abu Rayhon Beruniyning qo'yidagi fikrini ko'rib chiqamiz: «Dengiz o'rni quruqlik, quruqlik esa dengiz bilan almashti». Arabiston cho'llari xuddi ana shunday hodisani o'z boshidan

kechirgan. Bu erlar o‘z vaqtida dengiz suvlari bilan qoplangan bo‘lib, hozirda esa cheksiz qumliklar bilan qoplangan.

Bugungi kunga kelib Arabiston cho‘llarida joylashgan davlatlarda (BAA, Saudiya Arabistoni, Quvayt va boshqalar) yirik neft konlari mavjud bo‘lib, bu esa nest hosil bo‘lishida suvli muhitning zarurligini va shu suvli muhitda organik moddalarning yirik masshtabda bo‘lganligidan dalolat berib, yuqorida aytilgan fikrni tasdiqlaydi

Organik nazariyaga asoslangan holda ish yuritilanligi tufayli neftchilar G‘arbiy Sibir, O‘rta Osiyo va boshqa o‘lkalarda ko‘plab neft va gaz konlarini topishga muvaffaq bo‘lindi.

Keyingi 25-30-yillar ichida turli cho‘kindi havzalarda bajarilgan geologik-geokimiyoviy tadqiqotlar neft va gazning organik yo‘l bilan hosil bo‘lganligini tasdiqlaydi. Neft yaratuvchi yotqiziqlardagi organik moddalar litogenet jarayonining hamma bosqichlarida neftga aylanishi kuzatiladi. Neft va gazning to‘planish qonuniyatlarini o‘rganish orqali ularning cho‘kindi jinslarda siljishi nazariyasi ishlab chiqildi.

Protokatagenez mintaqasida (platformalarda 1,5-2 km gacha) ona er jins yotqiziqlari cho‘kishining dastlabki lahzalarida jinslardagi tarqoq organik moddalar qisman o‘zgaradi, undan kislorod chiqib ketadi va tarqoq organik moddalar tarkibida neftli uglevodorodlar miqdori oshadi. Tarqoq organik moddalarda o‘zgarishning dastlabki lahzalarida neft uchun xos bo‘lgan past molekulali uglevodorodlar paydo bo‘la olmaydi. Ular faqat termodestruksiya jarayoni rivojlanishining oxirgi bosqichlarida yuzaga keladi. Tarqoq organik moddalarning gaz fazasida uglerod (II) oksidi ko‘p uchraydi, qisman metan va uning gomologlari ham bo‘ladi.

Shunday qilib, bu bosqichda neft uglevodorodining hosil bo‘lishidan hali darak bo‘lmaydi. Ona er jinslarning 2-3 km ga cho‘kishi, haroratning $80\div90^{\circ}\text{S}$ dan $150\div170^{\circ}\text{S}$ gacha ko‘tarilishi va mezokatagenetik bosqichning boshlanishi bilan tarqoq organik moddalar destruksiyasi sodir bo‘ladi, neft uglevodorodlari shiddat bilan to‘plana boshlaydi, natijada neft hosil bo‘lishining asosiy fazasi yuzaga keladi. Mikroneftning asosiy massasi va past molekulali uglevodorodlar hosil bo‘ladi. Ona er jinslardan uglevodorodlar chiqib keta boshlaydi. neft hosil bo‘lishi asosiy fazasining oxiriga kelib,

tarqoq organik moddalarning neft hosil bo'lish imkoniyati so'nadi. Tutqichlarga tarqoq organik moddalarning siljib kelishi va to'planishida neft uyumlari paydo bo'ladi. Ona er jins yotqiziqlarining yanada cho'kishi ($3,5 \div 4$ km ga) va haroratning 170°S dan oshishi, ($\text{MK}_4\text{-AK}_1$) katagenezda gaz hosil bo'lishining asosiy fazasini yuzaga keltiradi. Tarqoq organik moddalarning yuqori haroratli destruksiyasi metanning ko'p miqdorda to'planishiga olib keladi. Hosil bo'lgan uglevodorod gazlarining kollektorlar tomon siljishidan, ularning vertikal yo'nalishda yuqoriga harakatlanishidan cho'kindi qoplamalarining yuqoridagi gorizontlarida ham gaz uyumlari vujudga keladi. Ona er jinslarning keyinchalik cho'kishi (6-7 km va undan chuqur) apokatagenez mintaqasiga tushib qolgan qoldiq tarqoq organik moddalar boy jinslardagi uglevodorodlarning to'liq ajralib chiqishini va neftgaz hosil qiluvchi jinslarning o'z imkoniyatini namoyon qilishini ta'minlaydi.

Metanning to'planishi davom etsada, uning shiddati pasayadi. Katagenez jarayonida tarqoq organik moddalarga boy bo'lgan ona er jinslarda neft va gaz hosil bo'lish bosqichini, cho'kindi havzalari paydo bo'layotgan davrda neft va gaz paydo bo'lgan vaqtini aniklash mumkin. Shuningdek, neft va gaz to'planayotgan mintaqalarni aniqlash, er qa'ridagi neft va gaz manbalarini miqdoriy baholash mumkin bo'ladi. Shunday qilib, neft va gazlarning hosil bo'lishini cho'kindi-siljish nazariyasi, neft-gazlarning organik yo'l bilan hosil bo'lishini tasdiqlaydi.

A.A. Bakirov va akad. I.M. Gubkining ilmiy ishlarini taraqqiy qildirib, 1955-yil litosferada neft va gazning hosil bo'lish jarayoni olti bosqichdan iboratligini ko'rsatdi:

1) organik moddalarning yig'ilishi; 2) uglevodorodlarning vujudga kelishi; 3) uglevodorodlarning siljishi; 4) uglevodorodlarning to'planishi; 5) uglevodorod uyumlarining saqlanishi; 6) uglevodorod uyumlarining buzilishi yoki qayta taqsimlanishi.

Ta'kidlangan har bir bosqich o'zaro bog'liq va bir-birini quvvatlovchi ichki va tashqi quvvat manbalari ta'sirida va atrof muhitning o'ziga xos sharoitlarida sodir bo'ladi. Muhitning tashqi quvvat manbalariga:

1) asta-sekin ortib borayotgan ustqatlamlar bosimi (geostatik bosim);

2)tektonik kuchlar bosimi (geodinamik bosim);

3)suyuqlik va gazlarning (flyuidlar) og'irlik kuchlari ta'sirida harakatlanishi natijasida sodir bo'lgan gravitasion kuchlar;

4)erning harorat oqimi ta'siri;

5)gidrodinamik kuchlar;

6)kapillyar kuchlar

Muhitning ichki quvvat manbalariga:

1)mikroorganizmlarning va fermentlarning biokimyoviy ta'siri;

2)organik modda saqlovchi yotqiziqlarning katalitik ta'siri;

3)organik moddalar va uglevodorodlarning ichki kimyoviy quvvati ta'siri:

4)qatlamlardagi radiaktiv minerallarning ta'siri;

5)jinslarning kristallanish va qayta kristallanish quvvati;

a) molekulyar kuchlar, b) uglevodorodlarni kichik g'ovaklardan katta g'ovaklarga siqib chiqaruvchi suvning molekulyar kuchi, v) ugevodorodlarning va yotqiziq jinslarning tarang kengayish kuchlari, g) jinslarning zichlanish quvvati, d) elektrokinetik kuchlar kiradi.

Yuqorida aytib o'tilganlarning hammasi neft, gaz va kondensatning organik yo'l bilan hosil bo'lgan degan farazlarga asos bo'ladi. Quyidagi 2.5-jadvalda neft va gaz hosil bo'lishidagi organik nazariya mualliflari, tafsilotlari va ularning qisqacha isboti keltirib o'tilgan.

Neft va gazning anorganik hosil bo'lishidagi gipotezalar

Neft va gazni hosil bo'lishidagi anorganik gipoteza XIX asr davomida paydo bo'ldi (Gumbolt va boshqalar). Keyinchalik M. Berollo (1866-y.), A. Biasson (1866-y.), S. Kloe (1878-y.), o'zlarining uglevodorodlarni anorganik sintez bo'yicha o'tkazilgan laboratoriya tadqiqotlari asosida ishlangan gipotezalarini taklif etdilar.

So'nggi vaqtarda neft hosil bo'lishidagi abiogen gipoteza paydo bo'ldi. AQSh da uni E. Mark Dermat (1938), R. Robinson (1963) tomonidan taklif etilgan. biroq geolog-neftchilar tomonidan u qat'iy qarshilikka uchradi.

MDH da 1950-yillarda N.A. Kudryavsev (1951-y.), P.N. Kropotkin (1955-y.), V.B. Porfirev va boshqa geologlar uni rivojlan-tirdilar.

Neft va gaz hosil bo‘lishidagi organik nazariyalar

Nazariya nomi va uning mualliflari	Xususiyatlarining tavsifi	Isboti
K.Englerning hayvonlar organizmlarining parchalanishi nazariyasi.	Uglevodorodlar hayvon organizmlarining qoldiqlarini chirib parchalanishi jarayonida hosil bo‘ladi. Qatlam sharoitida harorat va bosim ostida organizmlarning parchalanishida qoldiq moylar uglevodorodlarga aylanadi. Taxminiy qalinligiga, bu jarayonga faol anaerob bakteriyalar ta’sir ko‘rsatadi.	Uglevodorod, dengiz hayvonlarini qoldig‘idan tarkib topgan cho‘kindi jinslarni fraksiyalab, qayta ishlashdan olish mumkin. Ko‘plab neft qatlamlari dengiz yotqiziqlariga tegishli bo‘lib, ularda forami neferlar miqdori juda ko‘p.
G. Gefferning o‘simlik qoldiqlarining parchalanishi nazariyasi.	Uglevodorodlar o‘simlik organizmlarining oksidlanishi va parchalanish sharoitida suyuq mahsulotlarning hosil bo‘lishi natijasida paydo bo‘ladi.	O‘simliklardan hosil bo‘lgan diameten. dengiz suv o‘tlari torf ko‘mir qatlamlari yaqinida nefli qatlamlar topilgan. Tabiiy neftga xususiyatlari bo‘yicha yaqin uglevodorodlarni ko‘rsatilgan materiallardan olish mumkin.
Ko‘mir yoki boshqa ohaktoshli materiallarning gidrogenizatsiya nazariyasi.	Yuqori bosim va haroratda, shuningdek, zarur katalizator misol uchun: nikel ishtirokida	Laboratoriya va sanoat qurilmalarida ko‘mir gidrogenizatsiya qilingan.

	qattiq organik materiallarning vodorod bilan kombinatsiyasida suyuq uglevodorodlarga o'tadi.	Ayrim uglevodorodlar asosida nikel bor. Biroq tabiiy sharoitda erkin vodorodni borligini isbot qilish zarur.
--	--	--

D.I. Mendeleev 1877-yilda «Основы химии» kitobida «Karbido gipoteza» sini aniqroq tushuntirib berdi. Ushbu gipotezaga muvofiq er qa'ridagi darzliklar bo'y lab er markaziga qarab atmosfera suvlari sizib boradi, temirli karbid bilan reaksiyaga kirishadi va uglerod bilan o'zaro ta'sir etadi, natijada to'yingan va to'yinmagan uglevodorodlar hosil bo'ladi. Ushbu uglevodorodlar shuningdek, darzlik va yoriqlar bo'y lab yuqoriga migratsiya qiladi va qulay sharoit bo'lgan joyda neft uyumi ko'rinishida bo'ladi. D.I. Mendeleev xlorid kislota (HCl) bilan migratsiyali guruh tarkibida (8% uglerod) bilan ishlashdan olingan suyuq uglevodorod aralashmasini olib, o'z taxminlarini mustahkamladi. Keyinchalik neft-gazning chuqurlik bo'yicha hosil bo'lishini boshqa variantlarini ham taklif etildi.

Neft va gazning hosil bo'lishidagi anorganik gipoteza haqida V.D. Sokolov (1889-y.) boshqa yo'nalishni taklif etdi. Uning aytishicha, kosmik bo'shliqda vodorod va kometa dumidagi uglerod va uglevodorodli gazlarning borligini o'rganib, ularning er paydo bo'lgan vaqtdayoq hosil bo'lgan g'oyani oldinga suradi.

Keyinchalik bu gipotezani P.N. Kropotkin rivojlantirdi, uning fikricha, uglevodorodlar litosferaning cho'kindi qatlamiga mantiyani degazatsiyasi natijasida tushadi. Zamonaviy tasavvurlar bo'yicha er qa'rida va yuqori mantiya ikkita geosferaga bo'linadi. Yuqorioksifera (chuqurliga bir necha km) va ostki reduktosfera (chuqurligi 150 km gacha), gaz-flyuid fazalarini tiklash sharoitini tavsiflovchi bunda ko'p vodorod, metan va boshqa uglevodorodlar. shuningdek, N2O, SO2 va H2S, ancha miqdordagi azot va geliy bo'ladi. Bu gazlar darzliklar bo'yicha yuqori qatlamlarga o'tadi, u asosan cho'kindi tog' jinslari orasida yig'ilib, neft, gaz va kondensatni olish manbai bo'lishi mumkin (P.N. Kropotkin. 1985). Uglevodorodlar to'planishini hosil bo'lishi mexanizmi haqida N.A. Kudryavsev boshqacha tasavvurni taklif etadi. Uning fikricha, er planetasini

paydo bo'lishidagi uglevodorod bulutlardan tarkib topgan bo'lib, yuqori harorat, bir necha ming gradus ta'sirida uglevodorod radikallari va vodorodga parchalanadi. Litosferani yuqori qismiga ko'tarilib, yuqori bo'limgan haroratda bu radikallar va vodorod birlashadi, natijada neft, gaz va kondensat to'plamini hosil qiladi.

Neft, gazni hosil bo'lishidagi abiogen gipotezaning tug'ilishi so'nggi-yillarda planetar kosmogoniya va geologiya soha faniga katta yutuqlarni olib keldi.

Planetar kosmogoniya planetaning modda holati haqidagi boshlang'ich tasavvurni birdan o'zgartirdi. Spektral kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, atmosferadagi gigant planetalar Jupiter, Saturn, Neptun – asosan metandan tarkib topgan, birinchi ikkitasi metan va ammiakdan iborat. Spinrada va L. Treton (1964) izlanishlari bo'yicha Jupiterning atmosferadagi bulutlar ustki qismi 60% vodorod, 36% geliy, 3% neon va 1% metan va ammiakdan tarkib topgan. Neft hosil bo'lishidagi anorganik gipoteza holatlariga qisqacha to'xtalamiz.

Ikkala guruh gipotezasi ham planetar kosmogonianing yangi ma'lumotlariga asoslangan, biroq bular yana tekshirishni talab qiladi. Planeta materiallari magmada uglevodorodlarni paydo bo'lish jarayonini imkoniyatlari ko'rib chiqilmagan. Shuning uchun N.A. Kudryavsev (1966, 1967) hamma organik birikmalar uglerod va vodorodga parchalanadi, keyinchalik CH_1 , CH_2 , CH_3 radikallar hosil qilib, keyin er qa'rida (magmadan chiqqandan keyin) polimerlanish va sintez jarayonlari natijasida neftdag'i qator uglevodorodlar hosil qiladi. Neft qatoridagi uglevodorodlar ko'p, ammo ularning hosil bo'lish jarayoni aniq bo'lmay qolmoqda. V.B. Porfirev (1966, 1967) magmada uglevodorodlar holati muammosini chetlab, ular magmada o'zgarmaydi deb, qatlam yuzasiga yuqori harorat holatida va juda yuqori bosimda hosil bo'ladi deydi.

Ko'pgina meteoritlarni ekstraksiya qilish yo'li bilan bitumlarni I. Karlin, E. Degens, J. Reyter (1961) mujassamlantirdilar. Meteoritlardagi bitumlarda alifatik va aromatik qatordagi uglevodorodlar, aminokislota va glyukoza borligi aniqlandi. Shunday qilib, astrofizik ma'lumotlarga qarab kosmosda organik molekulalarni kimyoviy (anorganik) hosil bo'lganligini tan olish mumkin. Biroq ularning organik birikinalari bilan er bag'ridagi neft va gaz uyumlari o'rtaсидаги bog'liqliк asos talab qiladi.

N.A. Kudryavsev va V.G. Vasilev (1964) qarashlarini tanqid qilib, yirik neft to'plamlariga tegishliligini tushuntirish uchun, masalan, G'arbiy Sibirning markaziy regionlari yoki Ural-Povolje Qoraqum gumbazida N.A. Kudryavsev birinchidan, magmada erigan chuqurlik gazlarning yuqori bosimda drosselash mexanizmini aniqlash kerak bo'ladi: ikkinchidan, neft va gazni chuqurlikdagi ajralish mexanizmini topish, chuqurlik darzliklari mintaqasida neft va gazni kollektor jinslarida tushishi. magmatik va vulqonli gazlarda emas, mantiyadan ko'p miqdordagi oltingugurt birikmalari qandaydir chuqurlikda qoplanib qolish kerak. Biroq neft va gazli konlardagi tabiiy gaz tarkibida vulqonli tog' jinslari bilan bog'liq hech qanday modda yo'q. Bu regionlarda cho'kindi jinslarda vulqonli gazlarning hech qanday izi yo'q. Bundan kelib chiqadiki, magmada shunday spetsifik jarayon sodir bo'lishi kerakki, unda erigan gazlar neft hosil bo'lishi jarayonida tushunarsiz sabab bo'yicha o'zini namoyon qilmasligi kerak.

O'tgan yuz-yillikda qator oddiy kimyoviy tajribalar o'tkazib anorganik yo'l bilan uglevodorodlar sintez imkoniyati isbotlangan. Biroq ular erda biror bir rivojlanish bosqichidagi kuzatiladigan sharoitlarga muvofiq emas.

Neft va gazning anorganik yo'l bilan hosil bo'lishini olimlardan N.S. Beskrovniy, G.E. Boyko, I.V. Grinberg, G.N. Dolenko, A.I. Kravsov, N.A. Kudryavsev, V.F. Lineskiy, D.I. Mendeleev, V.B. Porfirev, E.B. Chekalyuk va boshqalar isbotlashga harakat qilganlar, ayniqsa, N.A. Kudryavsev taxmini diqqatga sazovordir. Unga ko'ra neft va gazlar H_2 , CO, CO_2 , CH_4 oddiy uglerodli birikmalar aralashmalarining ($CO+3H_2 \rightarrow CH_4 + H_2O$ ko'rinishidagi) o'zaro reaksiyasi natijasida hosil bo'ladi. Shuningdek, CH, CH_2 , CH_3 radikallar reaksiyasi ham bo'lishi mumkin. Bunday jarayonlar litosferaning chuqur yoriqlar bilan mayda bo'laklarga bo'lingan qismlarida yuzaga kelib, bu joylarda reaksiyaga kirishadigan aralashmalar to'planadi va qayta taqsimlanib o'zgaradi. Gidrostatik bosimga nisbatan ortiqcha g'ovaklik va qatlam bosimi yuzaga keladi. Pechda (o'choqda) paydo bo'ladigan juda yuqori bosim ta'sirida reaksiya mahsulotlari undan uzoqlashishi va tutqichlarda yig'ilishi mumkin. Neft, gaz hosil bo'lishining anorganik farazi N.S. Beskrovniy ta'biri bo'yicha qo'yidagicha:

1. Kosmik moddalarda uglerodli birikmalar qatorida uglevodorodning bo'lishi. Kosmik zondlar yordamida Yupiter va Titan planeta atmosferalarida C_2H_2 , C_2H_4 , C_2H_6 , C_3H_8 , $H-C\equiv C-C\equiv C-H$, HCN , $H-C\equiv C-C\equiv N$, $N\equiv C-C\equiv N$ borligi aniqlandi. Ushbu va boshqa uglerodli birikmalar yulduzlar oraliq'idagi changsimon bulutlarda ham bor deb taxmin qilinadi. Meteoritlarda uglerod hamda metanli flyuid aralashmalari turli shaklda uchraydi.

2. Er mantiyasida $1300\div1500^{\circ}C$ haroratda kislorodning uchuvchanligi pasayadi, bunday sharoitda metan bo'lish ehtimoli bor.

3. Mantiyadan kelib chiqqan magmatik mahsulotlarda uglerodli birikmalarning mavjudligi, Mantiyaning differensiatsiyalanishi va issiqda gamsizlanish mahsulotlari: kimberlitlar va ularning minerallarida (olmos, olivin, granat va boshqalar), peridotitlar, toleitli bazaltlar, nefelinli sienitlar va boshqa ishqorli jinslarda, shuningdek, yosh va qadimgi vulqonlarning gidrotermal suyuqliklarda H_2 , CO , spirt, SN_4 va ayrim murakkab uglevodorodlarning mavjud bo'lishi.

4. Mantiyaning moddalarida uglevodorodli gamsizlanish hodisining mavjudligi. Yoysimon joylashgan orollarda hozirgi kunda harakatdagi vulqonlarning gamsizlangan mahsulotlari ko'mir-uglevodorodli tarkibga ega. Zamonaviy normal maydonlardagi riftlarda vodorod va metanning borligi kuzatiladi. Mantiyaning «sovuq» gamsizlanishidan katta hidrostatik bosim ostida bo'lgan kristallik poydevorlardagi granitlarda neft to'planishi kuzatiladi. Sovuq vodorodli va metan vodorodli gamsizlanish yirik chuqur yoriklar mintaqalarida (masalan, AQSh ning Kaliforniya shtatidagi San-Andreas tashlama-uzilmali-surilmasida) kuzatiladi.

5. Neft va gaz manbalari litosfera plitalarining chekka qismalaridagi chuqur egilma

($6\div10$ km va undan chuqur) cho'kindi havzalarida joylashgan bo'lib, rivojlanishning orogen va rift bosqichlarida yuzaga keladi, seysmoaktiv geodinamik mintaqalar bilan chegaralanadi. Ko'pgina neft-gaz havzalari graben va chuqur er yoriqlari bilan genetik bog'liq.

6. Havzalarning burmalangan chekkalarida sanoat miyosida to'plana olmaydigan uglevodorodlarning o'rta va past haroratli endogen rudalanishida (polimetallar, simob, uran va boshqalar) paragenezining mavjudligi; cho'kindi havzalari ichida neftda V, Ni, Fe, Cu, Mo, So, Mn, Zn, Cr, Hg, As, Sb va boshqa metallarning ko'p

miqdorda uchrashi. Bunday qonuniyat neft va metallardan darak beruvchi uglevodorod moddalar manbaining umumiyligi bilan izohlanadi.

7. Neft va gaz manbalari global va regional hududlarda notekis joylashgan. Buning asosiy sababi ularning bir joyda (o'choq) o'rashganligi yoki vertikal yo'nalishlarda yuqoriga siljishidadir. Dunyo bo'yicha aniqlangan yirik neft va gaz resurslari asosan bir necha havzalarda joylashgan. Er po'stida aniqlangan 600 cho'kindi havzasidan 400 tasi chuqur burg'ulash orqali o'rganilgan, ulardan 240 tasi samarador emas. Sanoat miqyosidagi 160 neft va gaz havzalarida 26 havza dunyodagi neft va gaz manbalarining 89% ini (Arabiston-Eron koni 47,5% ni tashkil qiladi), yana 24 ta havza – 6,28% va 110 ta havza – faqatgina 4,72% ini tashkil etadi. Bu notekislik yana shundan dalolat beradiki, dunyodagi neftning 80% i 37 supergigant ($> 0,8 \text{ mlrd. m}^3$) va 300 gigant konlarda yig'ilgan.

8. Neft-gazli regionlarda poydevorgacha bo'lgan kesimda neft va gazning tarqalishi N.A. Kudryavsev qonuniyati deb ataladi.

9. Tabiiy gazlarning yosh kaynozoy, aniqrog'i neogen-to'rtlamchi yoshi va qadimgi platformalardagi neftning deyarli kaynazoy yoshining neft saqlovchi yotqiziqlaridagi neft-gazning hosil bo'lgan davriga mos kelmasligi.

Yuqorida qayd qilinganlardan ko'rinish turibdiki, neftning anorganik yo'l bilan hosil bo'lishi umumiy mulohazalarga asoslangan. Hozirgacha metanning yoki ayrim oddiy uglevodorodning, shuningdek, murakkab tarkibli uglevodorodning neftli sistemasini, azotli, otingugurtli, kislorodli va metallorganik birikmalarini anorganik sintez orqali olishning nazariy va tajribaviy asoslari aniqlanmagan.

Quyidagi 2.6-jadvalda neft va gazning hosil bo'lishidagi anorganik gipotezalar, ularning mualliflari, nazariyalar tafsilotlari va isbotlari keltirilgan.

1990-yillarga kelib neft va gazning paydo bo'lishi to'g'risida chop etilgan ilmiy asarlar, maqolalar va ma'lumotlar tahlili hamda dunyo neft-gaz o'lkalarining shakllanishini geodinamik nuqtai nazardan o'rganish asosida prof. A.A. Obidov mikstgenetik nazariyani ilgari surdi.

Neft va gazni hosil bo‘lishidagi anorganik gipotezalar

Gipoteza nomi	Xususiyatlar tavsifi	Isboti
Bertollening karbid nazariyasi	Katta chuqurliklarda, yuqori haroratda joylashgan ishqorli metallar SO ₂ bilan reaksiyaga kirishadi va ishqorli karbid hosil qiladi. Keyin polimerlanish va kondensatsiya jarayonida uglevodorodlar hosil qiladi.	Isboti yo‘q. Tabiatda erkin ishqorli metall yoki ishqorli karbid ham topilmagan.
Mendeleevning karbid nazariyasi	Tog‘ jinsidagi temirli karbid qatlam suvi bilan reaksiyaga kirishib atsetilen hosil qiladi. Bu darzlik va yoriqlar bo‘ylab yuqoridagi g‘ovak qatlamlarga singadi va kondensatsiyalanadi.	Temirli magniy oksidi ham ko‘rsatilgan reaksiya mahsuloti sifatida hosil bo‘lishi kerak. Ayrim neft maydonlarining chekkalarida magnit anomaliyalari aniqlangan.
Mossanning vulqonli nazariyasi	Mossan fikricha, tog‘ jinsi tarkibidagi suvni ta’siri vulqon uchqunlarini keltirib chiqarishi mumkin.	Yaponiya va Erni yaqinidagi vulqon lavalarida neft izlari topilgan. Meksika va Yava yarim orolidagi vulqonli jinslarda neft borligi aniqlangan.
Sokolovning kosmik nazariyasi	Uglevodorodlar kosmik massada erkin hosil bo‘lishidan vodorod bilan uglerodning reaksiyasini birlamchi mahsuloti sifatida qaraladi.	Meteoritlarda ko‘p bo‘Imagan miqdorda uglevodorod borligi aniqlangan.
Ohaktoshlar, gipslar va qaynoq suv nazariyasi	Ohaktosh bilan ohak sulfati o‘rtasidagi reaksiya suv ishtirokida va haroratda dissosiatsiyasi uchun etarli haroratda uglerod olish nazarij jihatdan mumkin.	Laboratoriya sharoitida bunday reaksiyanı bo‘lishi mumkinligi isbotlangan.

Neft va gazning hosil bo'lishidagi mikstgenetik gipotezalar

Unga ko'ra, neft va gazning hosil bo'lishida asosiy manba tarqoq organik moddalar bilan bir qatorda er po'stining chuqur qatlamlariidan yuqorida joylashgan cho'kindi jinslar tomon harakatlanayotgan turli gaz va suyuq moddalar bo'lib, ular ta'sirida cho'kindi jinslardagi organik moddalardan uglevodorod hosil bo'ladi deb hisoblanadi.

O'zbekiston hududida neft va gazlar hosil bo'lishining mikstgenetik farazi quyidagi ma'lumotlarga asoslanadi: ma'lumki, mezozyoy-kaynazoy davri cho'kindi qatlamlari ichida tarqoq organik moddalar ko'p miqdorda uchraydi, o'z navbatida ularga katta chuqurlikdan kelayotgan flyuidlar ham ta'sir etadi. Er po'stidagi issiqlik oqimining katta chuqurlikdan chiqib kelayotgan flyuidlar bilan o'zaro o'rinnalmashinishidan o'ndan ortiq anomal mintaqalar vujudga keladi. Ularga Markaziy Qizilqum, Buxoro-Xiva regionidagi paleorift sistemasidagi yuqori haroratli issiqlik oqimi, Surxondaryo megasinklinalidagi Boyangora maydoni, Farg'ona tog'lararo botig'i-dagi Adrasman-Chust anomalligi va boshqalarni misol keltirish mumkin. Markaziy Qizilqum anomalligida metan va vodorod emanatsiyasi (radioaktiv nurlanishda vujudga keladigan gaz mahsulotlari) tajriba asosida aniqlangan. Bu erda uch, mo'tadil (0 dan 10 gacha), umumiyl fonga nisbatan 10000 shartli birlikka ko'p bo'lgan shiddatli va doirasimon ko'rinishdagi emanatsiyalar ajratilgan. Emanatsiyaning eng yuqori qiymati paleozoy vulqon-tektonik strukturasi og'ziga to'g'ri keladi. Issiqlik oqimi zichlik qiymatiga va anomal mintaqalar maydonining katta-kichikligiga qarab boshqa joylarda, katta chuqurlikda ularga mos keluvchi emanatsiya mahsulotlarining hosil bo'lishini taxmin qilish mumkin. Bunday anomaliyalar ta'sirida bo'lgan mintaqalarda juda yirik neft va gaz konlari joylashganligi prof. A.A. Obidov fikricha, mikstgenetik farazning asosliligini tasdiqlaydi.

Yuqorida qayd qilingan ma'lumotlarga asoslanib, prof. A.A. Obidov neft va gazlarning bunday yo'l bilan hosil bo'lishini quyidagicha izohlaydi:

1) neft va gazning mikstgenetik hosil bo'lishida ernen gazzsizlanishidan chuqurlikda paydo bo'lgan flyuidlar va tarqoq organik moddalar boshlangach ashyo hisoblanadi;

2) o'ziga xos termobarik sharoitli, issiqlik oqimi va flyuidlar harakatlana oladigan kanallari bo'lgan cho'kindi havzalar mikstgenetik yo'l bilan hosil bo'lishida chuqurlikdagi flyuidlar oqimi ta'sirida sodir bo'ladigan reaksiyalar sistemasi organik moddalarning parchalanish jarayoniga mos keladi.

K.A. Kleshchev, A.N. Dmitrievskiy, A.M. Sogalevich, Sh.S. Ballanyuk, V.V. Matvienko, B.M. Valyaev va boshqa olimlar okean tubida uglevodorodlarning hosil bo'lishini mikstgenetik farazga yaqin qilib izohlaydilar. Unga ko'ra, yuqori mantiyadagi o'ta asosiy jinslarning serpantinlanish jarayonida okean suvlarining va ulardagagi karbonat angidrid gazining parchalanishidan metanning gidrotermal sintezi sodir bo'ladi. Shu sababli organik moddalarga boy bo'lgan va yuqorida joylashgan cho'kindi jinslarga vodorodning shiddat bilan kirib kelishidan ko'p miqdorda uglevodorodlar hosil bo'ladi. Shunga o'xshash gidrodinamik holat yosh riftlar rivojlanayotgan mintaqalarga ham xos (Qizil dengiz, Kayman novi).

Tinch okeandagi Tonga va Kermadek vulqon orollari yaqinida ko'p miqdorda to'plangan uglevodorodlarni o'rgangan K.A. Kleshchev (1996) okean tubida bo'ladigan vulqon jarayonlari va gidrotermal oqimlar ta'sirida uglevodorodlar hosil bo'lishi mumkinligini asosladi. Shu sababli vulqon jarayonlari tez-tez qaytarilib turadigan okean tubi neft va gaz paydo bo'lishi mumkin bo'lgan istiqbolli maydon hisoblanadi. Shuningdek, izotopli tekshiruvlar biokimyoiy gazlar tarkibidagi vodorod va uglerodlarning engil izotoplari tabiiy sharoitda katta chuqurliklarda uchrashi mumkinligini isbotladi. Masalan, Kaspiy bo'yi botig'ining tuz osti yotqiziqlarida hosil bo'lган neft-gaz-kondensatli konlarga katta chuqurlikdan chiqib kelib, qatlamlarga singayotgan uglevodorodli flyuidlarning o'ziga xos xususiyatlarini (B.M. Valyaev. 1997) aniqladi. Ya'ni, ko'pgina konlarda geologik kesim bo'yicha uglevodorodlar tarkibining o'zgaruvchanligi, qatlam o'ta yuqori bosimining keskin o'zgarishi, diz'yunktiv buzilishlarning quyuqlashuvi, flyuidlarning suqilib kirishi oqibatida qo'shimcha g'ovakliklar va ikkilamchi saqlagichlar paydo bo'ladi.

Yuqoridagi nazariyalardan ko'rinish turibdiki, neft va gazlarning hosil bo'lishi to'g'risida turli farazlar mavjud. U yoki bu farazni qanchalik haqiqatga yaqinligini chuqur tadqiqotlar asosida isbotlash lozim.

III BOB. NEFT VA NEFT MAHSULOTLARINING TAVSIFI

3.1. Tabiiy energiya tashuvchilarni tavsiflash tizimlari

Tabiiy energiya tashuvchilar – er qa’ridan yoki uning yuzasidan qazib olinadigan moddalar bo‘lib, ular asosan ikki yonuvchi elementlar – uglerod va vodoroddan tashkil topgandir. Ularning umumiy ro‘yxati juda turli-tumandir: tabiiy gazdan to toshko‘mirkacha bo‘lib, ular quyidagi o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

3.1-jadval
Tabiiy yoqilg‘ilarni issiqlik miqdori

Fizik holati	Nomi	Tarkibi, % (mass.)			Yonuvchi mas-sadagi H:C nisbat	Yonish issiqligi, MJ/kg
		yonuv-chi massa	qo‘shim-chalar	kul		
Gaz holat-dagi	Tabiiy gaz	99,5	0,5	-	0,3	45
Suyuq	Gaz kondensati	99,0	1,0	-	0,17	42,5
	Engil neft	98,9	1,0	0,1	0,16	42,0
	O‘rtacha neft	97,35	2,5	0,15	0,15	41,5
	Og‘ir neft	95,8	4,0	0,2	0,15	41,0
Yarim qattiq	O‘ta og‘ir neft	93,6	6,0	0,4	0,14	40,0
Qattiq	Tabiiy neft bi-tumlari	91,0	8,0	1,0	0,13	39,0

	Slaneslar	13	17	70	0,12	32
	Torf	48	11	41	0,10	24
	Qo'ng'ir ko'mir	37	28	35	0,07	28
	Antrasit	81	4	15	0,02	35

XI Xalqaro neft kongressida tabiiy energiya tashuvchilarni hamma turlarini uch xususiyati – agregat holati, zichlik va qovushqoqlik bo'yicha yagona sinflanish taklif qilingan. Ushbu sinflanish bo'yicha hamma neftlar 4 kategoriya – engil, o'rta, og'ir va o'ta og'irga, zichliklari mos ravishda 870, 870÷920, 920÷1000 va 1000 kg/m³ dan yuqori, qovushqoqliklari esa normal sharoitlarda 10 Pa-s dan oshmaydigan kategoriyalarga bo'linadi.

Tabiiy neft bitumlariga yonuvchi massasi qovushqoqligi 10 Pa-s dan ortiq bo'lgan organik birikmalar kiritilgan.

Agarda engil, o'rtacha va og'ir neftlar an'anaviy energiya tashuvchilar bo'lib hisoblansalar, ularni tozalash va qayta ishslash texnologiyasi – umumqabul qilingan texnologiyalar qo'llanilsa, o'ta og'irlari va tabiiy bitumlar uchun esa – ularni qazib olishda ham, qayta ishslashda ham alohida, noan'anaviy usullar qo'llashni talab qiladi.

Insoniyat tomonidan hamma turli-tuman neftlarni bir kriteriyalar sistemasi bilan baholashga intilish 1907-yildayoq Geffer tomonidan amalga oshirilgan. O'tgan vaqtida juda ko'p bunday sistemalar taklif qilingan bo'lib, ulardan hech biri universal xususiyatga ega emas edi.

Hamma ushbu tizimlar sinflanishning asos bo'ladigan xususiyatlar bo'yicha uch guruh – kimyoviy, geokimyoviy va texnologik guruhlarga kiritiladi.

Kimyoviy sinflanish

Kimyoviy sinflanishlar neft yoki uning ma'lum fraksiyalarini kimyoviy tarkiblarining farqlanishiga asoslanadilar.

Bunday sinflanishlarning birida o'rtacha molekuladagi alifatik radikallar, naften va aromatik halqalarga to'g'ri kelgan uglerod atomlarining soni asos qilib olinadi va ushbu xususiyat bo'yicha neftlar 7 guruhga bo'linadi. Undan tashqari, ulardag'i oltingugurt,

smolalar, asfaltenlar, parafin va engil fraksiyalar miqdori bo'yicha 12 nimguruhlarga ajratilgan.

Boshqa sinflanish bo'yicha aniqlovchi xususiyatlar sifatida neftning zichligi, undagi oltingugurt miqdori va alkanlar hamda aromatik uglevodorodlar miqdorini sikloalkanlar miqdoriga nisbatlari qabul qilingan. Zichlik bo'yicha nestlar 4 guruhga (engil, o'rtta, og'ir va o'ta (juda) og'ir, oltingugurtning miqdori bo'yicha esa 3 (kam oltingugurtli, oltingugurtli va yuqori oltingugurtli) ga bo'linadi.

AQSh da zichlik va uglevodorod tarkibining o'zaro nisbatiga asoslangan neftlarni sinflanishi ishlab chiqilgan. Neft uchun yaxlit holda uglevodorod tarkibni aniqlashning iloji yo'qdir, shu bois bazaviy qilib neftning ikki o'rta fraksiyasi olingan: biri- atmosfera bosimida, $250\text{-}275^{\circ}\text{S}$ chegarada qaynovchi; ikkinchisi – og'irroq, $275\text{-}300^{\circ}\text{S}$ haroratda va 40 mm. sim. ust., qoldiq bosim (5,3 kPa) da qaynovchi.

Ushbu sinflanish bo'yicha agarda $250\text{-}275^{\circ}\text{S}$ fraksiyaning zichligi $0,825\text{g/sm}^3$ ga teng yoki undan quyi bo'lsa, neft– parafinliga; agarda $0,860\text{ g/sm}^3$ va undan yuqori bo'lsa– naftenli neftga kiradi. $275\text{-}300^{\circ}\text{S}$ fraksiya uchun parafinli va naftenli nestlar zichlik chegaralari qilib mos ravishda $0,876\text{g/sm}^3$ va undan quyi hamda $0,934\text{g/sm}^3$ va yuqori ko'rsatkichlar qabul qilingan. Ushbu sinflanish bo'yicha neftlarning 7 turi aniqlangan: parafinli; parafinli-oraliq; oraliq-parafinli; oraliq; oraliq-naftenli; naftenli-oraliq; naftenli.

Grozniy neftni ilmiy izlanish instituti tomonidan original sinflanish taklif etilgan bo'lib, u neftni kimyoviy tarkibini o'zida ifoda etgan. Ushbu sinflanishga asos qilib neft tarkibidagi qaysidir uglevodorod sifini yoki bir necha sinflarini ko'proq miqdori olin-gan. Bunda neftlarni quyidagicha farqlaydilar: parafinli; parafin-naftenli; naftenli; parafin-naften-aromatikali. naften-aromatikali, aromatikali.

A.E. Kontorovich va boshqalar neftning ikki nimsinflanishini birga ko'radilar: biri- fizik-kimyoviy xarakteristikalar bo'yicha, boshqasi– uglevodorod tarkibi bo'yicha.

AQSh tog‘ byurosi taklif qilgan neftning kimyoviy sinflanishi

Nº	Neftning asosi (sinfi)	Neft engil qismining asosi	Neft og‘ir qismining asosi
1	Parafinli	Parafinli	Parafinli
2	Parafinli-oraliq	Parafinli	Oraliq
3	Oraliq-parafinli	Oraliq	Parafinli
4	Oraliq	Oraliq	Oraliq
5	Oraliq-naftenli	Oraliq	Naftenli
6	Naftenli-oraliq	Naftenli	Oraliq
7	Naftenli	Naftenli	Naftenli

Sinflanishning fizik-kimyoviy parametrlari sifatida quyidagilar qabul qilingan:

zichlik: juda engil neftlar ($\rho_4^{20} \leq 0,8\text{g/sm}^3$); engil ($0,8\text{g/sm}^3 \div 0,84\text{g/sm}^3$); o‘rta ($0,84\text{ g/sm}^3 \div 0,88\text{ g/sm}^3$); og‘ir ($0,88\text{ g/sm}^3 \div 0,92\text{ g/sm}^3$) va juda og‘ir ($> 0,92\text{ g/sm}^3$).

360°S gacha qaynaydigan tiniq fraksiyalar miqdori: quiyi miqdorli [25% (mass.) gacha], o‘rta (25-50%), yuqori (50-75%) va o‘ta yuqori (75-100%);

oltingugurt miqdori% (mass): kam oltingugurtli - 0,05% (mass.); o‘rta oltingugurtli-0,5÷1,0%; oltingugurtli-1-3% va yuqori oltingugurtli ->3%;

smolasimon-asfalten moddalar miqdori % (mass): kam smolali- 10% gacha; smolali (10÷20%) va yuqori smolali (20÷35%);

qattiq parafin miqdori %(mass): kam parafinli -5% (mass.) gacha; parafinli (5÷10%) va yuqori parafinli (10% dan ortiq).

Texnologik sinflanish

Texnologik sinflanish odatda amaliy maqsadlarni ko‘zlaydi va muassasa xarakterini (geokimyoviy kabi) belgilaydi. Uning asosida neftni qayta ishlash texnologiyasida, u yoki bu moddalar assortimentini olishda ahamiyat kasb etuvchi xususiyatlar yotadi.

Xorijdagi bunday sinflanishlarni turli-tumanligiga to'xtalib o'tirmasdan Rossiyada qabul qilingan texnologik sinflanish (1967-yildan 1980-yilgacha – GOST 912-66. 1980-yildan to shu kungacha – OST 38.1197-80) ni ko'rib chiqamiz. Ushbu sinflanish bo'yicha neftlarda 5 xil sinflanish xususiyatlari qabul qilingan:

- oltingugurtning miqdori (neft sinfi);
- 350°S gacha bo'lgan rangsiz fraksiyalarning miqdori (neft turi);
- bazaviy moylarning potensial miqdori (neft guruhi);
- qovushqoqlik indeksi bo'yicha moylarning sifati (neft nimguruhi);
- qattiq parafinlarning miqdori (neft ko'rinishi).

3.3-jadval

Uglevodorodli tarkib bo'yicha sinflanishda neftlar 16 sinfga bo'lingan:

Neft sinfi	Miqdori, % (mass.)		
	alkanlar	sikloalkanlar	arenlar
Aromatik			50-75
Jiddiy-aromatik			75-100
Aromatik-naften		0-25	25-50
Naften-aromatik		25-50	50-75
Naften		50-75	0-25
Aromatik-naften		75-100	25-50
Jiddiy-naften			0-25
Aromatik-metan			25-50
uglevodorodli			
Metano-aromatik		0-25	50-75
Naften-metan		25-50	0-25
uglevodorodli		50-75	
Aromatik-naften-metan			25-50
uglevodorodli			
Metano-naften			0-25
Metan uglevodorodli	50-75	0-25	0-25

Aromatik-metan uglevodorodli		25-50	25-50
Naften-metan uglevodorodli			0-25
Jiddiy-metan uglevodorodli	75-100	0-25	0-25

Ushbu xususiyatlari bo'yicha quyidagi sinflanish me'yorlari reglamentlangan:

3.4-jadval

Neft sinfi

Neft sinfi	Oltingugurt miqdori, % (mass.)			
	neftda	benzin (Q.B.- 180°S) da	aviatsion kerosin (120- 240°S) da	dizel yoqilg'isi (240- 350°S) da
Kam oltingugurtli	$\leq 0,5$	$\leq 0,1$	$\leq 0,1$	$\leq 0,2$
Oltingugurtli	0,51-2,0	$\leq 0,1$	$\leq 0,25$	$\leq 1,0$
Yuqori oltingugurtli	$> 2,0$	$> 0,1$	$> 0,25$	$> 1,0$

3.5-jadval

Neft turi

Neft turi	350°S gacha fraksiyalarning miqdori, % (mass)
Engil	$\geq 55,0$
O'rta	45-54,9
Og'ir	< 45

3.6-jadval

Neft guruhi

Neft guruhi	Bazaviy moylarning potensial miqdori, % (mass)	
	neftga nisbatan	mazutga (350°S fraksiya)
1	> 25	> 45
2	15-24.9	45
3	15-24.9	30-44.9
4	< 15	< 30

3.7-jadval

Neft nimguruhi

Neft nimguruhi	Moylarning qovushqoqlik indeksi
1	> 95
2	90-95
3	85-90
4	< 85

3.8-jadval

Neft ko'rinishi

Neft ko'rinishi	Parafin miqdori, % (mass)	Deparafinizatsiya bo'yicha talablar	
		talab qilinmaydi	talab qilinadi
1 (kam parafinli)	$\leq 1,5$	Reaktiv va dizel yoqilg'ilarni hamda distillat bazaviy moylarni olish uchun	-
2 (parafinli)	1,51-6,0	Reaktiv va yozgi dizel yoqilg'ilarni olish uchun	Qishki dizel yoqilg'ini va distillat bazaviy

			moylarni olish uchun
3 (yuqori parafinli)	> 6,0	-	Reaktiv va dizel yoqilg'ilarни va distillat bazaviy moylarni olish uchun

Oltингурт ва парфинларнинг миқдори бо'yicha ушбу ме'йорлардан ко'риниб турбидики, таъблар нанағат нефта tegishli, balki eng ko'p qo'llaniladigan yonilg'ilarнинг (bazaviy moylar) ham sifatiga aloqadordir; нефти u yoki bu sinf yoki ko'rinishga kiritish uchun hal qiluvchi bo'lib distillatlarga qo'yilgan talablar hisobланади. Masalan, agarda неftda 0,48% (mass.) оltингурт bo'lib, 120-240°S fraksiyasida 0,15% оltингурт bo'lsa, нефт ikkinchi sinfga kiritiladi. Aksincha, agarda неftdagи оltингурт 0,6% miqdorda bo'lsa, hamda hamma distillatlarda uning miқdori birinchi sinf me'yorida bo'lsa, bunday нефти 1-sinfga kiritadilar.

Нефти bunday sinflashning mavjudligi yuqorida aytib o'tildi va u нефти qayta ishslash sanoatida 20-yildan beri, muvaffaqiyat bilan qo'llab kelinmoqda.

Ушбу sinflanish bo'yicha неft shifri 5 xonali shifrlar bilan yozilib, raqamlar nuqtalar bilan ajratiladi. Masalan, 1.2.2.1.3.-kam оltингуртли, rangsiz distillatlarini miқdori o'rtacha, yuqori indeksli moylari etarli yuqori miqdorda va yuqori parafinli неft; 3.2.3.4.1.-yuqori оltингуртли, rangsiz distillatlari o'rtacha miqdorli, quyi sifatli moylari quyi miqdorda va parafinlari kam неft.

Нефting shifri – bamisolи uning texnologik pasporti bo'lib, uni qayta ishslash yo'nalishini (yoqilg'i yoki moy), texnologik jarayonlar majmuasini (oltingugurtdan tozalash, deparafinizatsiya) va oxirgi mahsulotlar assortimentini belgilab beradi.

3.2. Нефт yoqilg'ilarи

Нефти asosiy qo'llanilishi – yoqilg'i va moy ishlab chiqarish (нефting har bir tonnasidan 700-800 kg) ekanligi ma'lum. Нефт yoqilg'ilarи boshqa ko'rinishli yoqilg'ilarдан birinchi navbatda ulkan

afzalliklari mavjudligi bilan ajralib turadi. Ushbu afzalliklarga ularning yuqori yonish issiqligi (40-43,5 MJ/kg), kam kul hosil qilishi (foizni yuzdan bir ulushlari), transportirovkasini, qo'yish-ortish va saqlashlarning oddiyligi, sarfini va yonish jarayonini tuslashning osonligi va boshqalar.

Neft yoqilg'ilariga qo'yiladigan asosiy umumiy talablar shundan iboratki, ular fizik-kimyoviy xossalari bo'yicha iste'molchi parametrlariga, ekspluatatsiya iqlimi sharoitlariga va atrof-muhitni minimal ifoslantirishiga mos kelishi shart va u yoqilg'inining mos standartlarida o'z ifodasini topadi.

Ushbu talablar neftni tabiiy kimyoviy tarkibi va undan yoqilg'i olish texnologiyasi hamda mos holdagi prisadkalar qo'shishi bilan qondiriladi.

Neftning tabiiy kimyoviy tarkibi faqat TS-1 reaktiv yoqilg'ini, yoritish kerosinlari va ayrim nest asosidagi erituvchilarni standartlar talabi bo'yicha fizik-kimyoviy xossalarni belgilaydi, boshqa hamma tovar yoqilg'ilar uchun esa u sifatning asosiy ko'rsatkichlariga qisman ta'sir qiladi.

Tovar yoqilg'ilarni olish texnologiyasi yuqorida zikr qilingan talablarni qondirishda jiddiy rol o'ynaydi. Mos ravishdagi yoqilg'i fraksiyalarini kimyoviy tarkibida yo'naltirilgan o'zgarishlar olib boruvchi texnologik jarayonlar haqida gap borayapti. Bular katalitik riforming, gidrotozalash va gidrokreking, deparafinizatsiya, katalitik kreking va boshqalar. Yoqilg'i olish texnologiyasining ahamiyatli bosqichi bo'lib yakuniy – kompaundlash bosqichi hizmat qiladi, ya'ni olinayotgan yoqilg'i uchun standart ko'rsatkichlar bo'lmish kerakli zichlik, fraksion tarkib, guruh-kimyoviy tarkib, qovushqoqlik, oltingugurt miqdori, qotish va o'z-o'zidan yonish haroratlari, kislotalilik va boshqalar bir necha komponentlar aralashtirib (kom-pudirlab) vujudga keltiriladi.

Prisadkalarni kiritish – amalga oshirilgan bosqichlar oqibatida yoqilg'inining xossalarni lozim bo'lgan ko'rsatkichgacha etkazilmay qolganda amalga oshiriladi.

Prisadkalar – maxsus kimyoviy moddalar bo'lib, juda kam miqdorda qo'shilganda yoqilg'ilarning bir yoki bir necha ekspluatatsion xossalarning iste'molchi tomonidan qo'yilgan talablariga erishiladi.

Taklif qilingan sinflanishga ko'ra hamma prisadkalar ikki guruhga bo'linadi – barqarorlashtirgichlar va modifikatorlar.

Barqarorlashtirgichlar – yuqorida bayon qilingan ikki bosqich oqibatida yoqilg'ining vujudga keltirilgan fizik-kimyoviy xossalari ni saqlab qolish (barqarorlashtirish) imkoniyatini beruvchi prisadkalardir.

Modifikatorlar – yoqilg' ilarga kiritish orqali uni o'zgartiradigan (modifikatsiyalovchi) yoki ularga yangi xususiyatlar beruvchi, shuningdek, standart talablariga javob berishni ta'minlovchi prisadkalardir. Modifikatorlar o'z ta'sir mexanizmi bo'yicha radikal va kolloid-kimyoviy ta'sirli prisadkalarga ajratiladi.

Quyida ushbu guruh asosiy prisadkalarini yoqilg'idagi mumkin bo'lgan konsentratsiyasi % (mass.) keltirilgan.

3.9-jadval

Prisadkalar	Miqdori, % (mass.)
Barqarorlashtirgichlar: (prisadkalar)	oksidlanishga qarshi ($0,002 \div 0,100$); metallar deaktivatorlari ($0,003 \div 0,005$); biosidlilar ($0,0001 \div 0,010$).
Radikal ta'sirli modifikatorlar:	antidetonatorlar ($0,05 \div 0,30$); setan sonini oshiruvchilar ($0,25 \div 2,0$); tutunga qarshi ($0,25 \div 0,5$); qurumga qarshi ($0,003 \div 0,020$).
Kolloid-kimyoviy ta'sirli modifikatorlar:	eyilishga qarshi ($0,001 \div 0,050$); korroziyaga qarshi va kimyoviy ($0,0008 \div 0,0050$); yuvuvchi va dispergiyalovchi ($0,001 \div 0,100$); depressor ($0,01 \div 1,50$); antistatik ($0,0001 \div 0,0100$); yaxlab qolishga qarshi ($0,05 \div 0,5$).

Neft yoqilg'isining har bir turiga talab qilingan prisadkalar yig'-masi (bittadan beshtagacha) qo'shiladi va yoqilg'i tavsifnomasida eslatib o'tiladi.

Neftdan olinadigan asosiy yoqilg' ilarga quyidagilar kiradi:

- uglevodorodli gaz yoqilg'ilar – tabiiy gaz (C_1-C_2) yoki suyultirilgan gaz (C_3-C_4);
- benzinlar ($30\div180^{\circ}\text{C}$ yoki $30\div195^{\circ}\text{S}$ fraksiya) – aviatsiya va avtomobillar uchun;
- aviatsion kerosinlar ($140\div230^{\circ}\text{S}$ yoki $190\div315^{\circ}\text{S}$ - fraksiya);
- traktor kerosini ($100\div300^{\circ}\text{S}$ fraksiya);
- dizel yoqilg'ilar ($150\div320^{\circ}\text{S}$ yoki $180\div360^{\circ}\text{S}$);
- gazoturbina yoqilg'ilar – statsionar va transport gazoturbina qurilmalari uchun;
- maishiy pech yoqilg'ilar – maishiy kommunal pechlar uchun;
- bug' qozoni yoqilg'ilar – energoqurilmalar, metallurgiya, kimyoziy sanoat va boshqalar;
- neft koksi (agarda u energoqurilmada qo'llanilsa).

Neft yoqilg'ilarini xalqaro sinflanishi (standart ISO 8216-86) mavjud bo'lib, unga ko'ra ushbu yoqilg'ilar sinfi F (Fuel) harfi bilan belgilanib, so'ng esa ko'rinishi mos holdagi harf bilan ifodalanadi:

G – gaz holatdagi yoqilg'ilar (C_1-C_2);

L – yoqilg'i sifatida ishlatiluvchi suyultirilgan gazlar (C_3-C_4);

D – distillat yoqilg'ilar (benzindan gazoturbina yoqilg'ilariga gacha);

R – qoldiq yoqilg'ilar (bug' qozoni);

C – yoqilg'i kabi ishlatiluvchi neft koksi.

Hamma yoqilg'ilar qo'llanilish sohasi bo'yicha quyidagicha markalanadi: C – statsionar dvigatellar uchun yoqilg'i va M – dengiz dvigatellari yoqilg'isi. Shu standartga ko'ra yoqilg'i belgilanishi mumkin, masalan, ISO-F-DMT-3 (so'nggi harf va undan keyingi raqam yoqilg'i sifat darajasini belgilaydi).

Uglevodorodli gaz yoqilg'ilar

Uglevodorodli gaz yoqilg'ilarini olish uchun xom ashyo tabiiy gaz yoki suyultirilgan neft gazidir.

Tabiiy gaz. Konda tabiiy gaz tozalanib quritilgach magistral gaz o'tkazgichlar orqali iste'molchiga jo'natiladi va pech yoki motor yoqilg'isi sifatida qo'llaniladi. Birinchi holda u asosan kommunal-

maishiy gaz (GOST 5542-50) holida gaz maishiy plitalarda, texnologik pechlar (non pishirish, sut va ho'l mevalarni quritish va shu kabilalar) da, hamda issiqlik energetikasida, metallurgiyada va shu kabilarda sanoat o'txona gazi sifatida qo'llaniladi.

Tabiiy gaz motor yoqilg'isi sifatida 20 MPa gacha siqilgan holda ishlatiladi. Buning uchun maxsus kompressorli gaz quyish stan-siyalari quriladi.

Siqilgan tabiiy gaz (STG) avtomobil (avtobus) dagi mavjud maxsus 10-12 ballonga to'latiladi, u o'rtacha motor yoqilg'isi xossalariga ega: $OS_m = 100-105$, yonish issiqligi $Q_p^H = 35 \div 36 \text{ MJ/nm}^3$ (45 MJ/kg ga yaqin).

Motor yoqilg'isi sifatida qo'llashdagi kamchiligi – avtomobildagi ballonlar massasining kattaligi, silindrga so'rileyotgan yonilg'i modda massasining kamligi va yoqilg'i-havo aralashmasini nomutanosibligi bois dvigatel quvvatini 10-12% ga pasayishidir.

Suyultirilgan neft gazi (MDH) – propan-butan fraksiyasidir, uni yo'ldosh neft gazlarini yoki zavodni ikkilamchi uglevodorodli gazlarini fraksiyalashda olinadi. Ushbu gaz odatdag'i haroratda, 1,0-1,4 MPa bosim ostida suyultirilgan holatda bo'ladi. MDH da o'txona va motor yoqilg'isi sifatida qo'llaniladi. Motor yoqilg'isi sifatida ishlatiluvchi suyultirilgan gazni uchta markasi mavjud bo'lib, ular (GOST 20448-75) – texnik propan-butan aralashmasi; qishki (SPBTQ) va yozgi (SPBTYO) hamda texnik butandan (BT) iborat.

3.10-jadval

Suyultirilgan gazlarning sifat ko'rsatkichlari

KO'RSATKICH	SPBTQ	SPBTYO	BT
Miqdori, % (mass.):			
metan+etan+etilen,	4	6	6
ko'p emas	75	normalanmagan	
propan+propilen,		normalanmagan	60
kam emas			
butanlar+butilenlar,	1	2	2
kam emas			
suyuq qoldiq (C_5+), 20°C			
da, % (hajm), ko'p emas			


To'yingan bug'lar bosimi, MPa: 45°C da, ko'p emas -20°C da, kam emas	1,6 0,16	1,6 -	1,6 -
Oltингугурт саqlовчи би- риkmalar (vodorod sulfid + tiollar) miqdori, ko'p emas	0,015	0,015	0,015

Suyultirilgan neft gazi yuqori oktan soniga (95-102) va 45-47 Mj/nm³ yonish issiqligiga ega. Siqilgan tabiiy gaz kabi u ham ekologik toza yoqilg'i bo'lib konvertirlanadigan ichki yonish dvigatellarida rezerv yoqilg'i sifatida qo'llaniladi. Ushbu dvigatellarda benzindan suyultirilgan gazga o'tishda yuqoridagi sabablarga ko'ra quvvat 6-8% ga pasayadi va yoqilg'ining nisbiy sarfi 10-12% ga oshadi.

Benzinlar

Tovar benzinlar neftdan bevosita ajratib olingan fraksiya emas (3.1-rasm). Ular neftdan AVT qurilmasida ajratib olingan komponentlar aralashmasini (fraksiyani) neft mahsulotlarini termik va termokatalitik qayta ishlash jarayonlari mahsulotlari bilan talab qilingan tarkib, oktan soni, benzinni boshqa belgilangan sifat ko'rsatkichlarni ta'minlash uchun qo'shiladi.

NBD – neftni birlamchi distillyatsiyasi (AVT); KR – katalitik riforming (aromatizatsiya); GT – gidrotozalash; NQK – neft qoldiqlarini kokslash; KK – katalitik kreking; Alk – izobutanni butilenlar bilan alkillash; KC – kompaundlash stansiyasi; DYO – gidrotozalangan dizel yoqilg'isi; BBF – butan-butilen fraksiyasi (chiziqlardagi raqamlar – fraksiyalarni qaynash chegaralari). Quyida ushbu jarayonlarda (3.1-rasmga qarang) olinadigan benzin komponentlarini taxminiy guruhli uglevodorod tarkibi keltirilgan, % (mass.) da.



3.1-rasm. Tovar benzinlar olishning soddalashtirilgan chizmasi

3.11-jadval

Uglevodorodlar guruhi	NBD	NQK	KK	KR
Aromatikalar	3÷10	12÷26	20÷25	30÷50
Naftenlar	12÷30	5÷10	15÷20	5÷10
Parafinlar	60÷70	40÷50	40÷50	20÷40
Olefinlar	< 1	20-30	20-25	< 1

Ularning hammasi 65÷70 dan (neftni birlamchi distillyatsiyasidagi benzin fraksiyasi uchun) 90÷95gacha (katalitik riforming benzin uchun) turli oktan sonlariga ega. Tovar benzin tayyorlash uchun bazaviy komponent oktan sonlari motor usuli bo'yicha taxminan 79 va 75 bo'lgan katalitik kreking yoki katalitik riforming benzin fraksiyasi olinib, unga bir yoki bir nechta yuqori oktan sonli aromatik bo'limgan qo'shimchalar (masalan, izopentan yoki oktan soni motor usuli bo'yicha 89 bo'lgan izooktan konsentrati— alkilat), hamda aromatik uglevodorodlar (masalan, 100 oktan soniga ega bo'lgan toluol) qo'shiladi. Ushbu komponentlar ulushini aralashmadagi miqdorini me'yorlab tovar benzinni talab qilingan oktan soniga va fraksion tarkibiga erilishiladi. Hosil qilingan aralashmaga oksidlanishga qarshi va detonatsiyaga qarshi prisadkalar ham kiritiladi. Xorijda aviabenzinga antistatik va muzlab qolishga qarshi

prisadkalar ham qo'shadilar. Er va havo transportlari uchun avtomobil va aviatsion benzinlar ishlab chiqariladi.

Avtomobil benzinlari. Avtomobil benzinlari turli-4 markalarda ishlab chiqariladi— Ai-80, Ai-91, Ai-93 va Ai-98, bu erda raqamlar (80,91, 93 va 98) izlanish usuli (belgilanishda «i» harfi) bo'yicha oktan sonini ko'rsatadi. Eng ko'p ishlataladigan ushbu benzinlarning ikki markasi uchun standart bo'yicha normalashtiriladigan asosiy sifat ko'rsatkichlari 3.12-jadvalda keltirilgan.

Avtomobil benzinlari turli fraksion tarkibda yoz mavsumi (01.04 dan 01.10 gacha) va qish mavsumi (01.10 dan 01.04 gacha) uchun mo'ljallab tashqi muhit haroratiga mos ravishda bug'lanuvchanligi to'g'ri keladigan qilib chiqariladi. Shunga mos holda te'yingan bug'bosimi ham (u qishki sortlarda oshirilgan) turlichadir. Oktan sonini oshirish uchun benzinka 0,5 g/kg gacha to'rtetil qo'rg'oshin (TEQ) qo'shiladi, biroq hozirda benzinlarni TEQ dan xolos qilish (ekologik nuqtai nazar bo'yicha) va uni yuqori oktanli qo'shimchalar (ular sifatida OC=94-96 bo'lgan alkil-benzinlar, toluol, OC=100-117 bo'lgan metiltributil efiri va boshqalar) bilan almashtirish kursi qabul qilingan.

3.12-jadval

Benzinlarning sifat ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Avtomobil				Aviatsion	
	Ai-80		Ai-93		B-91/115	B-70
	yoz-gi	qish-ki	yoz-gi	qish-ki		
1	2	3	4	5	6	7
Oktan soni, kam emas: izlanish usuli bo'yicha	80 -	80 -			91 95	71 -
Qo'rg'oshin miqdori, g/l	0,24	0,24	0,5	0,5	2,5*	-
Fraksion tarkibi, °C: qaynashni bosqlanishi, quyi emas	35	-	35	-	40	40
	70	55	70	55	82	88

10% (hajm.) qaynab chiqadi, yuqori emas 50% (hajm.) qaynab chiqadi, yuqori emas 90% (hajm.) qaynab chiqadi, yuqori emas qaynashni oxiri	115 180 195	100 160 185	115 180 195	100 160 185	105 145 180	105 145 180
To'yingan bug' bosimi, kPa, kam emas	66,7	66,7-93	66,7	66,7-93	29,3	-
Kislotalilik, mg KON/100 ml, ko'p emas	3	3	3	3	1	1
Smolalar miqdori, mg/100ml, ko'p emas	5	5	5	5	-	-
Oltингugurt miqdori, % (mass.), ko'p emas	0,1	0,1	0,1	0,1	0,05	0,05
Yonish issiqligi, MJ/kg, ko'p emas	-	-	-	-	43,16	-

* - TEQ miqdori, g/kg

Aviatsion benzinlar. Aviatsion benzinlar (3.12-jadvalga qarang) kichik parrakli samolyotlar va vertolyotlar uchun qo'llaniladi. Ularni ham 4 markada – B-100/130, B-95/130, B-91/115 va B-70 ishlab chiqarilmoqda; markalardagi birinchi raqam – motor usuli bo'yicha oktan soni, ikkinchisi esa – sortligini (% da) ko'rsatadi. Ushbu benzinlar mavsum bo'yicha sortlarga ega emas, chunki muhit harorati (uchishda)-yil davomida kam o'zgaradi. Ularga TEQ dan ko'proq miqdorda (2,5 dan 3,3 g/kg gacha) qo'shiladi, ular uchun kislotalilik, smola va oltингugurt miqdori bo'yicha normalar qattiqroqdir.

Reaktiv yoqilg'ilar (aviatsion kerosinlar)

Bu zamonaviy reaktiv aviatsiya yoqilg'isining asosiy ko'rinishi bo'lib, nisbatan yaqinda (40-yillarda) ishlab chiqarila boshlagan. Ular turbokompressorli parrakli reaktiv dvigatelli samolyotlar va qudratli vertolyotlar uchun mo'ljallangan, shu bois ularga sifat bo'yicha juda qattiq talablar qo'yiladi. Xususan, ular tez harakatdagi havo oqimida (mo'llilik koeffitsiyenti $\alpha=1.4\div1.5$) qurum hosil qilmay muallaq

yonishi, istalgan sharoitlarda dvigatelni ishonchli o't oldirilishini ta'minlashi, maksimal mumkin bo'lgan yonish issiqligiga ega bo'lishi lozim.

Ushbu talablar yoqilg'ining ma'lum kimyoviy tarkibi bilan to'liq qondiriladi (xususan, undagi naften va izoparafin uglevodorodlarning maksimal miqdori bilan). Benzinlar va boshqa motor yoqilg'ilaridan farqli o'laroq, aviakerosinlar bir komponentli yoqilg'illardir, ya'ni ularni bir nechta komponentlarni aralashtirib hosil qilish ruxsat etilmaydi.

Ular neftni birlamchi distillyatsiyasida mos fraksiya holida ajratib olinadi. Ayrim markalar uchun bundan so'ng oltingugurt, kislota va aromatikaning bir qismidan tozalash uchun gidroaromatlashtirish jarayonlari ruxsat etiladi.

Talab qilingan kimyoviy tarkib va chuqur kimyoviy konversiya jarayonlarini qo'llamay, aviatcion kerosin olish texnologiyasi kabi bunday og'ir chegaralanishlarni hisobga olgan holda, ular faqat ma'lum (kimyoviy tarkibli) neftlardan olinishi mumkin va shu bois ularni ishlab chiqarish uchun neftlar resursi chegaralangan.

Reaktiv yoqilg'ilar standartlari ularga prisadkalar kiritishni ham chegaralaydi va katta bo'limgan konsentratsiyalarda oksidlanishga qarshi va yoyilishga qarshi prisadkalar qo'llashga ruxsat beradi.

Yozda qo'llash sharoitlaridan kelib chiqqan holda tovush tezligigacha va tovush tezligidan yuqori tezlikda uchadigan aviatsiya uchun aviatcion kerosinlarning quyidagi markalari ishlab chiqarilmoqda (3.13-jadval).

T-1 va TS-1 (tovush tezligigacha yoqilg'ilar) – mos ravishdagi $150\div280^{\circ}\text{C}$ va $130\div240^{\circ}\text{C}$ neft fraksiyalari kam oltingugurtli va oltingugurtli neftlardan qo'shimcha tozalanmasdan (TS-1) yoki organik kislotalardan qo'shimcha tozalash (T-1) bilan olingan.

RT – o'tish yoqilg'isi, ham tovush tezligigacha tezlik bilan uchuvchi, ham tovush tezligidan yuqori tezlik bilan uchuvchi ($M \leq 1,5$) aviatsiya uchun $140\div280^{\circ}\text{C}$ neft fraksiyasi keyingi gidrotozalash bilan.

Aviatsion kerosinlarning sifat ko'rsatkichlari

KO'RSATKICH	TS-1	RT	T-6
I	2	3	4
Zichlik ρ_4^{20} , kam emas	0,775	0,775	0,840
Fraksion tarkib, °C:			
qaynashni boshlanishi, yuqori emas	150	-	-
qaynashni boshlanishi, quyi emas	-	135	195
10% (hajm.) qaynab chiqadi, yuqori emas	165	175	220
50% (hajm.) qaynab chiqadi, yuqori emas	195	225	255
90% (hajm.) qaynab chiqadi, yuqori emas	230	270	290
98% (hajm.) qaynab chiqadi, yuqori emas	250	280	315
Kinematik qovushqoqlik, mm ² /s, ko'p emas:			
20°C da	1,25	1,25	$\leq 4,5$
40°C da	8	16	60
Quyi yonish issiqligi, MJ/kg, kam emas	42,9	43,12	42,91
Aromatik uglevodorodlar miqdori, % (mass.), ko'p emas	22	18,5	10
Oltингugurt miqdori, % (mass.), ko'p emas	0,25	0,1	0,05
Termik barqarorlik, mg/100 ml, ko'p emas:			
150°C, 4 soat	10	-	-
150°C, 5 soat	-	6	6
Dudsiz alanga balandligi, mm, kam emas	25	25	25

T-6 – tovush tezligidan yuqori tezlik bilan uchuvchi aviatsiya ($M = 3,5$ gacha). Maxsus neftlardan keyinchalik gidrirlab (gidro-dearomatizatsiyalab) ajratib olingan $195 \div 315^{\circ}\text{C}$ – fraksiya. Gazoilni katalitik krekinglab, undan keyin ketidan gidrodearomatizatsiyalab olingan $195 \div 300^{\circ}\text{C}$ – fraksiyadan ham olinishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan yoqilg'ilar raketaning suyuqlikda ishlovchi reaktiv dvigateellarida (CRD) qo'llanilishi mumkin.

Aviatsion kerosinlarni 3.13-jadvalda keltirilgan asosiy sifat ko'rsatkichlari – qovushqoqlik, zichlik, yonish issiqligi va ulardagi

oltingugurt hamda aromatik uglevodorodlarning miqdori bo'yicha yuqori talablar qo'yilganligi haqida guvohlik beradi.

Ushbu yonilg'ilarning uzoqlikka va tez uchishni ta'minlovchi energetik xossalariga alohida e'tibor berish lozim.

Yonish issiqligi va zichlik normalari hajm birligidagi energiya zaxiralarini $Q_{P(hajm.)}^H$ (Mj/l da) ifodalaydi, chunki $Q_{P(hajm.)}^H = Q_P^H \cdot \rho$.

Uchish jihozlari uchun $Q_{P(hajm.)}^H$ kattaligi o'ta zarur, chunki uchish texnikasidagi yoqilg'i sig'imlarining hajm bo'yicha chegaralanishlari uchun har bir birlik hajm issiqlik energiyasi potensial zaxirasining ko'proq qismini o'zida sig'dirgani ahamiyatlidir.

Ayrim uglevodorod guruhlari va yoqilg'ilar uchun Q_P^H va $Q_{P(hajm.)}^H$ larni taqqoslash ma'lumotlari quyida keltirilgan:

3.14-jadval

Normalar	Alkan-lar	Naften-lar	Aroma-tik birik-malar	TS-1	T-B	B-70
Q_P^H , MJ/kg	47,5	46,0	43	43	43	43,5
$Q_{P(hajm.)}^H$, MJ/l:						
20°C da	34	38,5	39,5	33,6	36,4	31,8
-40°C da	-	-	-	35,6	38,2	33,9

T-6 yoqilg'ining har bir litri TC-1 yoqilg'iga qaraganda deyarli 10%, B-70 aviatsiya benziniga nisbatan esa deyarli 15% ortiq energiya olib yurishi ayondir.

Dizel yoqilg'ilar

Dizel yoqilg'ilar – er usti (avtomobillar, traktorlar, teplovozlar, shatachkilar va shu kabilar) va SUV transporti ommaviy motor yoqilg'ilaridan biri bo'lib, neftni qayta ishlash umumiyligi miqdoriga nisbatan 28-30% gacha ishlab chiqariladi. Ular siqish oqibatida alanganuvchi ichki yonish dvigatellarida qo'llaniladi va shunga

mos ravishda ma'lum talablar (yuqori setan soni, yaxshi bug'lanuvchanlik va boshqalar) qo'yiladi.

Belgilangan maqsadga bog'liq holda ikki guruh dizel yoqilg'ilar ishlab chiqariladi: tez yuruvchi dizellar (800 ayl./daqiqa) uchun (engil yoqilg'ilar) va kichik aylanishlik, sekin yuruvchi dvigatellar (150-500 ayl./daqiqa) uchun (og'ir yoqilg'ilar).

Tezyurar (avtotraktor, teplovoz, burg'ulash qurilmalari, tanklar va shu kabilar) dvigatellar uchun asosan bir komponentli yoqilg'ilar ishlab chiqariladi, ya'ni neftni birlamchi distillyatsiyatsida $180\div360^{\circ}\text{C}$ (yoki $150\div320^{\circ}\text{C}$) fraksiyani aromatizatsiya yoqimliroq qilish (oltingugurtdan tozalash, qotish haroratini pasaytirish maqsadida n-alkanlarni ajratib olish) yo'li bilan. Birlamchi distillyat bo'lgan dizel yoqilg'isini, katalitik krekingda olingan ikkilamchi analogik fraksiya ($180\div360^{\circ}\text{C}$) bilan aralashtirishga ruxsat beriladi. Iqlimiyl alomatga ko'ra tezyurar dvigatellar uchun dizel yoqilg'ilarning 4 markasi standartda ko'rsatilgan:

L-marka—yozgi, havo harorati 0°C dan yuqori bo'lganda qo'llashga mo'ljallangan.

Z-marka (ikki ko'rinishda): qishki, o'rta polosada havo harorati -20°C dan yuqori bo'lganda qo'llashga mo'ljallangan va qishki, shimoliy rayonlar (RF) da havo harorati -30°C va undan quyi bo'lganda qo'llash uchun mo'ljallangan.

A-marka – arktik, havo harorati -50°C va quyi.

Ushbu markalarning har biri oltingugurt miqdori bo'yicha ikki ko'rinishda – kam oltingugurtli (oltingugurt 0,2% dan ko'p emas) va oltingugurtli (0,5% dan ko'p emas). Sekin yurar dvigatellar (kemalarning quvvatli dizellari va statsionar dizellari) uchun og'ir yoqilg'ilarni ikki markasi – DT va DM ishlab chiqarilmoqda. Ular og'ir distillatlarni ($300\div500^{\circ}\text{C}$) neftni qayta ishlash qoldiq mahsulotlari bilan aralashtirib tayyorlanadi. Dizel yoqilg'ilar uchun me'yorlangan asosiy sifat ko'rsatkichlar 3.15-jadvalda keltirilgan:

**Dizel yoqilg'ilar uchun me'yorlangan asosiy sifat
ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkich	Tezyurar ichki yonish dvigatellari (IYOD) uchun				Sekin yurar IYOD uchun	
	L	Z	A	RFC	DT	DM
Setan soni, kam emas	45	45	45	45	-	-
Zichlik ρ_4^{20} , ko'p emas	0,860	0,840	0,830	-	0,930	0,970
Fraksion tarkib: 50% (hajm.) qaynab chiqadi, ${}^{\circ}\text{C}$, kam emas	280	280	255	290	-	-
96% (hajm.) qaynab chiqadi, ${}^{\circ}\text{C}$, kam emas	360	340	330	360*	-	-
Harorat, ${}^{\circ}\text{C}$: xiralanish, yuqori emas	-5	-25	-	+5	-	-
qotish, yuqori emas	-10	-35	-55	0	-5	+10
chaqnash, kam emas	40	35	30	40	65	85
Qovushqoqlik, 20°C da (DT, DM uchun 50°C da)	3-6	1,8-5	1,5-4	3-6,5	36	150
Smolalar miqdori, mg/100 ml, ko'p emas	40	30	30	-	-	-
Kokslanuvchanlik, %, ko'p emas	-	-	-	-	3	10
Filtrlanuvchanlik koeffitsiyenti, ko'p emas	3	3	3	3	-	-

• - 90% (hajm.) qaynab chiqadi.

Dizel yoqilg'ilarini Z va A markalarini olish zamonaviy texnologiyasida n-alkanlar C₁₂–C₂₀ (potensialga nisbatan 95% gacha) yoqilg'inining qotish haroratini pasaytirish va shu bilan birga neft kimyo uchun qimmatli xom ashyo suyuq parafin olish maqsadida ajratib olinadi. Bu yoqilg'inining setan sonini pasayishiga (35-38 gacha) olib keladi. Uni me'yorga etkazish uchun dizel yoqilg'isiga 0,5-2,0% miqdorda alangala nuvchanlikni oshirish (ya'ni setan sonini) uchun prisadka – izopropilnitrat, etilnitrat yoki tetralin peroksiidi kiritiladi.

Engil yoqilg'ilarga (L, Z va A) ushbu prisadkalardan tashqari antioksidlovchi va eyilishga qarshi prisadkalar ham qo'shiladi. So'nggi yoqilg'ini moylash xususiyatini yaxshilaydi va buning oqibatida yoqilg'i dozatori bo'l mish plunjерli nasosning eyilishini kamaytiradi. Xorijda ayrim firmalar dizel yoqilg'isiga tutunga qarshi, qurumga qarshi va biosid (yoqilg'i – issiq, nam iqlimli mamlakatlarga etkazib berilganda) prisadkalar kiritadilar.

Og'ir dizel yoqilg'ilari birmuncha boshqa prisadkalar to'plami kiritiladi. Bular – metallarning deaktivatorlari, eyilishga qarshi, qurumga qarshi va depressor prisadkalardir.

So'nggi vaqtida dizel yoqilg'isiga bo'lgan ehtiyoj keskin ortayapti. Ularni ishlab chiqarish neftni qazib olishni barqarorlashuvi va amaldagi sifat me'yorlari bilan chegaralanib turibdi. Bu esa tezyurar dizel dvigatellarida kengroq fraksion tarkibli yoqilg'ilarning (masalan, 100–450°C intervalda qaynovchi yoqilg'i) qo'llanilish imkoniyatlarini o'rGANIB chiqishga majbur etdi. Ushbu yo'nalishda birinchi qadamlar 1988-yilda qo'yilib, kengaytirilgan fraksion tarkibli yoqilg'i (RCF) ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi (3.15-jadvalga qarang). Ushbu yoqilg'i asosan qaynashining oxiri bo'yicha og'irlashtirilgan. Dizel dvigatellarining mos ravishda konstruksiyalarini o'zgartirish oqibatida ushbu tendensiya, ko'rinishdan, kelajakda ham saqlanib qoladi.

Gazoturbina yoqilg'ilar

Ushbu yoqilg'ilar statsionar gazoturbinali qurilmalar (GTQ)– kompressor yoki elektr stansiyalar, hamda suv kemasi GTQ lari uchun ishlab chiqariladi.

U yo bir komponentli (og‘ir dizel yoqilg‘isi turidagi neft distillati), yoki neftni to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydab olingan distillati ($200\div400^{\circ}\text{C}$) va 500°C gacha qaynovchi ikkilamchi kelib chiqishli distillatlardan iborat aralashmali, ko‘p komponentli qilib ishlab chiqariladi.

Ushbu yoqilg‘ilar o‘rtacha qovushqoqligi ($\text{VU}_{50} \leq 3$) sm^2/s , odatda oltingugurtli (oltingugurtning miqdori 1% dan yuqori emas); ularda vanadiyning miqdori ($\leq 4 \text{ mg/kg}$) ham normalanadi [vanadiy (V)-oksidi yuqori haroratlarda legirlangan metallarni, xususan gaz turbinasi belkuraklari yuzasini vanadiyli korroziyaga uchratadi]. Ushbu yoqilg‘ilar uchun prisadkalar komplekti, og‘ir dizel yoqilg‘ilarinikiga o‘xhash bo‘ladi.

Pech yoqilg‘ilari

Ushbu yoqilg‘ilar yakka tartibdagi maishiy (kommunal) isitish pechlari uchun mo‘ljallangan. Ular neftni birlamchi distillatsiyalash jarayoni distillatini ($180\div360^{\circ}\text{C}$) katalitik kreking, kokslash, gidrokreking va boshqa jarayonlarning analogik ikkilamchi kelib chiqishli fraksiyalari bilan kompaundlash yo‘li bilan ishlab chiqariladi. O‘z xususiyatlari bilan quyidagi xossalarga ega bo‘lgan engillashtirilgan dizel yoqilg‘isini eslatadi:

3.16-jadval

Ko‘rsatkichlar	Sifat raqamlari
Fraksion tarkib:	
10% (hajm.) qaynab chiqadi, ${}^{\circ}\text{C}$, quyi emas	160
96% (hajm.) qaynab chiqadi, yuqori emas	360
Harorat, ${}^{\circ}\text{C}$: qotish, yuqori emas	-15
lov etib yonish, quyi emas	42
Qovushqoqlik v_{20} , mm^2/s , yuqori emas	5
Oltингugurt miqdori, % (mass.), yuqori emas (qavsdas – oltингugurtli yoqilg‘i uchun)	0,5 (1,0)

AQSh da pech maishiy yoqilg'isini ishlab chiqarish hajmi ancha katta va-yiliga bir necha million tonnani tashkil qiladi, Rossiyada esa u nisbatan kam ishlab chiqariladi.

Bug' qozoni yoqilg'ilar

Bug' qozoni yoqilg'ilar motorga mo'ljallanmagan yoqilg'ilar guruhini ishlab chiqarish hajmi bo'yicha eng ko'p ishlab chiqariladi. Ular issiqlik elektr stansiyalari, kemalar energoqurilmalari va neftni qayta ishslash, metallurgiya hamda qishloq xo'jaligi (mahsulotni quritish) texnologik pechlari uchun mo'ljallangan.

Hamma bug' qozoni yoqilg'ilar ko'p komponentli bo'lib. Ularning bazaviy komponenti – mazut (350°C dan yuqori fraksiya) neftni birlamchi distillyatsiya qoldig'i yoki gudron (500°C dan yuqori fraksiya) hamda kreking jarayoni qoldiqidir. Ularning tarkibiga qo'shiladigan kam qovushqoqli komponentlar sifatida katalitik va termik kreking og'ir gazoillari ($350\div450^{\circ}\text{C}$ fraksiya), moy ishlab chiqarish ekstraktlari va shunga analogik tarkibli mahsulotlar kiradi. Bug' qozoni yoqilg'ilarining asosiy prisadkasi ularni qotish haroratini pasaytiruvchi depressorli prisadkalardir.

GOST bo'yicha umumiy maqsadlar uchun mo'ljallangan bug' qozoni yoqilg'ilar (o'txona mazuti) va metallurgiya uchun pech yoqilg'ilar ishlab chiqariladi. Umumiy maqsadlar uchun yoqilg'ilarning 4 markasi – engil (flot) – F-5 va F-12, o'rta – M-40 va og'ir – M-100 ishlab chiqariladi.

Pech yoqilg'ilar uchta markaga – MR, MR-1 va MPVA (yuqori aromatlashtirilgan) ega. Ularning asosiy sifat ko'rsatkichlari quyida 3.17-jadvalda keltirilgan.

Pech yoqilg‘ilarining asosiy sifat ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	F-5	F-12	M-40	M-100	MR
Qovushqoqlik (VU), ko‘p emas:	5	12	-	-	-
VU ₅₀ , mm ² /s	-	-	8	16	5-16
VU ₈₀ , mm ² /s					
Oltингugurt miqdori, % (mass.), ko‘p emas:					
kam oltингugurtli yoqilg‘i	-	0,6	0,5	0,5	0,5
oltingugurtli yoqilg‘i	2	-	2,0	2,0	1,5
yuqori oltингugurtli yoq.	-	-	3,5	3,5	-
Kokslanuvchanlik, %, ko‘p emas	6	6	-	-	≥ 8
Harorat, °C: qotish, yuqori emas	-5 80	-8 90	10 90	25 110	25 110
lov etib yonish*	(YO T)	(YO T)	(OT)	(OT)	(OT)
Kul hosil qilish, % (mass.), ko‘p emas	0,05	0,10	0,12	0,14	0,3
Suv miqdori**, ko‘p emas	0,3	0,3	1,5	1,5	1,0

* YoT va OT – mos ravishda yopiq va ochiq tigelda.

** Suv yo‘li bilan tashilgan yoqilg‘ilar uchun 2% gacha (F) va 5% gacha (M-40 va M-100) ruxsat etiladi.

Nest zaxiralarining kamayib borishi va uni chuqur qayta ishlashga bog‘liq holda kelajakda bug‘ qozoni yoqilg‘ilarining bazaviy komponentlari sifatida ishlab chiqarish keskin qisqarib boradi. Bu esa uni ishlab chiqarish quvvatlari hajmining qisqarishiga, uning tarkibida ikkilamchi distillatlar ulushini oshishi hisobiga o‘zgarishiga olib keladi. Bug‘ qozoni yoqilg‘ilari ishlab chiqarish hajmlarining kamayishi, ushbu maqsadlar uchun tabiiy gazni qo‘llash oqibatida kompensatsiyalanadi.

Bug‘ qozoni yoqilg‘ilarini qo‘llashdagi jiddiy muammo ulardagi oltингugurning yuqori miqdordaligi (o‘rtacha ko‘rsatkich – 2,0% (mass) atrofida). Ushbu yoqilg‘ilarni yoqish oqibatida-yiliga 2 mln.

tonnaga yaqin oltingugurt (yoki 4 mln. tonnaga yaqin oltingugurt (IV) oksidi) atmosferaga tashlanadi (RF hududida). Bunday ulkan miqdordagi oltingugurt oksidlarini tashlashni qisqartirishni ham, og‘ir neft qoldiqlaridan oltingugurt saqlovchi birikmalarni yo‘qotish bosqichini ham, mo‘ri tashlandiq gazlaridan oltingugurt oksidlarini yo‘qotish bosqichini hal qilish, murakkab texnologik va muhandislik muammolaridir.

Ushbu muammolarning qandaydir bir echimi bo‘lib, neftni qayta ishlashni «chuqurlashtirish» va oltingugurtli bug‘ qozoni yoqilg‘ilarini tabiiy gaz bilan almashtirishga erishish kerak.

3.3. Neft moylari

Neftdan olinadigan moylarning umumiy miqdori unchalik ko‘p emas, u qayta ishlanayotgan neftni hajmining 1,5-2,0% ini tashkil qiladi, ularni olish texnologiyasi yoqilg‘i ishlab chiqarish texnologiyasiga nisbatan murakkab va ko‘p energiya talab qiladi.

Neft moylari nomaqbul qo‘sishchalaridan tozalangan neftning yuqori qaynovchi qovushqoq fraksiyalaridir. Ular turli mashina va mexanizmlarni suyuqlik yordamida moylashni ta’minlash uchun, hamda boshqa sanoat maqsadlari uchun ishlatiladi.

Umuman olganda, neft fraksiyalariga bevosita ishlov berib olinadigan bazaviy moylar, ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini yaxshilash uchun prisadkalar kiritilgan moylar; ko‘p bosqichli organik sintez yordamida individual organik birikmalardan olingan sintetik moylar mavjud.


Neft moylari ajratib olish uslubi bo‘yicha (distillatli, qoldiq, aralash); tozalash usuli bo‘yicha (ishqorlab, kislota-ishqorli tozalash, selektiv tozalash, adsorbsion tozalash va shu kabilar); qo‘llanilish sohalari bo‘yicha (surkov va maxsus) sinflanadilar.

Surkov moylari industrial, turbina, kompressor, transmissiya, asbob, motor surkov moylariga bo‘linadi.

3.2-rasmda neftni birlamchi distillatsiyalash qoldig‘i, mazutdan moy olish soddalashtirilgan chizmasi ko‘rsatilgan.

Odatda vakuumda haydab, undan ikki distillat fraksiya— kam qovushqoqli ($350\div420^{\circ}\text{C}$) va qovushqoq ($420\div500^{\circ}\text{C}$) fraksiya ajratib olinadi, qoldiq-gudron (500°C dan yuqori). Ulardan mos

ravishda bazaviy distillat moylar (kam qovushqoqli va qovushqoq) va bazaviy yuqori qovushqoqli qoldiq moylar ishlab chiqariladi, bular asosida kompaundlash va prisadkalar kiritish yo'li bilan turli maqsadlar uchun mo'ljallangan tovar moylar olinadi. Distillatlar va qoldiqlardan bazaviy moylarni olish texnologiyasining mazmun-mohiyati— distillatlarni nomaqbul qo'shimchalar va uglevodorodlar guruhlaridan ko'p bosqichda tozalashdir.



3.2-rasm. Neft moylari, parafinlari va serezinlari olishni soddalashtirilgan chizmasi

VX – vakuumda haydash; GT – gidrotozalash; DA – deasfaltlash; M_{siz} – moysizlantirish; CT – selektiv tozalash; KC – kompaundlash stansiyasi; DP – deparafinizatsiya; F – filtratlar.

Qoldiqdan avvalo, asfaltenlar deasfaltizatsiya (DA) qilib yo'qotiladi. Distillatlar va deasfaltlangan qoldiq keyingi bosqichda moylarda quyi qovushqoqlik indeksi, yuqori koksogenlik beruvchi nomaqbul yuqori molekulyar aromatik birikmalardan selektiv erituvchilar bilan tozalashsga (selektiv tozalash – CT) uchratiladi. Shundan so'ng tozalangan mahsulotlar n-alkan C₂₀-C₃₅ lar (gachlar)

va izoalkanlar (C_{35} va yuqori) (petrolatum) konsentratlarini ajratib deparafinlanadi va moyni quyi qotish harorati ta'minlanadi.

Yakunlovchi bosqich gidrotozalashdir, bunda bazaviy moylar tiniqlashtiriladi (qolib ketgan smolasimon moddalarni gidrirlanadi) va ulardan oltingugurt – va azot saqlovchi birikmalar iloji boricha yo'qotiladi. Buning natijasida bazaviy moylarda asosan naften va izoparafin uglevodorodlar hamda uzun yon zanjirli quyi molekulyar aromatik uglevodorodlardangina iborat bo'ladi.

Tovar moylarni assortimenti bazaviy moylarning kimyoviy tarkibiga bog'liq bo'lib, o'z navbatida kimyoviy tarkib – neftni og'ir qismining kimyoviy tarkibi bilan belgilanadi, chunki moylarni olish jarayonida neft uglevodorodlari kimyoviy o'zgarishlarga uchramaydi va moylar uchun faqat kerakli bo'lgan uglevodorodlar konsentrلانadi.

Tovar moylarni tayyorlash, kompaundlash yo'li bilan, ya'ni distillat va qoldiq bazaviy moylarni aralashtirib, talab qilingan qovushqoqlik va qovushqoqlik indeksi, chaqnash harorati va yana bir qancha sifat ko'rsatkichlar bo'yicha saralab olinadi.

Moylarning ekspluatatsion xususiyatlari bo'yicha normalarini qoniqtirish uchun ko'pincha modifikatsiyalovchi prisadkalar kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi. Funksional ta'siri bo'yicha prisadkalar miqdori va ularning assortimenti moyning markasi va qo'llanilish sohasi bo'yicha aniqlanadi, ularning moydag'i umumiyligi miqdori $2\div 3\%$ dan $15\div 17\%$ gacha, ya'ni yoqilg'ilardagiga nisbatan deyarli bir tartibga yuqoridir.

3.4. Qattiq neft mahsulotlari

Qattiq neft mahsulotlariga moy olishda neftdan ajratib olinadigan (parafinlar, serezinlar va mumlar) va nefstning og'ir fraksiyalaridan termokimyoviy o'zgarish jarayonlari bilan olinadigan mahsulotlar (bitumlar, koks) kiradi.

Parafinlar – $350\div 420^{\circ}\text{C}$ ($350\div 460^{\circ}\text{C}$) fraksiya deparafinizatsiya qilinganda ajratib olingan gachlarni moysizlantirib undan keyin selektiv tozalashdan o'tgan mahsulotlardir. Ular normal tuzilishli uglevo-dorodlar $C_{20}\text{-}C_{35}$ ning konsentratni bo'lib, ushbu uglevodorodlarni 88-98% (mass.) gacha o'zida saqlaydi. Ularning tashqi

ko'rinishi oq qattiq kristall massa uglevodorod tarkibiga va tozalik darajasiga bog'iq holda erish harorati 45-58°C chegarada bo'ladi.

Parafinlarni qo'llanilish sohalari juda keng va asosan termoqadoqlash buyumlari, yuvish vositalari, plastikatlar, plastik surkov moylari, polirovkalovchi materiallar va shu kabilarni ishlab chiqarishlarni o'z ichiga oladi.

Moydan va kanserogen moddalardan tozalash darajasiga va qo'llanilish sohalariga bog'liq holda GOST 23683-89 bo'yicha quyidagi parafinlar ishlab chiqariladi: yuqori tozalangan (V_2-V_5); oziq-ovqat sanoati uchun (P_1-P_2) va texnik maqsadlar uchun (T_1 , T_2 , T_3 va C).

Serezinlar va mumlar odadagi haroratda qattiq bo'lgan, asosan yuqori molekulyar izoalkan $C_{35}-C_{55}$ larni n-alkanlar bilan hamda shuncha uglerod atomli yon uzun zanjirli naften va aromatik uglevodorodlar aralashmasidan iborat moddalardir. Tarkibning bunday o'ziga xosligi oqibatida ular mayda kristallik tuzilishga ega bo'lib, parafinlarga nisbatan ko'proq plastikdir.

Serezinlar, gudron deasfaltizatini deparafinizatsiya qilingach, ajratib olinadigan petrolatumni moysizlantirish natijasida olinadi. Ular asosan konsistent surkov moylari va mastiklar hamda qavat-qavat qog'ozlar va kartonlar (nam o'tqazmaydigan yupqa qatlam hosil qilish uchun) ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Serezin namga chidamlilikni oshirish uchun keramik izolyatorlarga shimdiriladi. So'nggi vaqtida ular parafin va quyi molekulyar polimer materiallari bilan aralashma holiда maxsus kompozitsion tuzilmalar (kemalarni stapellardan suvg'a tushirib yuborish, o'simlik payvandlangan erlarini germetizatsiyalash, eritib olingan modellarni tayyorlash va shu kabilar) olishda keng qo'llanilimoqda.

Umumiy vazifalarni bajarishga mo'ljallangan serezinlar gidrotozalash yo'li bilan oziq-ovqat mahsulotlari (pishloqlar) ning yuzini qoplovchi sifatida ishlataladi kompozitsiyalarda qo'llaniluvchi chuqr tozalangan oq rangli serezinlar olinishi mumkin.

Neft mumlari xona haroratida qattiq moddalar bo'lib, o'z tarkibida 40% dan 70% (mass.) gacha izoalkanlar va siklan uglevodorolarni saqlaydi va o'z xossalari bo'yicha ma'ium darajada asalari mumiga o'xshaydi.

Ularni ishlab chiqarish texnologiyasi serezinlarnikiga yaqindir. Mumlar himoya qoplaması (3V-1, 3V-2), rezina yumshatkichi va rezinotexnika buyumlar antioksidanti sifatida qo'llaniladi.

Vazelinlar serezin bilan aralashmasi yoki petrolatumni moy bilan (suyultirish) aralashmasi holida ishlab chiqariladi. Tozalik darajasi va qo'llanilish sohasi bo'yicha tibbiyot vazelinlari va kondensator vazelinlarini farqlaydilar.

Tibbiyot vazelini, bu petrolatumning moy bilan aralashmasi bo'lib, sulfat kislota va loy (tuproq) bilan qo'shimcha tozalangan bo'ladi. Parafinni parfyumeriya moyidagi tozalangan serezin bilan eritma holida ham ishlab chiqarish mumkin. U tibbiyot asboblarini korroziyadan saqlashda kremlar, mazlar, pomadalar va grimlar uchun komponent sifatida ishlatiladi.

Kondensator vazelini (petrolatum asosida) – elektr kondensatorlarini shimdirish va to'ldirish uchun ishlatiladi.

Plastik surkov moylari – neft mahsulotlarini har bir iste'molchi uchun kerak bo'lgan xossani namoyon qiluvchi quyuqlashtiruvchilar va boshqa moddalar bilan kompozitsion aralashmasidir.

Ko'pchilik plastik surkov moylarini asosi – mineral moy, xlor, ftor yoki kremniyorganik birikmalari hamda ayrim murakkab efirlardir.

Plastik xususiyatlarni berish uchun asosga quyuqlashtirgichlar (sovunlar) va to'ldirgichlar (grafit, bo'yoq modda) qo'shiladi.

Qanday quyuqlashtiruvchi modda ishlatilganligiga qarab, surkov moylari mos ravishda kalsiyli, natriyli, litiyli, bariyli, alyuminiyli va uglerodli surkov moylari bo'lishi mumkin.

Hamma plastik surkov moylari GOST bo'yicha 4 xil antifriksion, himoya, zichlashtirish va kontakt plastik surkov moylari guruhiga kiritilgan.

Bitumlar – oddiy sharoitda yarim qattiq va qattiq holatda bo'lgan mahsulotlar bo'lib, asfaltenlar, smolalar va moyning kolloid aralashmasidir. Ularni olish xom ashyosi bo'lib neftni birlamchi haydash mahsulotlari – gudronlar va neft qoldiqlarini ikkilamchi qayta ishlash mahsulotlari (moy ishlab chiqarish jarayoni ekstraktlari, kreking qoldiqlari) hizmat qiladi, ular yuqori molekulyar aromatik birikmalar, smolalar va asfaltenlardan tashkil topgan bo'ladi.

Shunday qilib, neftni bitum olishga yaroqli yoki yaroqli emasligi, undagi smolalar va asfaltenlar miqdori bilan belgilanib, quyidagi BashNII NP formulasi bilan aniqlanadi:

$$A + C - 2P > O \quad (3.1)$$

bu erda A, C va P – neftdag'i asfaltenlar, smolalar va parafinlarni mos ravishdagi miqdori, % (mass.).

Agarda tengsizlikni chap qismi noldan kichik bo'lsa, neft sifatli bitum olish uchun yaroqsiz hisoblanadi.

Bitumlar olinish uslublari bo'yicha (qoldiqli, oksidlangan va kompaundlangan) va qo'llanilish sohalari bo'yicha (yo'l qurilish va maxsus maqsadlar uchun) sinflanadilar.

Neft kokslari. Koks yoki konsentrangan neft uglerodi, asfaltenlar, smolalar va kondensirlangan yuqori molekulyar aromatik uglevodorodlarni termik parchalanishining yakuniy zinchlashish mahsulotidir. Koksdagi asosiy elementlarning miqdori: uglerod – 90÷97% (mass), vodorod – 2÷7% (mass), oltingugurt 0,8÷5% (mass)dir.

Koks og'ir neft qoldiqlari (gudronlar) ni turli texnologik uslublar bilan 450÷520°C da termik qayta ishlab olinadi va mos ravishda turli sifatdagi gudronni kokslanuvchanlik darajasiga C_k (1,1 dan 2,0 gacha) teng bo'lgan chiqish miqdoriga ega bo'ladi.

Koks olishning kub usuli katta sig'imli kublarda bir marta to'ldirilgan gudronni parchalashga va hosil bo'lgan koks «pirogi» ni tushirib olishdan iboratdir. Ushbu usul koksni maksimal chiqish ($C_k = 2,0$) bilan eng yaxshi sifatda bo'lishiga imkon beradi.

Isitilmaydigan kameralarda asta-sekin kokslash usulida gudron quvurli pechda avvaldan isitib olinadi. Bu usul jahon bo'yicha eng ommaviy tus olgan, deyarli hamma davatlarda (ishlab chiqarila-yotgan hamma neft koksining 90÷98%) tashkil etadi. Koksning chiqish miqdori $C_k=1,6$ gachadir va sifati bo'yicha u kub koksidan sifati bo'yicha keyingi o'rinda turadi. Gudronni 550÷600°C gacha isitilgan mikrosferik koks qaynar qatlamidagi uzlusiz kokslash jarayoni kokslash suyuq mahsulotlarini maksimal chiqishini ta'minlaydi, mos ravishda koksning chiqishi $C_k= 1,2$ ga teng bo'lib,

olinayotgan kukun holatdagi koks (mikrosferik) quyi sifatga ega va shu bois, u energetik yoqilg'i sifatida ishlataladi.

Neft kokslari sanoatda alyuminiy eritib olishda, anodli vannalarni tayyorlashda, elektrolitik po'lat, alyuminiy, magniyalmi olishdagi grafitlangan elektrodlarni, ferroqotishmalar, kremniy va kalsiy karbid ishlab chiqarishlarda ishlataladi.

Koksning markalari ularni olinish texnologiyasi va qo'llanilish sohalariga bog'liq holda belgilangan: kreking-qoldiq va piroliz smolalari kub koxsi -- KNKE, KNPE, KNPS va KN (KN – neft koxsi, KE – krekingli, elektrodl, PE – pirolizli, elektrodl, PC – maxsus pirolizli); asta-sekin kokslash koxsi K3-25, K3-6 va K3-0 (mos ravishda bo'laklarining o'lchamlari 25 mm dan yuqori, 6-25 mm va 0-6 mm).

3.5. Neft mahsulotlarining boshqa sohalarda ishlatalishi

Ushbu guruh neft mahsulotlarining assortimenti juda keng va shu bois ulardan asosiyлari – neft asosidagi erituvchilar, yoritish kerosinlari, suyuq parafinlar, moylovchi-sovituvchi suyuqliklar va texnik uglerod haqida qisqacha ma'lumot bilan chegaralanamiz.

Neft asosidagi erituvchilar. Ular uchun standart bo'yicha bir umumiy nom – Nefras nomi berilgan.

Hamma erituvchilarni qo'llanilish sohalari bo'yicha sanoat (texnologik) va maishiyga bo'lish mumkin.

Sanoat erituvchilarga quyidagilarni kiritish mumkin: petrolej efiri, rezina sanoati benzini, uayt-spirit, texnik maqsadlar uchun benzin, ekstraksion benzin, solvent, etilenni polimerizatsiyalash uchun erituvchi, individual uglevodorodlar, propan va izobutan, benzol va toluol, normal alkanlar (geksan, geptan, oktan), insektisidlar uchun erituvchilar, propellentlar.

Yorituvchi kerosin, pilikli asboblarda (yoritgich lampalar va fonarlar, kerosinkalar va kerogazlar) va primuslarda qo'llaniluvchi maishiy yoqilg'i ko'rinishlaridan biridir. Unga qo'yilgan eng ahamiyatli talablardan biri – fitil yoki kapsyul (primus)da tiqin hosil bo'imasligini ta'minlovchi minimal qurum hosil qilish qobiliyatidir.

Suyuq parafinlar. Uglerod atomlari soni 10 dan 20 gacha bo'lgan, xiralanish va qotish haroratlarini pasaytirish maqsadida dizel

yoqilg‘isining to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydalgan fraksiyasidan ajratib olingan normal alkanlarning aralashmasidir. Suyuq parafin karbamid mochavina bilan (n-alkanlarni karbamid bilan qattiq kompleks-addukt hosil qilish xususiyati) yoki n-alkanlarni sintetik seolitlarda adsorbsiyalab ajratib olinadi.

Suyuq parafinlardagi n-alkanlarni ajratib olish karbamid usulida 96-97% (mass.) ni, adsorbsiyada esa 98-99% (mass.) ni tashkil etadi. Bunda qo‘sishimchalar - aromatik va boshqa uglevodorodlar ($0,5\div 15\%$) ni tashkil etadi.

Suyuq parafinlarni asosiy qo‘llanilish sohasi – bu mikrobiologik sintez (oqsil-vitaminli konsentratlar – OVK ni olish), neftkimyo sintezi (yuvish vositalari uchun sintetik yog‘ kislotalar va oliy yog‘ spirtlar ishlab chiqarish, oliy olefinlarni olish va boshqalar) hamda turli maqsadlar uchun erituvchilar va desorbentlar olishda. Oxirgi holda suyuq parafin aniq rektifikatsiya qilinadi va kerakli fraksiya ajratib olinadi.

Moylovchi-sovituvchi suyuqliklar (MSS). MSS ni asosiy qo‘llanishi – metalni qirqishda hosil bo‘layotgan issiqlikni ilib olish, metallarga ishlov berishni osonlashtirish va ishlov berayotgan instrumentning metallarni qirqishda hamda ularni prokatida katta kuchlanish vujudga kelishi (masalan, tokar stanokida metall qirqilganda, qirindi ajralayotganda harorat 1500°C ga va bosim 4000 Pa ga etishi mumkin) oqibatida eyilishdan himoyalash.

Uch tipdagи MSS lar mayjud, bular – moyli, suv-moyli va suvli.

Texnik uglerod (avvalgi nomi– qurum) bu uglerodning yuqori dispersli konsentrati bo‘lib, rezinotexnik buyumlar va shinalarda to‘ldiruvchi sifatida, lak-bo‘yoq va poligrafiya sanoatida qora pigment sifatida, portlovchi moddalar, rentgenografik kontrast kukunlar va shu kabilar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

Texnik uglerod ishlab chiqarish xom ashysi sifatida neftni qayta ishlash ikkilamchi distillatlari bo‘lmish yuqori aromatlashtirilgan (aromatikalar – $80\div 85\%$ gacha), yuqori haroratda qaynovchi ($360\div 450^{\circ}\text{C}$) distillatlar xizmat qiladi.

Texnik uglerod olishning asosiy uslubi – pechli bo‘lib (umumiyl ishlab chiqarishning 90% ini tashkil qiladi), unda xom ashyo maxsus reaktor – pechlarda $1200\div 2000^{\circ}\text{C}$ gacha qizdiriladi va juda kam vaqt ($0,01\div 0,07$ s) ichida dispers uglerod hosil qilib parchalanadi. Xom

ashyo tarkibi va texnologik rejimga bog'liq holda texnik uglerod tarkibiga quyidagilar kiradi: uglerod 90÷99% (mass.), vodorod (0,3÷0,8%), xemosorbillangan kislorod (0,1÷7,0%), oltingugurt (1,5% gacha) va mineral qo'shimchalar (0,5% gacha).

Texnik uglerodning sifat ko'rsatkichini aniqlovchilari – solishtirma yuza (m^2/g), moy sig'imini baholovchi zarrachalar strukturaviyligi (sm^3/g) va disperslilikdir.

IV BOB. NEFT VA NEFT MAHSULOTLARINING FIZIK-KIMYOVİY XOSSALARİ

Neft, uning mahsulotlarini fizik-kimyoviy xossalariga, ularni fizik xossalarini xarakterlovchi va ularni kimyoviy tarkib bilan bog'liqligini, ya'ni neft mahsuloti iste'molchi tomonidan ishlatilganda, o'zining ximmotologik xossalarini kiritadilar.

4.1. Neft va neft mahsulotlarining fizik xossalari Neft fraksiyalarining qaynash haroratlari

Neft va uning fraksiyalarini individual moddalar emas. balki turli uglevodorodlar va ularni birikmalarining murakkab aralashmasi bo'lganligi bois, neft fraksiyalarini belgilangan haroratda emas, balki haroratlar oralig'ida qaynaydi. Shunga ko'ra hisoblashlarda o'rtacha qaynash harorati tushunchasidan foydalanadilar. O'rtachalashtirish uslubiga qarab quyidagi qaynash haroratlarini farqlaydilar: o'rtacha-hajmiy ($t_{o\cdot r.hajm}$), o'rtacha-molekulyar ($t_{o\cdot r.mol}$), o'rtacha massaviy ($t_{o\cdot r.mass}$), o'rtacha-kubik ($t_{o\cdot r.kub}$), va o'rtacha-o'rtalashtirilgan ($t_{o\cdot r.o\cdot r}$). Ushbu qaynash haroratlarining qiymatlari quyidagi tenglamalardan aniqlanishi mumkin:

o'rtacha-hajmiy qaynash harorati

$$t_{o\cdot r.hajm} = \frac{V_1 t_1 + V_2 t_2 + \dots + V_n t_n}{V_1 + V_2 + \dots + V_n}$$

o'rtacha-massaviy qaynash harorati

$$t_{o\cdot r.mass} = \frac{G_1 t_1 + G_2 t_2 + \dots + G_n t_n}{G_1 + G_2 + \dots + G_n}$$

o'rtacha-molekulyar qaynash harorati

$$t_{o^r.mol.} = \frac{N_1 t_1 + N_2 t_2 + \dots + N_n t_n}{N_1 + N_2 + \dots + N_n}, \text{ yoki } t_{o^r.mol.} = \sum \chi_i t_i$$

bu erda $\chi_i = \frac{N_i}{\sum N_i}$, $N_i = \frac{G_i}{M_i}$
o'rtacha-kubik qaynash harorati

$$t_{o^r.kub.} = \sum_i^n \left[\phi_i (t_i + 273)^{1/3} \right]^3 - 273$$

o'rtacha-o'rtalashtirilgan qaynash harorati

$$t_{o^r.o^r} = \frac{t_{o^r.o^r} + t_{o^r.kub.}}{2}$$

bu erda G_1, G_2, \dots, G_n – ayrim fraksiyalar massalari (yoki % (mass.)); V_1, V_2, V_n – ayrim fraksiya (yoki % (hajmiy.)); N_1, N_2, N_n – ayrim fraksiyalar mollari (yoki % (mol.)); M_i – ayrim fraksiyalar molekulyar massasi; t_1, t_2, t_n, t_i – fraksiyalar qaynash haroratlari o'rtacha arifmetik qiymatlari, $^{\circ}\text{C}$; x_i – tor fraksiyalar miqdori, molli ulushlarda; ϕ_i – komponentning hajmiy ulushi.

O'rtacha-hajmiy qaynash harorati ($t_{o^r.hajm.}$) GOST bo'yicha haydash ma'lumotlaridan quyidagicha oddiy aniqlanadi:

$$t_{o^r.hajm.} = \frac{t_{10\%} + t_{30\%} + t_{50\%} + t_{70\%} + t_{90\%}}{5}$$

Hajmiy haydash egri chizig'i yo'qligida $t_{o^r.hajm.}$ ni fraksiyani 50% ini qaynab chiqish haroratiga teng harorat deb taxminan baholab, haqiqiy qaynash harorati egri chizig'idan foydalanish mumkin. Tor fraksiyalar uchun $t_{o^r.hajm.}$ ni fraksiyaning boshlang'ich va oxirgi qaynash haroratlarining o'rtacha arifmetik qiymati sifatida aniqlash mumkin. Xarakteristik qaynash haroratlarni, maxsus ilovalarda

beriladigan grafikdan, GOST bo'yicha haydash egri chizig'i og'ish burchagini to'rt. hajm. ga bog'liq holda aniqlash mumkin.

O'rtacha qaynash harorati

Qaynash harorati, ko'pchilik moddalarni tavsiflab beruvchi muhim fizik kattalikdir. Biroq u neft va neft fraksiyalari uchun talabchan tushunchasi bo'yicha qo'llanilishi mumkin emas, chunki neft va uning fraksiyalari juda ko'p miqdordagi uglevodorodlar va boshqa kimyoviy birikmalarning aralashmasidir, ularni ushbu individual moddalarga ajratish mumkin emas.

Neftni fraksion tarkibi aniqlanayotganda neft tarkibidagi individual moddalarni qaynab chiqish haroratlari diskret qatori «haqiqiy» (o'rtacha) qaynash haroratlari (XQH) bilan, uni qaynashidagi neft fraksiyalarini chiqish miqdori bilan monoton egri chiziqli bog'lanishi bilan almashtiriladi (HQH bo'yicha neftni tarkibi). Ushbu HQH monoton egri chizig'i oxirgi son tajriba nuqtalari bo'yicha qurilib. bunda har bir nuqta fraksiya ajratib olinayotgan vaqtida belgilab qo'yiladigan katta guruh uglevodorodlarining qandaydir o'rtacha qaynash haroratini ifodalaydi.


Texnologik hisoblar uchun neftning fraksion tarkibi fiksirlangan (imitirlangan) qaynash harorati, komponentlarning diskret qatori bilan shunday ko'rsatilishi lozimki, ushbu haroratlar bo'yicha ularning boshqa fizik xossalari aniqlash mumkin bo'ladi.

Buning uchun o'rtacha qaynash harorati degan tushunchadan foydalanadilar. Odatda o'rtacha qaynash harorati kattaligi bilan qaynash intervallari 100 lab graduslarni tashkil qiluvchi butun neft yoki undan olingan nest mahsuloti emas, balki HQH egri chizig'i bo'yicha hamma qaynash intervaliga doir ularning bo'lingan tor fraksiyalari (shartli komponentlari) tavsiflanadi.

Ushbu bo'lish uch uslubda amalga oshiriladi (4.1- rasm).

• harorat shkalasi bo'yicha, bunda har bir tor fraksiya uchun qaynash intervali so'raladi (odatda 10-20°C), abssissa o'qi bo'yicha ularning chiqish miqdorlari – X_1 - X_2 - X_3 va boshqalar. Bunday uslub HQH egri chizig'i 100-150°C dan ortiq qaynab chiqish intervallarini o'z ichiga olganda qulaydir.

• fraksiyani chiqish miqdori shkalasi bo'yicha. Bunda har bir tor fraksiyaning chiqish miqdori, odatda 5-10% (mass), % (hajm.) yoki % (molli) – fraksiyaning chiqish miqdori qanday birlikda ifodalanishiga bog'liq holda so'raladi va ordinata o'qi bo'yicha ularni qaynab chiqish intervallari: Δt_1 , Δt_2 , va hokazolar aniqlanadi.



4.1-rasm. HQH egri chizig'ini shartli komponentlar bilan ko'rsatilishi (-o- tajribaviy nuqtalar; - - - –qaynash harorati shkalasi bo'yicha tor fraksiyalarga bo'lish; -.- –fraksiyalarni chiqish miqdori bo'yicha tor fraksiyalarga bo'lish).

Bunday uslub HQH egri chizig'i $100 \div 150^{\circ}\text{C}$ dan kam bo'lgan qaynab chiqish haroratlar intervalini o'z ichiga oлади.

• HQH bo'yicha amaliy fraksiyalarni olish nuqtalari bo'yicha tarkib tajribaviy aniqlanganda, fraksiyalarni haroratiy intervali ham, ularni chiqish miqdori ham ma'lum bo'lganda qo'llaniladi.

Har bir bunday fraksiyani keyinchalik neftli aralashmaning shartli komponenti deb qaraladi. Ushbu holda tarkib, o'z fizik

xossalariiga ega, ushbu komponentlarning diskret aralashmasi sifatida ifodalanadi. Bunday xossalardan birinchisi – o'rtacha qaynash haroratidir.

20°C dan kam intervalga ega bo'lgan, tor fraksiyalar uchun katta bo'limgan xatolik bilan o'rtacha qaynash harorati berilgan, tor fraksiyaning boshlang'ich va oxirgi qaynash haroratining o'rtacha arifmetik qiymatlari kabi hisoblash mumkin.

Umumiy holda esa, agarda bir shartli ko'mponentni qaynab chiqish chegarasidagi HQH egri chizig'i kattaroq egilishga ega bo'lsa, ushbu haroratni o'rtacha additivlikdek aniqlaydilar:

$$t_{o\cdot r} = (t_1 \Delta n_1 + t_2 \Delta n_2 + \dots + t_n \Delta n_n) / (\Delta n_1 + \Delta n_2 + \dots + \Delta n_n)$$

bu erda t_1, t_2, \dots, t_n – tor fraksiyaning qaynab chiqish intervalidagi oraliq haroratlar, °S; $\Delta n_1, \Delta n_2, \dots, \Delta n_n$ – tor fraksiya chegarasidagi ushbu oraliq haroratlarga mos holdagi chiqish miqdori.

Fraksiyalarning chiqish miqdorlari $\Delta n_1, \Delta n_2$ va shu kabilar massaviy molli yoki hajmiy ulushlarda (%) larda) va shuncha mos ravishda o'rtacha qaynash harorati kattaliklari o'rtacha massaviy ($t_{o\cdot r}$), o'rtacha molli ($t_{o\cdot r}$) va o'rtacha hajmiy (t_{vp}^x) bo'ladi.

Zichlik

Neftlar va ular tor fraksiyalarining zichligini absolyut va nisbiy kattaliklarda ifodalash qabul qilingan.

Absolyut zichlik – normal harorat (20°C) da birlik hajmning massasi bo'lib, kg/m³ yoki g/sm³ da o'chanadi.

Nisbiy zichlik – o'chanmsiz kattalik bo'lib ma'lum haroratlardagi neft mahsuloti zichligini, suvnikiga nisbati bilan ifoda etiladi:

$$\rho_{t_c}^{t_H} = \frac{\rho_{t_c}^{t_H}}{\rho_{t_c}^{t_L}}$$

bu erda $\rho_{t_c}^{t_H}$ - nisbiy zichlik; $\rho_{t_c}^{t_H}$ - t_H haroratdagi neft mahsulotining zichligi, kg/m^3 (g/sm^3); $\rho_c^{t_c}$ - t_c haroratdagi suvning zichligi, kg/m^3 (g/sm^3).

MDH $t_H = 20^\circ\text{C}$ va $t_c = 4^\circ\text{C}$ qabul qilingan, shu bois nisbiy zichlik ρ_4^{20} deb belgilanadi. Ushbu holda absolyut (g/sm^3 da) va nisbiy zichliklar miqdori bir xil qiymatga egadir, chunki suvning 4°C dagi zichligi 1 ga tengdir. AQSh da t_H va t_c qiymatlari 60°F ($15,6^\circ\text{C}$) va shu bois nisbiy zichlikni ρ_{15}^{15} deb belgilaydilar. Zichliklar o'zaro quyidagi munosabat bilan bog'langan:

$$\rho_{15}^{15} = \rho_4^{20} + \frac{0,0035}{\rho_4^{20}}$$

AQSh da va boshqa davlatlar ilmiy adabiyotida neft mahsulotlarini zichlik o'lchovi sifatida graduslarda o'lchanuvchi ARI qabul qilingan va keng qo'llaniladi. U ρ_{15}^{15} bilan quyidagicha bog'langan:

$${}^{\circ}\text{API} = \frac{141,5}{\rho_{15}^{15}} - 131,5$$

yoki jadval shaklida:

4.1-jadval

ρ_{15}^{15}	1,075	1,00	0,95	0,90	0,85	0,80	0,75	0,70	0,65
${}^{\circ}\text{ARI}$	0	9,5	16,5	24,5	34,0	44,5	56,5	69,5	84,5

Uglevodorodli va boshqa gazlar uchun 20°C dagi nisbiy zichlik qilib gaz zichligini o'sha haroratdagi havo zichligiga nisbati qabul qilinadi, ya'ni:

$$\rho_{20}^{20} = \frac{\rho_{(x)}^{20}}{\rho_{(x)}^{20}}$$

Neft va uning tor fraksiyalari zichligi (g/sm^3) ni haroratga bog'liqligi quyidagi ma'lum chiziqli tenglama bilan ifodalanadi:

$$\rho' = \rho^{20} - \alpha(t - 20)$$

bu erda ρ' va ρ^{20} - mos ravishda berilgan harorat t dagi va 20°C dagi zichliklar, g/sm^3 ; α - haroratiy koefitsiyent (GOST 3900-47 bo'yicha jadvallardan topiladi); α - ρ^{20} ga chiziqli bog'langan va shu bois uni quyidagi tenglama bilan hisoblash osondir:

$$\alpha = 0,000903 - 0,00132 (\rho^{20} - 0,7)$$


Yuqoridagi tenglamalar $0-150^\circ\text{C}$ harorat va $\rho^{20} 0,7 \div 1,0 \text{ g/sm}^3$ intervallari uchun o'rnlidir (xatolik 5-8% ni tashkil qiladi). Undan kengroq haroratlar intervali (300°C gacha) da va kamroq xatolik (3% gacha) bilan zichlik (kg/m^3 da) ni haroratga bog'liqligini A.I. Bogomolov va boshqa mualliflar topgan quyidagi formula bo'yicha hisoblash mumkin.

$$\rho' = 1000 \rho_4^{20} - \frac{0,58}{\rho_4^{20}} (t - 20) - \frac{[t - 1200(\rho_4^{20} - 0,68)]}{1000} (t - 20)$$

Qo'llash qulay bo'lgan zichlikni haroratga bog'liqlik grafigi 4.2-rasmida keltirilgan.

Zichlik tajriba yo'li bilan quyidagi standart usullar (GOST 3900-85) bo'yicha aniqlanadi: areometr bilan (gidrostatik); piknometr bilan; piknometrik standart usul bilan (GOST 17310-81).

Zichlikni hisoblashning empirik formulalari (GrozNII, BashNII NP) ham keng qo'llaniladi.



4.2-rasm. Neft mahsulotlari zichligining haroratga bog'liqligi (egri chiziqdag'i raqamlar – nisbiy zichlik ρ_4^{20})

Neft va uning tor fraksiyalari ularni kimyoviy tarkiblarining bilvosita tavsifnomalaridir, chunki asosiy uch guruh; parafin, naften va aromatik uglevodoroqlarning (mos ravishda ular asosidagi geteroatomli birikmalar) zichliklari anchagina farqlanadilar, aralashmaning zichligi esa massalar bo'yicha additivlik qoidasiga bo'ysunadi, ya'ni:

$$(\rho_4^{20})_{aral} = (\rho_4^{20})_{pr} + (\rho_4^{20})_{nf} \chi_{nf} + (\rho_4^{20})_{ar} \chi_{ar}$$

bu erda $(\rho_4^{20})_{aral}$, $(\rho_4^{20})_{pr}$, $(\rho_4^{20})_{nf}$ va $(\rho_4^{20})_{ar}$ – mos ravishda aralashmani, parafin, naften va aromatik uglevodorodlarni nisbiy zichliklari; χ_{pr} , χ_{nf} , va χ_{ar} – mos guruh uglevodorodlarini massaviy ulushlari.

Zichlik (absolyut yoki nisbiy) kattaligi neft fraksiyalari fizik-kimyoviy xossalaring ko'pchilik ko'rsatkichlarini hisoblab aniqlashda tayanch parametrlardan biridir.

Neft mahsulotlari bug'larining zichligi normal sharoitlarda, bir mol modda bug'larining nisbiy hajmi kattaligini teskarisi deb aniqlanadi ($M_{ar}/22,4$), normal sharoitdan farqli bo'lganda esa quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\gamma_b = 11,8 M_{o^{\circ}r} R/T$$

bu erda $M_{o^{\circ}r}$ – neft mahsulotini o'rtacha molyar massasi; R – bosim, atm.; T – absolyut harorat. K.

Molliyar massa

Neft uchun va uning tor fraksiyalarini uchun «Molliyar massa» tushunchasini o'z tub ma'nosi bo'yicha qo'llab bo'lmaydi, chunki neft fraksiyalarini (neftni o'zi ham) yuzlab uglevodorodlar va ularning birikmalaridan tashkil topgan.

Shu vaqtning o'zida molliyar massa kimyoviy birikmalarning eng muhim xarakteristikasıdir, shuning uchun neft va uning fraksiyalarini uchun «o'rtacha molliyar massa» kattaligidan «o'rtacha» so'zi tushirib qolining holda foydalaniladi.

Buni hisobga olgan holda neft fraksiyalarining molyar massasi ikki parametr, fraksiyaning o'rtacha qaynash harorati va uning guruh kimyoviy tarkibiga bog'liq bo'lib qoladi.

Molliyar massani tajribaviy aniqlash

Neft fraksiyalarini molliyar massasini tajriba yo'li bilan aniqlash Raul-Vant-Goff qoidasi bo'l mish osmotik bosimini eritmadi modda molliyar konsentratsiyaga to'g'ri proporsional bog'langanligiga asoslangan.

Osmotik bosim o'z navbatida eritmalar qotish nuqtasining pasayishi va ularni qaynash nuqtasining ko'tarilishi kabi oson aniqlanadigan kattaliklarga to'g'ri bog'lanishdadir.

Neft mahsulotlari uchun erituvchi (benzol yoki naftalin) ni unga neft mahsuloti namunasi qo'shilgandagi qotish haroratni o'lchashga asoslangan krioskopik usul qo'llaniladi.

Benzol qo'llanilganda Bekman asbobi (suv hammomiga o'rnatilgan Bekman termometrli probirka) dan foydalaniladi.

Neft fraksiyalarining molliyar massasi qiymatlarini tajriba yo'li bilan aniqlashda, ma'lum qiyinchilik (ayniqsa, neftning soni ko'p bo'lgan yoki fraksiyasi bo'lmay qolgandagi tor fraksiyalarida)

molliyar massani aniqlashning hisoblash usullarini qidirishni stimulladi.

Ushbu usullaridan eng ko'p tan olinganlari quyidagi empirik formulalardir.

B.P. Voinovning soddalashtirilgan va aniqlashtirilgan formulari:

$$M=60+0,3t+0,001t^2$$

$$M=(7K-21,5)+(0,76-0,04K)t+(0,003K-0,00245)t^2$$

bu erda t – fraksiyani o'rtacha qaynash harorati, ${}^{\circ}\text{C}$; K – parafinlanganlik faktori.


– formula faqat parafin uglevodorodlar uchun o'rinnlidir. – formula ko'proq universal va tajribaviy natijalarga nisbatan o'rtacha 3±5% (nisbiy) farqlanuvchi natijalar beradi. Biroq, parafinli neftlarning 10 gradusli tor fraksiyalari uchun uning aniqligi yuqoriroq farqlanishi – 2% (nisb.), oltingugurtlilar uchun esa – quyi 5,4% (nisb.). Tor fraksiya qaynash intervallarini 10-25% ga etadi. – formula shaxsiy va boshqa EHM qo'llash orqali amalga oshirilgan dasturlangan hisoblar holida qulaydir. Ushbu formula yordamidagi odatdagi «qo'l» hisoblarini bajarishda mehnat sarfini qisqartirish uchun 4.3-rasmdan foydalilanildi.

Bash NII NP formulasi:

$$M=(160-5K)-0,075t+0,000156Kt^2$$

Ushbu formula oltingugurtli neftning 10 gradusli fraksiyalari uchun olingan. Ular uchun Voinov formulasiga nisbatan aniqliq natijalarni beradi. Yuqorida keltirilgan – formulalar kimyoviy tarkibni tavsiflovchi parametr sifatida parafinlilik faktori (zichlik) namoyon bo'ladi. Xersher R. va boshqa hammualifflar tomonidan olingan formulada bunday parametr sifatida nurni sindirish koefitsiyenti qo'llanilgan:

$$\lg M=1,939436+0,0019764t+\lg(2,1500-n_D^{20})$$



4.3-rasm. Neft mahsulotlari va ularni fraksiyalari o‘rtacha molekulyar massasi M ni aniqlash grafigi (egri chiziqdagi raqamlar, fraksiyalarning o‘rtacha qaynash harorati, $^{\circ}\text{C}$).

bu erda n_D^{20} – nur sindirish ko‘rsatkichi.

Molyar massa, additiv kattalik ekanligi ma’lum va u turli fraksiyalar aralashmasi uchun aralashma komponentlari yig‘indisini aralashmadagi o’sha komponentlar mollari sonlari yig‘indisiga nisbati kabi qilib hisoblab topilishi mumkin:

$$M_{\text{ural}} = (m_1 + m_2 + \dots + m_n) / (m_1/M_1 + m_2/M_2 + \dots + m_n/M_n)$$

bu erda m_1, m_2, m_n – komponentlar massasi, kg(g); M_1, M_2, M_n – xuddi o’sha komponentlarning molyar massalari. Ushbu formuladan odatda olingan distillatlarni molyar massalari ma’lum bo‘lsagina neftning molyar massasi hisoblanadi.

Qovushqoqlik

Qovushqoqlik, suyuqlik yoki gazlarda ikki qo'shni qatlamni bir-biriga nisbatan siljishiga qarshilik qilish xususiyatidir. Ushbu xususiyat ayrim hollarda suyuqlik yoki gazni ichki ishqalanishi deb ham yuritiladi. Ushbu ishqalanishning tabiatini Van-der-Vaals kuchlari (qutbli molekulalarni orientasion o'zaro ta'siri bilan) va (qutbli, qutbsiz molekulalarni induksion o'zaro ta'siri bilan) dispersion hamda radikal-molekulyar ta'sirlar tufayli vujudga kelgan molekulalararo o'zaro ta'sir kuchlarini engib o'tish bilan bog'langan.

Ideal suyuqliklar uchun (odatda ularni Nyuton suyuqliklari deb ham ataydilar) Nyuton tomonidan belgilangan qonun bo'yicha, ichki ishqalanishni engish uchun sarflangan kuch quyidagi teng:

$$F = \eta(\Delta v / \Delta h) C \cdot 0,1$$

bu erda F – kuch, N ; C – o'zaro suriluvchi va tegib turuvchi suyuqlik qatlamlari yuzasi, m^2 ; Δv – qatlamlarni surilish tezliklari farqi, m/s ; Δh – surilgan qatlamlar orasidagi masofa, m ; η – dinamik qovushqoqlik koeffitsiyenti (uni ko'pincha dinamik qovushqoqlik deb ataydilar) deb nom olgan koeffitsiyent.

Shunday qilib, hamma kattaliklar I ga teng bo'lsa, ya'ni $C = 1m^2$, $\Delta v = 1m/s$ va $\Delta h = 1m$, unda $F = \eta$. Dinamik qovushqoqlik $Pa \cdot s$ da o'chanadi.

Neftni qayta ishlashda ko'proq kinematik qovushqoqlik (m^2/s yoki mm^2/s) qo'llaniladi:

$$\gamma = \eta / \rho$$

Qovushqoqlik uglevodorodlarda ularning kimyoviy tuzilishiga ko'proq bog'liqdir, u molekulyar massa va qaynash haroratinining ortishi bilan ortadi. Alkanlar va naftenlar molekulalaridagi yon shahobchalarning bo'lishi, molekulada sikllar sonini ortishi qovushqoqlikni oshiradi. Turli guruh uglevodorodlari uchun qovushqoqlik alkanlar-arenlar-siklanlar qatorida oshadi.

Qovushqoqlik, neft mahsulotlarining (yoqilg'ilar, moylliar, bitumlar) eng zaruriy sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, ularni moylash qobiliyati, bir joydan ikkinchisiga o'tkazishda energiya sarflari va boshqalarni belgilaydi.

Xarakterli haroratlar

Xarakterli haroratlar deganda, neft mahsulotlarini u yoki bu fizik xossalarni yoki fazaviy o'tishlarini xarakterlovchi haroratlar tushuniladi. Ularga chaqnash, alanganish, o'z-o'zidan alanganish, xiranish, kristallanishni boshlanishi, qotish, erish, yumshash, tomchini boshlanishi, mo'rtlilik, anilinda to'la erish (anilin nuqtasi) haroratlari kiradi. Hamma ushbu haroratlar neft mahsulotlarining iste'mol ko'rsatkichlaridir va mos ravishdagi standartlarga kiradi.

Optik xususiyatlari

Neft va uning fraksiyalarini optik xossalara nurni sindirish ko'rsatkichi, nisbiy refraksiya, rang va optik faollik kiritiladi. Hamma ushbu ko'rsatkichlar moddaning kimyoviy tabiatiga bog'liqidir, shu bois neft mahsulotlarini optik xususiyatlari, ularning kimyoviy tarkibini bilvosita xarakterlab berishi mumkin.

Neft mahsulotlarining elektrik xossalari

Odatda neft mahsulotlarini elektrik xossalari deganda, ularda elektr ta'sirida amalga oshuvchi hodisalar tushuniladi. Ushbu xossalarni xarakterlovchi ahamiyatli ko'rsatkichlarga elektr o'tkazuvchanlik, elektr ostida qo'zg'aluvchanlik, dielektrik mustahkamlik va dielektrik yo'qotishlar burchagini tangensi kiradi. Bularning hammasi neft mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlari bo'lib, ularni iste'molchi tomonidan qo'llashni belgilab beradi (transformatorlarda, kondensatorlarda, yuqori kuchlanishni uzatgichlarda, moy to'ldirilgan kabellarda, moyni nasos vositasida bir joydan boshqa joyga uzatishda va shu kabilarda).

Issiqlik xossalari

Neftning issiqlik xossalari, uni qayta ishlash texnologiyasida zaruriy ahamiyat kasb etadi, bunga sabab – hamma texnologik jarayonlar isitish va sovutish jarayonlari bilan bog'langan, ularni hisoblash mos holda neft va neft mahsulotlarining issiqlik hossalari haqidagi ilmga asoslanadi. Ularga ushbu hamma issiqlik-fizikaviy kattaliklar (issiqlik sig'imi, issiqlik o'tkazuvchanlik, entalpiya va boshqalar) kiradi. Biroq, ularni juda murakkab kimyoviy tarkibli neft fraksiyalariga qo'llanilgan holda aniqlash spetsifik xarakterga ega va maxsus ko'rib chiqishni talab qiladi.

Plastik xossalari


Plastik xossalalar orqali kristallik (parafinlar, serezinlar, mumlar) yoki kolloid (klassik surkov moylari, bitumlar, gudronlar, mumlar) holatda bo'lgan neft mahsulotlarini iste'mol sifat ko'rsatkichlari xarakterlanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan yumshash, erish, tomchi tushish va mo'rtlilik xarakterli haroratlari hamda strukturaviy va shartli qovushqoqlikdan tashqari, plastik xossalari spetsifik bo'lgan ignani kirish chuqurligi, cho'ziluvchanlik, marmar va qum bilan tishlashish, suvda eruvchi birikmalarning miqdori va boshqalar kiritiladi.


Kritik parametrlar va keltirilgan doimiyliklar

Moddani kritik harorati, bu haroratning shunday nuqtasiki, bundan yuqori haroratda modda faqat gaz holatida bo'ladi.


Moddani kritik bosimi, modda kritik haroratdagi to'yingan bug'larining bosimiga aytildi. Kritik hajm – moddaning kritik harorat va kritik bosimdagi solishtirma hajmidir. Har bir uglevdorodning kritik harorati va bosimi tajriba yo'li bilan aniqlanib ularni ma'lumotnomalarda beriladi. Neft fraksiyalarini va gazlarni taqribiy kritik haroratini va bosimini, ularning molekulyar massasi, zichligi va o'rtacha qaynash haroratiga bog'liq holda tuzilgan grafigi orqali topish mumkin.



4.4-rasm. Gazlarning kritik haroratini aniqlash grafigi



4.5-rasm. Gazlarning kritik bosimini aniqlash grafigi



4.6-rasm. Neft fraksiyalarining kritik qaynash haroratini aniqlash grafigi

Kritik parametrlar (T_{kr} , K va R_{kr} , Pa) quyidagi empirik formulalar orqali hisoblanadi.

$$T_{kr} = 355,1 + 0,97a - 0,00049a^2$$

$$P_{kp} = K \frac{T_{kp}}{M} \cdot 10^5$$

bu erda

$$a = (1,8T_{o'r.mol} - 359)d_{15}^{15}$$


$$K = 5,53 + 0,855 \frac{t_{70} - t_{10}}{60}$$

Naftenli uglevodorodlar uchun $K=6,0$; aromatiklar uchun $K=6,5\div7,0$; parafinlilar uchun $K = 5,0\div5,3$; to'g'ri haydab olingan neft mahsulotlari uchun $K = 6,3\div6,4$; kreking – kerosini uchun $K = 6,8 - 7,0$; $T_{o'r.mol}$ – o'rtacha molekulyar qaynash harorati (50% haydalgan nuqta haroratini taqriban olish mumkin); t_{70} va $t_{10} = 10$ va 70% hajm haydab olingan fraksiya harorati (haydash grafigidan olinadi), °C; d_{15}^{15} – nisbiy zichlik; M – molekulyar massa. Neft fraksiyasini kritik haroratini (t_{kr} , °C) shu fraksiyaning o'rtacha qaynash haroratini bilib empirik formula bilan aniqlash mumkin.


$$t_{kp} = 1,05 t_{o'r} + 160$$

bu erda t_{or} – neft fraksiyasini o'rtacha qaynash harorati, $^{\circ}\text{C}$.

Neft mahsulotlarining kritik harorati va kritik bosimi o'rtacha parametrlardir. Bu parametrlarni psevdokritik harorat ($T_{n,kp}$) va bosim ($R_{n,kp}$) deyiladi. $T_{n,kp}$ va $R_{n,kp}$ kattaliklar fraksiyani molekulyar massasiga va xarakteristik faktoriga bog'liq grafik (4.7-rasm) orqali topiladi.



4.7 - rasm. Turli xarakterlovchi faktor K li neft fraksiyalari psevdokritik parametrlarini aniqlash grafigi



4.8-rasm. Turli zichlikdagi neft mahsulotlarining kritik haroratlari va bosimlarini aniqlash grafigi

Keltirilgan harorat (T_{kel}) deb moddani haroratini uni kritik haroratga bo‘lgan nisbatiga aytildi.

$$T_{kel} = \frac{T}{T_{kr}}$$

bu erda T_{kr} – kritik harorat, K. Keltirilgan bosim deb modda bosimini (R) uning kritik bosimiga (R_{kr}) bo‘lgan nisbatiga aytildi.

$$R_{kel} = \frac{P}{R_{kr}}$$

bu erda R_{kr} – kritik bosim, Pa.

Siqiluvchanlik koeffitsiyenti

Nisbatan yuqori harorat va katta bo‘limgan bosimlarda real gazlar ideal gazlar kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bosimning ko‘tarilishi va haroratning pasayishi bilan ularning harakatlarini tavsiflovchi tenglamalarga har xil tuzatish koeffitsiyentlari kiritiladi. Masalan, bug‘ning hajmini, issiqlik sig‘imini va fazalar muvozanati doimiysini hisoblashda tenglamaga tuzatish koeffitsiyenti kiritiladi. Bu koeffitsiyent (Z) – siqilish koeffitsiyenti deb ataladi. Siqilish koeffitsiyenti keltirilgan parametrlar kaitaligiga bog‘liq.

$$Z = f(T_{kel}, P_{kel})$$

Siqilish koeffitsiyenti moddaning tabiatiga, haroratiga, bosimiga bog‘liq bo‘lib, tajriba orqali yoki grafiklar yordamida topiladi. Keltirilgan bosim R_{kel} va haroratni T_{kel} bilib Z ni grafik (4.9-rasm) orqali topish mumkin. Ideal gazlar uchun $Z = 1$. Neft fraksiyalarini va gaz aralashmalarini siqilish koeffsientini aniqlashda quyidagi formulalardan foydalilaniladi.

$$T_{kel} = \frac{T}{T_{kr}} v_a \quad R_{kel} = \frac{P}{R_{kr}}$$

T_{kr} va R_{kr} lar o'rniga psevdokritik parametrlarni ($T_{p,kr}$ va $R_{p,kr}$) qo'yish kerak. Individual gazsimon uglevodorodlarning psevdokritik parametrlari, bu aralashmani tarkibi aniq bo'lmasa, amaliy hisoblar uchun etarli aniqlikda additivlik qoidasi bo'yicha yoki grafik (4.32-rasmga qarang) bo'yicha aniqlash mumkin. Grafikda bu parametrlarni gaz aralashmasining havoga nisbatan nisbiy zichligiga bog'liqligi keltirilgan. Additivlik qoidasiga muvofiq quyidagi formulalarni qo'llash mumkin.

$$T_{k,kr} = \sum y_i T_{kp_i} \quad \text{va} \quad R_{k,kr} = \sum y_i P_{kp_i}$$

bu erda y_i – aralashma komponentlarini molyar ulushi.

To'yingan bug' bosimi


To'yingan bug' bosimi – bu ma'lum haroratda suyuqlik bilan muvozanatda bo'lgan bug' fazasining hosil qilgan bosimi. Individual toza moddaning bosimi faqat haroratga bog'liq. Aralashmalar uchun va shunday mahsulotlar – neft va uning mahsulotlari uchun to'yingan bug' bosimi haroratdan tashqari bug' va suyuq fazalarni tarkibi va ularni nisbatiga bog'liq.

Shuning uchun neft mahsulotlarining to'yingan bug' lari bosimini aniqlash katta qiyinchilik keltiradi. Lekin, tor neft fraksiyalari uchun, qisqa haroratlar oraliq'ida fazalar tarkibi sezilarli o'zgarmagan tor neft fraksiyalari uchun ma'lum yaqinlashish darajasini hisobga olgan holda, to'yingan bug'lar bosimi haroratgina bog'liq deb ishonch bilan aytish mumkin.

SI sistemasida bosim birligi – paskal (Pa) (KPa, MPa). Paskal – 1m^2 yuzaga barobar ta'sir etadigan va unga normal yo'naltirilgan 1N kuchga aytildi.

Neftni fraksiya tarkibini tadqiq qilinayotganda va jihozlarni texnologik hisob qilinayotganda neft mahsulotlarining to'yingan bug' lari bosimi, bir haroratda aniqlanganni boshqa bosimdagiga va

neft fraksiyalarini qaynash haroratlarini mavjud bosimdan boshqa-siga qayta hisoblashga to‘g‘ri keladi.



4.9-rasm. Siqiluvchanlik koeffitsiyenti Z ni aniqlash grafigi

Bunday hisoblashlarni amalga oshirish uchun adabiyotlarda keltirilgan formula va nomogrammalardan foydalilanadi.

Quyi bosimlarda tor neft fraksiyalari to‘yingan bug‘ bosimini hisoblash uchun Ashvort formulasidan foydalilanadi:

$$\lg(P - 3158) = 7.6715 - \frac{2.68f(T)}{f(T_0)}$$

bu erda: R – to‘yingan bug‘lar bosimi, Pa; T – mos harorat, K; T_0 – atmosfera bosimida fraksiyani qaynash harorati, K; $f(T)$ – harorat funksiyasi bo‘lib, quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$f(T) = \frac{1250}{\sqrt{T^2 + 108000} - 307,6} - 1$$

$f(T_0)$ – funksiya analogik aniqlanadi. Turli haroratlar (T va T_0) uchun funksiyani qiymati maxsus ilovada keltirilgan.

To‘yingan bug’ bosimiga fraksiya tarkibi, ishchi ballondagi bug’ va suyuq komponentlarni hajmiy nisbatlari, harorat ta’sir qiladi. Quyi haroratlarda va fraksiyani boshlang‘ich qaynash haroratida Ashvort formulasi to‘yingan bug’ bosimini birmuncha kichik qiymatlarini beradi.

Rangsiz neft mahsulotlari va ularni tor fraksiyalari to‘yingan bug’ bosimlarini aniqlash uchun quyidagi formula taklif qilingan,

$$R_{38}=6+23,3 \Delta fr \text{ KPa}$$

bu erda:


$$\Delta fr = \frac{t_{95\%} - t_{k.boshl.}}{t_{k.boshl.} \cdot t_{50} \cdot t_{95}} \cdot 10^4$$

tovar benzinlar uchun $\Delta fr = 1,5 \pm 2,5$

Ushbu formula xarakterli qaynash haroratlarni qo’llab rangsiz neft mahsulotlari to‘yingan bug’lari bosimini aniqlash imkonini beradi.

Uchuvchanlik

Uchuvchanlik – real gazning bosimi bo‘lib, uni xossasi ideal gaz holatining tenglamasi bilan ifodalanadi. Uchuvchanlik muvazanat holidagi bug’ va suyuq fazalar, ularni muvozanatini sonli qiymatlarini hisoblashda qo‘laniladi.



4.10-rasm. Uglevodorodli gazlar aralashmasining psevdokritik parametrlari bilan nisbiy zichligi orasidagi bog‘liqlilik

Muvozanatdagi sistema uchun Raul va Dalton qonunlariga muvofiq:

$$Rx^l = R_1 y^l$$

bu erdan

$$\frac{y^l}{x^l} = \frac{P}{D_l} = k$$

bu erda

R – toza komponentni to‘yingan bug‘ining bosimi, Pa.

x^l – suyuq fazadagi komponentni molyar konsentratsiyasi, % mol.

R_1 – sistemadagi bosim, Pa.

y^l – bug‘ fazasidagi komponentni molyar konsentratsiyasi, % mol.

k – fazaviy muvozanat doimiysi (4.12- va 4.13-rasmlar).

Ideal sistema uchun k ni qiymati berilgan komponentni to‘yingan bug‘ bosimini, sistema bosimiga nisbatiga tengdir va ushbu komponentni bug‘ va suyuq fazalarda taqsimlanishini xarakterlaydi. Real sistemalar uchun ushbu usul bilan hisoblangan fazaviy muvozanat doimiysi to‘la qoniqarli natijalar bermaydi.

Real gazlar va eritmalar uchun to‘yingan bug‘ bosimi R va sistema bosimi R_1 ni mos ravishda suyuqlik uchuvchanligi $f_{t,p}^{suyuq}$ va bug‘ uchuvchanligi $f_{t,n}^{bug'}$ bilan almashtirilganda, formula quyidagi ko‘rinishga o‘tadi:


$$f_{t,p}^{suyuq} x^l = f_{t,n}^{bug'} y^l$$

fazaviy muvozanat doimiysi esa:

$$k = \frac{f_{t,p}^{suyuq}}{f_{t,n}^{bug'}}$$

Uchuvchanlik izotermik jarayon uchun real gaz hossalarini ideal gaznikidan chetlashish darajasini xarakterlaydi. Real gaz quy

bosimlar va yuqori haroratlarda ideal gaz holatiga, f – kattaligi esa – R kattaligiga yaqinlashadi. Uchuvchanlik bosim kabi o'lchamga ega. Uchuvchanlikni bosimga nisbatli aktivlik koeffitsiyenti deb ataladi.




4.11-rasm. Quyi haroratlardagi uglevodorodlarning fazaviy muvozanat doimiysi k ni aniqlash nomogrammasi

$$\gamma = \frac{f}{P}$$

Ideal gaz uchun $\gamma = 1$.

Aktivlik koeffitsiyenti keltirilgan harorat va bosimlar funksiyasi ekanligi belgilangan. Shuning uchun uchuvchanlik qiymatini


grafikdan foydalananib aniqlash mumkin (4.14-rasm). Keltirilgan harorat T_{kelt} va keltirilgan bosim R_{kelt} bo'yicha aktivlik koefitsiyentini topiladi. So'ng, tenglamaga to'yingan bug' bosimi R ni yoki sistema bosimi R_1 ni qo'yib, mos ravishdagi suyuqlik yoki bug'larni uchuvchanligini olinadi.



4.12-rasm. Uglevodorodlarning yuqori haroratlardagi fazaviy muvozanat doimiysi k ni aniqlash nomogrammasi

Fazaviy muvozanat konstantasini aniq hisoblashda suyuq komponent o'z to'yingan bug' bosimi R ostida emas, balki istalgan boshqa bosim ostida turgan bo'lsa, ushbu komponentni suyuq fazadagi uchuvchanligi quyidagi formula bilan topiladi:

$$2,3 \lg \frac{f_{t,p}^{suyuq}}{f_{t.p}^{suyuq}} = \frac{V_{suyuq}(P - R)}{RT}$$



4.13-rasm. Ma'lum keltirilgan harorat va bosimda aktivlik koeffitsiyentini topish grafigi

bu erda: $f_{t,P}^{suyuq}$, $f_{t.p}^{suyuq}$ – suyuqlikni sistema bosimi R_1 va to‘yingan bug‘ bosimi R bo‘lgandagi mos ravishdagi uchuvchanligi, Pa; V_{suyuq} – komponent molyar hajmi, l/mol, m³/kmol; R_1 – sistemadagi bosim, Pa; R – toza komponentni to‘yingan bug‘ bosimi, Pa; R – universal gaz doimiysi, kj/(kmol·K); T – sistema harorati, K.

4.2. Neft sistemalari fazoviy muvozanati

Bug‘-suyuqlik sistemasini muvozanat holati deb shunday muvozanatga aytildi, bunda o‘zgarmas harorat va o‘zgarmas umumiyl bosimda bug‘ va suyuqlikni birgalikda mavjudligi uzoq vaqt davomida ular tarkibining sifat o‘zgarishlariga olib kelmaydi.

Ideal holdagi ko‘p komponentli aralashmalarning muvozanatli holati uchun asos bo‘ladigan ikki fizik qonunlar – Raul va Dalton qonunlari o‘rinlidir:

$$r_i = R_i x_i^1$$

$$r_i = P y_i^1$$

bu erda: r_i – komponentni bug‘dagi parsial bosimi; R_i – xuddi o‘sha komponentni to‘yingan bosimi; R – sistemadagi umumiy bosim; x_i^1, y_i^1 – i – komponentni suyuq va bug‘ fazalardagi molyar kon-sentratsiyasi.

formulalardan quyidagini keltirib chiqamiz:

$$R_i / P = y_i^1 / x_i^1 = K_i$$

bu erda: K_i – i – komponentni berilgan muvozanat holatdagi fazoviy muvozanat doimiysi, ya’ni berilgan harorat va bosimda («doimiysi» termini shartlidir). Real gazlar va bug‘lar uchun fazaviy muvozanat doimiysi universal ifodasi fugitivlikdir, ya’ni:

$$K_i = f_i^{suyuq} / f_i^{bug'}$$

bu erda: f_i^{suyuq} va $f_i^{bug'}$ – suyuq va bug‘ fazalar fugitivligi.

Neft aralashmalari muvozanatli holatlarini hisoblash, neft va gazni qayta ishslash texnologiyasida ko‘p uchrab turadi, shuning uchun fazoviy muvozanat doimiysini aniqlash zaruriy ahamiyat kasb etadi. Soddalashtirilgan hisoblar uchun har bir fraksiyaga o‘z to‘yingan bug‘ bosimini berilgan haroratdagi yuqorida bayon qilingan usullardan birini qo‘llab, topilgan qiymatini o‘rniga qo‘yib formuladan foydalanish mumkin.

Fazoviy muvozanat doimiysini aniqlash uchun qator nomogrammalar mavjuddir va quyi qaynovchi moddalar (100°C gacha) uchun keng qo‘llaniladigani – **Uinna** nomogrammasidir. U yaxshi natijalar beradi va «qo‘l» hisoblari uchun qulaydir. Hisoblash mashinalarida uni hisoblash noqulaydir, uni tahliliy ifodalashga

urinishlar— juda qo‘pol ko‘rinishli ifodalarga va hisoblash aniqligini kamayishiga olib keladi.

Buni hisobga olgan holda, neft aralashmalari uchun ko‘pincha Ashvort (to‘yingan bug‘ bosimi quyi bo‘lganda) va Maksvell formulaлари, yuqori bosimlarda yaxshi natijalar beruvchi Koks grafigi qo‘llaniladi.

4.3. Kolloid-dispers xossalari

Moddalarni dispers holati to‘g‘risidagi ma’lumot akad. P.A. Rebinderning birinchi ilmiy ish natijalaridan (1955-1958-yillar) boshlangan. Prof. Z.I. Syunyaev va shogirdlari tomonidan XX asr 60-yillaridan o‘rganila boshlangan neft dispers sistemalari (NDS) suyultirilgan sistemalarga mansubdir (yuqori konsentrangan sistemalar bo‘lmish pastalar, poroshoklar, betonlar va boshqalardan farqli o‘laroq). Dispers sistemalarni umumiy sinflanishida (4.2-jadval) NDS salmoqli o‘rinni egallaydi va hech bo‘limganda 8 turni o‘z ichiga olgan.

4.2-jadval

Neft dispers sistemalar turlari

NDS komponentlari		NDS turi	Misollar
dispers faza	dispers muhit		
1	2	3	4
Suyuqlik	Gaz	Aerozollar	Yo‘ldosh yoki tabiiy gazdagi benzin (yoki nam) tomchilari
Qattiq jism	Gaz	Aerozollar	Tabiiy gazdagi mehanik qo‘sishimchalar (chang zarralari), pechlardan chiqayotgan mo‘ri gazlari
Gaz	Suyuqlik	Gazli emulsiya	Quduqdan chiqayotgan gazga to‘yingan neft, barbotajdagi gazga

			to'yingan suyuqlik (ko'piklar)
Suyuqlik	Suyuqlik	Suyuqlikli emulsiya	«Neftdagi suv» yoki «suvdagi neft» emulsiyalari
Qattiq jism	Suyuqlik	Kullar, suspenziya-lar, gellar	Quduqdan chiqqan neftdagi mexanik qo'shimchalar, yoqilg'ilardagi uglevodorodlar kristallari, asfaltenlarga boy neft qoldiglari
Gaz	Qattiq jism	Qotib qolgan ko'piklar	Neft koksi
Suyuqlik	Qattiq jism	Qattiq emulsiyalar	Neft koksi
Qattiq jism	Qattiq jism	Qattiq NDS lar	Neft koxsidagi turli tuzilma (anizotrop va izotrop) li uglerod aralashmasi

Yuqorida sanab o'tilgan ikkilangan NDS lardan tashqari, masalan, er qa'ridan qazib olinayotgan neftda gaz-qattiq, qattiq-suyuqlik yoki er qa'ridan qazib olinayotgan yo'ldosh gazda gaz-suyuqlik-qattiq jism – uchlangan NDS lar ham mavjud bo'lishi mumkin.

NDS lar tabiiy sharoitlarda (er osti qatlamlardagi neft va gaz) mavjud bo'lishlari yoki neft va gazni qazib olish texnologik jarayonlarida («neftda suv», «neftda gaz» emulsiyalari), shuningdek, ularni tashishda va qayta ishlashda (parafin kristallarini cho'kishida, qaynash, kokslash va shu kabilarda) hosil bo'lishi mumkin.

NDS lar ichida bitumlarning kolloid-dispers xossalari o'rGANilib (1923-y.), birinchi bor ularning kolloid strukturasi ko'rsatilgan. Keyinchalik ushbu yo'nalish rivojlantirildi va hozirgi vaqtida turli

NDS larning tabiatini, neftni qayta ishlash texnologiyasi bilan bevosita o'zaro aloqadorlikda jiddiy o'rganilmoqda.

Hamma NDS lar mustahkamlik darajasi bo'yicha ikki guruhga— qaytar va qaytmasga bo'linadi.

Qaytar NDS lar – bu fizik o'zgarishlar (parafin kristallarini qaynashda bug' pufakchalarini, smolalar va asfaltenlar assotsiatlarini hosil bo'lishlari) natijasida hosil bo'luvchi sistemalardir. Ularda tashqi ta'sir (harorat, bosim o'zgartirib yoki erituvchi qo'shib) yo'li bilan eritmalarни birlamchi holatga qaytarish mumkin.

Qaytmas NDS lar – bu dispers fazasi hosil qiluvchi kimyoviy o'zgarishlar natijasida hosil bo'luvchi sistemalardir. Bularni tashqi ta'sirlar natijasida erigan holatga qaytarish mumkin emas (karboidlarni cho'kishi, koks va qurumni hosil bo'lishi).

NDS larda dispers fazani yuzaga keltirish uglevodorodlarni molekulalararo o'zaro ta'siriga turli darajada moyilligi bilan aloqadordir.

Neftning hamma uglevodorodli va geteroatomli birikmalari molekulyar va assosirlangan holatda bo'lishlari mumkin.

Ular molekulyar holatda (haqiqiy eritmalar) molekuladagi atomlar orasidagi masofaga bog'liq bo'lgan molekuladagi atomlarning faqat kimyoviy bog'lari bilan xarakterlanadilar. Turli uglevodorodlar turlari va bog'lar uchun ushbu bog'lar energiyasi taxminan $330\div800$ kJ/mol ni tashkil etadi.

Molekulalar assosirlangan holatda kimyoviy va fizik o'zaro ta'sirlar yig'ma ta'siriga uchraydi. Fizik molekulalararo o'zaro ta'sirlar tabiatini – bu Van-der-Vaals kuchlari, komplekslarni hosil bo'lishi va radikal-molekulyar o'zaro ta'siridir. Ularni ichida asosiyllari: Van-der-Vaals kuchlari – ikki qutblangan molekulalar o'rtaqidagi o'zaro ta'sir, ya'ni orientasion kuchlar (bunday o'zaro ta'sirini energiyasi harorat ortishi bilan pasayadi) va dipol molekula bilan boshqa dipol, birinchisi orqali kiritiladigan molekula o'rtaqidagi o'zaro ta'sir, yani induksion kuchlardir (ushbu o'zaro tasir haroratga bog'liq emas).

Molekulalararo o'zaro ta'sirni asosiy o'ziga xos xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: ularni bog'lanish energiyasi, kimyoviy bog' energiyasidan o'zaro ta'sirlanayotgan molekulalar atomlari orasidagi masofani turlichaligi (mos ravishda 330-600 nm va 120-160 nm) bois ikki tartibga kichik ($3,4\div4,2$ kJ/mol) dir;

kimyoviy bog' energiyasi molekulyar massaga bog'liq emas, fizik bog' energiyasi esa molekulyar massa o'sishi bilan ortib boradi: molekulada atomlar sonini ko'p bo'lishi, molekulalararo o'zaro ta'sir energiyasi kimyoviy bog' energiyasidan ortiq bo'lishi mumkin va bundan hosil bo'ladigan assotsiatlar juda yuqori mustahkamlikka ega bo'ladi; molekulalararo o'zaro ta'sirda 110kal molekulalarni tortishish potensial energiyasi muvozanat holatda itarish kuchlari bilan issiqlik (kinetik) harakati hisobiga muvozanatlanadi, shuning uchun assosirlangan holat ushbu energiyalarni nisbatlariga bog'liqdir, bu esa qaytar NDS lari uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, dispers fazani (assotsiatlar) hosil qilishda o'zaro ta'sir energiyasi quyi molekulyar molekulalardagiga nisbatan 1-2 tartib yuqoriroq bo'lgan, yuqori molekulyar birikmalar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Yuqori molekulyar birikmalarga, odatda uglerod atomlari soni 30 tadan yuqori bo'lgan, odatdagи haroratlarda ($0\text{--}40^{\circ}\text{C}$) assotsiatlar (kristallar) hosil qilishga qodir parafin uglevodorodlar kiradi. Undan tashqari, yuqori molekulyar birikmalarga polisiklik, aromatik va nafteneromatik birikmalar, smolalar va asfaltenlar kiritiladi.

To'yinish konsentratsiyasidan yuqori bo'lgan konsentratsiyalarida neftning yuqori molekulyar birikmalari, molekula usti nomli strukturalarni birinchi bosqichi bo'lgan assotsiatlar hosil qiladilar. Bu NDS larning birinchi birligidir. Ular tartibli (parafin kristallari) yoki betartib (asfaltenlar va karboidlarni assotsiatlari) bo'lishi mumkin.

Molekula usti strukturalarni yuzaga kelishi, sistema sharoitlariga bog'liqdir. Masalan, nisbatan quyi haroratlarda (300°C gacha) ham tartibli (kristallik), ham tartibsiz (bug' pufakchalari, asfalten assotsiatlari) bo'lgan fizik assotsiatlar yuzaga keladi.


$300\text{--}450^{\circ}\text{C}$ haroratlarda fizik-kimyoviy assotsiatlar yuzaga keladi. Ularni hosil bo'lishida smolalar va (asfaltenli fizik assotsiatlar) karben va karboidlar turli kimyoviy assotsiatlar katta rol o'ynaydi.

450°C dan yuqori haroratlarda koks, qurum turdagи faqat kimyoviy komplekslar yuzaga keladi.

Tashqi sharoitlarni o'zgartirish – NDS larni disperslik darajasini o'zgartirish xususiyatiga egadir.

Berilgan sharoitlarda o‘z holicha mavjud bo‘lish qobiliyatiga ega bo‘lgan molekula, usti strukturani eng kam miqdorini murtak yoki yadro deb ataladi. Murtaklar atrofida ular va dispers muhit orasida doimo ma`lum o‘tish qatlami har doim mavjud bo‘lib, u “solvat qobig‘i” deb ataladi.

Murtakni (yadro) o‘sishida molekulalararo o‘zar o‘sishda kuchi hisobiga modeli 4.14-rasmida sxematik ko‘rsatilgan murakkab panjarali birlik (SSB) – dispers faza birligi yuzaga keladi. SSB yadrosi qattiq modda (a), erimaydigan suyuqlik (b) yoki gaz (v) dan vujudga kelgan bo‘lishi mumkin.



4.14-rasm. Yadrosi qattiq modda (a), erimaydigan suyuqlik (b) yoki gaz (v) holatlarda bo‘lgan moddalar neft dispers sistemalarining SSB modellari sxemasi

**1– R–radiusli yadro (murtak); 2– δ– qalinlikdagi solvat qobiq;
3-dispers muhit**

SSB yadrosining o‘ziga xosligi muhitning molekulalararo o‘zar o‘sirini o‘zgara borishi, ularda hajmiy energiyani yuzadagi energiyaga nisbati mos ravishda ularni diametri va solvat qobig‘ining qalinligi δ o‘zgaradi.

Murakkab strukturali birlikni (MSB) vujudga kelishi NDS larda neftni qazib olish texnologiyasi va qayta ishlash uchun ta’sir qiluvchi yangi xossalarni yuzaga keltiradi. Neftni qazib olishda MSB ni

vujudga kelishhi tartibga solinmaydigan jarayonlar (parafin kristallarini tushishi, asfaltenlar assotsiatlarini hosil bo'lishi, gazli pufak-chalarni ajralib chiqishi hisobiga) qatlamini neft berish ko'rsatkichini pasaytiradi.

Keltirilgan jarayonlar neftni tashishda va saqlashda cho'kmalar tushib qolishigga va ular bilan quvur va rezervuarlarda tiqinlarni, neftni qayta ishlashda esa, issiqlik uzatgich va katalizator yuzalarida qatlamlarni hossil bo'lishiga olib keladi.

Neft disperrs sistemani murakkab strukturali birikmalar bilan to'latishning turli bosqichlarida kullar (erkin dispers tizimlar), ilviralari va getllar (bog'langan dispers tizimlar) yuzaga kelishi mumkin. Hosill bo'lgan NDS ning turiga bog'liq holda uning mustahkamligi ham turlichadir. NDSlar gravitatsiya ta'sirida qavatlanishga (qarshilik qilish qobiliyatiga, ya'ni barqarorlikka egadir. Ularni tashqi kuchlar deformatsiyalaydi, elastiklikning ichki kuchlari (ulovchhi mexanizm kuchlari) uning shaklini saqlab qolishga intiladi (mustahkamlilik beradi). Murakkab panjaralari birlik tuzilishi NDS larning mexanik xossalari – qovushqoqlik, elastiklik, plastilikni ham belgilaydi va shu bois ushbu xossalarni ko'pincha strukturaviy – mexanik hossalar deb ataydilar.

4.4. Mottor yoqilg'ilarini va surkov materiallarining ekspluatatsion xossalari Ichki yonish dvigatellarida yoqilg'i detonatsiyasi

Uchqundan alanga olib ishlovchi aviations, avtomobil va traktorlarning poishenli ichki yonish dvigatellari to'rt taktda ishlaydi. Birinchi taktda — so'rish, yoqilg'i-havo ishchi aralashmasi dvigatel silindrini to'latajdi va takt oxirida benzinda ishlovchi dvigatellarda $80 \div 130^{\circ}\text{C}$ gacha, kerosinda esa $140 \div 205^{\circ}\text{C}$ gacha qiziydi. Ikkinci takt-siqishda arallahma bosimi 10-12 bar gacha ($1 \text{ bar} = 10^5 \text{ n/m}^2$), harorati esa $150 \div 350^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tariladi. Siqish yo'li so'nggida arallahma birmuncha ilgariroq elektr uchqundan alangalanadi. Yoqilg'ini yonish vaqtida juda kam — soniyaning mingdan bir ulushlarida bo'lsae ham, u yonish kamerasi bo'yicha alanga frontini olg'a asta-sekin siljitib yonadi. Alanga fronti deb yonish reaksiyasini ketuvchi yupqa gaz qatlamiga aytildi. Normal yonishda alanga fronti

20÷30 m/soniya tezlikda tarqaladi. Yonish harorati $2200\div2800^{\circ}\text{C}$ ga, gazlarning bosimi esa avtomobil dvigatellarida 30÷50 bargacha, aviatsion dvigatellarda 80 bargacha bir tekis ko'tariladi. Uchinchi taktda (ish bajarish) siqilgan yonish mahsulotlarini energiyasi realizasiya qilinadi va to'rtinchi taktda dvigatel silindri yonish mahsulotlaridan xolos bo'ladi.

Porshenli aviatsion va avtomobil dvigatellarida yoqilg'i sifatida benzinlar, traktorda esa kerosinlar qo'llaniladi. Motor yoqilg'ilarini ushbu ko'rinishlari uchun eng zarur ekspluatatsion talab ushbu yoqilg'ilar mo'ljal qilingan dvigatellarda ularni detonatsiyasiz normal yonishini ta'minlashdir.

Detonatsiya deb yoqilg'ining dvigatelda o'ziga xos g'ayri tabiiy xarakterda yonishiga aytildi. Detonatsiyada aralashmani faqat bir qismi uchqundan alangalangach, odatdag'i tezlikda normal yonadi. Yoqilg'i zaryadini alanga fronti oldida turgan oxirgi porsiyasi ($15\div20\%$) bir soniyada o'z-o'zidan alanganib ketadi, natijada alangani tarqalish tezligi $1500\div2500$ m/soniya gacha etadi, bosim esa bir tekis emas, balki keskin sakrashlar bilan ortadi. Ushbu bosimning keskin ko'tarilib tushishi uriluvchi detonatsiya to'lqinini vujudga keltiradi. Bunday to'lqinni silindrler devoriga urilishi va ulardan ko'p martalab qaytishi titrashga olib keladi va detonatsion yonishning bosh tashqi nishonasi bo'lmish xarakterli metalga aloqador taqillagan ovozni yuzaga chiqaradi. Detonatsiyaning boshqa tashqi nishonlari: tashlanma (chiqarilayotgan) gazlarda qora tutunning paydo bo'lishi, hamda silindr devori haroratini keskin ko'tarilishidir.


Detonatsiya – juda zararli hodisadir. Detonatsion rejimlarda dvigatel quvvati tushib ketadi, yoqilg'i nisbiy sarfi ortadi, dvigatel ishi "qattiq" va notejis bo'lib qoladi. Undan tashqari, detonatsiya porshenlar va tashlanma gazlar chiqish klapanlarini kuyib va qiyshayib ketishiga, o'ta qizib ketish oqibatida elektr svechalarini ishdan chiqishiga va boshqa nosozliklarga olib keladi. Dvigatelning emirilishi tezlashadi, ta'mirlash muddatlar qisqaradi. Intensiv detonatsiya rejimida uzoq muddat ishlash avariyalı oqibatlarga ham olib kelishi mumkin.

Detonatsiya aviatsion dvigatellarda ayniqsa, xavflidir.


Detonatsiya hodisasi uglevodorodli yoqilg'ilarini oksidlanish va yonish reaksiyalarining kinetik va kimyoviy o'ziga xosligi orqali ham

tushuntirilishi mumkin. Ushbu reaksiyalar juda murakkab, radikal zanjir mexanizmi bo'yicha ketadi va haroratga kuchli darajada bog'liqdir. Yoqilg'i aralashmasi so'rilib va siqilish vaqtidayoq uning yonishga oldindan kimyoviy tayyorligi amalga oshadi. Yoqilg'i uglevodorodlari havo kislороди bilan oksidlanish reaksiyalariga kirishadi. Birinchi oraliq mahsulotlar—gidroperoksidlar (ROOH) dir. Ular beqaror, yuqori faol moddalardir; erkin radikallar hosil qilib parchalanadilar, reaksiyaga yangidan-yangi uglevodorodlar molekulalarini hosil bo'lishiga olib keladi. Natijada, oksidlash reaksiyalarini o'z-o'zidan tezlanish bilan ketadi. Yangi faol markazlar yuzaga keladi, yangi zanjir reaksiyalar rivoj topadi.

Misol tariqasida metanni oksidlanish sxemasini ko'rib chiqamiz:



Harorat ko'tarilishi bilan gidroperoksidlar aldegidlarni hosil qilib parchalanadi:



Peroksid radikalini parchalanishi ham aldegid va hidroksil radikalini hosil bo'lishiga olib keladi:



Reaksiyon aralashmada yig'ilib borayotgan $\text{CH}_3\cdot$, $\cdot\text{OH}$, $\text{CH}_3\text{OO}\cdot$ va boshqa radikallar juda faol bo'lib, ilk uglevodorodlarni keyingi oksidlanishini avtokatalizlaydi.

Yonilg'inining yuqori molekulyar uglevodorodlari, o'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, ular engil oksidlanadilar va reaksiyalar uglevodorodli zanjirni parchalanishi bilan birga sodir bo'ladi.

Ishchi aralashma uchqundan alangalanganidan so'ng, alanga oldi oksidlanish zanjir reaksiyalarini harorat va bosimni ortishi bois keskin tezlashadi. Ishchi aralashmadagi peroksidlar konsentratsiyasi alanga oldi frontida ortadi va «sovuv alanga» deb ataluvchi alanga vujudga keladi. "Sovuv alanga" deb reaksiyon aralashmani oksidlash reaksiyasida ajralib chiqayotgan issiqlik hisobiga reaksiyaga kirishayotgan

molekulalarning to‘lqinlanishi (faollanishi) va yig‘ilib qolgan peroksidlarning portlab parchalanishi natijalarida o‘ziga xos nurlanishiga aytildi. Ishchi aralashmada sovuq alanganing tarqalishi natijasida peroksidlar, aldegidlar, erkin radikallar miqdorlari ortib borishi davom etadi.

Aralashmaning bunday aktivlanishi, ikkilamchi sovuq alangani yuzaga kelishiga olib keladi. Harorat undan ham ko‘tariladi. Aralashmani yonmay qolgan qismida uglerod oksidi va turli aktiv zarrachalar konsentratsiyasi ortadi. Oksidlanish reaksiyasiga yonmay qolgan molekulalarning yarmidan ko‘pi tortiladi. Natijada yonilg‘i zaryadining oxirgi qismi hosil bo‘lgan uglerod oksidi bilan birga bir lahzada o‘z-o‘zidan alangananib ketadi. “Sovuq alanga” qaynoq alangaga aylanadi, bu esa detonatsion to‘lqinni vujudga keltiradi va bosimni sakrab oshishiga olib keladi. Demak, qisqa qilib aytganda, yonilg‘i zaryadining oxirgi qismini detonatsion yonishi, portlash tezligi bilan reaksiyaga kirishuvchi yuqori aktiv zarrachalarni ma’lum chegaraviy konsentratsiyasigacha yig‘ilishi oqibatida amalga oshadi. Natijada qaynoq aralashmaning yonmay qolgan qismining hammasi bir soniyada o‘z-o‘zidan alangananib ketadi (Sokolik nazariyasi). Berilgan ishchi aralashmada peroksidlarni hosil bo‘lish tezligi qanchalik yuqori bo‘lsa, portlab yonish ham shunchalik tez yuzaga keladi, alanga frontini normal tarqalishi shunchalik avvalroq detonatsiyaga o‘tadi va detonatsiya oqibatlari kuchliroq namoyon bo‘ladi. Bunday kelib chiqadiki, detonatsiyaning vujudga kelishi va intensivligining asosiy faktori – yonilg‘ining kimyoviy tarkibi ekanligidir, chunki o‘zaro taqqoslanadigan sharoitlarda turli tuzilishga ega bo‘lgan uglevodorodlarda oksidlanishga moyillik turlichaligi ma’lumdir. Agar yonilg‘ida alanga oldi oksidlanish sharoitlarida anchagina miqdorda peroksidlar hosil qilmaydigan uglevodorodlar ko‘pini tashkil qilsa, portlab parchalanish amalga oshmaydi, aralashma aktiv zarrachalar bilan o‘ta to‘yinib ketmaydi va yonish detonatsiyasiz, odatdagi tezliklarda amalga oshadi.

Detonatsiyani rivojiga yonilg‘ining kimyoviy tarkibi bilan bir qatorda dvigatelning konstruksiyasi va uning ekspluatatsiya rejimi anchagina ta’sir o‘tkazadi. Ushbu muammoga o‘ta chuqurlashmagan holda yana aytish mumkinki, detonatsiyaga siqilish darajasini va nadduv bosimini oshirish eng ko‘p darajada ta’sir qiladi, ushbu ikkala

holda ham harorat va bosimlar ortadi. Yuqorida ko'rganimizdek, bu esa peroksidlarni yig'ilishiga va parchalanishiga imkon beradi. Siqish darajasi (ε) dvigatel silindri to'la hajmini yonish kamerasingning hajmiga nisbati bilan xarakterlanadi. Siqish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, dvigatellarning termik foydali ish koeffitsiyenti shunchalik katta bo'lib, unda yonish doimiy hajmda amalga oshadi:

$$\eta = 1 - 1 / \varepsilon^{k-1}$$

bu erda K – adiabata C_v/C_p ning ko'rsatkichi.

Zamonaviy avtomobil dvigatellarida $\varepsilon = 6,5 \div 8$ bo'lib, uni oshirish tendensiyasi mavjud, chunki bu dvigatellarning litrli quvvatini keyingi oshirilishiga va iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga olib keladi.

Nadduv deb, dvigateli havo bilan majburiy ta'minlanishiga aytildi. Nadduv yordamida porshenli aviatsiya dvigatellarida atmosferaning eng yuqori qatlamlarida bosimning kamayishi bilan bog'liq bo'lgan havoning etishmovchiligin kompensatsiyalaydi. Xuddi shu yo'l bilan dvigatellar eng yuqori quvvatga erishishi uchun samolyotlarning ko'tarilishida va boshqa zaruriy hollarda nadduv kuchaytiriladi. Dvigatel silindrinda havo miqdorini oshirishda ko'proq yonilg'i ham berilishi mumkin. Bunda dvigateling litrli quvvati ortadi, nadduv bosimi qanchalik ko'p bo'lsa, u shunchalik yuqori bo'ladi.

Shunday qilib, majburlab yoqish dvigatellari konstruksiyasini yaxshilash zaruriyati bilan bunday dvigatellarni detonatsiyasiz ekspluatatsiya qilish mumkin emasligi orasida qarama-qarshilik yuzaga keladi. Ushbu qarama-qarshilik yoqilg'i sifatini yaxshilanishi va antidentalatorlar qo'llash yo'li bilan hal etiladi.

Detonatsiyaga havoni ortiqchalik koeffitsiyenti α bilan xarakterlanuvchi havo-yonilg'i aralashmasining tarkibi katta ta'sir etadi:

$$\alpha = L/L_0$$

bu erda L – dvigatełga kiray otgan havoning haqiqiy miqdori (kg da); $L_0 = 1 \text{ kg}$ yonilg'i to'la yonishi uchun kerak bo'lgan havoning nazariy miqdori (kg da).

To'yingan uglevodorodlar va benzin uchun $L_0 = 15 \text{ kg}$, aromatik uglevodorodlar uchun esa $L_0 = 13,5 \text{ kg}$.


Aralashma yonilg'i bilan boyitilganda ($\alpha < 1$) ham, u kuchli qashshoqlashtirilganda ($\alpha > 1$) ham detonatsiya pasayadi. Detonatsiyaga eng katta moyillik $\alpha = 0,95 + 1,05$ bo'lganda, ya'ni yonilg'i va havo nisbatlari nazariyga yaqin bo'lgan aralashmalarda kuzatiladi. Amaliyatda boy aralashmalar deb $\alpha < 0,6 \div 0,8$, qashshoq deb $\alpha > 0,9 \div 1,1$ bo'lgan aralashmalarga aytildi.


Uchqun orqali ishlaydigan porshenli aviadvigatellarda erdan ko'tarilishda rejim nadduv yordamida kuchaytiriladi. Bunda vujudga kelishi mumkin bo'lgan detonatsiyaning oldini olish uchun ishchi aralashmani boyitishga to'g'ri keladi (yonilg'ini ortiqcha sarf qilinadi). Kreyser rejimida avtomobil va aviatsion dvigatellar qashshoq aralashmada ekspluatatsiya qilinadilar.

Detonatsiya yondirishda ilgarilab ketish burchagi oshirilganda ortadi, chunki bunda yoqilg'i oksidlanishining alanga-oldi davri uzayadi. Detonatsiyaga yonish kamerasining konstruksiyasi, aylanish soni, dvigateł silindrida so'xtalar cho'kindi qatlamini hosil qilinishi va boshqa faktorlar ham ta'sir etadi.

Uglevodorodlar va yonilg'ilarни detonatsiyaga turg'unligi (DT) yoki antideetonatsion xossalari baholash bir silindrli statsionar dvigatellarda amalga oshiriladi. DT ni baholash hamma usullari asosida o'rGANILAYOTGAN yonilg'ini etalon yonilg'i aralashmalariga taqqoslash prinsipi yotadi. Asosiy etalon yonilg'i sifatida 2,2,4-trimetilpentan (izootkan) – detonatsiyaga turg'unlik mezoni qilib oktan soni tanlab olingan.

Oktan soni deb sinovni standart sharoitlarida aniqlangan detonatsiyaga turg'unlikning o'Ichov-son birligida ifodalanuvchi izootkan (2,2,4-trimetilpentan) ning normal geptan O.C.=O bilan aralashmasidagi foiz miqdoriga aytilib, u sinalayotgan yonilg'inining detonatsion turg'unligiga ekvivalent bo'ladi.





Izooktanning oktan soni 100 ga teng deb qabul qilingan, normal geptanniki esa – 0. Demak, agar standart sharoitlarda 70% izooktan va 30% n-geptandan tarkib topgan aralashmaga ekvivalent bo‘lgan benzin sinalganda, uning oktan soni 70 ga teng bo‘ladi.

Turli usullar bilan aniqlangan oktan sonlari o‘zaro farq qiladi. Shu bois, oktan soni qaysi usul bilan topilganiga qarab belgi qo‘yish qabul qilingan. Masalan, motor usuli bilan aniqlangan bo‘lsa – MU (yoki ruscha adabiyotlarda – MM), izlanish usulida – IU (yoki IM), haroratiy usulda – TU (yoki TM). Izlanish va motor usullari bilan topilgan oktan sonlari qiymatlarining farqi – «benzinni ta’sirchanligi» deb nomlanadi. Benzin tarkibiga kiruvchi uglevodorodlarning oktan sonlari va ta’sirchanliklari qiymatlari 4.3-jadvalda keltirilgan.

4.3-jadval

Uglevodorodlarning oktan sonlari va ta’sirchanliklari *

Uglevodorodlar	Oktan soni		Ta’sirchanlik
	motor usuli bo‘yicha	izlanish usuli bo‘yicha	
Parafin			
Etan	104	107,1	+3,1
Propan	100	105,7	+5,7
n-Butan	90,1	93,6	+3,5
Izobutan	99	>100	-
n-Pantan	61,9	61,9	-
Izopentan	90,3	92,3	+2,0
n-Oktan	-17	-19	-2,0
Olefinlar			
Propilen	84,9	101,4	+16,5
Buten-2	86,5	99,6	+13,1
Penten-1	77,1	90,9	+13,8

Geksen-I	63,4	76,4	+13,0
Naftenlar			
Siklopentan	85	100	+15
Siklogeksan	78,6	83	+4,4
Metilsiklogeksan	71	74,8	+3,8
Etilsiklogeksan	40,8	46,5	+5,7
1,2-Dimetilsiklogeksan	78,5	80,9	+2,4
Aromatik			
Benzol	111,6	113,0	+1,4
Toluol	102,1	115,0	+12,9
o-Ksilol	100	>100	-
m-Ksilol	>100	>100	-
n-Ksilol	>100	>100	-
1,3,5- Trimetilbenzol	114	>100	-
Izopropilbenzol	99,3	108	+8,7
α-Metilnaftalin	>100	-	-

*Нелсон В.Л., Петрол. Реф. Энг., 1958; Нефтепродукты. Свойства, качество, применение, под ред. проф. Б.В. Лосикова, изд. «Химия», 1966.

Benzinlarning detonatsiyaga turg'unligini oxirgi baholash yo'l sinovlarida amalga oshiriladi. Yo'l oktan soni (YOS yoki D.O.Ch.) deb nomlangan kattalikni turli markadagi katta miqdordagi avtomobilarda uzoq va ko'p mehnat sig'imli sinovlarda aniqlanadi. Yo'l oktan sonini ifodalash uchun ko'pgina grafik va tahliliy bog'liqliklar mavjud.

Masalan, quyida keltirilgan formulalar yo'l oktan sonini motor (MOS yoki MOCh) va izlanish (IOS yoki IOCh) usullari oktan sonlari bilan handa benzindagi TEQ va to'yinmagan uglevodorodlar miqdori bilan bog'laydi.


Odatdagagi benzin uchun:

$$YOS = 22,1 + 0,363 \text{ IOS} + 0,418 \text{ MOS} - 0,12 \text{ (olefinlar \% i)} + 0,845 \text{ (TEQ, ml/l)} \quad (4.97)$$

Yuqori sortli benzin uchun:

$$YOS = 42,9 + 0,273 \text{ IOS} + 0,313 \text{ MOS} - 0,48 \text{ (olefinlar \% i)} + 1,1 \text{ (TEQ, ml/l)} \quad (4.98)$$

Aviatsiya benzinlarining detonatsiyaga turg'unlik bo'yicha boshqa xarakteristikasi – sortlilikdir. Izooktanni etilli suyuqlik bilan shunday arlashmasini saralab olinadiki, bunda dvigatel shunday quvvat bilan aynan sinalayotgan benzindagi kabi ishlaydi. So'ng 4.15-rasmdagi grafikdan sinalayotgan yoqilg'ini sortliligi topiladi. Sortlilik kattaligini butun songacha yaxlitlanadi.



4.15-rasm. Benzinlarning sortliligini aniqlash grafigi

Yuqori oktanli aviatsiya benzinlarini odatda kasr sonlar holida markalaydilar. Bunda suratdagi raqam – «qashshoq» aralashmada ishlangandagi oktan sonini, maxrajdagisi esa – «boy» aralashmadagini ifodalaydi. Sortlilik– dvigatel quvvatini toza izooktanda ishlanganiga qaraganda berilgan yoqilg'ida necha foiz oshishi mumkinligini ko'rsatadi. Masalan, B-100/130 benzinida dvigatel toza izooktandagiga nisbatan 30% ga ko'proq quvvatga ega.

Oktan soni – avtomobil benzinlari, traktor kerosinlari va ligroinlari hamda aviatsion benzinlarni «qashshoq» aralashmalarda va nadduv qo'llamay ishlaganda normalanadigan detonatsiyaga turg'unlik ko'rsatkichidir.

Oktan soni maxsus sinov qurilmalarida aniq standart sharoitlarda aniqlanadi. Oktan sonini aniqlashning bir-biridan sinov rejimlari bilan farqlanuvchi bir nechta usullari bor. Mustaqil hamdo'stlik davlatlarida yonilg'ini baholash «motor» va «izlanish» usullari orqali amalga oshiriladi. Benzinlarning oktan sonlari «izlanish» usuli bilan aniqlanganda har doim «motor» usulidan bir nechta punktga (3-4) yuqoriroq bo'ladi. Shunga ko'ra, oktan soni haqida ma'lumotlar

berilganda, har doim uni qaysi usulda aniqlanganligi haqida izoh bo'lishi lozim.

Dvigatelni boy aralashmalar bilan va nadduv qo'llab ishlashdagi aviatzion benzinlardagi detonatsiyaga turg'unligini baholashda qo'llaniladigan normalashtiriladigan ko'rsatkich – yonilg'ining sortliligidir.

Yonilg'ini boy aralashmadagi sortliligi – dvigatelni quvvat kattaligini (% da) ko'rsatuvchi xususiyat bo'lib, u sinalayotgan yonilg'i ishlatilganda, sortliliği 100% deb qabul qilingan etalon izooktanda olingan quvvatga nisbatan belgilangan dvigatelning quvvatidir.

Masalan, agar benzinning sortliliği 115 deb baholansa, ushbu benzin sinov qurilmasida nadduv puflab yuborish va boy aralashma sharoitlarida ishlatilganda toza izootkan bilan ishlagandagiga nisbatan 15% ga yuqori (maksimal) quvvatni ta'minlaydi deganidir.

Aviatzion benzinlarni detonatsiyaga turg'unligini ikki ko'rsatkich – oktan soni va sortliliği bo'yicha, baholash yonilg'ini yonishi sharoitlarida – boy aralashmalar va nadduv qo'llanilgandagi bilan, nadduvsiz va qashshoq aralashmalar sharoitidagi dvigatel ishida farq borligini ko'rsatadi.

Amaliyot shuni ko'rsatdiki, yaqin oktan sonli, biroq turli kimyoviy tarkibli yonilg'ilar aviadvigatelni kuchaytirilgan rejim sharoitlarida detonatsiyaga turg'unligi bo'yicha keskin farqli bo'lib qolishi mumkin. Uchqundan o't oldiriluvchi dvigatel yonilg'ilarining detonatsiyaga turg'unligini oshirish yo'llaridan biri antideetonatorlarni qo'llashdir. Antideetonatorlar – bu benzinlarga ularning antideonatsion xossalari yaxshilash maqsadida 0,5% dan ko'p bo'l-magan miqdorda qo'shiladigan moddalardir (prisadka).

Deyarlik hamma davlatlarda qo'llanilayotgan, etarli samarador antideetonator – tetraetilqo'rg'oshin yoki qisqacha TEQ (TES) dir. U $200\div250^{\circ}\text{C}$ dayoq qo'rg'oshin va erkin radikal (etil) larga oson parchalanadi. Sokolik nazariyasiga binoan, yonilg'i-havo aralashmasi muhitida erkin radikallarning mavjudligi alangaoldi davrida erkin radikallarning hosil bo'lishini sekinlashtiradi. Bu esa ularning konsenratsiyasini alanga fronti oldida pasayishiga olib keladi, demak, normal yonishni detonatsionga o'tishi qiyinlashadi. O'z navbatida qo'rg'oshin ham yuqori haroratlarda, ya'ni yonish jarayonini keyingi bosqichida peroksidlarni shiddatli parchalanishida hosil bo'lган turli

zarrachalarni dezaktivlaydi. Bu ham detonatsiyani susayishiga olib keladi. Toza holda TEQ ni qo'llash mumkin emas, chunki qo'rg'o-shin va uning oksidi klapanlar, svechalar va silindr devorlarida yig'iladi, bu esa dvigatel ishini buzadi. Qo'rg'o-shinli soxtani yo'-qotish uchun TEQ ga qo'rg'o-shinni olib chiqib ketuvchilar deb ataluvchi moddalar – turli galogenalkillar qo'shiladi. So'nggilar termik parchalanganda galogenovodorod yoki galogen ajratib chiqaradi; qo'rg'o-shin va qo'rg'o-shin oksidi bilan dvigateli yuqori haroratlarida bug' holatda bo'lувчи tuzlar hosil qiladi.




Ushbu tuzlar ishlangan gazlar bilan birga, o'zlar uchuvchanligi bois dvigatel silindridan chiqarib yuboriladi. Olib chiqib ketuvchilar sifatida dibrometan, etilbromid, α -monoxlornaftalin, dibrompropanlar qo'llaniladi. TEQ va olib chiqib ketuvchilar aralashmasi etil suyuqligi deb ataladi. Hozirda quyidagi tarkibli P-2 etil suyuqligi (RF) ishlab chiqarilmoqda (og'irlik % da):

TEQ	55
Dibrompropan	34,5
α -Monoxlornaftalin	5,5
Bo'yq (qizil)	0,1

TEQ, o'z navbatida etil suyuqligi ham juda zaharli suyuqlikdir, u saqlagan «etillangan» benzinlar bilan ishlaganda mahsus ehtiyoj qoidalariga rioya qilish lozimdir. Etillangan benzinlar oson farqlanishi uchun etil suyuqligiga rang beruvchi bo'yoq qo'shiladi. Etil suyuqligi 1 kg yonilg'iga 1,5 dan 4 ml gacha miqdorda qo'shiladi (benzinga). Etil suyuqligini 4 ml/kg dan ortiq qo'shilishi oktan sonining keyingi oshishiga olib kelmaydi. biroq qo'rg'o-shinli soxtani kuchaytirilgan holda qatlamlarini vujudga keltiradi; oqibatda u nafaqat foydasiz, aksincha zararli hisoblanadi.

Nisbatan yaqinda antidetonator sifatida keng sinalib, so'ng amaliyotda qo'llanila boshlagan modda – marganesning metilsikloptadien trikarbonil tuzidir $(\text{CO})_3\text{MnC}_5\text{H}_4\text{CH}_3$. U qisqartirilgan MSTM nomga egadir.

Uning tuzilishi:



MSTM – ochiq qahrabo rang, kam qovushqoqlikka ega suyuqlikdir. Uglevodorodlar va organik erituvchilarda yaxshi eriydi, suvda esa erimaydi. MSUM TEQ ga nisbatan zaharliliqi ancha kam, bu uning asosiy afzalligidir. MSTM saqlavchi benzinni toza benzinga nisbatan zaharliliqi kamroq. MSTM qo'shishda hosil bo'lgan antidentalotsion effekt qator hollarda TEQ qo'shilgandagiga nisbatan yuqoriroq. TEQ va MSTM lar birga ishlataliganda ularning antidentalotsion ta'siri ortadi. Quyidagi miqdordorda MSTM va TEQ (1 kg yonilg'iga 0,05-0,25 g atrofida) qo'shilganda maksimal effekt kuzatilgan. Yangi antidentalotarning hozircha engib o'tilmagan kamchiliklariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: birinchidan, uning yuqori narxi va ikkinchidan, svechalarda soxtalarni yuzaga keltirish qobiliyatidir. Bu esa yuqori haroratlarda svecha izolyatorlari qarshilagini keskin pasayishiga va dvigatel ishida notekisliklarni yuzaga kelishiga olib keladi.

Uglevodorodlar va yonilg'ilarning detonatsiyaga turg'unligi

Individual uglevodorodlarni detonatsiyaga turg'unligini o'rGANISH, ushbu muhim ko'rsatkichni uglevodorodlarning kimyoviy tuzilishiga bog'liqligini aniqlashga va turli xil dvigatellar uchun yonilg'ilarning sortlarini vujudga keltirish va tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Uglevodorodlar va yonilg'ilarni detonatsiyaga turg'unligini o'rGANISHDA ularni "boy" va "qashshoq" aralashmalarda o'zlarini qanday tutishlari oydinlashtiriladi, ya'ni oktan soni va sortlilik aniqlanadi. Undan tashqari, ularni tetraetil qo'rgoshinga (TEQ) nisbatan ta'sirchanligi topiladi.

TEQ ga nisbatan ta'sirchanlik deb sinalayotgan yonilg'ini ma'lum miqdorda TEQ qo'shilgandagi oktan soni uning toza holdagi,

ya'ni antidetonatorsiz ko'rsatkichidan nechta birlikka oshganligini ifodalovchi raqamga aytildi.

Mavjud tajriba materiallari asosida (4.4-jadval) uglevodorodlarning ayrim sinflarini detonatsiyaga turg'unliklari to'g'risida qator xulosalar chiqarish mumkin.

4.4-jadval

Uglevodorodlarning oktan sonlari va sortliliklari

Uglevodorodlar	Oktan soni, motor usuli (TEQ siz)	Sortlilik, 11 yo- nilg'ida 2ml etil suyuqligi bilan
Alkanlar		
Butan	92	150
Izobutan	99	160
Pentan	62	2
2-Metilbutan	90	142
Geksan	26	-100
2-Metilpentan	74	66
2,2-Dimetilbutan (neogeksan)	93	152
2,3-Dimetilbutan	94	205
Geptan	0	-200
2,2-Dimetilpentan	89	143
2,2,3-trimetilbutan (triptan)	104	255
Oktan	-20	-220
2,3-Dimetilgeksan	79	102
2,3,4-trimetilpentan	96	193
2,2,4-trimetilpentan (etalon izooktan)	100	154
2,2,3-trimetilpentan	>100	238
Alkenlar		
Penten-1	77	115
3-Metilbuten-1	-	170
Geksen-1	63	-
2,3-Dimetilbuten-1	81	-

Okten-1	35	-
Okten-2	56	-161
Okten-3	68	-
Okten-4	74	-
2,2,4-trimetilpenten-2	55	139
2,2,4-trimetilpenten-1	86	262

Siklanlar

Siklopantan	87	315
Metilsiklopantan	80	200
Etilsiklopantan	61	-
Propilsiklopantan	28	-
Izopropilsiklopantan	76	-
Siklogeksan	77	188
Metilsiklogeksan	72	20
Etilsiklogeksan	45	-15
Dekalin	38	-70

Aromatik uglevodorodlar

Benzol	106	220
Toluol	103	250
Etilbenzol	98	250
p-Ksilol	103	265
m-Ksilol	103	265
o-Ksilol	100	-15
Propilbenzol	99	220
Izopropilbenzol (kumol)	100	280
1,3,5-trimetilbenzol (mezitelen)	>100	330
Ikkilamchi- butilbenzol	-	270
Uchlamchi- butilbenzol	-	365

Normal tuzilishli alkanlar

Faqat metan, etan, propan va butanlar yuqori oktan soniga egadirlar (100 atrofida). Ushbu qator uglevodorodlari pentandan boshlab ikkala – “qashshoq” hamda “boy” aralashmalarda juda quyi detonatsiyaga turg‘unlik bilan xarakterlanadilar. Detonatsiyaga

turg'unlik bilan molekulyar massa o'rtasida deyarli to'g'ri chiziqli bog'liqlik mavjuddir. Molekulyar massa qanchalik yuqori bo'lsa, detonatsiyaga turg'unlik shunchalik quyidir.

Tarmoqlangan tuzilishli alkanlar (izoparafinlar)

To'yingan qator molekulalarini tarmoqlanishi, ularning detonatsiyaga turg'unligini keskin oshiradi. Masalan, oktanni oktan soni -20 ga, i-oktan 2,2,4-trimetipentanniki +100 ga tengdir. Bir uglerod atomida juft metil guruhlari mavjud izomerlarda (neogeksan, triptan, etalon izooktan) hamda oktanning boshqa trimetilli izomerlarida eng yuqori oktan sonlari va sortlilik kuzatiladi.

Tarmoqlangan alkanlarda TEQ ga ta'sirchanlik etarli ulkandir.

C₅-C₈ izoparafinlar benzinni kerakli komponentlari bo'lib, dvigatel ikkala-“qashshoq” va “boy” aralashmalarda ishlaganda ham o'zlarining yuqori antidentalonsion xossalarni namoyon etadilar.

Alkenlar (monoolefinlar)

Normal tuzilishga ega bo'lgan uglevodorod molekularida qo'sh bog'ni yuzaga kelishi, mos ravishdagi to'yingan uglevodorodlarga nisbatan detonatsiyaga turg'unlikni anchaginaga oshishini ta'minlaydi. Oktan soni yuqoriligiga qo'sh bog'ni molekuladagi joylashishi ham ta'sir qiladi. U qanchalik molekula markaziga yaqinlashsa, oktan soni shunchalik yuqori bo'ladi. Molekulalarni tarmoqlanishi ularning oktan sonlarini oshishiga olib keladi, biroq bu alkanlardagiga nisbatan kam darajadadir.

To'yinmagan uglevodorodlarni TEQ ga nisbatan ta'sirchanligi juda kamdir, penten-1, okten-2, 2,2,4-trimetilpenten-1 kabi uglevodorodlar uchun esa 0 ga tengdir. Bu ko'rinishidan, alkenlarni peroksidlari shunchalik beqarorki, hatto TEQ bo'lmaganda ham oson parchalanishlari bilan tushuntirilishi mumkin.

Siklanlar (naften uglevodorodlar)

Siklopentan va siklogeksan qatorlarining birinchi namoyondalari yaxshi detonatsiyaga turg'unlikka ega bo'lib ayniqsa, bu siklopentanga tegishlidir. Ularni TEQ ga nisbatan ta'sirchanligi ham etarli yuqoridir. Ushbu uglevodorodlar benzirlarning qimmatli tarkibiy qismlaridir. Siklopentan va siklogeksan molekulalarida normal tuzilishli yon zanjirlarni mavjudligi ularning oktan sonini pasayishiga olib keladi. Shu bilan birgalikda, zanjir qanchalik uzun bo'lsa, ularning oktan sonlari shunchalik quyi bo'ladi. Yon zanjirni tarmoqlanishi va ular miqdorining oshishi sikllarni detonatsiyaga turg'unligini oshiradi.

Aromatik uglevodorodlar

Benzol qatori hamma oddiy aromatik uglevodorodlari "qashshoq" va ayniqsa, "boy" aralashmalarda ishlaganda detonatsiyaga qarshi katta turg'unlikka egadirlar. Ularning oktan sonlari 100 ga yaqin yoki undan ham yuqori, sortiligi esa 200 dan ortiqdir. Yon zanjirlarning, ayniqsa, tarmoqlarining mavjudligi "boy" aralashmada detonatsiyaga turg'unlikni yanada ko'proq oshiradi. Bundan o-ksilol mustasnodir. "Qashshoq" aralashmalarda ishlanganda aromatik uglevodorodlarning TEQ ga ta'sirchanligi juda pastdir. Buni quyidagicha tushuntirish mumkin. masalan, benzolni alanga oldi oksidlanish sharoitlarida umuman peroksidlar hosil qilmasligi bilan izohlanadi. Hozirgi vaqtda aromatik uglevodorodlar va aromatlash-tirilgan benzinlar tarmoqlangan tuzilishli alkanlar bilan bir qatorda, yuqori sortli benzinlarning eng yaxshi komponentlaridir. XX asr oxiriga kelib aromatlashtirish yo'llari bilan avtomobil parkini yuqori oktanli benzinlar bilan ta'minlash muammosi echilgan. Aviations benzinlarning eng yaxshi sortlari ham o'z tarkiblarida aromatik uglevodorodlarning maksimal miqdorini 40% bilan chegaralanligini eslatib o'tish lozim. bu «aromatlashtirilgan» yonilg'i yonishining umumiy haroratini oshirish qobiliyati bilan bog'liqdir. natijada dvigatelning issiqlik kuchlanishligini oshishiga olib keladi. Undan tashqari, benzinning gigroskopikligi ham oshadi.

Benzinlarni detonatsiyaga turg'unlik ko'rsatkichlari ularni asosiy sifat xarakteristikasıdır. Shuning uchun ushbu ko'rsatkichni miqdoran me'yorlashtirilgan qiymatlari, hattoki benzinlar sortini markalanishida o'z ifodasini topgan.

Aviatsion benzin sortlarini ifodalashda detonatsiyaga turg'unlikning ikkala xarakteristikasi kiritilgan: B – 100/130, B – 95/130, B – 91/115 larda suratda – oktan soni, mahrajda – sortlilik ko'rsatiladi.

Zamonaviy avtomobil va aviatsiya benzinlari to'g'ridan-to'g'ri haydalib olingan, kreking, katalitik riforming mahsulotlari, polimerbenzin va yuqori oktanli izoparafin va aromatik qo'shimchalarning murakkab aralashmasidir. Boshqacha qilib aytganda, ularning kimyoviy tarkibi turli-tuman bo'lishi, bu esa ularning detonatsion kompaundlashda, ya'ni turli kimyoviy tarkibli komponentlarni aralashtirishda, ularni oktan sonlari additivlik qoidasiga har doim ham bo'ysunavermasligini hisobga olish lozim. Bu esa, aralashmaning oktan soni ayrim komponentlarini oktan sonlari bo'yicha hisoblab topilgan o'rtacha arifmetik qiymatidan kam yoki ko'proq bo'lib qolishi mumkin, demakdir. Ushbu masala bo'yicha izlanishlar turli sind uglevodorodlari, turlicha aralashtirish xarakteristikalariga ega ekanligini ko'rsatdi va aralashtirish oktan sonlari deb nomlandi.

Aralashtirish oktan sonlari deb, sinalayotgan yonilg'ini ma'lum oktan sonli qandaydir etalon yonilg'i bilan aralashmasini, aniqlangan oktan soni orqali hisob qilingan oktan soniga aytildi. Hisob quyidagi formula bilan olib boriladi:

$$X = \frac{100C - y(100 - a)}{a}$$

bu erda X – aralashtirish oktan soni;

y – etalon yonilg'i oktan soni;

a – sinalayotgan yonilg'ini aralashmadagi miqdori, %;

C – aralashma oktan soni.

Aralashtirish oktan sonlarini turli uglevodorodlarni haqiqiy oktan sonlari bilan taqqoslash shuni ko'rsatdiki, ular orasidagi eng katta farq – nomutanosiblik to'yinmagan va aromatik uglevodorodlarda

kuzatiladi. Bunda to'yinmagan uglevodorodlarning aralashtirish oktan sonlari haqiqiyalaridan quyi, aromatiklarda esa teskarisi – yuqori bo'lib chiqdi. Farq 5-10 punkt oktan soni birligiga etishi mumkin.

Uglevodorodlar va dizel yoqilg'ilarining alangalanish xususiyatlari

Dizel dvigateli deb ataluvchi, siqishdan alangalanuvchi ichki yonish dvigatellarida, 4 takhti ish jarayoni uchqundan alanga oluvchi dvigatellarnikidan bir muncha boshqacharoq kechadi. Dizel dvigatelida birinchi ikki taktlarda toza havo so'rildi va siqiladi. Havoning harorati siqish yo'lining so'nggida $550\div650^{\circ}\text{C}$ ga etadi, bosim esa 40 bargacha ko'tariladi. Siqish yo'lining so'nggida siqilgan va qizigan havoga ma'lum vaqt oralig'ida katta bosim ostida yonilg'i porsiyasi purkaladi. Yonilg'ining o'ta mayda tomchilari bug' holatiga o'tadi va havoda taqsimlanadi. Ma'lum, juda kichik soniya vaqtida yonilg'i o'z-o'zidan alangalanadi va to'la yonib bitadi. Purkashning boshlanishi bilan yonilg'ining alangalanishi orasidagi vaqt – o'z-o'zidan alangalanishning ushlanib qolinish davri deb ataladi. Zamonaviy tezyurar dvigatellarda ushbu davr 0,002 soniyadan ortiq emas. Yonilg'i yonishi natijasida gazlarning bosimi $60\div100$ bar ga etadi. Dvigatelning silliq, bir me'yorda ishlashini ta'minlash uchun o'ta ahamiyatli ko'rsatkich – gazlar bosimining oshishi tezligidir. Amaliyotdan ma'lumki, ushbu tezlik tirsak valining burilish burchagining 1° ga bosimi 5-bardan oshmasligi lozim. Aks holda dvigatel taqillay boshlaydi, uning ishi «dag'al», podshipniklarga yuklama o'ta ko'p bo'lib qoladi. Taqillashlarning yuzaga kelishi va dvigatelning "dag'al" ishlashi o'z-o'zidan alangalanishni ushlanib qolinish davrining davomiyligi bilan uzviy bog'liqidir. Ushbu davr qanchalik davomiy bo'lsa, shuncha ko'p miqdorda yonilg'i dvigatel silindriga kelib uriladi. Natijada ko'paytirilgan miqdordagi yonilg'ining bir vaqtida alangalanishi, yonishni portlash xarakterda bo'lishiga va gazlar bosimini pog'onali oshishiga olib keladi. Keyingi ikki taktlarda, ishchi yurish va yonish mahsulotlari, gazlarning ishchi kengayishi va dvigatel silindrini yonish mahsulotlaridan bo'shanishi amalga oshadi.

Tezyurar dizellar uchun yonilg'i sifatida neftrning kerosin-gazoil fraksiyalari qo'llaniladi. Kichik aylanish sonli sekin yuruvchi va stationar dvigatellar uchun mazut turidagi og'irroq yonilg'i qo'llaniladi.

Dizel yoqilg'ilarini eng asosiy ekspluatatsion xossasi – ularni tezda alangalanish qobiliyati va bosimni vir maromda normal oshib borishini hamda dvigatelni taqillamay yumshoq ishlashini ta'minlovchi bir tekis yonishidir. Yonilg'ilarni alangalanish xossalari ularni kimyoviy va fraktion tarkibi bilan aniqlanadi. Bundan ko'rinish turibdiki, birinchi navbatda, yonilg'i komponentlarini o'z-o'zidan alangalanish haroratiga bog'liqdir.

Ma'lumki, aromatik uglevodorodlar juda yuqori alangalanish haroratlariga ega ($500\text{--}600^{\circ}\text{C}$). Dizel yoqilg'isi sifatida kuchli aromatlashtirilgan fraksiyalari ishlatish qulay emas. Aksincha, quyi parafinli uglevodorodlar o'z-o'zidan alangalanish harorati quyi, shuning uchun parafinli neftlardan olingan dizel yoqilg'ilarini yaxshi ekspluatatsion xossalarni namoyon etadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, dvigatelni bir tekis ishlashi o'z-o'zidan alangalanish haroratini minimal ushlanib qolish davrida ta'milanadi. Ushbu davr qiymatiga nafaqat yonilg'inining o'z-o'zidan alangalanib ketish harorati, oksidlanishning alangaoldi jarayonlarining xarakteri ham ta'sir etadi.

Termik parchalanish va oksidlanish reaksiyalari qanchalik tez ketsa, havo-yonilg'i aralashmasida ko'p peroksidlar, aldegidlar va boshqa o'z-o'zidan alangalanishi quyi haroratlari kislород saqlovchi birikmalar yig'ilib qolishga ulgursa, shunchalik yonilg'inining o'z-o'zidan alangalanishni ushlanib qolish davri kam bo'ladi.

Alangaoldi davrida yonilg'ini oksidlanishga bardoshligi, uning kimyoviy tarkibiga bog'liqdir. Ochiq zanjirli uglevodorodlar oson parchalanadilar va oksidlanadilar, hammasidan qiyinrog'i esa – aromatik uglevodorodlar.

Aytiganlardan, dizellarda «taqillash» va karbyuratorli dvigatellardagi detonatsiyalar hech qanday umumiylikka ega emasligi ravshan, aksincha, ular qarama-qarshi sabablar oqibatida kelib chiqadi. Detonatsiyaga olib keluvchi hamma illatlar, masalan, siqish darajasining oshishi, aralashmaning qashshoqlashuvi hamda harorat va bosimni oshishiga olib keluvchi qator faktorlar dizel dvigatellarida, aksincha, yonilg'ini tezda o'z-o'zidan alangalanib ketishiga

ijobiy ta'sir ko'rsatadi va «taqillash» ning yuzaga kelish ehtimolini pasaytiradi.

Xuddi shunday yonilg'ining kimyoviy va fraksion tarkibiga ham taalluqlidir. Eng katta antidetonatsion turg'unlikka ega bo'lgan uglevodorodlar o'z-o'zidan alangananishyuqori haroratlariga egadir, alangananishni ushlanib qolish katta davri bilan yonadi va shu tariqa dvigatel ishining dag'alligiga javobgardir.

Uglevodorodlar va yonilg'ilarning alangananish xossalarini, benzirlarning detonatsiyaga turg'unliklarini baholash laboratoriya sinov qurilmalarida, etalon yonilg'ilarda olingan natijalarga taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Oktan soniga analogik holda dizel yoqilg'ilarining motor xossalarini baholash uchun setan soni qabul qilingan.

Setan soni deb yonilg'ilar sinovi standart sharoitlarida setanning (hajm bo'yicha) α -metilnaftalin bilan aralashmasidagi foiz miqdoriga aytilib, o'z-o'zidan alanganuvchanlik bo'yicha sinalayotgan yonilg'iga ekvivalentdir.

Setanning (n -geksadekan, $C_{16}H_{34}$) setan soni 100 ga teng deb qabul qilingan, α -metilnaftalinni esa - 0. Setan sonini aniqlash, dizel golovkali standart bir silindrli qurilmada birdan yonishlarni ustma-ust tushishi deb nomlangan usul bilan amalga oshiriladi. Dizel yoqilg'ilarining setan sonlari 40-50 punktlar oralig'ida me'yoranadi.

Setan soni faqatgina alangananish xossalarni xarakterlamasligini e'tirof etish lozim. U kengroq ahamiyatga egadir, chunki u dizel yoqilg'isini ayrim boshqa ekspluatatsion sifatlarini ham etarli aks ettiradi.

Dizel yoqilg'isining setan soni qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik motorni ishga tushirish xossalari yaxshi bo'ladi, o'z-o'zidan alangananishning ushlanib qolinish davri shunchalik kamroq, ishlangan gazlarning tutunlanishi va yoqilg'ining yonish kamerasi hamda forsunkalarda soxta hosil qilishga mayli kamroq bo'ladi.

Setan sonidan tashqari, dizel yoqilg'ilarining alanganuvchanlik xossalarini taxminan baholash uchun, dizel indeksi (DI) deb nomlanuvchi ko'rsatkich qo'llash mumkin.

Ushbu ko'rsatkich yonilg'ining alanganuvchanligi bilan uning ayrim fizik doimiyliklari, xususan, zichligi va anilin nuqtasi o'rta sidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

Zichlik va anilin nuqtalar, o'z navbatida, yonilg'inining kimyoviy tarkibiga bog'liqdir. Dizel indeksi pasayishi kuzatiladigan, tarkibida aromatik uglevodorodlar mavjud bo'lgan yoqilg'i juda quyi anilin nuqtaga va yuqori zichlikga ega bo'lislini tasavvur qilish kifoya.

$$DI = 2,367(AT + 17,8) \cdot \left(\frac{1,076}{\rho_4^{20} + 0.004} - 1 \right)$$

Tenglamadan ko'rinib turibdiki, yonilg'inining anilin nuqtasi qanchalik yuqori, zichligi esa quyi bo'lsa, dizel indeksi shunchalik yuqori bo'ladi, ya'ni yonilg'inining alangananish xossalari shunchalik yaxshi bo'ladi.

Dizel yoqilg'ilariňng setan sonini oshirish uchun turli prisadkalar taklif qilingan. Agarda antidentalatorlar alanga oldi oksidlanish jarayonini shitob bilan o'sishiga yo'l qo'ymaslikni e'tirof etsa, dizel yoqilg'ilari uchun prisadkalar qo'shish, aksincha, teskari maqsadni ko'zlaydi. Alanga oldi oksidlanishni tezlatish uchun va yonilg'ilarni o'z-o'zidan alangananishining ushlab qolish davrini pasaytirish uchun turli organik peroksidlar va uglevodorodlarning nitro-hosilalari taklif qilingan.

Dizel yoqilg'ilarni qabul qiluvchanligi, ayniqsa, neftni to'g'ridan-to'g'ri haydash yo'li bilan olinganlari, ushbu prisadkalarga nisbatan etarli yuqoridir va setan soni 15-20 punktga etadi. Ushbu turdag'i prisadkalardan amilnitrat AQShda sanoat ahamiyatiga egadir. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan dizel yoqilg'ilarida hozircha setan sonini oshiruvchi prisadkalarni massaviy qo'llanilish zarurati yo'q.

Dizel yoqilg'ilaring bo'lishi mumkin bo'lgan komponentlarining molekulyar massasiga mos keluvchi individual uglevodorodlarning setan sonlari 4.5-jadvalda keltirilgan.

Ushbu jadval ma'lumotlari uglevodorodlarning tuzilishi va ularni molekulyar massasining alangananish xossalariiga ta'siri haqida ayrim xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Uglevodorodlarning setan sonlari (A.D. Petrov bo'yicha)

№	Uglevodorodlar	Setan sonlari
1	2	3
Alkanlar (C_nH_{2n+2})		
	C_{12}	
1	Dodekan	72,0
2	3-Etildekan	46,5
3	4,5-Dietiloktan	20,2
4	2,2,4,6,6-Pentametilgeptan	8,8
	C_{13}	
5	2,5-Dimetilundekan	58,0
6	5-Butilnonan	53,5
7	4-Propildekan	39,5
	C_{14}	
8	2,7-Dimetil-4,5-dietiloktan	39,5
	C_{16}	
9	Geksadekan (setan)	100,0
10	7,8-Dimetiltetradekan	40,5
	C_{17}	
11	7-Butiltridekan	70,0
	C_{18}	
12	7,8-Dietiltetradekan	67,5
13	9-Metilgeptadekan	66,0
14	8- Propilpentadekan	48,2
15	5,6-Dibutildekan	29,8
	C_{20}	
16	9,10-Dimetiloktadekan	59,5
	C_{21}	
17	8-Geksilpentadekan	83,0
	C_{22}	
18	2,9-Dimetil-5,6-Diizoamildekan	48,2
	C_{24}	
19	9-Geptilgeptadekan	87,5
20	9,10-Dipropiloktadekan	47,3

Alkenlar (C_nH_{2n})

1	2	3
C₁₄		
21	Tetraesen	79
C₁₆		
22	5-Butildodesen-4	45,6
23	7,10-Dimetilgeksadesen-8	43
24	8-Propilpentadesen	28
C₂₁		
25	8-Geksilpentadesen	47,3
C₂₄		
26	10,13- Dimetileykozen	56

Siklanlar (C_nH_{2n})

27	1,3-Dimetildodesilsiklogeksan ($C_{19}H_{38}$)	70
28	Siklogeksilmetylmetildodesilsilmelan ($C_{20}H_{40}$)	57
29	Siklogeksildimetyltridesilsilmelan ($C_{22}H_{44}$)	44,7
30	Siklogeksilpentadesilbutilmelan ($C_{26}H_{52}$)	65,5

Bisiklanlar (C_nH_{2n-2})

31	Dekalin ($C_{10}H_{18}$)	48,2
32	Trilamchibutildekalin ($C_{14}H_{26}$)	23,6
33	Ikkilamchibutildekalin ($C_{14}H_{26}$)	33,7
34	Butildekalin ($C_{14}H_{26}$)	31,6
35	Metildipropildekalilmelan ($C_{18}H_{34}$)	21
36	Oktildekalin ($C_{18}H_{34}$)	30,7
37	Dimetiloktildekalilmelan ($C_{21}H_{40}$)	36,8

Tetralin gomologlari (C_nH_{2n-8})

38	Dioktiltetralin ($C_{26}H_{44}$)	25,4
39	Trilamchibutiltetralin ($C_{14}H_{20}$)	16,6
40	Propiltetralin ($C_{13}H_{18}$)	7,9

Benzol gomologlari (C_nH_{2n-6})

41	Dodesilbenzol ($C_{18}H_{30}$)	58
42	Fenilnonilmetilmelan ($C_{17}H_{28}$)	50,8
43	1,2,4-Trimetil-5-geksadesilbenzol ($C_{25}H_{44}$)	42
44	Propiloktilfenilmetan ($C_{18}H_{30}$)	42,0
45	Fenildigeksilmelan ($C_{19}H_{32}$)	40,3

46	Fenildimetilpentadesilmetan ($C_{21}H_{36}$)	39,5
47	Geptilbenzol ($C_{13}N_{20}$)	35,0
48	Fenilmetilgeksilmekan ($S_{14}H_{22}$)	32,5
49	Oktilbenzol ($C_{14}H_{22}$)	31,6
50	Geksilbenzol ($C_{12}H_{8}$)	26,3
51	Fenildiizobutilgeptilmetan ($C_{22}H_{38}$)	18,4
52	Fenildibutilnonilmekan ($C_{21}H_{36}$)	14,0
53	Nonilbenzol ($C_{15}H_{24}$)	4,4
Naftalin gomologlari (C_nH_{2n-12})		
54	Oktilnaftalin ($C_{18}H_{24}$)	17,5
55	Dimetiloktilnaftilmekan ($C_{21}H_{30}$)	17,5
56	Metildibutilnaftilmekan ($C_{20}H_{28}$)	12,3
57	Dipropilnaftilmekan ($C_{18}H_{24}$)	8,8
58	Butilnaftalin ($C_{14}H_{16}$)	6,2
59	β -trilamchibutilnaftalin ($C_{14}H_{16}$)	3,5
60	α -Metilnaftalin ($C_{11}H_{10}$)	0

Alkanlar

Normal tuzilishga ega bo‘lgan alkanlar eng katta setan soniga egadir. Molekulalarning tarmoqlanishi alangananish xossalarini yomonlashishiga olib keladi, yon zanjirlar qancha ko‘p bo‘lsa, setan sonlari shunchalik quyiroq bo‘ladi. Bir xil tuzilishli uglevodorodlar molekulyar massasining ortishi bilan, ularning setan sonlari oshadi.

Monoalkil hosilalar orasida yuqori setan sonlari bilan quyidagi uglevodorodlar 9-geptilgeptadekan va unga o‘xshashlar, ya’ni bosh zanjir o‘rtasida tarmoqlangan birikmalar ajralib turadi.

Bunday tuzilishli uglevodorodlar, o‘z yuqori molukulyar massaliga qaramay, quyi qotish haroratlari bilan ham xarakterlanadilar.

Alkenlar

Molekulaga qo‘sish bog‘ni kiritish alangananish xossalarini pasaytiradi. Normal tuzilishli uglevodorodlar yuqori setan sonlariga ega dirlar.

Siklanlar va bisiklanlar

Ushbu sinflar uglevodorodlari alangalanish xossalari bo'yicha alkanlar bilan aromatik uglevodorodlar o'rtasidagi oraliq holatni egallaydilar. Halqalar sonining oshishi setan sonlarini pasaytiradi. Siklogeksan halqasi bilan kam tarmoqlangan uzun parafin zanjirlarni birlashtirish yuqori setan sonlarga ega tuzilmani hosil qiladi.

Aromatik uglevodorodlar

Naftalin gomologlari, ya'ni bisiklik kondensirlangan uglevodorodlar uchun eng quyi setan sonlari xarakterlidir. Mos monoalkilnaftalinlarga nisbatan monoalkilbenzollarning setan sonlari anchagina yuqori bo'lganligi bois, aromatik halqalar sonini oshishi alangalanish xossalarni pasayishiga olib keladi, deb xulosa chiqarish mumkin. Aromatik uglevodorodlarda yon zanjirlarni uzaytirish, ularning setan sonlarini oshiradi, chunki bunday tuzilmalarda aromatik halqani alangalanish xossalariiga ta'siri kamayadi.

Dizel yoqilg'ilarining tez alangalanishi

So'nggi vaqtida dizel dvigatellari yanada kengroq tarqalmoqda, chunki ular karbyuratorli dvigatellarga nisbatan anchagina afzalliklarga ega: yuqori tejamkorlik; yoqilg'i sarfi kamroq (30-40% ga); yoqilg'i sifatida kamroq tanqis neft fraksiyalari (kerosin-gazoil) ni qo'llash; yong'in nuqtai nazardan nisbatan kamroq havfli va boshqalar. Dizel dvigatellarini karbyuratorli dvigatellarga nisbatan kamchiliklari: metalni ko'proq sarfi, tirsak vali aylanish sonining kamligi, ishga tushirishning murakkabligi va boshqalar kiradi.

Karbyurator yoqilg'isiga nisbatan farqli o'laroq dizel yoqilg'isi dvigatel silindriga bug' holatda emas, balki tomchi-suyuq holatda kiritiladi. Avvaliga silindrga havo so'rildi, porshen bilan $3,5 \div 5,0$ MPa ga yaqin bosimgacha qisiladi, buning natijasida siqilgan havoning harorati $500-700^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tariladi, so'ng yoqilg'i purkaladi. Bunchalik qattiq sharoitlarida yoqilg'i bug'lanib intensiv oksidlanadi va o'z-o'zidan alangalanadi. Induksion davr, ya'ni yoqilg'ini purkashdan to o'z-o'zidan tez alangalanib ketishgacha bo'lган davr

qanchalik kamroq va yonish qanchalik ravon kechadigan bo'lsa, dizel yoqilg'sining sifati shunchalik yuqori hisoblanadi.

4.4.1. Reaktiv dvigatellar yoqilg'sisi

Zamonaviy aviatsiyada endilikda deyarli porshenli dvigatellar qo'llanilmayapti. Faqat vertolyotlar va transport samolyotining ayrim turlari bundan mustasnodir. Aviatsion dvigateli asosiy turi hozirda havo turboreaktiv dvigatellari (TRD) dir. Reaktiv dvigatellarda yoqilg'sini yonish jarayoni kamerada gaz-havo oqimida amalga oshadi. Havo gazli turbina vositasida ishlovchi kompressor bilan katta nisbatda beriladi. Havo oqimining tezligi 40-60 m/soniya ga etadi. Havoning bir qismi yonish zonasiga, boshqa qismi (ko'prog'i) esa gazli turbina belkularklari oldiga taxminan 900°C gacha yonish mahsulotlarini sovutish uchun sarf qilinadi. Yonilg'i. xuddi dizellardagi kabi siqilgan gazga purkaladi, biroq elektr uchqun bilan yondiriladi. Havo reaktiv dvigateli ishchi jarayonining o'ziga xosligi – havo va yoqilg'sini uzluksiz berilishi va yoqilg'sini yonishi issiq gazlar oqimini hosil bo'lishining uzluksizligidir, ya'ni jarayonni hamma bosqichlarini bir oqinda borishidir. Ushbu oqimni shartli ravishda 3 ta zonaga ajratish mumkin: 1) aralashma hosil qilish; 2) yonish; 3) yonish mahsulotlarini sovituvchi havo bilan aralashtirish (yonilg'sini oxirigacha yonishi shu erda amalga oshadi).

Yonish mahsulotlari havo bilan birga qo'shimcha yoqish zonasidan gaz trubinasi orqali o'z kinetik energiyasining bir qismini unga berib o'tadi. Gaz turbinasini ushbu energiyani havo kompressoriga beradi. So'ng ishlangan issiq gazlar, uchishning yuqori tezliklarini ta'milovchi reaktiv tortuvchi kuchni vujudga keltiruvchi soplo orqali chiqarib yuboriladi. Zamonaviy kuchaytirilgan TRD larda turbinadan so'ng gaz kuchaytirish kamerasiga tushadi. Ushbu kameraga yonilg'i-ning qo'shimcha miqdori purkaladi. Qo'shimcha bu miqdorning yonishi natijasida, chiqish soplosiga gaz yanada yuqoriroq harorat va ko'proq tezlikda keladi. Bu, albatta, tortish kuchini oshiradi. Havoda bug'langan yonilg'ining yonishi alanga frontining tarqalishi natijasida amalga oshadi. Biroq yonilg'ining anchagina qismi o'z-o'zidan alanganish hisobiga yonadi, shu bilan birga ushbu qism qanchalik ko'p bo'lsa, samaradorlik, ya'ni yonishni to'liqligi va tezligi ham shunchalik yu-

qori bo'ladi. Shuning uchun quyi, o'z-o'zidan alangalanish haroratli kichik ushlanib qolish davrli yoqilg'ilar, reaktiv dvigatellarda yonish jarayonini quyi setan sonlari yonilg'ilarga nisbatan yaxshiroq ta'minlaydi.

Reaktiv aviatsiya yonilg'isi sifatida neftni turli to'g'ridan-to'g'ri haydalgan distillatlari qo'llaniladi: qaynash chegaralari $150\text{--}280^{\circ}\text{C}$ bo'lgan aviatsion kerosinlar, keng benzin-ligroin-kerosin fraksiyasi ($60\text{--}280^{\circ}\text{C}$) va katta balandlikda uchadigan eng tezkor samolyotlar uchun og'irlashtirilgan kerosin ($195\text{--}315^{\circ}\text{C}$) fraksiyalari. Reaktiv aviatsiya yoqilg'ilariga qo'yildigan talablar va kimyoiy tarkibini yoqilg'inining sifatiga ta'sirini qisqacha tahlil qilib chiqamiz. U hech qarshiliksiz yonilg'i berish sistemasi bo'yicha quyi haroratda ham, yuqori haroratda ham o'tib kelishi lozim. O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, yonilg'i kelish sistemasidagi har qanday nosozlik o'ta xavflidir. Ushbu talabni ta'minlash uchun yonilg'i o'z oquvchanligini -50°C gacha yo'qotmasligi kerak va uglevodorod kristallari va muzni hosil qilmasligi lozim: aksincha, yuqori haroratlarda (100°C va undan yuqori), u vaqtidan ilgari intensiv bug'lanmasligi lozim, aks holda u (bug') tizinlarining hosil bo'lishiga olib keladi. Yonilg'i filtrlar, klapanlar va boshqa yonilg'i berish jihozlarini ifloslantirishi mumkin bo'lgan smolalar va boshqa cho'kmalar hosil qilmasligi kerak.

Ushbu talablar nuqtai nazaridan yonilg'ida normal tuzilishga ega bo'lgan yuqori molekulyar parafin uglevodorodlarining bo'lishi maqbul emas, chunki ular yuqori qotish haroratiga ega; to'yinmagan uglevodorodlar ham smola hosil qilishga moyilliklariga ega. Aromatik uglevodorodlarning miqdori yonilg'ini ko'tarinki gigrosokopikligining oldini olish maqsadida chegaralanishi lozim, chunki u yonilg'i filtrlarida aromatik uglevodorodlar kristallari (muzi) bilan tizin hosil bo'lishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Reaktiv yoqilg'ilarga qo'yilgan asosiy talablar, ularning energetik xarakteristikalari va birinchi navbatda issiqlik berish xususiyati hamda zichlik va yonish to'laligiga qaratilgan. Aynan ushbu sifatlar uchishni maksimal uzoqlikka etkazishni, tezlikni oshirishni ta'minlaydi. Haqiqatan ham, yonish issiqligi qanchalik ko'p bo'lsa, og'irlik yoki hajmdan shuncha ko'p issiqlik ajralib chiqadi, gazlarni soplordan o'tib ketish tezligi ko'p bo'ladi, oqibatda esa uchish tezligi va tortish kuchi kattaligi ortadi, yonilg'i sarfi esa, aksincha, kamayadi. Zichlikka kelsak,

u qanchalik yuqori bo'lsa, samolyot baklarining chegaralangan hajmlariga bir vaqtning o'zida ko'proq og'irlik miqdorda yonilg'i joylash mumkin, oqibatda esa uchish uzoqligini oshirish mumkin. Issiqlik berish xususiyatini og'irlik birligiga yoki hajm birligiga hisoblash mumkin. Uglevodorodlar to'la yonganda chiqaradigan issiqlik miqdori, molekuladagi vodorodning miqdoriga va uglerod: vodorod nisbatiga katta bog'liqdir. Turli molekulyar massali uglevodorodlar bo'l mish siklanlar va alkanlarda ushbu nisbat doimiydir. Shuning uchun ularni yonish issiqligi molekulyar massaga ham bog'liqdir. Aromatik uglevodorodda molekulyar massa ortishi bilan vodorodning miqdori oshadi, alkanlarda esa pasayadi. Mos ravishda alkanlarda molekulyar massa ortishi bilan yonish issiqligi ham birmuncha pasayadi, aromatik uglevodorodlarda esa ortadi. To'la yonganda chiqadigan issiqlik miqdorini birlik massa uchun hisoblaganda Q_m alkanlarda eng katta qiymatga ega bo'lib, unga yaqin ko'rsatkich siklanlarda va eng quyi qiymatlar aromatik uglevodorodlarga taalluqlidir. Agarda hisobni hajm birligida olib borilsa, teskari bog'liqlik kuzatiladi. Aromatik uglevodorodlarda yonish issiqligi eng katta bo'lib qoladi. Bu ularning nisbatan yuqoriroq zichligi oqibatidadir. Quyida $80\div300^{\circ}\text{C}$ chegarasida qaynovchi alkanlar, siklanlar va aromatik uglevodorodlarning yonish issiqliklari (Q_m) bo'yicha o'rtacha ma'lumotlarini taqqoslash uchun keltiramiz:

4.6-jadval

Uglevodorodlar	Q_m , j/kg
Alkanlar	48600-47200
Siklanlar	46400
Monosiklik aromatikalar	42000-44750
Bisiklik aromatikalar	40500

Reaktiv yoqilg'ilar uchun standartlarda yonish issiqligi (Q_{quyi}) 42916 j/kg (10250 kkal/kg) dan quyilg'i bo'limgan miqdorda meyorlashtirilgan.

Yonishni to'liqligiga kelsak, tajribalar shuni ko'rsatadiki, aromatlashtirilgan yoqilg'i bu borada eng yomonidir. Shunday qilib, aromatik uglevodorodlar birlik hajmga hisoblaganda eng yuqori zichliklarga va yonish issiqliklariga ega bo'lsalarda, umuman olganda ular o'z energetik ko'rsatkichlari bo'yicha reaktiv yoqilg'ida maqbul bo'limgan komponentlardir.

Yonish jarayoni nuqtai nazaridan o'z-o'zidan alangalanish eng katta haroratlariga ega bo'lган aromatik uglevodorodlar reaktiv yoqilg'i sifatini yomonlashtiradi. Ko'rsatilgandan tashqari reaktiv yoqilg'ilarga boshqa jiddiy talablar ham qo'yiladi. Ular termik barqaror (ya'ni qizdirilganda cho'kmalar va smolalar hosil qilmasligi), yonganda soxta hosil qilmasligi va korroziyani chaqirmasligi lozim. To'yinmagan uglevodorodlarni va geteroorganik birikmalarini mavjudligi yoqilg'ining ushbu ko'rsatkichlarini yomonlashtiradi. Aromatik uglevodorodlar, ayniqsa, bisiklik va yon zanjirsizlari anchagina so'xta hosil bo'lishini yuzaga keltiradi.

Shunday qilib, reaktiv yoqilg'ilarga qo'yilgan talablarning hammasini yig'indisi bo'yicha umumiy xulosa chiqarilsa, yoqilg'i maqbul kimyoviy tarkibga ega bo'lishi lozim deyish mumkin. Neftdan olingan yuqori sifatli yonilg'i tarmoqlangan alkanlar va turlituman tuzilishli, ammo to'yingan yon zanjirli siklanlar aralashmasidan iborat bo'lishi lozim. Aromatik uglevodorodlarning miqdori chegaralangan bo'lishi, geteratomli uglevodorodli komponent esa, butkul bo'lmasligi kerak. Havo reaktiv dvigatellari yonilg'isi sifatida nafaqat toza neft mahsulotlari yoki yuqori yonish issiqligiga ega bo'lган maxsus sintez qilingan uglevodorodlar qo'llanilishi mumkinligini ko'zda tutish mumkindir. Uglevodorodli yonilg'ilarning yonish issiqligi uglerodning o'zini nisbatan quyi yonish issiqligi bilan chegaralangan. Shu bois yangi yoqilg'i xillarini izlash borvodorodli va metalluglevodorodli yonilg'ilarni bunyod etildi. Borvodorodlarni yonish issiqligi uglevodorodlarnikiga nisbatan o'rtacha bir yarim marotaba yuqoridir.

Metalluglevodorodli yoqilg'ilar magniy, alyuminiy, bor kabi elementlarni odatdag'i neft yoqilg'ilari dagi 50% gacha metall saqlovchi suspenziyalidir. Bunday suspenziyalarni yoqilganda, yonish harorati keskin ko'tariladi, dvigatelni tortish kuchi ancha oshadi.

V BOB. NEFT VA GAZ TARKIBINI ANIQLASH USULLARI

Neft va uning fraksiyalari tarkibini o'rganish, asosan neftni qayta ishlash jarayonining eng oson va to'g'ri yo'lini tanlash jarayonlarini modellash va qurilayotgan zavodlarni quvvatini asoslash hamda neftni paydo bo'lish haqidagi gipotezalarni rivojlantirish uchun kerak.

Neft va neft mahsulotlarini tahlil qilish bir necha turlarga bo'linadi.

1. Elementar. 2. Individual. 3. Gruppa. 4. Struktura-gruppali. Texnikada fizikaviy-kimyoiy tahlil usullarining rivojlanishi neftning element tarkibini aniqlashdan to gruppa va individual tarkibini aniqlashga olib keladi. Gaz va benzin fraksiyalarini individual tarkibini aniqlash usullari tadqiq qilingan (C_{10}) gacha, kerosin-gazoyl fraksiyasini individual tarkibi o'rganilgan (C_{20}) gacha. Undan yuqori uglevodorodli fraksiyalar ustida ilmiy ishlar olib borilmoqda.

5.1. Neftning elementli va gruppa tarkibi

Quduqdan, er qa'risidan yuzaga chiqayotgan neft faqat uglevodorodlar aralashmasidangina iborat emasdir. U o'zi bilan birga yo'ldosh gaz, suv va quduq-oldi zona tog' jinslari zarrachalari, mexanik qo'shimchalarni olib chiqadi. Shuning uchun neftning komponent tarkibi deganda, neft qudug'idan chiqayotgan oqimdagи fazaviy holati (suyuqlik, gaz) va tabiatli (organik yoki mineral moddalar) bilan farqlanuvchi moddalarning miqdori tushuniladi. Neftning hamma komponentlari o'zaro erimaydi, oleofobdir va ajratishga uchratilishi mumkin bo'lgan dispers tizimni hosil qiladi.

Quduqdan chiqayotgan neftdagi qo'shimchalarning miqdori turli konlar uchun har xil bo'lib, ular yuqorida keltirilgan edi.

Neftning ushbu komponentlari xarakteristikasini qisqacha ko'rib chiqamiz (neftning o'zini xususiyatlari va xossalari 4-bobda keng ko'rib chiqildi).

Yo'ldosh gaz neftning engil uglevodorod qismini bo'lib, bosimni plast bosimidan (o'nlab MPa) quduqoldi neftni qayta ishlashga tayyorlash qurilmasi separatorlari bosimini (1,0 MPa ga yaqin) pasaytirish jarayonida undan ajralib chiqadi.

Gaz ajralishi quduq quvurida boshlanadi va so'ng er yuzasida, neftni kompleks tayyorlash qurilmasi separatsiya tuzilmalarida u davom etadi. Yo'ldosh gazning uglevodorod tarkibi, uni ajratishning har bir pog'onasida murakkab aralashmalarining fazaviy muvozanati qonunlariga binoan o'rnatiladi. U harorat va bosimga bog'liqidir.

Ma'lum bir nechta neft konlarini yo'ldosh gazlarining o'rtacha tarkibi quyidagi 5.1-jadvalda keltirilgan.

Biroq, neftni ko'p pog'onali separatsiyasida unda erigan holda (absorbilangan) va metandan pentangacha uglevodorodlari 0,5-1,5% (mass.) bo'lgan muallaq mayda gaz pufakchalaridan (20-50 mkm gacha) iborat dispers faza neft-gaz faza hosil qiladi.

5.1-jadval

Ayrim neft konlari neft (yo'ldosh) gazlarining tarkibi

K O N	Komponentlar miqdori, % (mass.)									Zichlik kg/m ³
	CH ₄	C ₂ H ₆	C ₃ H ₈	ΣC ₄ H ₁₀	ΣC ₅ H ₁₂	ΣC ₆ H ₁₄	H ₂	H ₂ S	CO ₂	
Samotlor, G'arbiy Sibir	82,88	4,23	6,48	3,54	1,05	0,32	1,17	-	0,32	0,936
Varegan, -\-\-	77,25	6,95	9,42	4,25	0,90	0,12	0,93	-	0,18	0,988
Pravdin, -\-\-	58,40	11,65	14,53	9,20	3,62	0,57	0,66	-	1,37	1,271
Janubiy Balik, -\-\-	68,18	9,43	15,98	4,50	0,51	0,66	0,64	-	0,12	1,096
Romashkin, Tatariston	43,41	20,38	16,23	6,39	1,64	0,43	11,23	-	0,29	1,285
Tuymazin, Bashqirdiston,	33,01	25,54	21,93	8,48	2,98	1,07	6,99	-	-	1,322
Kuleshov, Samara vil.	39,91	23,32	17,72	5,78	1,10	0,09	11,36	0,35	0,46	1,217
Korobkov, Volgograd vil.	76,25	8,13	8,96	3,54	1,04	-	1,25	-	0,83	0,958
Yarin, Perm vil.	23,90	24,90	23,10	13,90	7,80	-	6,40	-	-	1,664

Kamennolojsk, -\-\-	28,90	25,90	20,30	9,30	3,10	-	11,1	1,4	-	1,475
Gnedinsev, Ukraina	5,5	2739	38,35	12,82	3,14	0,43	-	-	12,37	1,846
Uzen, Qozog'iston	83,53	8,73	3,93	1,92	0,70	0,36	-	-	0,78	0,893
Jetibay, -\-\-	78,06	8,49	6,32	3,46	1,01	-	2,66	-	-	0,951
Rechisk, Belarus	51,6	5,74	16,11	9,15	3,47	0,65	3,28	-	-	1,310

Gaz neftdan yuqori haroratli separatsiya jarayonida, maxsus neftni barqarorlashtirish qurilmalarida hamda neftni birlamchi distillatsiyasi jarayonida ajratiladi.

Plast suvi neftning majburiy yo'ldoshidir. Neftni qazib olish jarayonida plast suvi neftning tog' jinslari g'ovaklaridan burg'ulash stvoli tomon yo'nalishida o'z bosimi bilan siqib chiqaradi. Plast g'ovaklklari tuzilishiga, neftni quduqqa kelib tushish tezligiga, uni qovushqoqligiga va boshqa faktorlarga bog'liq holda quduqqa suv bilan neftni kelishi turlicha bo'lishi mumkin.

Odatda boshlang'ich davrda neftning suvlanganligi juda kam bo'ladi, biroq quduq qanchalik uzoqroq ekspluatatsiya qilinsa, undan shunchalik ko'proq suvlangan neft chiqarib olinadi.

Neftni qazib olish va uni quduqoldi transportida plast suvi bilan intensiv aralashadi va suvning bir qismi neftda juda mayda tomchilar (diametri 10 dan to 1000 mkm gacha) holida suv-neft emulsiyasi hosil qilib emulsiyalanadi.

Plast suvining anchagina qismi quduqoldi qurilmalarning tindirgichlarida ajratiladi, neftda dispergirlangan qismi esa ajratilmay qoladi va ushbu «neft-suv» – dispers tizimi keyinchalik maxsus usullar bilan ajratiladi. Plast suvi doim kuchli mineralallangan – turli metal tuzlari saqlaganligi uchun neftdagi emulgirlangan suvni chuqur ajratib olishning vazifasi, undagi korrozion-aktiv tuzlarni miqdorini kamaytirishdan iboratdir.

Mineral tuzlar. Mineral tuzlar plast suvida amalda to'la erigan holatda bo'ladi. Ma'lum sinflanish bo'yicha plast suvlari, o'zida erigan tuzlarning kimyoviy tarkibiga ko'ra kalsiy xloridli va ishqoriylilarga bo'linadi. Birinchilari ko'p tarqalgan bo'lib, o'z tarkibida natriy, magniy va kalsiy xloridlari aralashmasini (Boshqirdiston, Tatariston, Turkmaniston, Ozarbayjon va boshqa neft konlar suvlarida) saqlaydi.

Ishqorli tuzlar – ishqoriy metallar xloridlari va ishqoriy metallarning xlorid-sulfatlari bor suvlar holida bo‘lishi mumkin.

Xlorid-ishqorli suvlar o‘zida asosan xloridlar va karbonatlarni turli nisbatlarda saqlaydi va sulfatlarni deyarli saqlamaydi.

Xlorid-sulfat-ishqoriy suvlar, kam minerallangan suvlar bo‘lib, ko‘pgina miqdorda sulfatlarni o‘zida saqlaydi.

Plast suvlaridagi asosiy tuzlar – turli metallar xloridlarining miqdori, % (nisbiy) da turli konlar uchun quyidagicha farqlanadi:

Kon	NaCl	MgCl ₂	CaCl ₂
Camotlor (G‘arbiy Sibir)	59	6	35
Romashkin (Tatariston)	86	6	8
Arlan (Boshqirdiston)	56	10	34

Mexanik qo‘sishimchalar. Neftning mexanik qo‘sishimchalari – quduqdan neft bilan olib chiqilayotgan tog‘ jinslarining mayda zarrachalari bilan neftni qazib olish jihozlarini korroziyasi mahsulotlari, zarrachalari hamda neftning o‘zidagi zikh uglevodorodli moddalaridan (karboidlar) iboratdir. Ular neft bilan «neft–qattiq jism»– dispers tizimini hosil qiladilar va tindirish usuli bilan quduqoldi neftni kompleks qayta ishlashga tayyorlash qurilmalari separatorlarida va tindirgichlarida ajratib olinadi. Ushbu ko‘sishimchalarning ko‘p bo‘limgan miqdori (0,2% gacha) qayta ishlashga beriluvchi neftda qolib ketadi va u neft zavodlarida neftni chuqurroq tozalashda ajraladi.

Neftni quduqoldi qurilmalarda tozalash jarayonida komponent tarkibi anchagini o‘zgaradi va u tozalangach, ma’lum so‘nggi komponent tarkibda 4 kategoriyada (guruh) topshiriladi:

Neftni tuz, suv va mexanik qo'shimchalarga qarab ajaratish

Guruh	Tuzlar, mg/l	Miqdori, ko'p emas	
		suv, % (mass.)	mexanik qo'shimchalar, % (mass.)
I	40	0,2	0,05
II	300	1,0	0,05
III	1800	1,0	0,05
IV	3600	2,0	0,05

Neftni kon oldi qayta ishlashga tayyorlash usullarini mukammallashtirilishi I kategoriyaga mos keluvchi neft ulushining doimo o'sib borishini ta'minlaydi: u 70-yillarda 30÷35% bo'lgan bo'lsa, 90-yillarning boshida – 85% dan ortiq ko'rsatkichni namoyon qildi. Hozirgi vaqtida IV guruh neftlari ulushi juda ham kichik ko'rsatkichni (1% atrofida) tashkil qiladi.

5.2. Neftning elementli kimyoviy tarkibi

Neft – uglevodorodlar asosidagi kimyoviy birikmalarning katta miqdordagi aralashmasidir, u boshlang'ich organik birikmadan juda ko'p faktorlar ta'siri ostida, o'zi joylashgan tevarak-atrof bilan o'zaro uzoq ta'sirlashuv oqibatida hosil bo'lgan (2 bobga qarang).

Neftning to'liq kimyoviy tarkibi qanday ekanligini aytib berish, ya'ni identifikasiyalashni imkoniyati yo'qdir, shuning uchun uni ikki usul bilan – elementli kimyoviy tarkib va guruhiy kimyoviy tarkib bilan ifodalash mumkin.

Elementli kimyoviy tarkib – neft tarkibiga kirgan kimyoviy elementlarni massa ulushlarda yoki foizlarda ifodalangan miqdoriy tarkibidir.

Neft tarkibidagi kimyoviy elementlarning soni juda ko'pdir, biroq ularning asosiyлари quyidagilardir: uglerod, vodorod, oltin-gugurt, azot, kislorod, metallar.

Uglerod. Uglerod turli neftlarda 83% dan 87% (mass.) gacha mavjuddir; neft qanchalik og'ir (zichligi va fraksion tarkibi bo'yicha)

bo'lsa, uning miqdori shunchalik yuqoridir. Uglerod neftning hamma kimyoviy birikmalarini tarkibiga kiradi.

Vodorod. Vodorod neftlarning 11÷14% (mass.) ini tashkil qiladi. Neft tarkibi og'irlashishi bilan ushbu kattalik kamayadi (vodorod bo'yicha). Uglerod kabi vodorod ham neftni hamma kimyoviy birikmalarining tarkibiy qismidir.

Vodorod va uglerod neftning asosiy yonuvchi elementlaridir (issiqlik energiyasini tashuvchi). Yonish issiqligi bilan farqlanadilar, u vodorod uchun 133 MJ/kg (267 MJ/mol) ga yaqin, uglerod uchun esa 33 MJ/kg (394 MJ/mol). Shunga qarab neftni yonish xususiyatlarini vodorod va uglerod miqdorlarining nisbatlarini (H:C) foiz orqali xarakterlash qabul qilingan.

Uglevodorodlardagi H:C nisbatining maksimal qiymati metanda (33%) bo'lib, ushbu nisbat molekuladagi uglerod atomlari sonini ortishi bilan kamayadi. 5.1-rasmda to'yingan (alkanlar, naftenlar) va to'yinmagan (arenlar) uglevodorodlar qatorlari uchun H:C nisbatini o'zgarish egri chiziqlari keltirilgan. Ular bir gomolitik qatorda (ayniqsa, alkanlar uchun) ushbu nisbat faqat uglerod atomlari 10÷12 tagacha bo'lган uglevodorodlar uchun ko'p o'zgaradi, keyin esa u kam o'zgaradi. H:C nisbatini qiymatlarining farqi turli guruh uglevodorodlari uchun ko'proq va shunga ko'ra ularni neft yoki uning ayrim fraksiyalaridagi nisbatlariga bog'liq holda H:C – qiymat turlicha bo'ladi.


Neftlar uchun uning o'rtacha qiymati 13÷15%, benzin fraksiyalar uchun – 17÷18%, og'ir fraksiyalar ($>500^{\circ}\text{C}$) uchun – 10÷12% ni tashkil qiladi.

N:S nisbat, yonish, gazifikatsiya, gidrogenizatsiya, kokslash va boshqa jarayoniarni hisoblashda neft va uning fraksiyalarini ahamiyatli kimyoviy xususiyatidir.

Oltungugurt. Oltungugurt saqllovchi geteroatomli birikmalarning ko'psonli guruhlari tarkibiga kiradi. Neftlar oltungugurt miqdori bo'yicha kuchli farqlanadilar, kam oltungugurtli neftlarda u 0,02% dan 0,5% gacha, yuqori oltungugurtlarda esa – 1,5 dan 6,0% gacha bo'ladi.

Oltungugurt neftning fraksiyalarida ham turlicha tarqalgan. Uning miqdori, qaynash harorati $100\div150^{\circ}\text{C}$ oralig'ida minimumli ekstremal bog'lanish bo'yicha o'zgaradi. Neftning yuqori qaynash

fraksiyalarida ($>400^{\circ}\text{C}$) oltingugurt, quyi qaynaydiganlarga nisbatan ko‘p bo‘ladi.



5.1-rasm. Vodorod: uglerod nisbatining molekulalardagi uglerod atomlari soni n_c ga bog‘liqligi
1- alkanlar; 2-naftenlar; 3-arenlar

Oltingugurt – neftning nojoiz elementlaridan biridir, chunki uglevodorodlar bilan korrozion – faol birikmalar, yonganda esa oksidlar va ular orqali atmosferani zaharli, ifloslovchi sulfat kislota hosil qiladi. Shuning uchun oltingugurtning mavjudligi hamma neftlarni uch sinfga - kam oltingugurtli, oltingugurtli va yuqori oltingugurtli guruhlarga bo‘linadi.

Azot. Neftlarda azot oltingugurtga nisbatan kamroq miqdorlarda $0,01\div0,6\%$ (mass.) va faqat ayrim hollardagina $1,5\%$ (mass.) mavjud. Azot uglevodorodlar bilan turli xususiyatga ega bo‘lgan har xil guruh azot saqlovchi birikmalar hosil qiladi va neftning 400°C dan yuqorida qaynovchi og‘ir fraksiyalarida asosan to‘planadi.

Xuddi oltingugurt kabi azot o‘zining neftni qayta ishlashda qo‘llaniladigan katalizatorlarga zaharli ta’siri va yoqilg‘ilar yonganda azot oksidlarini hosil qilish sababli, neftning nomaqbul qo‘sishchasi tarkibiga kiradi.

Kislorod. Kislorod neftlarda karbon va naften kislotalar hamda fenollardek nordon birikmalar guruhlari kabi uchraydi. Kislorodning neftlardagi umumiy miqdori 0,05% dan 0,8% gacha bo'lib, ayrim hollardagina 3,0% gacha etishi mumkin. Azot kabi kislorod ham nefstning og'ir fraksiyalarida yig'iladi va uning miqdori fraksiya og'irlashishi bilan ortib boradi.

Kislorodli birikmalarni neftda mavjudligining nomaqbulligi—uning birikmalarini yuqori korrozion faolligi bilan belgilanadi.

Metallar. Metallar – uglevodorodlar bilan juda keng getero-elementlar guruh bo'lmish murakkab birikmalarni hosil qiladi. Neftlardagi metallarni miqdori ko'p emas va juda kam hollarda 0,05% (mass.) (500 mg/kg) dan oshadi. Turli neft konlarida 30 ga yaqin metallar kuzatilib, ularning ichida vanadiy, nikel, temir, ruh, mis, alyuminiylar bor. 5.2-jadvalda neftlardagi metallar miqdori haqida keng ma'lumotlar keltirilgan.

Metallar 450°C va undan yuqorida qaynovchi fraksiyalarining yuqori molekulyar birikmalarini tarkibiga kiradi. Ushbu birikmalar termokatalitik destruksiya qilinganda metallar ajralib, ular katalizator g'ovakliklarida qatlam hosil qiladi va katalizatorni dezaktivlaydi, katalizatorlar regeneratsiya qilinganda esa, ularga yana salbiy ta'sir etuvchi oksid birikmalarni hosil qiladi.

5.3-jadval

Neftdagi metallar miqdori, mg/kg

Element	Turi	Qiymatlar chegarasi		Element	Turi	Qiymatlar chegarasi	
		min.	maks.			min.	maks.
Vanadiy	5-50	0,01	1200**	Magniy	0,3-1,0	0,001	10
Nikel	3-25	0,01	150	Alyuminiy	0,1-2,0	0,01	8
Temir	1-5	0,4	60	Titan	0,1-0,2	0,0001	5
Natriy	0,1-9,0	0,1	38	Rux	0,01-2,0	0,001	4
Simob	0,05	0,01	29	Xrom	0,001-0,3	0,0001	3
Kobalt	0,001-0,01	0,0001	13	Qalay	0,1-0,3	-	2
Mis	0,2-1,0	0,01	12	Qo'rg'oshin	0,001-0,1	-	2
Kalsiy	1-3	0,001	10				

5.2.1. Neftning element tarkibini aniqlash

Neftni qayta ishlash jarayonini to'g'ri tanlash, material balansini hisoblash uchun uning element tarkibini bilish kerak.

Neftning element tarkibini tajribada aniqlash. uning aniq miqdorini yoqib, yonish mahsulotlari (kul) tarkibini kimyoviy yoki spektral tahlil qilishga asoslangan.

Neft tarkibida oltingugurtli, azotli va kislorodli birikmalarning, bo'lishi maxsus tozalash qurilmalari qurishni taqozo qiladi. Shuning uchun neftni tarkibida oltingugurtli, azotli va kislorodli birikmalarini qancha ekanligini bilish kerak.

Oltingugurt, azot va kislorod neftda 3÷4% massani tashkil qiladi, lekin bularning har bir massa birligiga 15÷20% (mass.) uglevodorod radikallari to'g'ri keladi. Uglevodorod qismiga esa neftni umumiy og'irligining 40÷50% massasi to'g'ri keladi.

Vodorod va uglerodni element tahlili, neft va neft mahsulotlarining organik qismini kislorod yordamida qoldiqsiz yoqiladi (CO_2 va H_2O) aniqlanadi.

Neft mahsulotlardagi oltingugurt miqdori lampa usuli yoki kvars trubkada yondirish usuli bilan aniqlanadi.

5.3. Neftning guruh kimyoviy tarkibini aniqlash

Neft uglevodorodlarni va geteroatomli uglevodorod birikmalarini murakkab aralashmasi bo'lib, molekulyar massalari diapazoni 16 dan 2000 va undan ko'proqni tashkil etadi. Ularning hammasini zamonaviy usullar bilan ham identifikatsiya qilishning iloji yo'q, shuning uchun neftni kimyoviy tarkibini asosiy guruh uglevodorodlari va boshqa birikmalarning miqdori bilan xarakterlash qabul qilingan.

Neft bir-biriga qaynash harorati yaqin uglevodorodlarning fraksiyalarining murakkab aralashmasidan tashkil topgan.

Neft tarkibiga 3 ta katta guruh birikmalar – uglevodorodlar, geteroatomli birikmalar, smolalar va hamda asfaltenlar kiradi. Smolalalar va asfaltenlar – kimyoviy birikmalarning xarakterli guruhi emas, biroq ular kolloid holida neftda mayjud bo'lgan yuqori molekulyar (o'rtacha molekulyar massasi 600÷700 dan yuqori)

birikmalar konsentratidan iborat bo'lganligi bois, o'rganish uchun alohida ajratib olinadi.

Tabiiy neft uglevodorodlari uch guruh – alkanlar, sikloalkanlar va arenlar bilan ifodalangan. Tabiiy neftlarda to'yinmagan uglevodorodlar (alkenlar) odatda bo'lmaydi va ular faqat neftni qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladilar.

Ikkinci guruhga oltingugurt-, azot-, kislород- va metall saqlovchi uglevodorodli birikmalar kiradi.

Neftlarning xossalari ulardagi turli guruh uglevodorodlari, geteroatomli birikmalar, smolalar va asfaltenlar nisbatlariga bog'liqdir. Ushbu nisbat neftni qayta ishlash texnologik yo'nalishi bilan birga, uni qayta ishlashda olinadigan mahsulotlarini assortimenti va sifatiga ham bog'liqdir. Undan tashqari neft va uning fraksiyalari mahsus mahsulotlarda qo'llaniluvchi yoki neftkimyoda xom ashyo sifatida ishlatiluvchi ayrim uglevodorodlar yoki ularning birikmalarini olish manbaidir.

Benzin va kerosin fraksiyalarini gaz-suyuqlik xromatografiyası orqali aniqlash mumkin. Lekin xromatografik tahlil qancha tez bo'lmasin, fraksiyalarini tarkibini aniqlash va hisoblashga ko'p vaqt ketadi. Texnik maqsadlar uchun chuqr tahlil qilishning keragi yo'q. Uglevodorodlarni sinflar bo'yicha umumiy soni ma'lum bo'lsa etarli bo'ladi.

Neft mahsulotlaridagi uglevodorodlarni guruhlariga qarab: benzin uchun – guruh tarkibi; moylar va neftni og'ir qoldiqlari uchun esa tuzulma – guruh tarkibini tahlil qilish usuli qo'llaniladi.

Neftning tor fraksiyalarini ham uglevodorodlar va geteroatomli birikmalarning etarli murakkab aralashmalaridan iboratdir.

Hozirgi vaqtida tor benzin fraksiyalarini va hattoki kerosin fraksiyalarini ham gaz-suyuqlik xromatografiyası yordamida individual uglevodorodlarga ajratish mumkin. Xromatografik tahlilning nisbatan tezkorligiga qaramay, bundan murakkab aralashmalar xromatogrammalarni individual komponentlarga ajratish va hisoblash juda ko'p mehnat talab qiladi. Nisbatan olganda anchadan beri neftni qayta ishlash amaliyotida, ularda u yoki bu sind uglevodorodlarini (benzinlar uchun guruh tarkibi va moylar hamda og'ir neft qoldiqlari uchun strukturaviy-guruh tarkib) miqdori bo'yicha neft mahsulotlari tarkibini aniqlash usullari mavjuddir. Ushbu usullarni quyidagi

turlarga bo'lish mumkin: kimyoviy, fizik-kimyoviy, kombinirlangan va fizikaviy.

Birinchi turdag'i usullar reagentni ma'lum sinf uglevodorodlari (arenlar yoki alkenlar) bilan kimyoviy o'zaro ta'sirlashuvi ko'zda tutiladi; ularning mavjudligini hajmnинг o'zgarishi yoki hosil bo'lgan reaksiya mahsulotlarining miqdori bilan izohlash mumkin. Ularga nitrolash va sulfurlash reaksiyalarini misol qilib keltirish mumkin.

Ikkinchchi tur usullarga ekstraksiya va adsorbsiya kiritiladi. Masalan, arenlarni sulfit gazi, dimetilsulfat, anilin va shu kabilar bilan ekstraksiyasi, ushbu uglevodorodlarning silikagelda adsorbsiyasi.

Uchinchi tur usullar eng aniq bo'lib keng tarqalgan. Ular quyidagi ikki usulni birgalikda qo'llashga asoslangan: arenlarni kimyoviy yoki fizik-kimyoviy usullar bilan ajratish va neft mahsulotini kattaliklarini (zichlik, sindirish ko'rsatkichi, boshqa suyuqliklarda erish kritik haroratlari) ni arenlarni ajratguncha va undan keyin o'lchamlar ayirmasi.

To'rtinchi tur usullar asosan, ularning optik xossalariiga asoslangan.

Moy fraksiyalarini guruhi tarkibini tahlil qilish birmuncha murakkabroqdir. Neft mahsulotlarining molekulyar massasi ortib borishi bilan, ularda tobora ko'proq ulushni gibrid tuzilmalar egallaydi va uglevodorod sinflari orasidagi farqlanish kamaya boradi.

Tahlil qilishning ko'rsatilgan usullarini vazifasi bo'lib, nafaqat mahsulotdagi arenlar, sikloalkanlar va alkanlarni miqdorlarini aniqlash, gibrid birikmalarni ulardagi turli tuzilishli birliklarning (aromatik va alisiklik halqalar, alkilli o'rinn oluvchilar) miqdori bo'yicha o'rganish tavsiya qiladi.

Bunday tahlillar uchun qo'llaniladigan usullar – izlanishning fizik-kimyoviy, kimyoviy va fizik usullarini kombinirlangan holda qo'llash, empirik tenglamalar va nomogrammalarni ham qo'llaniladi.

5.3.1. Benzinlarning guruhi tarkibi

Benzindagi arenlarni aniqlash, odatda anilin nuqtalarini kombinirlangan usuli bilan amalga oshiriladi. Usulni mohiyati arenlarning A, % (mass.) miqdorini hisoblashdan iborat bo'lib, bir xil hajmdagi

benzin va anilinning o'zaro erish kritik haroratlarini arenlarni ajratguncha va undan keyingi o'zgarishini hisoblashdan kelib chiqiladi:

$$A = K (t_2 - t_1)$$

bu erda K – hisoblash koefitsiyenti bo'lib, u berilgan mahsulotdagi arenlarning miqdorini xarakterlab, anilin nuqtasini 1°S ga pasayishiga olib keladi, t_1 va t_2 – boshlang'ich va aromatsizlantirilgan mahsulotlar anilin nuqtalari, $^{\circ}\text{C}$.

K ning qiymati arenlarning tuzilishiga va ularni mahsulotdagi miqdoriga bog'liqdir. Shuning uchun benzirlarni tahlil qilishda, ularni avvaldan tor fraksiyalarga: benzol ($60\text{-}95^{\circ}\text{C}$), toluol ($95\text{-}122^{\circ}\text{C}$), ksilollarga ($122\text{-}155^{\circ}\text{C}$) ajratib haydash (deflegmatorli kolbadan foydalanib) lozim. Har bir fraksiyada arenlarning miqdori alohida-alohida aniqlanadi.

5.4-jadval

Ushbu fraksiyalarda K qiymati quyidagicha o'zgaradi:

Fraksiya, $^{\circ}\text{C}$	60-95	95-122	122-155	155-175
Fraksiyadagi arenlarning miqdori, % (mass.):				
20 gacha	1,2	1,22	1,30	1,40
20-40	1,18	1,20	1,22	1,30

Quyi miqdorli arenlarni 1,5, 3,0 va 5,0% saqlovchi erituvchi-benzirlarni tahlil qilishda K ning qiymati mos ravishda: 1,00, 1,16, 1,17 kabi o'zgaradi.

Benzindagi arenlarning miqdori A quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$A = (A_1 V_1 + A_2 V_2 + \dots + A_n V_n) / 100$$

bu erda: A_1, A_2, \dots, A_n – ayrim fraksiyalardagi aromatik uglevodorodlarning miqdori, % (mass.); V_1, V_2, \dots, V_n – benzindagi fraksiyalar miqdori, % (mass.).

Benzinning guruh tarkibini anilin nuqtalar usuli bilan aniqlash uchun ilk mahsulot tarkibidagi arenlarni ajratish kerak. Buni kimyoviy usul – 100% li sulfat kislota bilan sulfirlab yoki fizik-kimyoviy usul – silikagelli xromatografiya bilan amalga oshirish mumkin. Ikkinchi usul tez va oddiy hisoblanadi.

5.3.2. Kerosin va moy fraksiyalarning strukturaviy guruh tarkibi

Hozirgi vaqtida nefting o'rtalari va og'ir fraksiyalariga kiruvchi gibrildi uglevodorodlarni tuzilishi bo'yicha baholashga imkon beruvchi tahlilning bir nechta usullari mavjuddir. Ular individual uglevodorodlar va ular aralashmalarining katta sonlarini o'rganishga asoslangan. Yig'ilgan tajriba materiallari uglerodni molekulaning turli strukturaviy fragmentlari da tarqalishi bilan uglevodorodlar va ular aralashmalari fizik kattaliklar orasidagi qonuniyatlarini topish imkonini berdi. Empirik hisoblarga asoslangan usullar yuqori aniqlikka ega emas. Shunday bo'lishiga qaramay, mavjud usullar yuqorida ko'rsatilgan neft fraksiyalarini tahlil qilish uslubining eng yaxshisi va eng oddiysi bo'lib qolmoqda.

n-d-M usuli (sindirish ko'rsatkichi – zichlik – molekulyar massa)

Ushbu usul Van-Nes va Van-Vestenlar tomonidan 1954-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, alkenlar saqlamagan neft fraksiyalarida uglevodorod taqsimotini va halqalar mavjudligini aniqlash imkonini beradi. Usul aromatik, alisiklik va to'ynmagani alifatik tizimga kiruvchi uglerod saqlavchi, berilgan fraksiyani «o'rtacha» molekulasi haqida tushuncha hosil qilishga imkon beradi. So'nggi tizimlar alkanlarning uglerodini ham, alisiklik va aromatik halqalardagi alkilli o'rinnbosarlarning uglerodini ham o'z ichiga oladi. Hamma «ko'rinishdagisi» uglevodorodlarning yig'indisi 100% ga teng bo'ladi.

Halqalar sonini aniqlash deganda, o'rtacha molekuladagi yoki o'rtacha fraksiyadagi aromatik va alisiklik halqalar sonlarini aniqlash tushuniladi.

Usulning kamchiliklari, unda quyidagi chegaralanishlarning zarurati borligidir: 1) hamma sikllar (alisiklik va aromatik) – olti

a'zoli; 2) hamma halqalar katokondensirlangan holatda bo'lishi kerak.

Ushbu chegaralanishlar o'rtacha statistik qiymatlarni olish uchun zarur va ular to'liq asoslangan.

Neft mahsuloti strukturaviy-guruh tarkibini n-d-M usuli bilan aniqlash uchun quyidagilarni bilish lozim: sindirish ko'rsatkichi ($\pm 0,0001$ gacha aniqlikda), zichlik ($\pm 0,0002$ gacha aniqlikda) va molekulyar massani ($\pm 3\%$ gacha aniqlikda). Hisob quyidagicha amalga oshiriladi:

5.5-jadval

Suyuq fraksiyalar uchun (doimiyliklar 20°C da aniqlanadilar)	Qattiq fraksiya uchun (doimiyliklar 70°C da aniqlanadilar)
C_A , C_{halqa} , K_A , K_0 larning yuqori qiymatida	C_A , C_{halqa} , K_A , K_0 larning quvi qiymatida
$C_A = 3660 \cdot 1/M + 430 (2,51 \Delta n - \Delta d)$	$C_A = 3660 \cdot 1/M + 410 (2,72 \Delta n - \Delta d)$
$C_{\text{halqa}} = 10000 \cdot 1/M + 820 (\Delta d - 1,11 \Delta n)$	$C_{\text{halqa}} = 11500 \cdot 1/M + 775 (\Delta d - 1,11 \Delta n)$
$K_A = 0,44 + 0,055 M (2,51 \Delta n - \Delta d)$	$K_A = 0,41 + 0,055 M (2,42 \Delta n - \Delta d)$
$K_0 = 1,33 + 0,146 M (\Delta d - 1,11 \Delta n)$	$K_0 = 1,55 + 0,146 M (\Delta d - 1,11 \Delta n)$
C_A , C_{halqa} , K_A , K_0 larning quvi qiymatida	C_A , C_{halqa} , K_A , K_0 larning quvi qiymatida
$C_A = 3660 \cdot 1/M + 670 (2,51 \Delta n - \Delta d)$	$C_A = 3660 \cdot 1/M + 720 (2,42 \Delta n - \Delta d)$
$C_{\text{halqa}} = 10600 \cdot 1/M + 1440 (\Delta d - 1,11 \Delta n)$	$C_{\text{halqa}} = 12100 \cdot 1/M + 1400 (\Delta d - 1,11 \Delta n)$
$K_A = 0,44 + 0,080 M (2,51 \Delta n - \Delta d)$	$K_A = 0,41 + 0,080 M (2,42 \Delta n - \Delta d)$
$K_0 = 1,33 + 0,180 M (\Delta d - 1,11 \Delta n)$	$K_0 = 1,55 + 0,180 M (\Delta d - 1,11 \Delta n)$

Shartli belgilar: C_A – aromatik strukturalardagi uglevodorod miqdori, % (mass.); C_{halqa} – halqali strukturalarda uglerod miqdori, % (mass.); K_A – (o'rtacha) molekuladagi aromatik halqalar soni; K_0 – (o'rtacha) molekuladagi aromatik va alisiklik halqalarning umumiy soni.

C_A , C_{halqa} , K_A , K_0 larning yuqori qiymati deb ($\Delta n - \Delta d$) qavslardagi algebraik yig'indi musbat bo'limgandagi hol hisob qilinadi, agarida ushbu yig'indi manfiy bo'lsa, hisobni ko'rsatilgan ko'rsatkichlarni quyi qiymati uchun mo'ljallangan formulalar bilan amalga oshiriladi.

Hisoblar uchun zarur bo'lgan Δn va Δd faktorlar neft mahsuloti bilan normal tuzilishli gepotetik to'yingan uglevodorodni mos ko'rsatkichlari farqini ifodalaydilar.

Suyuq fraksiyalar uchun Qattiq fraksiyalar uchun

$$\Delta n = n_D^{20} - 1,4750 \quad \Delta n = n_D^{20} - 1,4600$$

$$\Delta d = \rho_4^{20} - 0,8510 \quad \Delta d = \rho_4^{20} - 0,8280$$

Alisiklik tuzilmalarda joylashgan uglerod ulushi farq bo'yicha aniqlanadi.

VI BOB. NEFT VA GAZ TARKIBINING ANIQLASH VA KOMPONENTLARNI AJRATIB OLİSH USULLARI

Turli konlardan qazib chiqarilgan neftlar o‘z tarkibi va xususiyatlari bo‘yicha bir-biridan anchagina farqlanadi. Neftni kimyoviy va fraksion tarkibini bilish, uni qayta ishlashni eng ratsional komplekslarini tanlash uchun modellash hamda qurilmalar quvvatini asoslash uchun zarurdir.

Murakkab aralashmalarni ajratish va tahlil qilish zamonaviy fizik-kimyoviy usullari texnikasining rivojlanishi, neftning element tarkibini aniqlash va ayrim fraksiyalarini guruhlarga ajratishdan so‘nggi vaqtida esa neft fraksiyalarini individual tarkibini o‘rganishga o‘tish imkonini berdi. Gaz va benzin fraksiyalarini (C_{10} gacha) individual tarkibini o‘rganish mumkin bo‘lib, kerosin va gazoyl fraksiyalarini (C_{20} gacha) guruhlarga ajratish amalga oshirilib, komponentlarni qisman identifikasiyalandi.

Yuqori molekulyar fraksiyalarda (C_{21} va undan yuqori) hozircha faqat ayrim individual birikmalarni aniqlashga erishildi, turli gibrid tuzilmalarni o‘z ichiga olgan ushbu fraksiyalarini guruhlarga ajratish ham etarli darajada murakkab bo‘lib, uni individual uglevodorodlarga ajratish shart emas. Neft va gazni qayta ishlash mahsulotlarini tahlil qilishni engillashtirish uchun xoh molekulyar massa, xoh molekulalar turi bo‘yicha uglevodorodli va geteroatomli komponentlarni oldindan ajratib olishni turli-tuman usullari ishlatiladi. Neft va gaz komponentlarini ajratishning kimyoviy va fizikaviy usullarini farqlaydilar. Kimyoviy usullar ajratilayotgan komponentlarni bir xil bo‘lman reaksiyon xususiyatlariga bog‘liq bo‘lsa, fizik usullar esa, o‘zaro birga mavjud bo‘lgan muvozanatli fazalarda konsentratsiyalarni har xilligiga asoslangandir (6.1-jadval).

Neft, gaz va ularni qayta ishlash mahsulotlari komponentlarini ajratishning fizik usullari

Fazoviy holat	Oddiy usullar	Murakkab usullar
Gaz-gaz	Membrana orqali dif-fuziya	Tashuvchi – gaz bilan dif-fuziya
Gaz-suyuqlik	Haydash va rektifikasi-tsiya	Azeotrop rektifikatsiya, Ekstraktiv rektifikatsiya. Suv bug'i bilan haydash. Absorbsiya.
Gaz-qattiq faza	Qattiq jismni bevosita bug'ga aylantirish	Adsorbsiya
Suyuqlik-suyuqlik	Termik diffuziya. Membrana orqali dif-fuziya	Ekstraksiya
Suyuqlik-qattiq faza	Kristallizatsiya	Adsorbsiya. Ekstraktiv kris-tallizatsiya. Adduktiv kris-tallizatsiya.

6.1. Neftni birlamchi haydash

Haydash molekulyar massalari bo'yicha neft va uni qayta ishlash mahsulotlarini komponentlarga ajratishning eng ahamiyatli usullari bo'lib qolmoqda, chunki biron-bir sxema yo'qki, neftlarni tahlil qilishda atmosfera bosimida yohud vakuumda fraksiyalanmasa.

C_{20} dan yuqori uglevodorodlar, baland haroratda qaynaydigan fraksiyalarni aniqlanishda molekulyar haydashni qo'llash mumkin. Odatdagi haydashda isitilayotgan suyuq aralashma yuzasidan bug'langan molekulalar o'zaro to'qnashadilar, ularning bir qismi bug'lanish yuzasidan orqaga qaytadi va kondensirlanadi, shuning uchun qo'shimcha energiya sarf qilishga, tizimni haroratini ko'tarishga to'g'ri keladi. Molekulyar haydash chuqur vakuumda (qoldiq bosim $< 0,1$ Pa) amalga oshiriladi; bug'lanish va kondensirlanish yuzalari orasidagi masofa katta emas (10-30 mm), molekulalarni erkin harakatda bo'lish uzunligidan kam. Shu bilan

birgalikda bug'langan molekulalar to'qnashmaydilar va kondensatorga minimal energiya sarfi bilan etib oladilar. Bu esa moddalarni past haroratda haydash imkonini beradi.

Rektifikatsiya benzinni tor fraksiyalarga ajratishda va benzinni barqarorlashtirish, unda erigan gazlarni ajratib olishda qo'llaniladi. Qaynash haroratlari o'zaro yaqin bo'lgan moddalar aralashmalarini, masalan, C₈ – arenlarni ajratish uchun ko'p sonli tarelkalar bilan jihozlangan kolonnalardan iborat va yuqori karralik sug'orishli o'ta aniq rektifikatsiya qo'llaniladi.

Kerakli tozalik bilan mahsulot olish uchun zarur rektifikatsion kolonnani samaradorligi, ajratilayotgan komponentlarni nisbiy uchuvchanlik koeffitsiyenti (α) ga bog'liqdir. Birinchi yaqinlashishda uglevodorod tizimlarni Raul qonuniga bo'ysunuvchi, xuddi ideal tizimlar kabi ko'rib chiqish mumkin. U holda:

$$\alpha = P_1^0 / P_2^0$$

bu erda: P_1^0, P_2^0 – tizim haroratidagi komponentlarni to'yingan bug' bosimlari. Masalan, C₈ – arenlar eng yuqori qaynovchi o-ksilol izomerdan (kalit qo'sh komponent m-ksilol : o-ksilollar uchun 180°C da nisbiy uchuvchanlik koeffitsiyenti $\alpha=1,135$) 150-200 tarelkalarga ega, sug'orishi 7-9 marotaba bo'lgan kolonnalarda ajratiladi. Ushbu sharoitlarda o-ksilolni tozaligi 99% ga erishiladi.

Etilbenzolni ksilollar aralashmasidan (kalit qo'sh komponent n-ksilol, etilbenzol uchun 180°C da nisbiy uchuvchanlik koeffitsiyenti $\alpha=1,05$) ajratib olish uchun 300÷400 tarelkalar yig'indisi, sug'orish ≈100 marotabaga teng bo'lgan ketma-ket biriktirilgan bir nechta kolonnalar qo'llaniladi.

Absorbsiya bilan bir qatorda gazni ajratish usullaridan biri bo'lgan sovutish agenti sifatida ammiak yoki propan qo'llanilgan quyi haroratli rektifikatsiyadir. Rektifikatsiya neft kimyosida neftkimyoviy sintezning turli xil mahsulotlarini ajratib olish va tozalash sifatida keng qo'llaniladi. Shu bilan birga jarayon selektivligining oshib borishi rektifikatsiyaning rolini oshiradi, qator hollarda esa murakkabroq usullar – ekstraksiya, ekstraktiv yoki azeotrop rektifikatsiyani qo'llash amalga oshiradi.

6.2. Azeotrop va ekstraktiv rektifikatsiya, ekstraksiya, absorbsiya

Neft fraksiyalarini molekulalar turiga ko'ra ajratish, neftni qayta ishlash mahsulotlaridan arenlar, alkinlar va alkadienlarni odatdag'i rektifikatsiya yo'li bilan ajratib olish, qoidaga muvofiq kam samsadordir va komponentlarni qaynash haroratlarni o'zaro yaqinligi va azeotroplarni hosil bo'lishi ko'pincha amalda mumkin emas. Masa-lan, benzol, siklogeksan va siklogeksen, shuningdek, metilsiklo-pentan, izogeptanlar bilan azeotroplar hosil qiladi.

Shunga o'xshash uglevodorodlar aralashmalarini ajratishda ekstraksiya, absorbsiya, ekstraktiv va azeotrop rektifikatsiyalar keng qo'llaniladi. Bunday jarayonlar uchun umumiy bo'lgan ajratilayotgan uglevodorodlarga turli energiya bilan ta'sir etuvchi selektiv erituv-chilarni ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Uglevodorodlar aralashmasiga qutblangan erituvchi kiritilganda tizim noideal bo'lib qoladi va ajratiluvchi komponentlarni ajratuvchi agent ishtirokidagi nisbiy uchuvchanlik koeffitsiyenti qiymati (α_r) quyidagicha ifodalanadi:

$$\alpha_p = \gamma_1 P_1^0 / \gamma_2 P_2^0$$

bu erda: γ_1 va γ_2 - komponentlarni aktivlik koeffitsiyentlari. Komponentlarni nisbiy uchuvchanligini o'zgarishi erituvchini selektivligi yoki tanlovchanligi (C):

$$C = \alpha_p / \alpha = \gamma_1 / \gamma_2$$

Aktivlik koeffitsiyentlarini qiymati avvalambor, molekulalararo o'zaro ta'sir enegiyalariga bog'liqidir:

$$\lg \gamma_s = K(E_{AA} + E_{SS} - 2E_{AS})$$

bu erda: γ_A – A uglevodorodni C erituvchidagi aktivlik koeffitsiyenti; K- uglevodorod va erituvchi molekulalarining hajmlari nisbatiga


bog'liq konstanta; E_{AA} , E_{CC} , E_{AC} - uglevodorodning, erituvchi molekulalarining va uglevodorod molekulasi bilan erituvchi molekulalarining o'zaro ta'sir energiyalari.

Turli gomolitik qator uglevodorodlarni (molekulalardagi bir xil sonli uglerodlarda) qutblangan erituvchilardagi aktivlik koeffitsiyent qiymatlari qoidaga binoan quyidagi ketma-ketlikda o'zgaradi.

alkanlar > sikloalkanlar > alkenlar > alkadienlar > alkinlar > arenlar

Aktivlik koeffitsiyentlarini o'zgarish xarakteri uglevodorodlar tabiatiga bog'liqligi bilan tushuntirilib, xuddi yuqorida ko'rsatilgan ketma-ketlikda uglevodorod va erituvchi molekulalari orasidagi tortishish kuchini oshib borishini aniqlaydi.

Alkenlar, alkinlar va arenlar to'yingan uglevodorodlardan farqli o'laroq, π -orbitalni egallagan elektronlar hisobiga spetsifik o'zaro tasirda bo'lgan elektronakseptorli erituvchi molekulasi uglerod bilan π -kompleks hosil qilish qobiliyatiga ega:



π -Komplekslarning barqarorligi uglevodorod molekulalarining elektron-donorlik qobiliyatini oshishi va erituvchi molekulalarida zaryadlar notejis taqsimlanishining kuchayishi bilan ortadi. Ayrim hollarda π -komplekslar shunchalik barqarorki, ular xarakterli erish haroratga ega, masalan, arenlarning pikrin kislota, 2,4,7-trinitrofluren, pentaftornitrobenzol bilan hosil qilgan komplekslari shular jumlasidandir.

O'ziga xos o'zaro ta'sirlashuvi boshqa ko'rinishi, ayniqsa, α -alkinlar va protonli erituvchilar uchun xarakterli bo'lgan vodorodli bog'larni hosil bo'lishidir.

Alkanlardan arenlarga o'tish ketma-ketligida molekulalarni birlik hajmiga to'g'ri kelgan qutblanish ortadi. shunday ekan, Van-der-Vaals kuchlari, xususan induksion o'zaro ta'sir energiyasi ham ko'payadi.

Ajratilayotgan uglevodorodlar bilan erituvchi molekulalarining o'zaro ta'sir energiyasi qanchalik ko'p farqlansa, erituvchining selektivligi shunchalik yuqori bo'ladi. Selektivlik, π -komplekslarni yuqori barqarorligiga bog'liq holda haroratni pasayishi va tizimadagi erituvchi konsentratsiyasini oshishi bilan ortadi. Selektivlik, berilgan haroratdagi maksimal qiymatiga uglevodorodlarni cheksiz suyultirilganda erishiladi:

$$S_{maks} = \gamma_1^0 / \gamma_2^0$$

bu erda: γ_1^0 va γ_2^0 – erituvchi bilan cheksiz suyultirilgan uglevodorodlarni aktivlik koeffitsiyentlari.

S_{maks} kattaligi turli erituvchilar selektivliklarini ekstraksiya, absorbsiya, ekstraktiv va azeotrop rektifikatsiya jarayonlarida taqqoslab ishlatish uchun qulaydir.

Masalan, 6.2-jadvalda geksan-benzol tizimiga nisbatan sanoatda qo'llaniladigan qator eng samarali ajratuvchi agentlar uchun selektivlik qiymatlari keltirilgan.

6.2-jadval

Geksan va benzolning aktivlik koeffitsiyentlari va erituvchilarning selektivligi (60^0C da)

Nº	Erituvchi	γ_s^0	γ_b^0	$S = \gamma_s^0 / \gamma_b^0$
1	Atseton	5.1	1.6	3.2
2	Metil spirti	19	5.8	3.3
3	Atsetonitril	15.8	2.6	6.0
4	Fenol	12.0	2.5	4.8
5	Furfurol	18	2.6	6.9
6	Dimetilformamid	11.5	1.4	8.3
7	N-Metil-2-pirrolidon	8.6	1.0	8.6
8	N-Formilmorfolin (50^0S)	37.8	1.95	19.4
9	Etilenglikol	300	20	15
10	Dietilenglikol	64	6.5	9.8
11	Trietilenglikol	40.5	4.2	9.6
12	Dimetilsulfoksid	39	3.05	12.8
13	Sulfolan	48	2.45	10.6

Selektiv erituvchilar aromatik yoki to'yinmagan uglevodorodlarni ekstraksiya va adsorbsiya jarayonlarida tanlab eritadi, ekstraktiv va azeotrop rektifikatsiya jarayonlaridagi to'yingan uglevodorodlarni nisbiy uchuvchanlik koeffitsiyentlarini oshiradi.

Azeotropli rektifikatsiya

Azeotrop rektifikatsiya jarayonida, masalan, arenlarni (benzol toluol, ksilollar) to'yingan uglevodorodlar bilan aralashmasidan ajratish va tozalashda nisbatan quyi haroratda qaynovchi erituvchilar- atseton, metil spirt, atsetonitrillar qo'llanilishi mumkin.

Azeotroplarni hosil bo'lish sharoitiga ko'ra tizim azeotrop bo'ladi, agarda eritmadiagi uglevodorod chegaraviy aktivlik koef- fitsiyenti (γ_1^0) erituvchi va uglevodorod to'yingan bug' bosimi nisbatidan katta bo'lsa:

$$\gamma_1^0 > P_c^0 / P_1^0$$

yuqoridagi tengsizlikdan quyidagi natija chiqadi: uglevodorod- erituvchi tizimi qanchalik ideal bo'lmasa va komponentlarni to'yingan bug' bosimi qanchalik bir-biriga yaqin bo'lsa, azeotropni hosil bo'lish ehtimoli shunchalik yuqoriroq bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan erituvchilar bir-biridan ajratilayotgan uglevodorodlar qaynash haroratlariga yaqin qaynash haroratiga ega va odatda faqat C₆-C₈ to'yingan uglevodorodlar bilangina azeotrop aralashmalar hosil qiladi. Gohida erituvchi aromatik uglevodorodlar bilan ham azeotroplar hosil qiladi, biroq ushbu holda tizim idealga yaqin bo'ladi.

Shuning uchun umumiy bosim komponentlarni parsial bosimlari yig'indisidan

$$P = P_1 + P_c = \gamma_1 P_1^0 X_1 + \gamma_c P_c^0 (1 - X_1)$$

kam bo'lib, oqibatda azeotropni qaynash harorati, to'yingan uglevodorodlar azeotrop aralashmalarinikiga nisbatan yuqori bo'lib qoladi.

Masalan, atsetonitril yaqin qaynaydigan uglevodorodlar bo'lmish siklogeksan va benzollar bilan azeotroplar hosil qiladi. Biroq

siklogeksan-atsetonitril azeotropini qaynash harorati 62°C ga teng, benzol-atsetonitril azeotropiniki esa 74°C dir. Azeotroplar qaynash haroratlarining farqi $\Delta t = 12^{\circ}\text{C}$ benzol-siklogeksan aralashmasini azetropli rektifikatsiya usuli bilan ajratishga imkon beradi.

Azeotropli rektifikatsiya uglevodorodlarni bir-biridan ajratishda o'ziga xos quyidagi kamchiliklari bo'lganligi uchun hozirgi vaqtida uni qo'llanilishi chegaralangan: erituvchilarni tanlash bilan chegaralangan, erituvchilar selektivligining nisbatan pastligi, erituvchini bug'latish uchun issiqlikni sarflanishi va jarayonni texnologik tejashning nisbatan murakkabligi. Azeotropli rektifikatsiya maqsadiy mahsulotni qo'shimchalardan tozalashda iqtisodiy afzal jarayon bo'lib qolmoqda, chunki ushbu qo'shimchalar azeotrop hosil qiluvchi, nisbatan kam miqdorda komponent qo'shib haydash orqali yo'qotilishi mumkin.

Ekstraktiv rektifikatsiya

Ekstraktiv rektifikatsiya jarayonida ajratiladigan komponentlar bilan azeotroplar hosil qilmaydigan, yuqori haroratda qaynovchi erituvchilar qo'llaniladi. Buning uchun erituvchining qaynash harorati, aralashma komponentlaridan odatda 50°C va undan yuqoriroq bo'lishi lozim.

Azeotrop rektifikatsiyada tizimdagи erituvchi miqdori, azeotroplar tarkibi bilan belgilanadi va u ko'pincha etarli bo'lmagan bois moddalarni ajratish samaradorligiga salbiy ta'sir etadi. Ekstraktiv rektifikatsiya jarayonida esa kolonnani yuqorisiga berilayotgan erituvchi konsentratsiyasi ko'pincha katta 70-80% (mass) bo'lib, uglevodorodlarni ajratish samaradorligini oshiradi.

Bir birikmaning o'zi ham azeotrop, ham ekstraktiv rektifikatsiya usullari bilan turli uglevodorodlarni ajratib olishda qo'llanilishi mumkin. Masalan, aromatik uglevodorodlarni ajratib olishda ishlataluvchi eng selektiv azeotrop hosil qiluvchi komponentlardan biri bo'lgan atsetonitril, ekstraktiv rektifikatsiya usuli bilan piroliz yoki degidrirlash mahsuloti bo'lmish C_4 -fraksiyadan butadienni ajratib olish sanoatda keng qo'llaniladi.

Butadienni ajratib olishda atsetonitril bilan bir qatorda dimetilformamid va N-metilpirrolidon ishlataladi. Ushbu erituvchilar bilan

ekstraktiv rektifikatsiyada izopren – izoamilen aralashmalarini degidrirlash mahsulotlaridan izoprenni ajratib olishda ham qo'llaniladi. Yuqori selektivlik va uglevodorodlarga nisbatan katta erituvchilik xususiyatini o'zida namoyon qilgan qator erituvchilar (N-formilmorfolin, N-metilpirrolidon, dimetilformamid) ekstraktiv rektifikatsiya usuli bilan to'yingan uglevodorodlar bilan aromatik uglevodorodlar aralashmalaridan arenlarni ajratib olishda ham qo'llaniladi. Ko'rsatib o'tilgan erituvchilarning yuqori erituvchanlik xususiyatini, uglevodorodlarning aktivlik koefitsiyentiga nisbatan quyi qiymatlari asos bo'ladi (6.2-jadvalga qarang). Oxirgi holat ancha ahamiyat kasb etadi, chunki ekstraktiv rektifikatsiya jarayoni yuqori samaradorlik sharoitida kolonna tarelkalarida suyuqlikni fazalarga ajralmasligidir. Kam erituvchilik xususiyatli, ko'proq selektivlikka ega bo'lgan erituvchilar – sulfolan, di-, tri- va tetraetilenglikollar, dimetilsulfoksid, N-metilpirrolidonnii etilenglikol bilan aralashmasi sanoatda arenlar uchun ekstragentlar sifatida qo'llaniladi. Ekstraksiya jarayonini afzalligi 62-140°C fraksiyani riforming katalizatidan C₆-C₈-arenlarni birga ajratib olish imkoniyati bo'lsa, ekstraktiv rektifikatsiyani ushbu sharoitda o'tkazish uchun, uni avvalo, tor benzolli, toluolli va ksilollarli fraksiyalarga ajratish lozim. Oxirgi – tor fraksiyalarga ajratishning lozimligidan kelib chiqqan holda ekstraktiv rektifikatsiya jarayonida uglevodorodlar uchuvchanligi faqatgina aktivlik koefitsiyentlari qiymatlari bilan emas, to'yingan bug' bosimi bilan ham belgilanadi. Shuning uchun yuqori qaynovchi to'yingan uglevodorodlar, masalan, C₈-C₉ erituvchi ishtirokida benzolga nisbatan kamroq uchuvchanlikka ega bo'lib qolishi mumkin.

Ekstraksiyaning kamchiligi, kontakt nazariy pog'onalarini ko'proq sonini ta'minlashda anchagina qiyinchiliklar boriligidir. Ekstraksion kolonnalar, rotor-diskli ekstratorlarni samaradorligiga odatda 10 tagacha nazariy pog'ona bilan ifodalanadi, ekstraktiv rektifikatsiya kolonnalari esa 100 tagacha va undan ortiq nazariy tarelkalarga egadir. Shuning uchun ekstraksiya jarayoni C₄ va C₅-fraksiyalardan butadien va izoprenni sanoatda ajratib olishda qo'llanilmasligiga asosiy sababidir.

Neft moylarini quyi qovushqoqlik indeksiga ega bo'lgan va ularni ekspluatatsion hossalarini yomonlashtiruvchi polisiklik arenlar va geterosiklik birikmalardan selektiv tozalash uchun fenol va

furfurol bilan ekstraksiyalash jarayoni qo'llaniladi. Qoldiq moylar ishlab chiqarishda gudronni deASFALTFLASH, smolasimon – asfaltenli moddalarni chiqarib tashlashni amalga oshiriladi. Buning uchun moy komponentlari qutbsiz erituvchilar, masalan, suyuq propan bilan ekstraksiyalanadi va asfaltenlardan ajratiladi.

Qutblangan erituvchilar bilan ekstraksiya qilish jarayonini, mono-, bi- va uchsiklik arenlarni ajratishga qo'llash mumkin.

Turli konsentratsiyali sulfat kislota bilan ikki bosqichli ekstraksiya qo'llab oltingugurtli birikmalarni, xususan sulfidlarni neft fraksiyalaridan ajratib olish taklif etilgan. Kislotali ekstraksiya bilan azotli asoslar, porfirinlar ajratib olinishi mumkin. Shunday qilib, ekstraksiya neft fraksiyalarini tahlil qilishda ham qo'llaniladi.

Absorbsiya - desorbsiya


Absorbsiya jarayoni gazlarni ajratishda keng qo'llaniladi. Tabiiy va yo'ldosh neft gazlarini benzinsizlantirish uchun qutblanmagan erituvchilar, uglevodorodlar fraksiyalarini bilan absorbsiyalash qo'llaniladi. Jarayon atrof-muhit haroratida yoki sovitish agentlarini $\approx -40^{\circ}\text{C}$ da qo'llash orqali amalga oshiriladi. So'nggi usul iqtisodiy samarali, chunki ajratish jarayonini samaradorligini oshiruvchi kam qovushqoqlikka ega bo'lgan quyi molekulyar benzin fraksiyalarini absorbent sifatida qo'llash imkoniyatini beradi va absorbent sarfini kamaytiradi.

Qutblangan selektiv erituvchilar bilan absorbsiya usuli metanni oksidlab piroliz qilish mahsulotlaridan atsetilenni ajratib olish sanoatda qo'llaniladi. Yuqori selektiv erituvchi, N-metilpirrolidon, dimetilformamid bilan absorbsiya jarayoni yuqori haroratda olib boriladi. Atsetilenni absorbsiyasida o'zaro taqqoslanganda kam selektivlikka ega erituvchilar: atseton, metil spirit, ammiak qo'llanishi mumkin, biroq, ushbu holda selektivlikni oshirish uchun, jarayonni quyi haroratlarda sovituvchi agentlar qo'llab olib borishga to'g'ri keladi.

Absorbsiya, gazli aralashma komponentlarini suyuq yutuvchi (absorbent) bilan tanlab yutish (eritish) jarayonidir. U gaz aralashmalarini engil va og'ir komponentlarga ajratish uchun hizmat qiladi.

Absorbsiya desorbsiya jarayoni bilan uzviy bog'langanligi, ya'ni yutuvchida yutilgan gaz komponentlarini ajratish va yutuvchini absorbsiya jarayoniga ikkinchi bor qaytarilishi bilan ajratiladi.

Rektifikatsiya jarayonidan farqli o'laroq, absorbsiyada desorbsiya birga qo'shib olib borilmaydi, balki ikki mustaqil bosqichlar, absorbsiya bosqichida gazdan gazning og'ir komponentlari ajratib olinadi (yutuvchida erib ketadi), desorbsiya bosqichida esa ular erituvchidan haydab eritib olinadi (6.1-rasm).



6.1-rasm. Absorbsion-desorbsion qurilma chizmasi

1-absorber; 2—desorber; 3—issiqqlik almashtirgich; 4—isitgich;

5 — sovutgich;

I-boshlang'ich (yog'li) gaz; II, III-gazning engil va og'ir komponentlari.

Absorbsion yutilish sharoiti bo'lib, berilgan haroratdag'i gaz fazadagi ajratib olinayotgan komponent parsial bosimi ρ_g ni, o'sha komponentni suyuq fazadagi, ya'ni absorbentdag'i bosimidan ko'proq bo'lishidir. Farq ($\rho_g - \rho_{suyuq}$) = $\Delta\rho$ ni absorbsiyaning harakatlaniruvchi kuchi deb ataladi.

Desorbsiya bosqichida $\Delta\rho < 0$, ya'ni, $\rho_{suyuq} > \rho_g$ sharoitlari (harorat, bosim) yaratiladi va yutilgan komponentlar bug' fazaga o'tadi.

Komponentlarni parsial bosimlari, ularning konsentratsiyalariga proporsionalligi hisobga olingan holda, absorbsyaning (desorbsiya) harakatlantiruvchi kuchini, gaz va suyuq fazalar konsentratsiyalari bilan ham ifodalash mumkin:

$$\Delta y^i = y^i - y^{i*}$$

$$\Delta x^i = x^{i*} - x^i$$

bu erda: y^i va x^i - komponentni gaz va suyuq fazalardagi haqiqiy konsentratsiyalari;

y^{i*} va x^{i*} - komponentni suyuq, gaz(bug') fazalardagi muvozanatli konsentratsiyalari;

Absorbsyaning ahamiyatli parametrlari bo'lib, absorbsiya faktori A va absorbentni karraliligi L hizmat qiladi:

$$A_i = \frac{L_i}{(K_i G_i)}$$

$$L = \frac{L_o}{G_o}$$

bu erda: L_o va L_i – absorbentni absorberga kirishidagi va kontaktning i – bosqichidagi miqdori; G_o va G_i – gazni absorberga kirishidagi va kontaktning i – bosqichidagi miqdori; K_i – fazaviy muvozanat doimisi.

Absorbsiya faktori va absorbent karraliligi qanchalik yuqori bo'lsa, ajratib olinayotgan komponentni absorberdan chiqishidagi miqdori shuncha kam, ya'ni uni gazdan ajratib olish «chuqurligi» yuqori bo'ladi. So'nggi kattalik toza (regenerirlangan) absorbentda, ajratib olinayotgan komponent konsentratsiyasini pasayishi bilan ham o'sadi.

Absorbsiya jarayoni quyidagi gazni ajratish va tozalash texnologik jarayonlarida keng qo'llaniladi:

- Tabiiy gazni vodorod sulfid va karbonat angidriddan tozalash;
- Tabiiy gazni namdan dietilenglikol (absorbent) bilan quritish;

- Propan va undan yuqori uglevodorodlarni neftning kerosin fraksiyasi bilan absorbsiyalab, tabiiy va yo'ldosh gazlardan ajratib olish;
- Katalitik kreking gazidan propan-propilen va butan-butilen fraksiyalarini ajratib olish.

Texnologik inert gazlarni, ularga asosan texnologik jarayonda qo'shilib qoluvchi uglevodorod gazlari va boshqa qo'shimchalardan tozalash hollarida ham absorbsion ajratish qo'llaniladi.

Adsorbsiya - desorbsiya

Neft va neft mahsulotlari tarkibida bo'lgan ayrim birikmalar sinfini adsorbentlarda ajratib olish, selektiv erituvchilar yordamidagiga nisbatan yuqori selektivlikda amalga oshiriladi. Qattiq adsorbentlarning tuzilishi, qutblangan erituvchi eritmalaridagiga nisbatan mavjud bo'lgan ko'proq intensiv kuchlanishli maydonni o'z yuzasida tarqalishiga yo'l qo'ymaslik va yo'nalishini to'g'rilash imkoniyatini tug'diradi.

Alkenlar, masalan, xuddi shunday molekulyar massali alkanlarga nisbatan selektiv erituvchilarda yaxshiroq eriydi, bu esa ularni ekstraksiya orqali ajratib olish imkonini beradi. Biroq, qutblangan erituvchilarda uglevodorodlarning eruvchanligi gomolitik qatorda molekulyar massani ortishi bilan kamayadi. Shuning uchun keng fraksion tarkibli aralashmalarda alkenlar va alkanlarning eruvchanligi o'zaro yopilib ketadi, natijada ushbu birikmalarni ekstraksiya yo'li bilan ajratish amalda mumkin bo'lmay qoladi. Adsorbsion usulni qo'llash esa ushbu vazifani echimini hal qiladi.

Neft fraksiyalarini birikmalar guruhiга ajratish uchun adsorbent sifatida silikagel, faol alyuminiy oksidi, faollangan ko'mir va boshqalar ishlatiladi.

Silikagellar, o'zgaruvchan tarkibli yuqori molekulyar anorganik birikma bo'lib, molekulalari qator gidroksil guruhli, kremniy-kislородли qobiqdan iborat. Silikagellar turli markalarda ishlab chiqarilmoqda. Markadagi birinchi harf silikagel donalarining forma va o'lchamini, uchinchisi - eng ko'p g'ovaklarning o'lchamini ko'r-satadi. Masalan, KSM – yirik, donador, mayda g'ovakli silikagel. Undan tashqari, mayda g'ovakli silikagel ShSM va MSM lar hamda

yirik g'ovaklilari – KSK, ShSK, MSK ham ishlab chiqariladi. Silikagel markasini tanlash adsorblanayotgan komponentlar molekulalarining o'lchamiga bog'liqdir. Masalan, kerosin va moy fraksiyalarini ajratish va tahlil qilish uchun yirik g'ovakli silikagellar, uglevodorodlarni quritish uchun esa mayda g'ovaklilari ishlatiladi.

Qutblangan adsorbentlardagi (silikagel, γ -Al₂O₃ va boshqalar) adsorblanish moddalar dipol momenti yoki dielektrik doimiysi qancha katta bo'lsa, shuncha yuqoridir. Silikagel yuzasi, aktiv markazlari, neft fraksiyasi geteroatomli komponentlari arenlar bilan spetsifik o'zaro ta'sirlanadi, ular alkanlar va sikloalkanlarga nisbatan ancha yaxshi yutiladi. Silikagelda adsorbsiyalab mono-, bi- va uchsiklik arenlarni ham bir-biridan ajratish mumkin. Alyuminiy gidroksidi va alyuminiy tuzlarini 600–900°C gacha qizdirib olindigan γ -formadagi alyuminiy oksidi alkenlarni selektiv yutadi, bu esa ularni alkanlardan ajratishga olib keladi.

Faol ko'mir qutblanmagan adsorbentlar sifatida asosan gaz aralashmalarini tahlil qilishda, undan ham nozik, masalan, moy fraksiyaldan alkan-sikloalkanlarni ajratib olish uchun ham qo'llaniladi. Ajratilayotgan komponentlar bilan o'zaro nospesifik ta'sirlanuvchi qutblanmagan adsorbentlarda adsorbsiyalanish, birikmalar qutblanganligi qancha katta bo'lsa, shuncha yuqoridir.

Biroq yuqorida ko'rib chiqilgan adsorbentlar batartib kristallik tuzilishga ega emas va birday bo'Imagan g'ovakliklar bilan tasiflanadi. Ushbu adsorbentlarda g'ovakliklarni diametrlar bo'yicha taqsimlanishi ham tor (2-5 nm), ham juda keng, masalan, faol ko'mirda (2 dan to bir necha yuz nanometrgacha) bo'lishi mumkin. Bunday adsorbentlarni g'ovakliklari molekulalarining hajmi va shakli bo'yicha farqlanuvchi moddalarga kiradi.

Shu bilan bir vaqtida seolitlar (adsorbentlar) guruhi mavjud bo'lib, ularning g'ovakliklarini diametri, komponent g'ovaknikidan kattaroq bo'lgan molekulalarni adsorblamaydi. Ushbu xususiyatlardan kelib chiqqan holda seolitlarni ko'pincha "molekulyar elaklar" deb ataganlar. «Seolit» so'zi grekchadan tarjimada «qaynar tosh» ni anglatadi va u XVIII asrdayoq tabiiy seolitlarni qizdirganda kristallogidratlardan suv ajralib chiqishi natijasida, bo'rtib qolishi xususiyati oqibatida ushbu nomga sazovor bo'lgan. 1925-yili shabazit nomli tabiiy seolitda molekulalarining kritik o'lchami

0,5 nm dan katta bo'lmagan ayrim moddalarni tanlab adsorbsiyalanishi aniqlangan. 1948-yili birinchi bor sintetik seolitlar olindi. Seolitlar alyumosilikatlarning kristallogidratlari bo'lib, quyidagi tarkibga ega: $y \geq 4$ $M_{2/n}O \cdot Al_2O_3 \cdot xSiO_2 \cdot yH_2O$, bu erda: n- kation valentligi, $x \geq 2$, $y \geq 4$. Kation sifatida seolit tarkibiga I va II grupp elementlari (xususan, Na, K, Mg, Ca, Sr, Ba) kiradi.

Sanoatda turli turdag'i seolitlar ishlab chiqariladi: A (seolitlarni umumiyl tuzilish formulasidagi X ni 2 ga teng qiymatlarida), X ($x = 2,4-2,8$) va Y ($x = 5$).

Seolitni karkas tuzilishi SiO_4 va AlO_4 larni uch o'lchamli katakda kislороди umumiyl ionlar bilan birikkan tetraedrlardan hosil bo'lgan Si^{4+} ni Al^{3+} ga almashishi tuzilma bo'shliqlarida joylashgan ishqoriy yoki ishqoriy-er metallari kationi bilan neytrallanuvchi ortiqcha manfiy zarayadni vujudga keltiradi. Seolitlar deyarli sferik shakldagi mos ravishda 1,19 nm va 0,66 nm li katta va kichik bo'shliqlarga egadir. Bo'shliqlar o'lchamlari seolitlarning molekulyar elak xususiyatlarini belgilovchi tor yo'lklalar – «darchalar» dan tashkil topadi. Darchalarning effektiv diametri seolitning turiga va kationning ta-biatiga bog'liqidir.

Seolitlarni Mustaqil Hamdo'stlik davlatlarida qabul qilingan sinflanishiga ko'ra uning panjarasiga ko'proq kirgan kation va kristallik panjara turi ko'rsatiladi. AQSh va qator boshqa xorij davlatlari markalarida kirish darchasi diametri va panjara turi ko'rsatiladi. Turli izlanuvchilarni X turidagi seolitlar darchalarining effektiv diametri to'g'risidagi bergen ma'lumotlari bir-biridan farqlanadi. Quyida turli markadagi seolitlar darchalarining effektiv diametri keltirilgan (6.3-jadval).

M.M.Dubinin ma'lumotiga ko'ra seolitlarni effektiv diametri

MDH	AQSh	d, nm
KA	3A	0,3
NA	4A	0,4
CaA	5A	0,5
CaX	10X	0,8*
NaX	13X	0,9*

Seolitlar faqat kritik diametri (molekula uzunligiga perpendikulyar bo'lgan yuzadagi eng katta aylana bilan ifodalanuvchi diametr), darchani effektiv diametridan kichik bo'lgan molekulalarnigina adsorbsiyalashi mumkin. Ayrim uglevodorodlar molekulalari kritik diametrlarining qiymatlari (nm da): metan- 0,40; C₃-C₁₄- normal tuzilishli alkanlar – 0,49; benzol - 0,57; siklogeksan- 0,61; bir metil guruhi yon zanjirda bo'lgan izoalkanlar- 0,63; ikki metil guruqli alkanlar – 0,67; bir etil guruqli alkanlar – 0,72 tashkil etadi.

Seolitlar tarkibida kuchli, biday bo'limgan elektrostatik maydonlari bo'lgan jabhalardan iborat qutbli adsorbentlardir. Shuning uchun ular qutbli molekulalarni, ikki va uch bog'li uglevodorodlar molekulalarini ayniqsa, kuchli adsorbilaydilar. Bunday adsorblanayotgan molekulalarning kritik diametri darcha diametridan bir muncha ortiqroq bo'lishi ham mumkin.

Molekulalarni kritik o'lchamlari va darcha diametriga ko'ra KA seoliti amalda faqat suvni, NaA-suv, CO₂, H₂C, NH₃, CN₃ON, etilen, propilen, quiyi dienlar va normal alkinlar, etan; SaA- seoliti 20 tagacha uglerod atomi bo'lgan normal uglevodorodlar va spirtlar, metil va etilmekaptanlar, etilen oksidi va NaA seolitni yutuvchi hamma birikmalarni yutadi. SaX seoliti tarmoqlangan alkanlar va spirtlar, benzol, siklogeksan va ularning kritik diametri ≈0,8 nm bo'lgan quiyi gomologlarini adsorbilaydi. CaX da tarmoqlangan radikalli aromatik birikmalar va katta molekulyar massali birikmalar, masalan, 1,3,5-trietilbenzol, 1,3-dixlorbenzollar sorbilanmaydi. Oxirgili NaX seoliti bilan adsorblanadi.

Sanoatda seolitlar yordamida uglevodorodlarni ajratish jaryonlari keng qo'llaniladi. Masalan, CaA seolitida adsorbsiyalab kerosin-gazoyl fraksiyalaridan C₁₀-C₁₈ normal alkenlar ajratib olinadi, so'ng oqsillarni mikrobiologik yo'l bilan olishda va biologik parchalanuvchi yuvish vositalarini ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Adsorbsiya odatda bug' fazada olib boriladi, chunki suyuq fazali jarayon holida sorbsiyalanmaydigan komponentlarni sorbent qatlamanidan etarli to'liq ajratib olish qiyindir.

Alkanlarni desorbsiyasida siqib chiqaruvchi sifatida pentan, geksan, ammiak qo'llaniladi.

So'nggi yillarda xorijda benzinlarni aromatlashtirish kombinirlangan usullari taklif etilib muvaffaqiyatli qo'llanilyapti, natijada ularni oktan soni oshgan. Ushbu jarayonlarda benzin fraksiyalarini seolitlar yordamida adsorbsion deparafinlash-izomerizatsiya, riforming va alkillash bilan birga amalga oshiriladi.

Seolitli adsorbsiya C₁₀-C₁₈ tarmoqlanmagan alkenlarni, ularning alkanlar bilan aralashmasidan ajratib olish uchun qo'llaniladi. X va Y seolitlarni kaliy-bariyli shakllari ishtirokidagi jarayon sanoatda p-ksilolni, uni S₈ arenlar aralashmasidan ajratib olishda qo'llaniladi; p-ksilolni ajratish darajasi kristallizatsiyadagidan anchagina yuqori.

Seolitlar gaz va suyuqliklardagi namlikni (H₂O) qurituvechilarini va oltingugurtli birikmalarning yaxshi yutuvchilarini hisoblanadi. Seolitlar gaz-adsorbsion xromatografiyada uglevodorod aralashmalarini tahlil qilishda qo'zg'almas faza sifatida keng ishlatiladi.

Xususan, NaX va CaX turidagi seolitlarni qo'llash benzin fraksiyalarining alkan-sikloalkan aralashmalarini tahlil qilish vazifalarini echishga imkon beradi.


6.3. Kristallizatsiya

Kristallizatsiya usuli aralashmadan eng yuqori qaynash haroratlarga ega bo'lgan ma'lum komponentlar guruhini ajratib olishda qo'llaniladi. Kristallizatsiya surkov moylari ishlab chiqarishda deparafinlash va individual uglevodorodlarni, xususan p-ksilolni boshqa izomerlar va etilbenzol aralashmalaridan ajratib olishda sanoat miyosida qo'llanilishga ega. p-Ksilol C₈-arenlar bilan evtektik aralashma hosil qiladi va uni erish harorati 13,26°C dir. Ushbu

ko'rsatgich bo'yicha u eng yaqin o-ksilolnikidan 38.5°C ga va eng yaqin qaynovchi m-ksilolnikidan esa 61°C ga ortiqdir.

p-Ksilol va m-ksilol tizimning erish diagrammasi 6.2-rasmda keltirilgan.

Berilgan A tarkibli aralashma haroratini 0°C gacha pasaytirilsa, p-ksilol kristall holda cho'kmaga tusha boshlaydi, suyuq fazada tarkibi esa, haroratni keyingi pasayishi oqibatida muvozanat egri chizig'i bo'ylab, evtetik nuqtaga (-52.7°C) yaqinlashib boradi. Ushbu haroratda evtektik aralashma kristallanadi va butun tizim qotib qoladi, shuning uchun p-ksilolni ajratib olishda sovutishni evtektik nuqtagacha olib borilmaydi va p-ksilol kristallarini filtrlab yoki sentrifugalab ajratiladi. Aralashmada m-ksiloldan tashqari boshqa izomerlarning bo'lishi evtektik aralashma kristallanish haroratini – 101°C gacha pasayishiga olib keladi. Sanoatda jarayonni amalga oshirish uchun ksilollar aralashmasini $-60\div70^{\circ}\text{C}$ gacha sovutiladi va p-ksilol ajratib olinadi.



6.2-rasm. p-Ksilol va m-ksilol tizimning muvozanatining fazoviy diagrammasi

Qattiq va suyuq fazalarni to'liq ajratish amalda mumkin emas, kristallarda ma'lum miqdorda yuzada adsorbsiyalangan, g'ovakliklar va kristall ichki darchalarda tiqilib qolgan, kapillyar kuchlar ta'sirida

yoriqlarga kirib olgan n-ksilol eritmasi qolib ketadi. Shuning uchun p-ksilolni qayta kristallah yoki mahsulotning bir qismini eritish va qo'shimchalarni uzluksiz qarama-qarshi oqimli pulsasion kolonalarda konsentrash yo'li bilan tozalashga to'g'ri keladi. Jarayoning kamchiligi p-ksilolni ajratib olish darajasining pastligini (odatda uni xom ashyodagi miqdorini 65% dan kamroq), shuningdek, izomerlardan faqat bittasini toza holda ajratib olish imkoniyatini ko'rsatish mumkin.

Kristallizatsiya yo'li bilan C₁₀-alkilbenzollarni eng yuqorida eruvchi izomeri- durol (1,2,4,5-tetrametilbenzol) ham ajratib olinadi.

Sanoatda va neft fraksiyalarini tahlil qilishda odadagi kristallizatsiyadan tashqari, ekstraktiv kristallizatsiya – erituvchi jarayoni ham qo'llaniladi. Erituvchi bir nechta funksiyalarni bajaradi, evtektik aralashmani quyi eruvchi komponentlarini ekstraksiyalaydi, kristallanish haroratidan past haroratlarda suyuq faza mavjudligini ta'minlaydi, n-ksilol eritmasini qovushqoqligini pasaytiradi, bu esa suyuq fazani to'laroq ajratib olinish imkonini beradi.

Ekstraktiv kristallizatsiya moy fraksiyalarini deparafinlashda qo'llaniladi. Yuqori kristallanish haroratiga ega bo'lgan normal alkanlarni ajratish, moylarni yaxshi oquvchanligini ta'minlash va qattiq parafinlarni kristall holda cho'kish imkoniyatini yo'qotish uchun kerak. Ushbu jarayon uchun erituvchi etarli darajada selektiv, ya'ni alkanlarga nisbatan quyi moy fraksiyasini qolgan boshqa komponentlariga nisbatan esa, yuqori eritish xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Erituvchilar sifatida ketonlar, (atseton, metiletiketon) bilan arenlarni, masalan, toluolni aralashmasi qo'llanilib, uni qo'shilishi moy komponentlarni eruvchanligini va tozalangan moy miqdorini oshiradi. Ayrim xorij qurilmalarida kam selektivlikka ega bo'lgan erituvchi-suyuq propan qo'llaniladi, ushbu holda selektivlikni oshirish uchun jarayon past haroratlarda olib boriladi. So'nggi-yillarda yuqori selektivlikni ta'minlovchi propileni atseton bilan aralashmasi qo'llanilib, shunga ko'ra quyi qotish haroratiga ega bo'lgan moylar olindi.

Ekstraktiv kristallizatsiya turli tuzilishga ega sikloalkanlarni (mono- va bisiklik, penta- va geksametilenli) tahliliy maqsadlarda ajratishda, arenlarni ajratib olish va tozalashda, izoparafin-naften

aralashmalarni va tarmoqlangan alkanlarni, sikloalkanlarni ajratishda ham qo'llanilishi mumkin.

Kristallizatsiyani yana bir ko'rinishi, adduktiv kristallizatsiya bo'lib, unda qo'shiladigan birikma, aralashmani ayrim komponentlari bilan adduktlar – qattiq komplekslar hosil qildi. Bunday jarayonga karbamidni normal alkanlar bilan qattiq komplekslar hosil qilish xususiyatiga asoslangan karbamidli deparafinizatsiyani misol qilish mumkin.

Gaz holatdagi uglevodorodlarning suv bilan- hosil qilgan (klatrat) birikmaları

Gazli gidratlar yoki suvli klatratlar ilgaridan ma'lum. 1811-yilda Devi xlorni gazli gidratini ochgan. Biroz keyinroq uglevodorod gazlarni suv bilan klatrat birikmalarini izlanishlari o'tkazilgan.

Gazli klatratlar nostexiometrik qo'shma birikma bo'lib, umumiy formulasi $M \cdot nH_2O$.

M – gidrat hosil qiluvchi molekula

n – 5,67 dan katta yoki teng raqam.

Klatrat birikmalarini tashqi ko'rinishi bo'yicha qattiq kristall modda bo'lib, qor yoki g'ovak muzni eslatadi. Biroq gazli klatratning kristallik panjarasi muznikidan $0^{\circ}S$ dan yuqori haroratda, stabilligi bilan va ma'lum o'lchamdagisi ichki yo'lakchalari bilan farqlanadi. Ushbu yo'lakchalar (g'ovakliklar) va uning o'lchamlari turli birikma molekulalari o'lchamlari uchun to'g'ri keladi, xususan metan, etan, propan, izobutan, etilen, propilen, atsetilenlar uchun. Gazli klatratlarning tuzilishi 1940-1950-yillardagi Shtakelberg izlanishlari natijasida aniqlangan. Gidrat hosil qiluvchi ishtirokida o'zaro vodorod bog'lari bilan bog'langan suv molekulalari ikki xi'l turdag'i kristallik panjara hosil qilishi mumkin:

1- tur tarkibiga elementar yacheykasi 46 suv molekulalaridan tashkil topgan o'rtacha diametri 0,52 nm bo'lgan dodekaedr shaklli, 2 kichik yo'lkadan va (o'rtacha diametri 0,59 nm) 6 tetradekaedr shaklli katta yo'lkadan iborat bo'lgan.

2- tur tarkibining elementar yacheykasi 136 suv molekulalaridan iborat bo'lib, 16 kichik diametri 0,48 nm va 8 katta diametri 0,68 nm yo'lkalardan tarkib topgandir. Agarda «mehmon» molekulasingning

maksimal o'lchami 0,48 nm dan kam bo'lsa, ikkinchi tur kristallik panjara hamma yo'lkalari to'lib ketishi mumkin. Ushbu holda gaz gidratlarining umumiy formulasidagi n ning qiymati minimal qiymatga 5,67 deb qabul qilinadi.

Metan va C₂- uglevodorodlar birinchi tur tuzilishli gazli gidrat hosil qiladi.

Propilen va izobutanlar M-17 H₂O tarkibli gidratlar hosil qiladi va 2- tur tarkibning faqat katta g'ovaklarini to'ldiradi. Butan va yuqori gomologlar molekulalarining o'lchami 0,69 nm dan ortiq bo'lgani uchun, ular gidrat hosil qilish jarayonida qatnashmaydilar. Turli birikmalar molekulasi gidrat hosil qilishda ishtirok etishi va aralash gazgidratlarini vujudga keltirishi mumkin. Gidratlar hosil bo'lishi bilan quvur va jihozlar to'lib boradi. Ushbu holat neft qazib chiqarish, gaz va neft kimyo sanoatida va ularning turli jarayonlarida sodir bo'lishi mumkin.

Gidrat hosil bo'lishining oldini olish uchun va hosil bo'lgan gidrat to'siqlarini yo'qotish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

Haroratni ko'tarish (gazni issiq suv yoki bug' bilan qizdirish).

Bosimni pasaytirish.

Gaz tarkibidagi suv miqdorini quritish, muzlatish yoki maxsus qo'shimchalar (glikollar, spirtlar) qo'llab suv bug'ini parsial bosimini pasaytirish.

Dengiz yoki okean suvini chuchuklashtirishda gazli gidratlardan foydalanish taklif qilingan. Masalan, dengiz suvi bilan suyuq propan aralashtirilsa, gidratlar hosil bo'ladi, suvda erigan tuzlar esa gidrat panjarasiga kirolmay qoladi.

Gidrat holida tabiiy va inert gazlarni saqlash – gazli gidratlarni boshqacha qo'llash imkoniyatlarini ham ko'rsatadi.

Ushbu taxmin keyinchalik rentgenografik izlanishlar bilan tasdiqlandi, gidroxinon birikma molekulalari o'zaro ikkinchi komponent molekulalarini o'z ichiga olgan uch o'lchamli komplekslar hosil qiluvchi vodorod bog'lari hisobiga birikadi. Pauell shu turdag'i birikmalarni klatratlar (lotincha clatratus- ya'ni «kiritilgan» yoki «qafasga qamalgan») deb atashni taklif etgan.

Agarda ularni o'lchamlari va shakli «xo'jayin» molekula kristall panjara yacheykasi o'lchamlari va shakliga mos bo'lsa, «mehmon»

molekulalari klatrat holida bog'langan bo'ladi. Uglevodorodlarni, xususan ksilol izomerlarini ajratish shunga asoslangan.

Ksilol izomerlarini ajratish uchun quyidagi umumiy formulaga ega bo'lgan Verner komplekslari qo'llanilgan, metall-(ligand)₄(anion)₂. Metall sifatida ko'pincha nikel, ligandalar sifatida esa azotli asoslar, masalan, 4-metilpiridin yoki benzilaminlar xizmat qiladi. Masalan, Ni(4-CH₃Py)₄(SCN)₂ (bu erda Py-piridin) qo'llab ksilollar aralashmasidan p-ksilolni ajratib olish mumkin. Tiosianat anionini formiat bilan almashtirib klatratlanuvchi aralashmani oksilol bilan boyitish mumkin. Klatratlarni cho'ktirish past haroratda olib boriladi. Biroq, Verner kompleksini sarfi kattaligi (taxminan 5 qism I qism p-ksilolga), uskunalarni korroziyasi, nikel tuzlari va piridin hosilalarining zaharliligi uchun ushbu usul sanoatda keng qo'llanilmadi.

Klatrat birikmalar – qattiq gidratlarni, suv past uglerodli alkanlar, ayrim oltingugurtli birikmalar, siklogeksan, siklopentan bilan hosil qiladi.

Olti a'zoli siklik uglevodorodlarni suvli klatratlari faqatgina yordamchi gazlar, masalan, vodorod sulfid ishtirokida hosil bo'ladi. Siklik uglevodorodlar molekulalarini suvli klatratlari katta yo'lkalarga, vodorod sulfid molekulalari esa kichik yo'lkalarga kiradi, natijada kristallik panjarani barqarorlanishi amalgalashadi.

Turli uglevodorodlar bilan suvli klatratlarni hosil bo'lish imkoniyati va klatratlarni barqarorligi uglevodorod molekulasi kritik diametri bilan emas (seolitdag'i adsorbsiya yoki karbamid bilan kompleks hosil qilishdagidan farqli o'laroq), balki «mehmon» molekulasi maksimal o'lchamiga bog'liqidir. 6.4-jadvalda molekula o'lchamini ortishi bilan klatratlarni barqarorligi pasayishi, bu esa, ehtimol yo'lkalchalarni deformatsiyasi va klatrat panjarani o'sib boruvchi beqarorligi bilan bog'liqligi keltirilgan.

C₅-C₆ sikloalkanlar qaynash haroratlariiga yaqin alkanlar bilan, masalan, molekulasining maksimal qiymati 1,03 nm ga teng bo'lgan geksan bilan umuman suvli klatratlar hosil qilmaydi. Yaqinda taklif etilgan siklogeksanni gazokondensat va izomerizat fraksiyalaridan ajratib olish usuli shunga asosiangan.

Siklik uglevodorodlarni suvli klatratlarining parchalanish harorati (yordamchi gaz vodorod sulfid muhitda)

Uglevodorod	Molekulaning maksimal o'lchami, nm	0.1 MPa bosim-dagi parchalanish harorati, °S
Siklopentan	0,56	19,8
Siklopenten	0,58	17,2
Siklogeksan	0,60	15,3
Siklogeksen	0,62	10,0
1,3-Siklogeksadien	0,66	9,3
Benzol	0,69	6,5

Ko'pincha adduktлarni hosil bo'lishi, ajratilayotgan aralashma ayrim komponentlarini qo'shilayotgan birikma kristallik panjarasi bo'shliqlariga kirib olish xususiyatiga bilan belgilanadi. Kanallar ko'rinishidagi bo'shliqlari bo'lgan kompleks birikmalar va yopiq panjara ko'rinishli, boshqacha qilib aytganda klatratlar deb nomlangan birikmalarni hosil qiladi.

Milius tomonidan 1886-yili birinchi bor klatratlarni hosil bo'lishini qayd qilingan. U gidroxinonni ayrim uchuvchan moddalar, masalan, vodorod sulfid, inert gazlar – azot, argon, ksenon, kripton bilan komplekslar hosil qiladi. Ushbu inert gazlar va gidroxinon orasida kimyoviy bog' hosil bo'lishi mumkin emas, balki kompleks bir molekulani boshqa komponentning bir necha molekulalari bilan to'la o'rabi olib qilib hosil bo'ldi deb Milius taxmin qilgan edi.

6.4. Xromatografik usullar

Xromatografiya – komponentlarni ikki faza orasida (harakatlanuvchi va harakatsiz fazalar) ajaratish va tahlil qilishga aytildi.

1. Xromatografiya turlari va tahlil usullari. Ajratilgan organik birikmalarni tabiatiga, xossasiga qarab xromatografiya quyidagi turlarga bo'linadi:

- Adsorbsion.

- Taqsimlovchi.
 - Cho'ktirish.
1. Adsorbsion xromatografiya – kationlar adsorbent ustida mod-dalarni har xil adsorbsiyalanishi asosida qo'llaniladi.
 2. Taqsimlash xromatografiyasida ajratiladigan moddani suyuqlikka yutilishiga, eruvchanligining har xilligiga va ikki faza orasida taqsimlanishga asoslangan.
 3. Cho'ktirish xromatografiyasi, kimyoviy reaksiyalar natijasida erimaydigan cho'kmalar hosil qilishga asoslangan.

6.5. Neftni fraksiyalarga ajratish

Neft va neft mahsulotlarini tahlil qilishni engillashtirish uchun uni turli fraksiyalarga molekulalar massasi va qaynash harorati bir-biriga yaqin bo'lgan uglevodorodlarga, lekin kimyoviy tarkibi turlicha bo'lgan birikmalarga ajratiladi.

Neftni fraksiyalarga ajratish uchun kimyoviy va fizikaviy usullar qo'llaniladi.

Kimyoviy usul, ajratib olinadigan fraksiyalarni reaksiyaga kirishish qobiliyatini har xil bo'lishiga asoslangan. Fizikaviy usul, haydar olinayotgan moddalar fraksiya tarkibida ularning konsentratsiyasini turlicha bo'lishiga asoslangan.

Neftni fraksion tarkibi standart jihozda atmosfera bosimida neftni haydash usuli bilan aniqlanadi (Engler jihozida fraksiyalarga ajratiladi).

Neft va nest mahsulotlarini fraksiyalarga ajratish uchun Engler jihozidan foydalilaniladi. Bu jihozda asosan 350°S haroratgacha haydash mumkin. Bundan yuqori haroratda atmosfera bosimida haydash maqsadga muvofiq emas, chunki yuqori haroratda neft komponentlari parchalanib ketishi kuzatilgan. Bunday haydash natijasida hosil bo'lgan fraksiyalar hajm yoki og'irlilik birligida o'lchanishi mumkin.

Neftning guruh tarkibini va struktura–guruh tarkibini aniqlash uchun, uni ARN-2 jihozida atmosfera bosimida quyidagi standart fraksiyalarga ajratiladi: QB-60, 60-95, 95-122, 122-150, 150-200 $^{\circ}\text{S}$. Keyin vakuum ostida olingan qaynash haroratini atmosfera

bosimidagi qaynash harorati darajasiga o'tkazish uchun nomogrammalardan foydalaniladi.

Neft qaynash harorati va molekulyar massasi har xil bo'lgan parafin, naften, aromatik uglevodorodlar aralashmasidan tashkil topgandir. Ular:

C_nH_{2n+2} – metan yoki parafin uglevodorodlar (alkanlar).

C_nH_{2n} – sikloparafinlar, naftenlar, siklanlar.

C_nH_{2n-2} – bisiklli polimetilenlar, disikloparafinlar.

C_nH_{2n-4} – trisiklik polimetilenlar, trisikloparafinlar.

C_nH_{2n-6} – monosiklli aromatik, benzol qatori uglevodorodlari (arenlar).

C_nH_{2n-8} – bisiklli aralash naften-aromatik uglevodorodlar.

C_nH_{2n-12} – bisiklli aromatik uglevodorodlar.

Hozirgi zamonaviy neftni qayta ishlash zavodlarida birinchi bosqichda neftni fraksiyalarga ajratish jarayoni, neftni bug'latib haydashdir. Sanoatda to'xtovsiz ishlaydigan qurilmalarda neftni bir marta va ko'p marta bug'latish jarayonlari mavjud. Bir marta bug'latish jarayonida neftni ma'lum haroratgacha qizdiriladi va bug' fazada ajralib chiqadigan hamma fraksiyalar olinadi. Bunda uglevodorodlar o'z qaynash harorati bo'yicha, ya'ni boshqacha qilib aytganda, molekulyar massasiga qarab, avval engil, keyin og'ir fraksiyalarga ajraladi.

Ko'p marta (3 marta) bug'latish jarayonida neft oldin ma'lum haroratgacha qizdiriladi, bunda engil benzin olinadi, keyin yana harorat oshirilib, qaynash harorati $350^{\circ}S$ gacha bo'lgan fraksiya olinadi, qolgan qoldiq–mazut deyiladi. Keyin vakuum ostida haydar mazutdan surkov moylari olinadi. Qoldiq – gudron deyiladi. Boshqa so'z bilan aytganda neft 3 marta qizdiriladi, har gal bug'langan fazani suyuq fazadan ajratiladi. Hosil bo'lgan bug' va suyuqlik rektifikatsiya qilinadi.

VII BOB. NEFTNING KIMYOVİY TARKIBI

7.1. Neft alkanları

Ko‘pchilik neft o‘z tarkibida to‘yingan uglevodorodlarni (alkanlar, metan uglevodorodlar yoki parafin uglevodorodlar (gomologlari)deb ham ataladi), sikloalkanlarni (naften uglevodorodlar) va aromatik uglevodorodlarni (arenlar) saqlaydi.

Neft qaysi kondan qazib chiqarilganligiga qarab tarkibi turlicha bo‘ladi. Ayrim hollarda bir regiondan qazib olingan neft ikkinchi regiondagidan keskin farq qilishi mumkin. Masalan, Volgograd viloyatidagi va Farg‘ona vodiysidagi neftlar.

C_nH_{2n+2} qatoridagi uglevodorodlar hamma neft tarkibida mavjud bo‘lib, uning fraksiyalarini asosiy tarkibiga kiradi. Metan uglevodorodlar fraksiyalarda bir tekis taqsimlanmaydi. Ular asosan, neft gazlari va benzin, kerosin fraksiyalarida konsentrangan bo‘ladi. Moy fraksiyalarda esa, ularning miqdori keskin kamayadi. Ayrim neftlarning yuqori fraksiyalarida amalda parafinlar bo‘lmaydi.

Gaz holidağı alkanlar

C_1-C_4 uglevodorodlar; metan, etan, propan, butan, izobutan, hamda 2,2-dimetilpropan (C_5H_{12})—neopentan normal sharoitda gaz holida bo‘ladi. Bularning hammasi tabiiy va neft gazlari tarkibiga kiradi.

Gaz konlari uch xil turda bo‘lishi mumkin:

Toza gaz konlari. Gaz kondensati konlari. Neft konlari.

Birinchi turdagı gaz konlari tabiiy gaz konlari deb, asosan metandan tashkil topgan bo‘ladi. Metanga qo‘sishimcha sifatida oz miqdorda etan, propan, butan, pentanning bug‘lari, shuningdek, anorganik birikmalar; CO_2 , N_2 va ayrim hollarda H_2S bo‘lishi mumkin.

Respublikamizning Sho‘rtan gaz konidagi tabiiy gazining tarkibi quyidagicha (7.1-jadval).

Sho'rtan gaz koni tabiiy gazining tarkibi, (%)

Azot	1,584
CO ₂	2,307
Metan	90,52
Etan	3,537
Propan	1,06
i – Butan	0,209
n–Butan	0,260
i – Pentan	0,110
Geksan	0,119
Geptan	0,112
H ₂ S	0,084
n–Pantan	0,093

Tabiiy gazning tarkibida metan juda ko‘p miqdorini tashkil qilsa 95% dan ko‘p, bunday gaz “quruq gaz” deyiladi. Gaz kondensati konlaridan chiqadigan gaz, odatdagи gazdan farq qilib, metandan tashqari ko‘p miqdorda (2-5% va undan ortiq) C₅ va undan yuqori metan gomologlari mavjud bo‘ladi. Gaz qazib olinayotganda bosimning tushishi oqibatida, ular kondensatga (suyuqlikka) aylanadi.

Gaz kondensati konlaridan ajralib chiqqan gazning tarkibi, kondensatlar ajratib olingandan keyin, “quruq gaz” tarkibiga yaqin bo‘ladi. Neft konlaridan ajratib olinadigan gazlar yo‘ldosh neft gazlari deyiladi. Ushbu gazlar neftda erigan bo‘ladi va ular kondan chiqarib olingandan so‘ng ajralib qoladi. Yo‘ldosh neft gazlari tarkibi “quruq gazlar” dan keskin farq qilib, unda etan, propan, butanlar va yuqori uglevodorodlar ham bo‘ladi.

Suyuq alkanlar

C₅–C₁₅ uglevodorodlar normal sharoitda suyuq holatda bo‘ladi. O‘z qaynash haroratlari bo‘yicha pentan, geksan, geptan, oktan, nonan, dekan va ularning ko‘pchilik izomerlari neftni haydashda ajratib olinadigan benzin distillatlari tarkibiga kiradi. Odatda

tarmoqlangan zanjirli uglevodorodlarning qaynash harorati mos ravishdagi normal parafinlarnikidan past bo‘ladi. $C_5 \div C_{10}$ uglevodorodlar izomerlarining soni quyidagicha (7.2-jadval).

7.2-jadval

C_5-C_{10} uglevodorodlar izomerlarining soni

C_5H_{12}	3
C_6H_{14}	5
C_7H_{16}	9
C_8H_{18}	18
C_9H_{20}	35
$C_{10}H_{22}$	75

Neft fraksiyalarida alkanlar miqdori turficha bo‘lib, dunyo neftlari bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 7.3-jadvalda keltirilgan.

7.3-jadval

Ayrim neft fraksiyalarida alkanlarning miqdori, % (mass.)

Uglevodorodlar	Alkanlar
$60 - 95^{\circ}S$ fraksiya	
Geksan	29,5
2 – Metilpentan	14,4
3 – Metilpentan	12,0
2,2 – Dimetilpentan	2,4
2,4 – Dimetilpentan	3,8
3,3 – Dimetilpentan	0,8
2,3 – Dimetilpentan	5,7
2 – Metilgeksan	17,0
3 – Metilgeksan	12,7
3 – Etilpentan	1,7
$95 - 122^{\circ}S$ (Xorij neftlari uchun)	
Geptan	49,2
2,2 – Dimetilgeksan	5,7
2,4 – Dimetilgeksan	5,1

2,3 – Dimetilgeksan	11,8
2 – Metilgeptan	-
3 – Metilgeptan	-
4 – Metilgeptan	28,2

Parafin uglevodorodlarni neftdagи miqdori turlicha bo‘ladi, rangsiz fraksiyalarda ularning miqdori 10–70% bo‘lishi mumkin. Metan uglevodorodlari kimyoviy nuqtai nazardan nisbatan yuqori barqarorlikka egadir (oddiy haroratda ko‘pchilik kuchli ta’sir qiluvchi reagentlar ta’siri bilan reaksiyaga kirishmaydi). Ular oksidlanmaydilar, sulfat va nitrat kislota bilan reaksiyalarga kirishmaydilar. Ularni xlor va boshqa galogenlar bilan reaksiyaga kirishish xususiyatlari ma’lum. Qulay sharoitlarda (400°S , ko‘p miqdorda metan) metandan metilxlorid, dixlormetan, xloroform va tetraxlormetanlar hosil bo‘ladi. Yuqori harorat va katalizatorlar ishtirokida parafin uglevodorodlar Konovalov reaksiyasiga (nitrolash reaksiyasi), to‘yinmagan uglevodorodlar bilan alkillash reaksiyalariga, oksidlash reaksiyalariga kirishishi mumkin. Hamma ushbu reaksiyalar sanoat ahamiyatiga ega. Yuqori haroratlarda alkanlar termik parchalanadi.

Qattiq alkanlar

C_{16} va undan yuqori parafin uglevodorodlar normal sharoitda qattiq holatda bo‘ladi. Geksadekan ($\text{C}_{16}\text{H}_{34}$) $18,1^{\circ}\text{S}$ da eriydi, texnik nomi setan.

Ayrim qattiq parafin uglevodorodlarning fizik xossalari quyidagi 7.4-jadvalda berilgan.

Qattiq parafinlar hamma neft tarkibida mavjud bo‘lib, odatda kam miqdorda (0,1–5%), parafinli neftlarda esa 7–12% gacha bo‘lishi mumkin. Qattiq parafinlar neft tarkibida erigan holda yoki muallaq kristall holatda bo‘ladi. Nisbatan quyi parafin uglevodorodlarni (chiziqli tuzilmali) parafinlar deyiladi.

Yuqori molekulyar qattiq parafin uglevodorodlarni esa serezinlar deyiladi. Sanoatda turli moylar va yoqilg‘ilar tarkibidagi parafin uglevodorodlarni deparafinlash jarayonida ajratib olinadi.

7.4-jadval

Ayrim qattiq parafin uglevodorodlarining fizik xossalari

Uglevodorodlar	Harorat, $^{\circ}\text{S}$		Solishtirma zichligi	
	t_{erish}	$t_{\text{qayn.}}$	$\rho^{20}, \text{kg/m}^3$	
1	2	3	4	
Geksadekan (setan)	18,2	287,5	773,0	
Geptadekan	22,5	203,5	758,0 ⁵⁰	
Oktadekan	28,0	317,0	762,0 ⁵⁰	
Nonadekan	32,0	330,0	766,0 ⁵⁰	
Eykozan	36,4	344,0	769,0 ⁵⁰	
Geneykozan	40,4	356,0	775,0 ⁵⁰	
Dokozan	44,4	368,0	778,0 ^{44,4}	
Trikozan	47,7	380,0	799,9 ⁴⁸	
Tetrakozan	50,9	389,2	-	
Pentakozan	54,0	405,0	779,0	
Geksakozan	60,0	418,0	779,0	
Geptakozan	59,5	423,0	779,6 ^{59,5}	
Oktakozan	65,0	446,0	779,0	
Nonakozan	63,6	480,0	-	
Triakontan	70,0	461,0	-	
Pentatriakontan	74,7	500	782 ⁷⁴	
Pentakontan	93,0	607	-	

7.2. Alkanlarning fizik xossalari

7.5-jadvalda alkanlarning ba'zi fizik xususiyatlari keltirilgan.

7.5-jadval

Alkanlarning fizik xususiyatlari

Uglevodorodlar	$T_{\text{erish}}, ^{\circ}\text{S}$	$T_{\text{qayn.}}, ^{\circ}\text{S}$	$\rho_4^{20}, \text{kg/m}^3$	n_A^{20}
1	2	3	4	5
Metan	-182,6	-161,6	$0,3020^{-100}$	-
Etan	-183,6	-88,6	$0,5612^{-100}$	-

Propan	-187,7	-42,3	0,5794 ⁻⁴⁰	-
Butan	-138,3	-0,5	0,5789	-
Izobutan	-159,6	-11,7	0,5593	-
Pentan	-129,7	36,08	626,2	1,3577
2 – Metilbutan	-159,6	28,0	620	1,3579
2,2 – Dimetilpropan	-16,6	9,5	592	1,3513
Geksan	95,3	68,7	664,7	1,3750
2 – Metilpentan	-153,7	60,2	654,2	1,3715
3 – Metilpentan	-118	63,2	664,7	1,3765
2,3 – Dimetilbutan	-128,4	58,0	661,8	1,3783
Geptan	90,6	98,4	683,7	1,3876
2 – Metilgeksan	-118,9	90,1	677,5	1,3877
3 – Metilgeksan	-119,4	91,9	687,0	1,3887
2,2 – Dimetilpentan	-123,8	79,2	673,0	1,3821
2,3 – Dimetilpentan	-	89,8	695,4	1,3920
2,4 – Dimetilpentan	-119,5	80,5	672,7	1,3814
3,3 – Dimetilpentan	-135,0	86,1	693,3	1,3903
3 – Etilpentan	-93,4	93,5	697,8	1,3934
2,2,3 – Trimetilbutan (triptan)	-25,0	80,9	689,4	1,3894
Oktan	-56,8	125,6	702,8	1,3976
2 – Metilgeptan	-109,5	117,7	696,6	1,3947
2,2,4 – trimetilpentan (izooktan)	107,4	99,2	691,8	-
Nonan	-53,7	150,7	717,9	1,4056
Dekan	-29,8	174,0	730,1	1,4120
Undekan	-25,7	195,8	740,4	1,4190
Dodekan	-9,65	216,2	748,9	1,4218
Tridekan	-6,2	234,0	756,0	-
Tetradekan	5,5	252,5	763,0	-
Pentadekan	10,0	270,5	768,9	-
Geksadekan (seten)	18,2	287,5	773,0	-
Geptadekan	22,5	303,0	758,0 ⁵⁰	-
Oktadekan	28,0	317,0	762,0 ⁵⁰	-
Nonadekan	32,0	330,0	766,0 ⁵⁰	-
Eykozan	36,4	344,0	769,0 ⁵⁰	-

Geneykozan	40,4	356,0	775,0 ^{40,3}	-
Dokazan	44,4	368,0	778,0 ^{44,4}	-
Tirkozan	47,7	380,0	799,9 ⁴⁸	-
Tetrakozan	50,9	389,2	-	-
Pentakozan	54,0	405,0	779,0	-
Geksakozan	60,0	418,0	779,0	-
Geptakozan	59,5	423,0	779,6 ^{59,5}	-
Oktakozan	65,0	446,0	779,0	-
Nonakozan	63,6	480,0	-	-
Triakontan	70,0	461,0	-	-
Pentatriakontan	74,7	500	782 ⁷⁴	-
Pentakontan	93,0	607	-	-


7.6-jadval

Vodorodning termodinamik xossalari

	ΔH_b (298)	$\Delta H_{x,b}$ (298)	S^0 298	A_0	A_1	A_2	A_3	A_{-2}
N ₂	0.98	0	130.6	32.8	-10.4	10.1	-2.2	-0.15

n-Alkanlarni Karbomid bilan komplekslari

1940-yilda nemis olimi Bengen tarkibida uglerod soni 6 dan ko'p bo'lgan n-alkanlar mochevina (karbamid) bilan kristall komplekslarni hosil qilishini aniqlagan. Tarmoqlangan alkanlar va siklik uglevodorodlar (sikloalkanlar, arenlar) karbamid bilan odatda kompleks hosil qilmaydi. Kompleksning tuzilishini rentgenstrukturaviy tahlil ko'rsatib berdi. Komplekslar geksagonal tuzilishga ega bo'lib, karbamid molekulalari 6 qirrali teng tomonli prizma yon qirralarida spiral bo'yicha joylashgan bo'ladi (7.1-rasmga qarang):




7.1-rasm. Karbamid kompleksini kristallik panjarasini chizmasi

- karbamid molekulasidagi kislород atomlari;
- bir elementar yacheypadagi kislород atomlari.

Alkanlar

Normal tuzilishga ega bo'lgan alkanlar yuqori setan soniga egadir. Molekulalarning tarmoqlanishi, alanganish xossalarini yomonlashishiga olib keladi; yon zanjirlar qancha ko'p bo'lsa, setan soni shunchalik past bo'ladi. Bir xil tuzilishli uglevodorodlar molekulyar massasining ortishi bilan ularning setan soni oshadi. Spiral molekulalararo vodorodli bog'lar hisobiga ushlanib turadi:



Spiral o'rami, elementar yacheikalari 6 karbamid molekulasidan tarkib topgan bo'lib, o'zaro parallel va 0,37 nm masofada joylashgan bo'ladi. Spiral ichida geksagonal formali kanal mayjud bo'lib, uning effektiv diametri 0,49 nm bo'ladi. Shu sababli, ular ushbu kanallarga yaxshi joylashadi va Van-der-Vaals kuchlari hisobiga ushlanib qoladi. Tarmoqlangan alkanlar, sikloalkanlar va arenlar molekulalarini kritik diametri 0,49 nm dan ortiq bo'lib, kanalning effektiv diametri esa 0,49 nm bo'lgani uchun karbamid bilan adduktlar (kompleks birikma) hosil qilmaydi. Qaynash temperaturasi 350°С dan

yuqori bo'limgan o'rtacha neft fraksiyalarini deparafinlash samarali boradi.

Karbamid yordamida deparafinizatsiya jarayoni sovuqqa chidamlı qishki nav yoqilg'ilarini, transformator moylarini olishda, oqsil-vitaminli konsentratlar (OVK), sintetik yog' kislotalari va spirlar, yuvish vositalari ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'lgan suyuq normal parafinlar olishda qo'llaniladi.

Karbamidli deparafinizatsiya tahlil maqsadlarida ham o'tkazilishi mumkin. Biroq ushbu usul bilan normal alkanlarni to'liq ajratib olish mushkul. Ularni to'laroq ajratib olish uchun seolitlar yordamida adsorbsiyani qo'llash kerak.

7.3. Alkanlarning asosiy reaksiyalari

Alkanlarni oddiy sharoitda inertligi organik kimyo kursida o'tilgan. Bu erda biz faqat neft texnologiyasida ishlatiladigan alkanlarni xossalari va reaksiyalarini o'rganib chiqamiz. Bular oksidlanish, termik va termokatalitik o'zgarishlardir.

Oksidlash

Alkanlar yuqori bo'limgan haroratlarda ($105\text{--}140^{\circ}\text{S}$) K, Mn katalizatorlarini qo'llab, suyuq fazada sintetik yog' kislotalari aralashmasiga aylantiriladi. Ushbu kislotalardan tashqari, suvda eruvchi quyi mono-, dikarbon va ketokarbon kislotalar va gidroksikislotalar hosil bo'ladi. Parafinlarni oksidlash orqali yuqori yog' spirlari olish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Katalizator sifatida bor (B) birikmalarini ishlatiladi. Yuqori haroratda, gaz fazasida alkanlarni kislorod saqlovchi birikmalar; aldegidlar, ketonlar va kislotalar aralashmasiga aylantirish mumkin.

Suv bug'i bilan konversiyalash


Yuqori haroratda metan suv bug'i bilan reaksiyaga kirishib, konversiyalanadi:



Hosil bo'lgan gaz, sintez – gaz deb ataladi. Sintez-gaz ($\text{CO} + \text{nN}_2$) olish reaksiyasi endotermik bo'lib, reaksiyani amalga oshirish uchun kerak bo'lgan issiqlik – metanning bir qismini yoqish natijasida hosil qilinadi:



Eslatma: Sintez-gaz ko'mirni er ostida gazifikatsiyalash yo'li bilan ham olinadi:



Hosil bo'lgan sintez-gazlar aralashmasi metil spirti olishga, vodorod olishga va gidroformillash reaksiyasi orqali sun'iy benzin olishga va boshqa moddalar olishga ishlatiladi.

Alkanlar krekingi

Yuqori haroratda uglevodorodlarni (alkanlarni) parchalash (tarkibiy qismiga) ikki xil nomlanib biri, 700°S va undan yuqori haroratda piroliz jarayoni deyilsa, ikkinchisi undan past haroratda esa kreking jarayoni deyiladi.

Piroliz jarayonida suyuq uglevodorodlar fraksiyasidan, to'yingan va to'yinmagan past molekulyar uglevodorodlar aralashmasi olinadi.

Sanoat miqyosida piroliz jarayonini ikki xil usulda olib boriladi:

1.Oksidlab piroliz qilish.

2.Elektr toki yordamida piroliz qilish (texnik nomi elektrokreking).

Ushbu jarayonlar uchun kerak bo'lgan issiqliknini xom ashyoni bir qismini yoqish orqali olinadi. Ikkala jarayon ham metandan (tabiiy gazdan) atsetilen olishda foydalilanildi.


Alkanlarni krekingida: alkanlar vodorod va uglerodga parchalanishida quyidagi haroratlarda termodinamik beqarordir.

metan \geq 900 K; etan \geq 500 K; propan \geq 400 K; butan \geq 350 K; pentan \geq 320 K, geksan va undan yuqori alkanlar uchun esa 300 K.

Alkanlarni termik parchalanishi radikal zanjir mexanizmi bo'yicha ketadi. Odatda neftni qayta ishlashda parafinlarni katalitik degidrirlash va neftdan to'g'ridan-to'g'ri haydab olingan distillatlar bug' fazada kreking jarayoni orqali alkenlarga aylantiriladi. Bundan tashqari benzinlarni oktan sonini oshirish uchun butan, pentan va geksanlar izomerizatsiya qilinadi.

Nitrolash

Metan nitrat kislota yoki CO_2 ta'sirida taxminan 500°S da nitrolanadi:



Nitrometan erituvchi sifatida hamda portlovchi modda sintezida ishlataladi.

Konovalov usuli bo'yicha alkanlar nitrolansa, (140°S , HNO_3) uchiamchi C-H bog'idagi vodorod ikkilamchiga nisbatan osonroq almashadi. Ikkilamchisi esa birlamchiga nisbatan osonroq almashadi.


Galogenlash

Alkanlarni galogenlash jarayoni radikal zanjir reaksiyasiga mansubdir. Galogenlashni uch turi mavjud:


- 1.Termik.
- 2.Fotokimyoviy.
- 3.Initsirlangan.

Qo'zg'atilgan holatdagi galogen atomi normal alkandagi vodorodni siqib chiqarish xususiyatiga ega.


1940-yilda Dyuma tomonidan ushbu reaksiya ochilgan bo'lib:




Hosil bo'lgan xlor radikali uglevodorod bilan reaksiyaga kirishib zanjirni davom ettiradi:



Reaksiya zanjirining uzunligi texnik mahsulotni xlorlashda o'nlab yoki yuzlab bo'g'implarni tashkil qiladi. Gaz fazada xlorlashda zanjir uzilishi nasadkada yoki reaktor devorida ketadi.



Uglevodorodlarni suyuq fazada xlorlashda kvadratik zanjir uzilishi vujudga keladi (erkin radikallarda):




Xlor hosilari zanjir reaksiyalarida uzilish, xlor atomida ketib $2\text{Cl}\cdot \rightarrow \text{Cl}_2$ yoki chorraha yo'li bilan $\text{R}\cdot + \text{Cl}\cdot \rightarrow \text{RCl}$ amalga oshadi.

Metanni xlorlash sanoat miqyosida olib boriladi. Hamma alkanlar xlorlanadi va bromlanadi. Xlorlash mahsulotlari bo'lgan, metilen xlorid CH_3Cl , xloroform, (CCl_4) xalq xo'jaligida keng ishlataladi. To'yingan uglevodorodlarni iodlash amalda mumkin emas. Ftorlash reaksiyalarini olib borish qiyin, sababi yuqori alkanlarni reaksiyaga kirishish xususiyatiga ega bo'lib, ftor bilan reaksiya natijasida katta miqdorda issiqlik chiqadi, u alkanni ko'mirga aylantirib tashlaydi.


Sulfolash

Parafinlar sulfat kislota ishtirokida sekin-asta qizdirilganda sulfolanib sulfokislota hosil qiladi. Ushbu reaksiya natijasida turli aralash mahsulotlar hosil bo'ladi, olingan mahsulotlardan yuvish vositalari ishlab chiqariladi:



Sulfoxlorlash

To‘yingan uglevodorodlarni sulfoxlorlash va sulfooksidlash reaksiyalari 1936–1940-yillarda ochilgan bo‘lib, sanoatda kogazinni (sintinni yuqori fraksiyasi) sulfoxlorlashda ishlatiladi. Quyida sulfoxlorlash reaksiyasini mexanizmi berilgan.




Kogazindan olingan sulfoxloridlar sintetik yuvish vositalarini olishda ishlatiladi. Buning uchun ular ishqor bilan sulfokislota tuziga Alk – SO₂ONa aylantiriladi.

Alifatik sulfoxloridlar spirtlar, fenollar, aminlar bilan reaksiyalarga kirishib, murakkab efirlar va amidlar hosil qiladi.


Olingan mahsulot esa plastifikator sifatida oraliq modda sifatida ishlatiladi.

Sulfooksidlash

Reaksiya qaytmas, ekzotermik, nur ostida tezlashadi:



Alkanlarni sulfooksidlash mexanizmi bosqichlari:



Reaksiya uchlamchi uglerod atomida fazoviy jihatdan borishi qiyinlashadi.

ikkilamchi uglerod vodorod > birlamchi uglerod vodorod > uchlamchi uglerod vodorod.

7.4. Neft sikloalkanları


Molekulasida uglerod atomi 5–6 ta bo'lgan monotsiklik sikloalkanlar, asosan qaynashni boshlanishi (QB) – 125°S bo'lgan neft fraksiyasida yig'ilgan bo'ladi. Sikloalkanlar ikki xil guruhga bo'linishi mumkin:

1. Monosiklik sikloalkanlar.
2. Polisiklik sikloalkanlar.


Neftning tarkibida 25 dan to 75% (mass.) gacha sikloalkanlar bo'lishi mumkin.

Neft fraksiyalarga ajratilganda sikloalkanlar distillat tarkibida bo'ladi. Monosiklik sikloalkanlar asosan siklopantanlar va siklogeksanlardan iborat bo'ladi. Polisiklik sikloalkanlar quyidagi xil tuzilishlarga ega bo'lishi mumkin:




a) kondensirlangan yadroli



b) o'zaro birikkan (bisiklogeksan)



d) o'zaro ko'priq bog' hosil qilgan sikloalkanlar (norborntn)



trisiklo [7.3.1.0] – tridekan

Neft tarkibida bulardan murakkabroq tuzilishga ega bo‘lgan sikloalkanlar kuzatilmagan. Sikloalkanlarda esa quyidagi xususiyatlar mujassamlashgan:

- molekulalarning geometrik izomeriyasi;
- neftni qayta ishslash jarayonlarida ular tuzilishi o‘zgarishining reaksiyaga kirishish xususiyatiga ta’siri;
- yoqilg‘i va moy distillyatlarining sifatiga ijobiy ta’siri;
- tuzilishi bilan neft metaformizmi va genezisi oralig‘idagi bog‘liqlik.

Gaz kondensat va quyi fraksiyalardagi sikloalkanlarning fizik xossalari

Neft va uning fraksiyalarida sikloalkanlarni tarqalish qonuniyati o‘rganilgan. Quyidagi 7.7-jadvalda gaz kondensati va nefting engil fraksiyalarini uglevodorodlarining guruh tarkibi berilgan.

Jadvaldagи ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, gaz kondensati fraksiyasida sikloalkanlar bir necha marotaba ko‘p (172 kg/tonna xom ashyoga nisbatan). Fraksiyalar qaynash haroratining oshishi ularda bir va trisikloalkanlar kuzatila boshlaydi.

**Gaz kondensati va neftning engil fraksiyalari
uglevodorodlarining guruh tarkibi (QB-125°S, % da)**

Kon	Massa miqdorda chiqishi	Sikloalkanlar	
		5 a'zoli	6 a'zoli
1	2	3	4
Grozniy	6,8	22,0	20,0
G'arbiy Sibir	5,7	14,5	14,0
Saxalin:			
Pervomay	13,9	31,0	31,0
Exobin	7,0	53,0	27,0
Boku:			
Нефтяные камни	2,4	25,5	26,5
Kara Dag (gaz kondensati)	40,0	16,0	27,0

**Romashkin neftidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydab olingen
benzin uglevodorodlarini massaviy tarkibi (% da):**

Sikloalkanlar	27,97
Metilsiklopentan	1,87
Dimetilsiklopentan	1,85
Trimetilsiklopentan	1,50
Siklogeksan	0,63
Metilsiklogeksan	4,34
Dimetilsiklogeksan	2,34
S_9 sikloalkanlar	5,60
S_{10} sikloalkanlar	4,14
S_{12} sikloalkanlar	2,30
$S_5 - S_{12}$ alkanlar	58,64
Arenlar	13,39

Sikloalkan turidagi benzinlar 50-70% gacha, alkan turdagilar esa 20-30% sikloalkanlar saqlaydi.

Tarkibida sikloalkanlari ko'p bo'lgan gaz kondensatlari va benzinlarni uglevodorod tarkibi quyidagi 7.9-jadvalda keltirilgan.

7.9-jadval

Turkmaniston gaz kondensati va to'g'ridan-to'g'ri haydab olingan benzinlarning guruuh tarkibi

Kon	Sikloalkanlar			
	C ₅	C ₆	C ₅ :C ₆	Alkanlar nisbati sikloalkanlar
Gaz kondensati				
Zeagli Darvoza				
60-170°S fraksiya	14	37	0,38	0,83
58-150°S fraksiya	16	30	0,53	1,17
Qizilqum:				
Q.B-200°S fraksiya				
(I namuna)	10,8	15,2	0,71	-
(II namuna)	12,8	10	1,28	3,25
Benzin	24,1	23	1,05	0,91
Borsa kelmas				
Qotur Tepa	7,8	19,7	0,90	1,52
Jetiboy	15,6	13,7	1,14	2,25
Uzen	13,3	16,5	0,81	2,26

Sikloalkanlarning asosiy reaksiyalari

Sikloalkanlar quyidagi asosiy reaksiyalarga kirishadi: nitrat kislotaning ta'siri, oksidlash, perbromlash. o'rincin almashinish, termik ta'sir.

Nitrat kislota ta'siri

Sikloalkanlar yon zanjirida metil guruhi bo'lgan taqdirdagina nitrat kislota ta'sirida birlamchi nitrobirikmalar hosil qiladi. Nitrolash

tezligi uchlamchi uglerod atomida ikkilamchisiga nisbatan yuqori bo'ladi.



Odatda naften uglevodorodlar tarkibida uchlamchi uglerod atomlari bilan birga ko'p miqdorda ikkilamchilari bo'lgani uchun, nitrolash reaksiyasi mahsulotlari tarkibida ikkilamchi va uchlamchi nitrobirikmalar aralashmasi hosil bo'ladi.

Shu bilan bir vaqtida halqa uzilishi natijasida oksidlanish reaksiyalari ketib, ikki asosli kislotalar hosil bo'ladi.

Monosiklik hosilali sikloalkanlar oksidlash jarayonida yon zanjirlarini yo'qotadi.


Siklogeksanni nitrolash reaksiyasi sanoat ahamiyatiga ega bo'lib, bunda siklogeksandan nitrosiklogeksan orqali kaprolaktam olish usuli amalga oshiriladi. Siklogeksanni nitrolash reaksiyasi suyuq fazada, yuqori bosimda taxminan 200°S haroratda va kontakt vaqtি 7-8 soatda olib boriladi. Bug' fazada nitrolashda harorat $380\div400^{\circ}\text{S}$ gacha oshiriladi, bunda nitrolash vaqtি esa 1-2 soniyani tashkil qiladi. Mononitrosiklogeksanni unumi 60%, dikarbon kislotaniki esa 20% ni tashkil qiladi.

Kaprolaktamni siklogeksandan nitrozilxlorid yordamida fotonitrolash orqali olish usuli ishlab chiqilgan bo'lib, nitrozilsulfat kislotalarliq modda sifatida quyidagi reaksiyalar natijasida hosil qilinadi.




Oksidlash

Siklogeksanni havo bilan suyuq fazada oksidlanganda 145-170°S haroratda, 0,8-1,2 MPa bosimda, kobalt tuzlari ishtirokida siklogeksanon va siklogeksanollar hosil bo‘ladi, bunda turli karbon kislotalar va ularning efirlari yonaki mahsulot sifatida hosil bo‘ladi. Yonaki mahsulotlarni kamaytirish uchun xom ashyo konversiyasi 4-10% (og‘irlikda) bo‘lishi kerak. Siklogeksanol va siklogeksanonlar reaksiyon aralashmadan ajratilib, so‘ngra siklogeksanol degidrirlanib, siklogeksanonga aylantiriladi. Siklogeksanon esa oksimirlanib keyin kaprolaktamga aylantiriladi:



Monosiklik naftenlarni oksidlovchilar (HNO_3 , $KMnO_4$) yordamida yuqori haroratda oksidlanishi yon zanjirlarni SO_2 , N_2O gacha oksidlaydi. halqa esa ikki asosli kislota hosil qilib uziladi. Ushbu reaksiya siklogeksandan adipin kislotani olishda katta sanoat ahamiyatiga ega.



Kapron tolasini sintezida adipin kislota yarim mahsulotdir. Siklogeksan uglevodorodlari tutab turgan H_2SO_4 ishtirokida qizdirilsa, qisman aromatik uglevodorodgacha degidrirlanadilar. Natijada aromatik sulfokislotalar hosil bo‘ladi:

1. $C_6H_{12} + 6H_2SO_4 \rightarrow C_6H_6 + 12H_2O + 6SO_2$
2. $C_6H_6 + HOSO_3H \rightarrow C_6H_5SO_3H + H_2O$

Perbromlash

Perbromlash reaksiyasini Gustavson–Konovalovlar ochgan bo‘lib, ushbu reaksiya AlBr_3 ishtirokida olib boriladi va sikloalkanlarni aniqlashda klassik usul hisoblanadi. Bunda sikloalkanlarni murakkab gibrild tarkiblari ham aniqlanadi. O‘rganilayotgan fraksiya sulfurlash yo‘li bilan avval alken va arenlardan tozalanadi. So‘ngra sikloalkanlar va alkanlar aralashmasi brom bilan ishlov beriladi.



metilsiklogeksan perbromtoluol


Hamma vodorod atomlari Br_2 ga almashadi va aromatik birikmalarni bromli hosilalari hosil bo‘ladi.

O‘rin almashinish


C_5 – sikloalkandan boshlab, ularga nisbatan olganda kuchlanishdan voqifdirlar, shuning uchun ulardagi C–C bog‘lari kam reaksiyon xususiyatga ega. Ushbu birikmalar o‘z xossalari bo‘yicha alkanlarga o‘xshaydi. Biroq o‘rin olish reaksiyalari mumkin, siklopentanni xlorlaganda reaksiya oddiyroq ketadi. Bu o‘rin almashinish reaksiyasida izomer reaksiya mahsulotlarining kamroq ehtimol bilan hosil bo‘lishiga bog‘liq. Masalan, siklogeksanni xlorlaganda faqat monohosila, geksanni xlorlaganda esa monoxlorli hosilaning uchta izomeri hosil bo‘ladi.

Termik ta’sir

Sikloparafinga termik ta’sir qilinsa, yon zanjirdagi va halqadagi S–S bog‘lari uziladi. Destruktiv gidrogenizasiya va ozroq aromatizatsiya reaksiyalari ketadi. N.D.Zelinskiy 1911-yili sikloalkanlarni katalitik degidrirlash reaksiyasini ochgan:




Analogik tarzda metilsiklogeksandan toluol, etilsiklogeksandan etilbenzol, dimetilsiklogeksandan ksilol hosil bo'ladı. Metilsiklopentan esa eng avvalo, siklogeksanga izomerlanadi:




Alkilsiklopantanlar va alkilsiklogekanlarni molekulyar massasini ortishi, ularning aromatizatsiyasini osonlashtiradi. Katalizator va sharoitlarga bog'liq holda quyidagi reaksiyalar ketadi:


a) Bir xil modda molekulalari orasida vodorodning qayta taqsimlanishi;



Reaksiya issiqlik chiqishi bilan borib, Pt yoki Pd katalizatori ishtirokida xona haroratida ketadi. Ushbu reaksiyalar sikloalkanlarni degidrirlashda va arenlarni gidrirlashda juda katta rol o'yaydi. Masalan, vinilsiklogeksandan – etilsiklogeksan va etilbenzol aralashmasini beradi:




b) Turli modda molekulalari orasida vodorodning qayta taqsimlanishi. Ushbu reaksiyada bir modda molekulalari vodorod donori, boshqa molekulalari esa akseptori bo'ladı. Donor sifatida sikloalkanlar, akseptor sifatida esa alkanlar va arenlar xizmat qiladi.




C–C bog'i bo'yicha gidrirlash tipik katalizatorlari—Pt, Pd, Ni, Cu reaksiyalarni tezlatadi. Ushbu reaksiyalar alyumosilikatlar ishtirokida katalitik krekingda kuzatiladi.

D) Molekula ichida vodorodning qayta taqsimlanishi. Reaksiya izomerizatsiya natijasida borib, kislota turidagi katalizatorlarda emas, balki degidro – gidrirlovchi katalizatorlarda ketadi:



Termokatalizda naften uglevodorodlarni izomerlanish reaksiyasi ketib, eng barqaror izomerlar hosil bo'ldi.



Etti a'zoli va o'n a'zoli sikllarning izomerizatsiyasida mos ravishdagi barqaror dekalinlarni hosil bo'lishiga olib keladi. Ushbu jarayon mexanizmi sikloalkanlarning katalitik riformingdagi o'zgarishlariga olib keladi.

7.5. Neft arenlari va gibrild birikmalar Umumiy ma'lumotlar


Arenlar aromatik uglevodorodlar, alkanlar va sikloalkanlarga nisbatan neft tarkibida kamroq miqdorda uchraydi. Turli neftlarda ushbu uglevodorodlarning umumiy miqdori turlicha bo'lib, 10-20% (mass.) tashkil qiladi. Aromatik neftlarda, masalan, Chusov neftida uning miqdori 35 va undan ortiq foizni tashkil qiladi. Ushbu sinf uglevodorodlari neftda benzol va uning gomologlari hamda bi- va polisiklik birikmalar hosilalari holida mavjud. Neft tarkibida gibrild tuzilishdagi uglevodorodlar ham mavjud bo'lib, nafaqat aromatik sikllar, alkilli sikllar, sikloalkanli sikllari ham mavjud. Neft tarkibagi arenlar boshqa sinf uglevodorodlariga nisbatan ko'p o'rganilgan. Ko'pgina individual arenlar turli usullar bilan neft fraksiyalari tarkibidan ajratib olingan. Bu usullar quyidagilarga asoslangan; ularning yuqori reaksiyon xususiyatiga tanlab adsorbsiyasiga, ularning polyar erituvchilarda eruvchanligiga, ularning yuqori erish haroratiga.

Benzin fraksiyasi dagi S₉ gacha hamma alkilbenzollar identifikasiya qilingan. Neft tarkibida eng ko'p tarqalgan arenlar – toluol, meta-ksilol, psevdokumol.


Odatda neftda toluol miqdori benzol, etilbenzol va ksilol izomerlaridan ko'proq uchraydi. S₈ arenlarini miqdori quyidagi qatorda kamayib borish tartibi bo'yicha berilgan:




Kerosin va gazoil fraksiyalarida benzol qatori uglevodorodlaridan tashqari naftalin va difenil gomologlari identifikasiyalangan. Neft tarkibida naftalin, metilli hosilalariga nisbatan kam miqdorda bo'ladi. Neft tarkibida difenil hosilalari naftalin uglevodorodlarga nisbatan kam. Difenil va uning alkilli hosilalaridan tashqari neft tarkibida ko'priq tuzilishdagi arenlar (1,2-difeniletan) ham topilgan. Og'ir gazoil, moy va yuqori fraksiyalarda, polisiklik arenlar ham aniqlangan.




fenantren



antrasen



xrizen



piren

Neft tarkibida fenantren gomologlari antrasen hosilalariga nisbatan ko'p bo'ladi. Og'ir distillatlarda 7 halqagacha bo'lgan polisiklik arenlar aniqlangan. Ularning miqdori ko'p emas. Monosiklik arenlar, di – va polisikliklarga nisbatan benzin va kerosin fraksiyalarida ko'p bo'lib, ushbu qonuniyat gazoil va moy fraksiyalariga ham taalluqli. Benzol halqasi yon zanjirida 1 yoki 2 metil guruhi va kam tarmoqlangan uzun alkil radikali bo'ladi. Umuman olganda neftlar tarkibiga kirgan arenlar miqdori quyidagicha bo'lishi kuzatiladi, % (mass.) hisobida:

Benzol – 67%, naftalinlar – 18%, fenantrenlar – 8%, xrizenlar va benzfluorenlar – 3%, pirenlar – 2%, antrasenlar – 1%, boshqa aromatik uglevodorodlar – 1%.

Arenlarning fizik xossalari

Arenlar, alkanlar va sikloalkanlarga nisbatan yuqori zichlik va sindirish ko'rsatkichiga ega. Arenlar polyar absorbentlar tomonidan yaxshi yutiladi. Ko'pchilik polyar erituvchilarda tanlab eriydi. Arenlarni erish harorati nafaqat ularning molekulyar massasiga, molekulalarini shakliga ham bog'liq. Molekulalar simmetrik bo'lgani sari, ularning kristallanish harorati ortib boradi. Masalan, ksilol izomerlaridan simmetrigi bo'lgan para-ksilol eng yuqori kristallanish haroratiga ega. Durol kamroq simmetrikka ega bo'lgan tetrametilbenzollarga nisbatan yuqori haroratda eriydi. Arenlarning ayrim xossalari quyidagi 7.10-jadvalda keltirilgan.

7.10-jadval

Arenlarning fizik xossalari ko'rsatkichi


Uglevodorodlar	ρ^{20} , kg/m ³	0,1 MPa dagi $t_{qavn.}$, °S	t _{krist.} , °S	n_D^{20}	Oktan soni
1	2	3	4	5	6
Benzol	879	80,1	-5,52	1,5011	106
Toluol	866,9	110,6	-95,0	1,4969	105
o - Ksilol	880,2	144,4	-25,2	1,5054	100
m - Ksilol	864,2	139,1	-47,9	1,4972	103
n - Ksilol	861,0	138,4	-13,3	1,4958	103
Etilbenzol	867,0	136,2	-95,0	1,4959	98
Psevdokumol (1,2,4 trimetilbenzol)	875,8	169,4	-43,8	1,5049	-
Kumol (izoprilbenzol)	861,8	152,4	-96,0	1,4914	100
Durol (1,2,4,5- tetrametilbenzol)	-	169,8	-23,7	-	-
Difenil	-	255,6	96,0	-	-

Naftalin	-	218,0	80,3	-	98
Fenantren	-	340,1	992	-	-
Antratsen	-	342,3	216,0	-	-
Gemimellitol (1,2,3 trimetilbenzol)	894,4	176,1	-25,4	1,51,39	-
Propilbenzol	862,0	159,2	-99,5	1,4920	-
Prenitol (1,2,3,4 tetrametilbenzol)	905,2	205,0	-6,2	1,52,3	-
Izodurol (1,2,3,5 tetrametilbenzol)	890,4	198,2	-23,7	1,5130	-


Izomer arenlarni qaynash haroratlari o'zaro kam farq qiladi. Alkil guruhlari qator joylashgan izomerlar eng yuqori qaynash haroratiga (o-ksilol, gemimellitol, prenitol).

Arenlarning kimyoviy xossalari

Arenlar uchun elektrofil o'rIN olish reaksiyalari eng xarakterlidir. Bular: nitrolash, sulfolash, galogenlash, alkillash, Fridel-Krafts bo'yicha asillash, nitrozirlash va shu kabilar. Hamma ko'rsatilgan reaksiyalarning mexanizmi bir xildir:



Elektrofil o'rIN olish reaksiyasiga kislota-asosli reaksiya sabab bo'lib, reaksiyanı boshlovchi elektrofil zarrachani (E^+) hosil qiladi (jadvalga qarang). Nitrolash reaksiyasida elektrofil vazifasini nitroniy-kation bajarib, u nitrat va sulfat kislotalarni o'zaro ta'sirlashuvni natijasida hosil bo'ladi:




7.11-jadval

Aromatik o'rin olish reaksiyalarida ishtirok etuvchi elektrofil zarrachalar


Elektrofil	Mahsulot hosil bo'lishining tipik sxemasi
1	2
Aktivlangan va deaktivlangan halqalarda o'rin olish reaksiyalariga kirishuvchi elektrofillar	
$\text{O} = \text{N}^+ = \text{O}$	$2\text{H}_2\text{SO}_4 + \text{HNO}_3 \rightleftharpoons \text{NO}_2^+ + 2\text{HSO}_4^- + \text{H}_3\text{O}^+$
Br_2 , yoki $\text{Br}_2\text{-MX}_n$	$\text{Br}_2 + \text{MX}_n \rightleftharpoons \text{Br}_2\text{-MX}_n$
$\text{Br}\overset{\dagger}{\text{OH}}_2$	$\text{BrOH} + \text{H}_3\text{O}^+ \rightleftharpoons \text{Br}^+\text{OH}_2^- + \text{H}_2\text{O}$
Cl_2 , yoki $\text{Cl}_2\text{-MX}_n$	$\text{Cl}_2 + \text{MX}_n \rightleftharpoons \text{Cl}_2\text{-MX}_n$
$\text{Cl}\overset{\dagger}{\text{OH}}_2$	$\text{ClOH} + \text{H}_3\text{O}^+ \rightleftharpoons \text{ClOH}_2^- + \text{H}_2\text{O}$
SO_3	$\text{H}_2\text{S-O}_3 \rightleftharpoons \text{H}_2\text{SO}_4 + \text{SO}_3^-$
RSO_2^+	$\text{RSO}_2\text{Cl} + \text{AlCl}_4^- \rightleftharpoons \text{RSO}_2^+ + \text{AlCl}_4^-$

Aktivlangan halqalarda o'rin olish reaksiyalariga kirishuvchi elektrofillar	
R_3C^+	$\text{R}_3\text{CX} + \text{MX}_n \rightleftharpoons \text{R}_3\text{C}^+ + (\text{MX}_{n+1})^-$
	$\text{R}_3\text{COH} + \text{H}^+ \rightleftharpoons \text{R}_3\text{C}^+ + \text{H}_2\text{O}$
	$\text{R}_3\text{C}-\text{CR}_1^+ + \text{H}^+ \rightleftharpoons \text{R}_3\text{C}-\text{CHR}_1^+$
$\text{CH}_2\text{X} - \text{MX}_n$	$\text{RCH}_2\text{X} + \text{MX}_n \rightleftharpoons \text{RCH}_2\text{X} - \text{MX}_n$
$\text{RC}\equiv\text{O}^+$	$\overset{\text{O}}{\text{RCX}} + \text{MX}_n \rightleftharpoons \text{RC}\equiv\text{O}^+ + (\text{MX}_{n+1})^-$
$\overset{\text{O}}{\text{RCX}} - \text{MX}_n$	$\overset{\text{O}}{\text{RCX}} + \text{MX}_n \rightleftharpoons \overset{\text{O}}{\text{RCX}} - \text{MX}_n$
H^+	$\text{HX} \rightleftharpoons \text{H}^+ + \text{X}^-$
$\text{R}_2\text{C}=\overset{\dagger}{\text{OH}}$	$\text{R}_2\text{C}=\text{O} + \text{H}^+ \rightleftharpoons \text{R}_2\text{C}=\overset{\dagger}{\text{OH}}$
$\text{R}_2\text{C}=\overset{\dagger}{\text{O}}-\text{MX}_n$	$\text{R}_2\text{C}=\text{O} + \text{MX}_n \rightleftharpoons \text{R}_2\text{C}=\overset{\dagger}{\text{O}}-\text{MX}_n$
Kuchli aktivlangan halqalarda o'rin olish reaksiyalariga kirishuvchi elektrofillar	
$\text{CH}\equiv\text{NH}^+$	$\text{CH}\equiv\text{N} + \text{HX} \rightleftharpoons \text{CH}\equiv\overset{\dagger}{\text{NH}} + \text{X}^-$
$\text{N}\equiv\text{O}^+$	$\text{HNO}_3 + \text{H}^+ \rightarrow \text{N}\equiv\text{O}^+ + \text{H}_2\text{O}$
$\text{Ar}\overset{\dagger}{\text{N}}=\text{N}$	$\text{ArNH}_2 + \text{HNO}_2 + \text{H}^+ \rightarrow \text{Ar}\overset{\dagger}{\text{N}}=\text{N} + 2\text{H}_2\text{O}$

Sulfolash reaksiyasida konsentrlangan H_2SO_4 ning ionizatsiyasi elektrofil reagent SO_3 hosil bo'lishi, uning asosida SO_3H^+ ni hosil bo'lishi bilan ketadi:



Kuchli kislotalar yoki Lyuis kislotalari (FeCl_3 , AlCl_3 , SnCl_4 va boshqalar) ishtirokida galogenlanganda (+) zaryadlangan galogen ioni hosil bo'ladi:




Fridel-Krafts bo'yicha alkillash reaksiyasi Lyuis kislotalari (katalizator) ishtirokida ham ketib, ular alkil galogenidlar bilan avvalo, qutblangan komplekslar, so'ngra esa ionlanish natijasida karbokation hosil bo'lish reaksiyasi ketadi:



Alkenlar yordamida alkillashda ham karbokation hosil bo'ladi;




yoki aproton kislotalar va sokatalizatorlar ishtirokida ham:



Yuqorida ko'rsatilganidek, elektrofil E^+ aromatik birikma molekulasi bilan tezda π -kompleks hosil qilib, hosil bo'lган ushbu kompleks barqaror bo'lган boshqa δ -kompleksga izomerlanishi mumkin. δ -kompleksda elektrofil molekula bilan kovalent bog'i


orqali bog'langan. Natijada, aromatik halqada butun musbat zaryad hosil bo'ladi. Bunda uglerod atomlaridan biri o'zaro ta'sir doirasidan chiqib, sp^2 – gibrildanish holatidan sp^3 holatga o'tadi:



Shartli ravishda benzoloniy – ioni tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin:



Reaksiyaning oxirgi bosqichi δ -kompleksdan protonni uzilib chiqishi va aren hosilasi molekulasini hosil bo'lishi bilan yakunlanadi. Masalan:




Elektrofil o'rin olish reaksiyasini o'rganish (shved kimyogari Melander) shuni ko'rsatdiki, nisbatan sekin, chegaralovchi bosqich – oraliq birikmalarni hosil bo'lish bosqichidir. π -kompleksning hosil bo'lish bosqichi – tez jarayonligi ayon, demak, eng sekin bosqich – π -kompleksning δ -kompleksga izomerizatsiyasi ekan.


Arenlarga, ularni yuqori darajada to'yinmaganligiga qaramay, birikish reaksiyalari kamroq xarakterlidir. Masalan, benzol alkenlarni gidrirlash sharoitiariyla gidrirlanmaydi.

Elektrofil o'rin olish reaksiyalari mexanizmini Melander o'rganan bo'lib, izotop usulini qo'llagan. Deyteriy va tritiy bilan alma-shilgan birikmalarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, reaksiyani chegaralovchi (limitlovchi) bosqich – oraliq modda hosil bo'lish bosqichi


ekan. Arenlar uchun ularni yuqori darajadagi to‘yinmaganliklariga qaramasdan, birikish reaksiyalari ancha kam xarakterlidir. Masalan, alkenlarni gidrirlash sharoitida benzol gidrirlanmaydi. Shunga qaramay, bosim ostida nikel katalizatori ishtirokida benzol gidrirlanganda u siklogeksanga aylanadi.




Benzolni, siklogeksenni va yon zanjirida qo'sh bog'i bor arilalken (stirol) ni gidrirlash nisbiy tezligi 1:150:900 ga teng.



Benzolni gidrirlaganda reaksiyon aralashmada sikloalken aniqlanmagan, chunki sikloalkenni gidrirlanish reaksiya tezligi juda yuqori. Benzolga galogenlarning birikish reaksiyası ham mavjud. Bu reaksiya erkin radikal mexanizmi bo'yicha suyuq fazada fotokimyoviy usul yoki initsiatorlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi:




Benzol ozonni biriktirib olish xususiyatiga ega. Bunda hosil bo'lgan triozonidni parchalanishi (suv bilan) natijasida glioksal hosil bo'ladi:




Kondensirlangan arenlarning kimyoviy xossalari

Naftalin va polisiklik uglevodorodlar, fenantren, antratsen, xrizen, pirenlar xuddi benzol kabi Xyukkel qoidasiga bo'ysunadilar, ya'ni, bog'lovchi molekulyar orbitadagi π -elektronlar soni $4n+2$ ga teng. Ushbu modda molekulalari yassi, ular uchun yuqori qiymatli energetik o'zaro bog'liqlik xarakterlidir va ularda arenlarni kompleks xossalari qaytariladi. Xususan, hamma yuqoridagi uglevodorodlar xuddi benzol kabi elektrofil o'rinni olish reaksiyasiga engil kirishadilar.


Shu bilan birgalikda hamma kondensirlangan arenlar ko'p yoki kam nisbatda to'yinmagan birikmalarga xossasi jihatdan yaqinlashadi. Masalan, naftalin benzolga nisbatan reaksiyaga kirishish imkoniyati yuqori va u nisbatan kam barqarorlikka ega. Benzol molekulasidan farqli o'laroq (benzolda hamma S-S bog'lar teng qiymatga ega) naftalin va polisiklik arenlarda bog'lar turli energetik qiymatlarga egadir.



Naftalin




Antratsen




Fenantren


Naftalin molekulasidagi 1-2, 3-4, 5-6, 7-8 bog'lar nisbatan yuqori tartibga ega bo'lib, ular 2-3, 6-7 bog'larga nisbatan ko'p to'yinmagan va kam uzunlikka egadir. Fenantren molekulasida esa 9-10 bog'i uchun eng yuqori elektron zichlik xarakterlidir va u qo'shbog' xarakteriga yaqinlashadi. Tabiiyki, birikish reaksiyalari yuqori tartibli bog'larga katta tezlikda (benzolga nisbatan) ketadi.





Fenantren



Antratsen molekulalariga birikish reaksiyalari antrasendagi mezo – holat 9 – 10 ga ketadi.



Antratsen va fenantren qatori uglevodorodlarga malein angidridini birikish reaksiyasi, neft fraksiyalaridan ularni ajratib olishda keng qo'llaniladi. Antratsen va uning hosilalariga malein angidridini biriktirish Dils–Alder reaksiyasi orqali ketadi. Antratsen uglevodorodini ajratib olingandan so'ng fenantren va uning gomologlarini malein angidridi bilan fotokondensatsiya reaksiyasi orqali ajratib olish mumkin.




Hosil bo'lgan mahsulot (addukt) larni fotokimyoviy parchalash yo'li bilan fenantren va uning hosilalarini ajratib olinadi.

Benzol va naftalin uglevodorodlari, bunga o'xshash moddalar malein angidridi bilan addukt hosil qilmaydi.


Naftalin va uning mono – va polimetil hosilalari pikrin kislotasi bilan barqaror kristall holidagi π -komplekslar hosil qilib, ular ushbu xususiyati tufayli neft fraksiyalaridan ajratib olinishi mumkin. Benzolni polimetil hosilali gomologlari (mezitilen, tetra-, penta-, geksametilbenzol) pikrin kislotasi bilan komplekslar hosil qilib, reaksiya mahsulotlari kam barqarorlikka ega.

Gibrid sikloalkan – arenlar


Yuqori nest fraksiyalarida sikloalkan – aren uglevodorodlari juda keng tarqalgan. Ko‘p olimlar ularni arenlarga kiritadilar, biroq bu noto‘g‘ri, gibrid uglevodorodlar alohida guruhga ajratilishi to‘g‘riroqdir. Sikloalkan – arenlarni eng oddiy namoyondalari kerosin–gazoil fraksiyasi tarkibida gomologlar holida bo‘lib, ular quyidagilardir:




indan



tetralin



flouren



asenafien

Gibrid uglevodorodlarning ko‘pchiligidagi kondensirlangan aromatik va alisiklik halqa mavjud. Gibrid uglevodorodlardagi aromatik xalqalar asosan metil guruhli hosilalardan iborat bo‘lib, alisiklik uglevodorodlari esa 1 yoki 2 uzunroq alkil guruhiga egadir. Gibrid strukturali uglevodorodlarni hisoblaganda, arenlarning o‘rtacha miqdori yuqori siklik neftlarda 37% (mass.)gacha, yuqori parafinli neftlarda esa 21% (mass.)ga teng.

Arenlarning neft kimyoviy sintezda ishlatalishi


Arenlarni asosiy manbalari bo‘lib, neftni qayta ishlashdagi mahsulotlar xizmat qiladi. Ular katalitik riforming va piroлиз jarayonlarida hosil bo‘ladi. Quyida arenlar ishlab chiqarishdagi xom ashyo bazalar tizimi keltirilgan (7.12-jadval):

7.12-jadval


Arenlar ishlab chiqarish xom ashyo bazalar tizimi

Ishlab chiqarish sohasi	AQSh	G‘arbiy Evropa
Reforming katalizatlari	78	33
Pirolyzatlar	13	56
Ko‘mir	9	11


Piroliz jarayonida olinayotgan arenlarni ulushi o'sib borish tendensiyasi xarakteriga ega. Piroliz xom ashyoni og'irlashtirishga aloqador. Neftkimyoviy sintezda keng ishlatiluvchi eng zarur aren, bu – benzoldir. U ishlab chiqarish hajmi va ishlatilishi, organik mahsulotlar olish ahamiyati bo'yicha etilenden so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. Dunyo bo'yicha benzol olish qurilmalarining umumiyligi quvvati 26 mln. tonna/yildan ortiq. Hozirgi paytda benzolni bosh iste'molchisi etilbenzol va stirol ishlab chiqarish korxonalaridir. Etilbenzolning asosiy miqdori benzolni etilen bilan alkillash orqali olinib, katalizator sifatida AlCl_3 , ishlatiladi va oz miqdorda suv hamda etilxlorid ishlatiladi (HCl hosil qilish uchun qo'shiladi):




Nisbatan kam miqdordagi etilbenzol, ksilollar aralashmasini rektifikatsiyalab, ajratib olinadi. Ksilollar katalitik riforming jarayoni natijasida hosil bo'ladi va selektiv erituvchilar yordamida ekstraksiya qilinadi. Stirol etilbenzolni degidrirlab olinadi. Katalizator sifatida Fe_2O_3 (Cr_2O_3 va ishqor bilan promotorlangan katalizatorlar) ishlatilib, jarayon $600\text{-}630^\circ\text{S}$ haroratda olib boriladi:



Stirol etilbenzolni oksidlab degidrirlash usuli ham ishlab chiqilgan bo'lib, bunda konversiya darajasi oshadi va jarayon harorati bir muncha pasayadi.




Etilbenzolni sulfid angidridi bilan oksidlab– degidrirlash varianti ham istiqbolli hisoblanadi;




Bunda etilbenzolni bir sikldagi konversiyasi 60% dan to 90% gacha ko'tariladi.

Sanoatda stirol bilan propilen oksidini birga olish jarayoni ishlab chiqilgan;




Stirol quyidagi moddalar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi: polistirol, butadien – stirol (sintetik kauchuk), stirolni akrilonitril ($\text{CH}_2=\text{CH}-\text{C}\equiv\text{H}$), divinilbenzol, N-vinilkarbazol (sopolimerlar), anion almashinuvchi polimerlar.


Benzolndan eng zarur ikkinchi modda hisoblangan fenol ishlab chiqarishdir. Ilgari fenol asosan quyidagi chizma bo'yicha, sulfonat usuli bilan olingan;



$300\div350^\circ\text{C}$ da ishqor bilan birga natriy sulfonat qo'shib qizdirilib natriy fenolyati olingen va undan esa – fenol;






Sanoatda fenol olishning xlorli usullari ham qo'llanilgan, bunda xlorbenzolni ishqor yordamida:




Rashig usuli bo'yicha (benzolni oksidlab-xlorlash va hosil bo'lgan xlorbenzolni bug' fazada suvli gidrolizi) ham sanoatda fenol olinadi:




Hozirgi vaqtida sulfonat va xlorli usullar quyidagi yuqori iqtisodiy ko'rsatkichli kumol usuli bilan stirol olish amalda keng qo'llanilyapti. Avvalo, xom ashyo bo'lgan izopropilbenzolni olish uchun quyidagi reaksiya amalga oshiriladi.



Kumolni degidrirlab sintetik kauchuk monomeri bo'lgan α -metilstirol olinadi:




To'g'ridan – to'g'ri benzolni fenolga oksidlash usuli ham ishlab chiqilgan.






Ushbu usulning kamchiligi: benzol konversiyasining pastligi (5-8%) va hosil bo'lgan fenol unumdarligining kamchiligi 25% (mass) ga yaqin. Biroq, gomogen initsiatorlarni qo'llanilishi oqibatida konversiya darajasini 20-25% ga va fenolni hosil bo'lishini esa 50-60% gacha oshirishga erishildi.

Siklogeksanni oksidlaganda siklogeksanon va siklogeksanollar aralashmasi hosil bo'lib, siklogeksanon, oraliq mahsuloti platina katalizatori yordamida fenolga aylantiriladi:




Fenolning asosiy qo'llanilish sohasi – fenolaldegid smolalar ishlab chiqarish, shu jumladan, fenolformaldegid oligomerlarini ishlab chiqarish, penoplastlar olish, izolyatsiya materiallari, tez presslanuvchi press poroshoklari olish uchun ishlatiladi. Benzolni ishlatish ko'lami bo'yicha fenol ishlab chiqarishdan keyingi o'rinda siklogeksan olish egallaydi.

Siklogeksan adipin kislotasi, geksametilendiamin va kapro-laktamlar sintezi uchun ishlatiladi:




Havo yordamida benzolni bug' fazada vanadiy (V) oksidi (V_2O_5) ishtirokida $400-450^\circ\text{S}$ da, atmosfera bosimida oksidlab malein angidridi olish mumkin:




Malein angidridini ko'p qismi polietfir smolalar ishlab chiqarishga ishlatiladi. Bundan tashqari malein angidridi dien reaksiyalarida, fumar kislotasi va surkov moylariga prisadkalar (qo'shimcha) olishda ishlatiladi.

Benzolni nitrat va sulfat kislotalari aralashmasida nitrolash reaksiyasi orqali nitrobenzol olinadi. Undan N.N.Zinin reaksiyasi (1842-y.) orqali anilin olinadi:




Sanoatda nitrobenzolni gidrirlash reaksiyasi mis katalizatori yordamida bug' fazada amalga oshiriladi. Hozirda yangi jarayon yordamida ham fenolni bug' fazada ammonolizga uchratib anilin olish yo'lga qo'yilgan;



Biroq ushbu usul xom ashyo qimmat bo'lganligi va anilin bilan reaksiyaga kirishmay qolgan fenolni ajratish murakkabligi tufayli keng tarqalmagan (azeotrop aralashma hosil bo'ladi).


Anilinning ko'p miqdori hozirda poliuretan penoplastlar ishlab chiqarishda, sintetik kauchukni vulkanizatsiyasida tezlatgichlar ishlab chiqarishda qo'llanilsa, 10÷15% miqdori esa bo'yoq, foto materiallar va farmatsevtik preparatlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Benzoldan alkilarilsulfonatlar olishda, ya'ni, sintetik yuvish vositalari olishda ham qo'llanilishini ko'rsatib o'tish kerak. Ushbu moddalar ayrim qo'shimchalar qo'shilgach sulfonollar deb ham ataladi. Benzol xloralkanlar yoki $\text{C}_{10}\text{-C}_{16}$ alkenlar yordamida alkillanib, so'ng alkilat sulfurlanib va neytrallanib, quyidagi moddalar olinadi.




Ilgari benzolni alkillashda propilenni tetrameri ishlatilgan;

$4\text{CH}_3\text{CH}=\text{CH}_2 \rightarrow \text{CH}_3\text{CH}=\text{CHCH(CH}_3\text{)}\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)$
 CH₃ va undan quyidagi tarkibli alkilbenzolsulfonat olingan;




Biroq olingen alkilarilsulfonatlarni biokimyoviy yomon parchalanishi oqibatida ko'pchilik davlatlar ushbu moddani ishlab chiqarishdan voz kechiganlar. Hozir alkilbenzolsulfonatlar asosan chiziqli tuzilishga ega bo'lgan 1-alkenlar (1-desen) yordamida olinadi. Ushbu sulfonatlar yuqori bioparchalanish xususiyatiga ega bo'lib, suv havzalarini ifloslantirmaydi. undan tashqari yuqori yuvish xususiyatiga egadirlar.


Hozirgi paytda toluol benzolga nisbatan kamroq qo'llanilmoqda. Uning asosida toluilendiizosionatni 2,4-dinitrotoluol orqali olish mumkin. Olingen mahsulot poliuretanlar ishlab chiqarishda asosiy monomerdir.



Toluilendiizosianatni 2,4-dinitrotoluoldan olish istiqbolli jara-yondir. Bunda jarayon toluilendiamin bosqichisiz amalga oshiriladi. Bu jarayon (karbonillash jarayoni) suyuq fazada metall kompleks birikmasi asosidiagi gomogen katalizator ishtirokida olib boriladi:




Qator sintezlarda benzol o'rniда toluol ishlatalishi mumkin. Hozirda sanoatda toluoldan kaprolaktam ishlab chiqarish jarayoni qo'llanila boshlagan. Ushbu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat; toluolni oksidlash, benzoy kislotasini gidrirlash va siklogeksan kislotasini kaprolaktamga nitrozillash:




Chirchiq shahrida toluoldan kaprolaktam olish korxonasi mavjud bo'lib, u-yiliga 90.000 t kaprolaktam ishlab chiqarishi mumkin.

1. Kaprolaktamni siklogeksankarbon kislotasidan hosil bo'lishi oleum va nitrozilsulfat kislotalarini ketma-ket ta'siri oqibatida bo'lib, bu jarayonlarni quyidagi chizma orqali ko'rsatish mumkin;




Bu reaksiyaning umumiyl nomi siklogeksankarbon kislotasini protonlanishi va SO₃ bilan aktivlanishi deb ataladi.

2. Nitrozirlash va dekarboksillash.




3. Qayta guruhlanish va gidroliz.




Benzoy kislotasini oksidlash, suyuq fazada suv bug' bilan 230°S da mis va magniy benzoatlari ishtirokida amalga oshiriladi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha ushu usul sulfonat, xlorbenzol va siklogeksan orqali fenol ishlab chiqarishdan afzal bo'lib, kumol usulidan keyin turadi. Kumol usuliga analogik holda krezol izomerlarini simol gidroperoksidlari orqali olish mumkin. p-Krezol antioksidlovchilar olishda, (masalan, ionol-4-metil-, 2,6-tretbutilfenol), bundan tashqari krezollar, gerbisidlar, krezol-aldegid smolalar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.


Toluolni sulfat, nitrat kislotalari aralashmasi yordamida nitrolashda reaksiya odatda 3 bosqichda ketib, portlovchi modda hosil bo'ladi (2,4,6-trinitrotoluol):




Toluolni oksidlab benzaldegid olinadi, u bo'yqa sanoati va parfyumeriyada qo'llaniladi. Benzaldegid toluolni metil-guruhi bo'yicha xlorlab ham olinishi mumkin, bunda hosil bo'lgan benzilxloridni gidrolizlanadi;



Toluolning ko'p qismi benzol ishlab chiqarishda ishlatalib, termik yoki katalitik hidrodealkillash jarayoni ketadi.




Gidrodealkillash jarayoni bilan boshqa jarayon-toluolni disproporsiyalash (transalkillash) jarayoni o‘zaro raqobatlashadi:



Suyuq fazada nisbatan quyi haroratda ($\approx 300^{\circ}\text{S}$) da, 4,4 MPa bosimda disproporsiyalanish jarayonini yuqori aktivlikka ega bo‘lgan seolit katalizatorlarida olib boriladi.

Toluol asosida (tereftal) kislotasini olishning turli usullari ishlab chiqilgan. Tereftal kislota benzoy kislotasi tuzlarini disproporsiyalab olinishi mumkin:



Disproporsiyalanish reaksiyasini SO_2 atmosferasida $350\text{--}450^{\circ}\text{S}$ da va 1-10 MPa bosimda kadmiy yoki rux katalizatori ishtirokida olib boriladi.

7.6. Neftni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan to‘yinmagan uglevodorodlar Umumiy ma’lumotlar

Xom neft va tabiiy gazlarda to‘yinmagan uglevodorodli birikmalar (alkenlar, di-, tri- va polienlar, alkinlar) bo‘lmaydi. Ular neftni qayta ishlash jarayonlarida hosil bo‘ladi. To‘yinmagan birikmalar, asosiy organik va neft kimyoviy sintezda eng qimmatli xom ashylardan biridir.

To‘yinmagan birikmalarni olishning ikki guruhi mavjud.

1. To‘yinmagan birikmalar, yonaki mahsulot bo‘lgan jarayonlar mahsuli.
2. To‘yinmagan uglevodorodlarni maksimal ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan maxsus jarayonlar.

Birinchi guruh jarayonlari termik va katalitik kreking, neft qoldiqlarini kokslash jarayonlari bo'lib, ularning asosiy maqsadi, yoqilg'i va neft koxsi ishlab chiqarishidir. Ikkinci guruh jarayonlari piroлиз, quyi molekulyar alkenlarni polimerizatsiyasi, alkanlarni degidrirlash va metallorganik katalizatorlar ishtirokida alkenlarni sintezlarini o'z ichiga oladi.

Suyuq fazadagi termik kreking gazida ($470\text{--}520^{\circ}\text{S}$; 2-5 MPa) taxminan 20% (hajm.), bug' fazadagi termik kreking gazida ($530\text{--}600^{\circ}\text{S}$; 0,1-0,5 MPa) va piroлиз ($670\text{--}900^{\circ}\text{S}$; 0,1 MPa) gazlarida 30÷50% (hajm.) miqdorda to'yinmagan uglevodorodli birikmalar mavjuddir. Neft xom ashyosi termik qayta ishlanganda hosil bo'ladigan gazlarning tarkibi quyidagi jadvalda berilgan.

7.13-jadval

Neft xom ashyosini termik va termokatalitik qayta ishlanganda hosil bo'ladigan gazlarning tarkibi, % (hajm)

Komponentlar	Termik kreking	Koks-lash	Piroлиз	Katalitik kreking
H ₂	0.4	1-2	10	1,0-1,5
Alkanlar				
CH ₄	16-20	20-30	40-45	8-12
C ₂ H ₆	19-20	15-20	6-10	8-10
C ₃ H ₈	25-28	5-10	1-2	10-15
Izo-C ₄ H ₁₀	5-7	3-5	1-2	20-25
C ₄ H ₁₀	9-10	10-15	1-2	8-12
Alkenlar				
C ₂ H ₄	2-3	10-15	20-30	2-3
C ₃ H ₆	9-10	20-25	12-15	10-15
C ₄ H ₈	9-10	10-15	1-2	15-20
C ₄ H ₆	1-5	-	3-10	-

Jadvalda keltirilgan ma'lumotdan ko'rinish turibdiki, termik jarayon alkenlari ichida etilen va propilenlar ko'pdir. Butilen va butadien birmuncha sezilarli miqdorda mavjuddir. Katalitik kreking gazlarida alkenlarning miqdori 25% (hajm.) va undan ortiqdir.

Alkanlar izobutanni (25% hajm.) yuqori miqdordaligi bilan farqlanadilar.

To'yinmagan uglevodorodlar neftni termik va katalitik qayta ishlash suyuq mahsulotlari tarkibida ham mavjud. Masalan, suyuq fazadagi termik kreking benzинida 30÷35% (mass.). benzинни bug' fazadagi krekingida 40÷45%(mass.) va katalitik kreking benzинida 10%(mass.) ga yaqin miqdorda to'yinmagan uglevodorodlar bo'ladi.

To'yinmagan uglevodorodlarning xossalari

Oddiy sharoitlarda quyi alkenlar C₂–C₄ gaz, C₅–C₁₇– suyuqlik, undan yuqori molekulyar alkenlar esa qattiq moddalardir.

Quyi alkenlarning ayrim xossalari 7.14-jadvalda keltirilgan.

Kritik harorat ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, quyi harorat va yuqori bosimda etilenni suyuq holatga o'tkazish mumkin. Boshqa alkenlar esa bosim ostida suv bilan sovutish orqali suyuladilar. Neftni qayta ishlash sanoat jarayonlarida alkenlar alkanlar bilan aralashma holida olinadi. Ularning xossalari sezilarli farqlanadi, shu bois individual birikmalarni ajratib olishda undan foydalaniлади. Normal tuzilishli 1-alkenlar mos alkanlarga nisbatan pastroq qaynash va erish haroratlariga ega, biroq pentan va 1-petenlar misolida (7.15-jadvalga qarang) yuqori zichlik va sindirish ko'rsatkichiga egadir.

7.14-jadval

Quyi alkenlarning xossalari

Uglevodorodlar	t _{kritik} , °C	t _{qayn,} °C	P _{kritik} , MPa	Havo bilan portlash xavfi bor konsentratsiya chegarasi, % (hajm)
Etilen	9,9	- 103, 7	5,05	3,0 – 31,0
Propilen	91,8	-47,7	4,56	2,2 – 10,3
1-Buten	146,2	-6,3	3,97	1,6 – 9,4
sis-2-buten	157,0	3,7	4,10	1,6 – 9,4
trans-2-buten	-	0,9	-	1,6 – 9,4
Izobutilen	144,7	-7,0	3,95	1,8 – 9,6

Turli tuzilishga ega bo'lgan alkenlarning fizik xossalarি

Uglevodorodlar	Zichligi ρ , kg/m ³	t_{erish} , °S	$t_{qayn.}$, °S
Pentan	626,0	-129	36
1 – Penten	641,0	-165	30
2,3-Dimetil–2-buten	708,8	-75	73
1 – Geksen	674,0	-140	63

Turli tuzilishga ega bo'lgan alkenlarning xossalarini taqqoslash quyidagi xulosaga olib keladi:

Simmetrik tuzilishga ega bo'lgan tarmoqlangan alkenlar boshqa izomerlarga nisbatan (jadvalga qarang) yuqoriroq qaynash va erish haroratlariga hamda yuqoriroq zichlikka egadir.

Alkenlarni sis– izomerlari, trans– izomerlariga nisbatan yuqoriroq qaynash harorati bilan xarakterlanadilar.

Alkenlarni ajratib olish


Ushbu bosqich ko'pincha avvaldan etan–etilen va propan–propilen fraksiyalari ajratib olingandan so'ng amalga oshiriladi. Atsetilen va metilatsetilenni selektiv erituvchilar yordamida absorbsiyalab ham ajratib olish mumkin. Selektiv absorbentlar sifatida metanol, atseton, γ -butirolakton, dimetilformamid.

N–metilpirrolidonlar ishlataladi.


Piroliz mahsulotlarini ajratish quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

Piroliz gazini kompressiyasi va undan yuqori uglevodorodlarni ajratish. Ko'p bosqichli kompressorlarda gazni 3,5–4,0 MPa bosimgacha siqib va bosqichlararo piroliz gazlarini separatsiyalab kondensirlanuvchi yuqori uglevodorodlarni va suvni ajratib olinadi.

Piroliz gazini H₂S, CO₂ va oltingugurtli organik birikmalardan tozalash. Piroliz gazlari H₂S dan etanolaminning suvli eritmasida absorbsiyalab, tozalanadi. Bunda ushbu jarayon quyidagi reaksiya bilan ketadi.



Piroliz xom ashyosida oltingugurt miqdori 0,1% (mass.) dan kam bo'lsa, gazlarni H_2S va CO_2 dan tozalash jarayonini ishqorning suvli eritmasi bilan yuvish orqali amalga oshirish mumkin. Bunda COS qisman yo'qotiladi.



Piroliz gazlarini quritish. Ushbu jarayonda dietilenglikol ($\text{HOCH}_2\text{CH}_2\text{OCH}_2\text{CH}_2\text{OH}$) yordamida suv absorbsiyalanadi va so'ngra qoldiq, namlik NaA seolitida quritiladi.

Atsetilen va uni hosilalarini yo'qotish palladiyli yoki nikel-kobalt-xromli katalizator ishtirokida selektiv gidrirlash orqali amalga oshiriladi.

C_2 , C_3 , C_4 uglevodorod fraksiyalarini ajratish va konsentrangan alkenlarni olish. Piroliz gazlarini tor fraksiyalariga ajratish va ulardan konsentrangan alkenlarni ajratib olish rektefikasiya yo'li bilan amalga oshiriladi. Gaz ajratishni taxminiy sharoitlari va kalit juft komponentlarini o'rtacha nisbiy uchuvchanlik koeffitsiyenti α_{o} , 7.16-jadvalda keltirilgan.

Pirolizning tozalangan gazidan vodorod va metanni ajratib olish zamonaviy qurilmalarida quyi bosim ostida, quyi haroratlari rektifikatsiya jarayoni ishlataladi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, metan-etilen kalit qo'shaloq komponenti uchun nisbiy uchuvchanlik koeffitsiyenti etarli yuqoridir. Ularni ajratish uchun metan kolonnasi taxminan 30 tarelkaga ega. Deetanizatsiya etan-etilen fraksiyasini ajratish (kalit komponentlar etan va propilen) nisbatan oson amalga oshiriladi. Bunda kolonna taxminan 40 tarelkaga ega bo'ladi. Etilenni etan-etilen fraksiyasidan ajratib olish murakkab vazifa. Rektifikatsiya jarayoni $110+120$ tarelkaga kolonna flegma soni 4,5-5,5 ga teng bo'lganda yaxshi ketadi. Toza propilen ajratib olish uchun 200 tarelkaga ega flegma soni 10 ga yaqin bo'lgan effektiv kolonnalar talab qilinadi.

Kalit juft komponentlarning o‘rtacha nisbiy uchuvchanlik koeffitsiyentlari


Kalit komponentlar		R, MPa	t^0, C		$\alpha_{o'rt}$
engil	og‘ir		Kondensatorda	Qaytar-gichda	
CN ₄	C ₂ H ₄	3,43	-92,8	-7,8	5,3
C ₂ N ₄	C ₂ H ₆	2,06	-27,8	-5,6	1,48
C ₂ N ₆	C ₃ H ₈	2,06	-5,6	55,6	3,0
C ₃ H ₆	C ₃ H ₈	1,54	37,8	43,3	1,15
C ₃ H ₈	izo-C ₄ H ₁₀	1,37	37,8	82,2	2,06
C ₄ H ₁₀	izo-C ₅ H ₁₂	0,36	37,8	71,1	2,20

Propilenni ajratib olishni boshqa qator usullari ham taklif qilingan. Ekstraktiv rektifikatsiya, silikagel va alyumogellarda adsorbsiya, qutblangan erituvchilardagi mis (I) tuzlari eritmasi bilan xemosorbsiya. Propilenni mikrobiologik tozalash ham mumkin: propan-propilen fraksiyasi va havo mikrobiologik eritma orqali o‘tkaziladi. Bunda propan mikroorganizmlar uchun ozuqa manbai bo‘lib xizmat qiladi. Eritmada biomassa yig‘ilib boradi, propilen esa tozalangan holda chiqadi. Biroq propilenni ushu usul bo‘yicha ajratib olish sanoat miqyosiga chiqsa olmadi. Hozircha eng iqtisodiy jarayon— rektifikatsiya bo‘lib qolmoqda.

C₄—fraksiyasini odatdagagi rektifikatsiya bilan individual uglevodorodlarga ajratish mumkin emas, chunki komponentlarni qaynash haroratlari o‘zaro yaqin va azeotrop aralashmalar hosil bo‘ladi. Butanni degidrirlash mahsulotlaridan butilenlarni ajratib olish uchun ekstraktiv rektifikatsiya qo‘llaniladi va selektiv erituvchilar bo‘lmish atsetonitril, dimetilformamid, dimetilatsetamid, N—metilpirrolidonlar ishlataladi. Hozirda ko‘pchilik xorij qurilmalarda (shu jumladan O‘zbekistonda ham) ushu erituvchilar kichik selektivlikka ega bo‘lgan furfurol va atseton o‘rnida ishlatalayapti.

C₄- fraksiyadan izobutilenni ajratib olish usullari, uni normal butilenlarga nisbatan yuqori reaksiyon qobiliyatiga asoslangan bo'lib, 6C-H bog'larini qo'shbog' bilan o'zaro ta'sirlashuvi orqali tushuntirish mumkin. Izobutilenni 60% li H₂SO₄ dagi absorbasiya tezligi 2-butennikiga nisbatan 150 ÷ 200 barobar yuqori, 1-butennikiga nisbatan esa taxminan 300 barobar ko'p.


Jarayonni 40÷45% li H₂SO₄ qo'llangandagi modifikatsiyasi yuqori selektivlikka ega bo'lib, polimerlarni kamroq hosil bo'lishiga olib keladi. Bunda izobutilen gidratlanib uchlamchibutil spirtiga aylanadi va rektifikasiya orqali ajratib olinib, so'ng boshqa jihozda suvsizlantiriladi.



Sanoatda izobutilenni ajratib olishni boshqa usuli ham qo'l-lanilib, u HCl bilan (metall xloridi ishtirokida) o'zaro ta'siriga asoslangan.




Bunda uchlamchibutilxlorid va uchlamchibutil spirti aralashmasi hosil bo'ladi, ular 85÷120⁰S gacha isitilib, toza izobutilen ajratib olinadi:



Izobutilenni iqtisodiy jihatdan arzon ajratib olish usuli, uning seolitdag'i adsorbsiyasidir. Ushbu usul orqali olingan izobutilen 99,9% tozalikka va konversiya darajasi 99% (hajm.) dan ortiq bo'ladi.


Alkenlarning kimyoviy xossalari

Alkenlar reaksiyaga o'ta reaksiyon birikmalardir. Quyida ularning eng zarur reaksiyalarini ko'rib o'tamiz. Vodorodni biriktirib olish:




O‘ta maydalangan platina yoki palladiy ishtirokida xona haroratida vodorod alkenlarga birikadi. Reaksiya analitik ahamiyatga ega. Ushbu sharoitlarda aren uglevodorodlar gidrirlanmaydilar. Shunday qilib, alkenlarning miqdorini ushbu yo‘l bilan aniqlash mumkin. Masalan, kreking benzinlarida alkenlarni simob (II) asetati va oltingugurt (I) xlorid S_2Cl_2 bilan reaksiyalari ham analitik ahamiyatga ega.

A) Simob asetatining birikishi:



Ushbu usul bo‘yicha alkenlarni boshqa uglevodorodlardan toza holda ajratib olish mumkin.


B) S_2Cl_2 ni biriktirish:




Ushbu reaksiya ham alkenlarni neft mahsulotlaridan miqdoran ajratib olishda xizmat qiladi.

Alkenlarni oksidlash, ozonlash va boshqa reaksiyalari


Ushbu reaksiyalar olefinlardagi qo‘sish bog‘ni o‘rnini hosil bo‘layotgan mahsulotlar tarkibi bo‘yicha aniqlashga yordam beradi.




Bundan tashqari oksidlash reaksiyalari, etilen oksidi, asetaldegid va akrolein olishda amaliy ahamiyatga ega.




Propilen va ammiak aralashmasi oksidlanguanda (oksidlab ammonoliz qilish) akrilonitril hosil bo‘ladi va u sintetik kauchuk va kimyoviy tola olishda zarur monomer hisoblanadi:





Alkenlarni qayta ishlash sanoat jarayonlaridan polimerizatsiya, degidrirlash, xlorlash va gidroxylorlash, hidratatsiya, alkillash, oksointezlarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. S₆–S₁₅ alkenlarni sanoat miq-yosida ishlab chiqarish hamda yuqori oktan sonli benzin komponentlarini olishda quyi molekulyar oligomerlar (dimerlar, trimerlar, tetramerlar) alkenlarni polimerlab olinadi:




Alkenlarni yuqori molekulyar polimerlargacha polimerlash, qimmatbahoh polimer materiallari – polietilen, polipropilen va poliizobutilenlarni olishga imkon beradi:




Butilen va izoamilenlarni degidrirlaganda 1,3-butadien va izoprenlar hosil bo'lib, ular kauchuklar sintezida asosiy monomerlardir.




Etilen va propilenlarni xlorlash va gidroxilash ayrim erituvchi va oraliq mahsulotlarni olishda ahamiyatli reaksiyalar hisoblanadi.



Nordon katalizatorlar ishtirokida alkenlarni gidratasiyasi spirtlarni hosil bo'lishiga olib keladi.



Alkenlarni tarmoqlangan alkanlar bilan alkillaganda yuqori oktanli motor yoqilg'isi hosil bo'ladi.




Monosiklik arenlarni alkenlar bilan alkillaganda alkilbenzollar hosil bo'ladi:




Alkilbenzollar asosiy organik sintez sanoatining qimmatli xom ashyosidir.

Yuqori alkenlarga sulfat kislota biriktirilganda (sulfurlash reaksiyasi), ularning nordon efirlari hosil bo'ladi va ushbu alkilsulfatlar sintetik yuvish vositalarini olishda qo'llaniladi.



Kobalt katalizatori ishtirokida alkenlarni uglerod oksidi va vodorod bilan reaksiyasi (oksosintez) aldegidlar ishlab chiqarishda katta ahamiyatga ega.




Aldegidlarni keyingi bosqichda qaytarilishi natijasida mos ravishda birlamchi spirlarni olish imkoniyatini beradi.


Alkadienlarning kimyoviy xossalari

Bug' fazadagi kreking va piroliz mahsulotlarida 5÷10% (mass.) gacha alkadienlar mavjud. Ushbu kon'yugirlangan (o'zaro ta'sirlashgan) bog'li alkadienlar asosan quyidagilardir:


1,3-Butadien, 1,3-pentadien (piperilen), siklopentadien. O'zaro ta'sirlashgan bog'li birikmalarning eng asosiy xususiyatlari alohida qo'sh bog'li birikmalarga nisbatan ularni faol reaksiyaga kirishuvchanlik xususiyatidir. O'zaro ta'sirlashgan ikki qo'sh bog'li moddalar ayrim hollarda yaxlit bir to'ymagan tizim kabi o'zini tutadi. Masalan, o'zaro ta'sirlashgan bog'li birikmalarga birikish reaksiyalari chekkalardagi 1,4-uglerodlarga ketib, 2,3 holatdagi uglerodlarda esa yangi qo'shbog' vujudga keladi:



Faqat oz miqdordagi butadiengina alkenlarga o'xshab reaksiyaga kirishadi.




Reaksiya ikki bosqichda borib, oraliq mahsulot allil ioni hosil bo‘lishi bilan ketadi.




O‘zaro ta’sirlashgan bog‘li alkadienlar o‘ziga xos reaksiyasi dien sintezidir (Dils–Alder reaksiyasi).

Alkanlarni termik qayta ishlashda arenlarni hosil bo‘lishi, ushbu reaksiya asosidadadir, deb hisoblaydilar:



Neft tarkibidagi alkadienlarni miqdorini aniqlashda dienlarni malein angidridi bilan kondensatsiya reaksiyasi ishlataladi.

O‘zaro ta’sirlashgan bog‘li dien uglevodorodlarning juda zarur xususiyatlaridan biri, ularni polimerizatsiya reaksiyalariga o‘ta oson kirishishidir. Ayrim dienlarni polimerlanishida juda katta zanjirlar hosil bo‘ladi.



Ushbu turdagи reaksiyalar sintetik kauchuk olish asosida yotadi. Eng ko‘p sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan ikki alkadien: 1,3–butadien va uning gomologи 2–metil-1,3–butadienlardir.

VIII BOB. NEFTNING GETEROATOMLI BIRIKMALARI VA MINERAL KOMPONENTLARI

8.1. Neftning geteroatomli birikmalari

Hamma neftlar tarkibida uglevodorodlardan tashqari, ma'lum miqdorda geteroatomli birikmalar mayjud. Bu birikmalar o'z molekulalarida oltingugurt, kislorod, azotlarni saqlashi mumkin. Ko'rsatib o'tilgan elementlarni miqdori neftning yoshiga va kelib chiqishiga bog'liqdir.

Oltingugurt birikmalarining neftdagি miqdori 0,02 dan 7% (mass.) gacha bo'lishi mumkin.

Neft tarkibidagi azot saqlovchi birikmalarning miqdori kam bo'lib, 1,7% (mass.) gacha etishi mumkin. Masalan, O'zbekistonning Uchqizil neftida azotning miqdori 0,82% (mass.) ni tashkil qiladi.

Ayrim neftlarning element tarkibi va boshqa ma'lumotlar 8.1-jadvalda keltirilgan.

8.1-jadval

Ayrim neftlarning element tarkibi

Neft	M	ρ_{4}^{20}	Tarkibi, % (mass.)						Silika-gelli smotlar	Asfaltenlar
			C	H	S	O	N			
Tuymazin	235	0,8560	85,56	12,70	1,44	0,15	0,14	9,60	3,40	
Romash-kin	232	0,8620	85,13	13,00	1,61	0,09	0,17	10,24		4,00
Qo'turtepa	293	0,8580	86,12	13,19	0,27	0,28	0,14	6,40		0,73
Ust-baliq	284	0,8704	86,17	12,37	1,25	0,13	0,08	6,00		2,19
Samotlor	194	0,8426	86,23	12,71	0,63	0,25	0,10	10,00		1,36
Markov	-	0,7205	83,60	16,12	0,04	0,23	0,01	0,70		0
Uchqizil	-	0,9620	-	-	6,32	-	0,82	34,80		3,90
Arlan	-	0,8918	84,42	12,15	3,04	0,06	0,33	16,60		5,80
Muxanov	215	0,8404	85,08	13,31	1,30	0,21	0,09	8,96		3,80

Jirnov	245	0,8876	86,10	13,44	0,23	0,17	0,06	4,70	0,60
Dolin	206	0,8476	84,40	14,50	0,20	0,72	0,18	14,30	0,64
Prorvin	282	0,8703	86,17	12,37	1,25	0,13	0,08	6,00	2,19









8.1.1. Neftning azotli birikmalari

Neft tarkibida azot birikmalari kislorodli va otingugurtli birikmalarga nisbatan kam miqdorda bo'lib, odatda 0,02÷0,56% (mass.) tashkil etadi. Ular boshqa geteroatomli birikmalar kabi fraksiyalarda turli miqdorda taqsimlangan bo'lib, ko'pincha ularning yarmidan ko'pi smola – asfalten qismida mavjud.




Neftning azotli birikmalari o'zlarining kimyoviy xossalariga asosan azotli asoslarga va identifikasiya qilish og'ir bo'lган azot saqlovchi neytral birikmalarga bo'linadi.

Azotli asos birikmalar kislotalar yordamida neft tarkibidan osongina ajratib olinadi.

Quyida eng ko'p o'rganilgan azotli asoslar haqida ma'lumot keltirilgan.




Ko'rsatilgan azotli birikmalarning alkilli hosilalari (asosan, metil- va etilli hosilalar) va ularning alisiklik va aromatikli (neytral) gomologlari bo'lishi mumkin:



Ayrim neftlarda, hatto rangsiz fraksiyalarda ham molekulasida azot va oltingugurt atomi bo'lgan tioxinolinlar yoki azot va kislorod atomi bo'lgan gidroksipiridin, gidroksixinolin birikmalari ham uchraydi.

Neftning neytral azotli organik birikmalari

Azot saqlovchi neytral birikmalar asosan pirrol, indol va karbazol hosilalari hamda kislota amidlaridan iborat. Pirrolning alifatik qator hosilalari neftdan ajratib olinmagan, biroq, ularning mavjudligi haqida fikr – mulohazalar ham yo'q emas. Pirrolning aromatik hosilalari bo'l mish indol, karbazol va ularning gomologlari topilib, ular neftdan ajratib olingan. Masalan, AQSh neftlarida quyidagi birikmalar va ularning hosilalari borligi aniqlangan:



Indol (benzpirrol)

Karbazol

Benzokarbazol

Karbazol, benzokarbazol hosilalarini miqdori yuqori qaynaydigan fraksiyalarda ($450\div 540^{\circ}\text{S}$) ortib borib, azotli birikmalarning asosiy qismini tashkil qiladi. Undan tashqari, og'ir neft qoldiqlarida porfirinlar (metin ko'prigi orqali bog'langan 4-metilpirrol halqasi) va kislota amidlari mavjuddir. Benzin fraksiyalarda azot amalda aniqlanmagan. Azotli birikmalarning azotli asoslarini ko'pchilik qismi dizel va keng gazoil fraksiyalarda yig'ilgan. Azotli birikmalarning asosiy massasi 500°S gacha haydaluvchi fraksiyadan so'ng qolgan qoldiqda kuzatilib, asosan karbazol va pirrol hosilalaridan, ya'ni, neytral azotli birikmalardan iborat bo'ladi. Azotli asoslarga esa qoldiqdagi azotning $1/3$ qismi to'g'ri keladi.

8.1.2. Neftning oltingugurtli birikmalari

Hozirda neft zaxiralarining dunyo bo'yicha ko'pchilik qismini, oltingugurtli yoki yuqori oltingugurtli neftlar hisoblanadi. Ushbu neftlarni qayta ishlash va neft mahsulotlarini yoqilg'i sifatida

ishlatish qo'shimcha xarajatlar bilan bog'liq. Benzin tarkibidagi oltingugurt miqdorining 0,033% dan 0,15% (mass.) ga ko'tarilishi motorlarning quvvatini 10,5% ga pasaytiradi, yoqilg'i sarfini 12% ga, dvigatellarning kapital ta'mirlanishini 2 martaga, o'rtacha ta'mirlash muddatini esa 2,1 martaga oshiradi. Ushbu holatlarda ta'mirlash davridagi to'xtashlarni kompensatsiyalash uchun mavjud mashinalar parkini 1,7 martaga oshirish lozim. Xuddi shunday zarar oltingugurtli dizel yoqilg'ilarini ishlatilganda ham kuzatiladi. Ekspluatasiya zararidan tashqari, oltingugurtli yoqilg'ilarni ishlatish atmosfera - muhitga katta zarar etkazadi; dvigatellarda ularning yonishi oqibatida oltingugurt oksidlari hosil bo'lib, o'simliklarga va odam organizmiga o'ta ziyon keltiradi. Shu bois 50-yillardan boshlab bizda va chet elda juda yuqori sur'at bilan neft mahsulotlarini oltingugurtli birikmalardan tozalash jarayonlari rivojlana boshladi.

Volga-Ural, G'arbiy Sibir, Janubiy O'zbekiston va Qozog'istonning ayrim neftlari tarkibida 1-2% (mass.) oltingugurt mavjud. Yuqorida keltirilganlarga binoan neftning oltingugurtli birikmalari tarkibini chuqur o'rganish, ularni yo'qotish usullarini va ishlatilishini takomillashtirish talab qilinadi. Xuddi kislorodli birikmalar kabi neftning oltingugurtli birikmalari ham fraksiyalarda har xil tarqalgan. Fraksiyalarning qaynash haroratini oshishi bilan oltingugurtli birikmalarni ham miqdori ko'payadi. Oltingugurtli birikmalarning 70÷90% i og'ir neft qoldiqlarida mujassamlangan bo'lib, ayniqsa, asfaltenli -smolali qismida ko'proq kuzatiladi.

Neftning oltingugurtli birikmalari kimyoviy tarkibi bo'yicha o'ta turli-tumandir. Neftlarda erigan holda ham, kolloid holatda ham elementar oltingugurt uchratilishi mumkin. Shu bilan birgalikda erigan vodorod sulfid, merkaptanlar (tiospirtlar), polisulfidlar, siklik sulfidlar (tiofan turidagi) va tiofen hosilalari kuzatiladi (8.3-jadvalga qarang). Bundan tashqari aralash oltingugurt-kislorod saqlovchi birikmalar- sulfonlar, sulfoksidlar va sulfon kislotalar mavjuddir. Neftni smolali- asfaltenli qismi tarkibida bir vaqtida oltingugurt, azot va kislorod atomlari bo'lgan murakkab birikmalar ham kuzatiladi. Hozirda neftda 250 dan ortiq oltingugurt saqlovchi birikmalar topilgan. Ularning ko'philigi engil va o'rta distillat fraksiyalaridan ajratib olingan. Neftni oltingugurtli birikmalarining asosiy qismi,

yuqori molekulyar massa va yuqori qaynash haroratiga ega bo'lib, ularning ko'pchiligi (70÷90%) mazut va gudron tarkibida kuzatiladi.

8.2-jadval Ayrim neftlardagi oltingugurt miqdori

Kon	Oltingugurt miqdori, %(mass.)	Kon	Oltingugurt miqdori, %(mass.)
1	2	3	4
Suraxan	0,02-0,08	Romashkin	1,62
Dossor	0,11-0,15	Tyumen (Sibir)	1,5-2,0
Grozniy	0,20-0,25	Bavlin (Tataristen)	1,22-2,45
Maykop	0,18-0,28	Ishimboy	2,5-2,95
Krasnokamsk	0,58-0,96	Stavropol	2,58
Markov (Sibir)	0,46	Arlan	2,79
Saxalin	0,33-1,28	Buguruslan	2,92
Uxta	1,12-1,24	Xau-Dog' (O'zbekiston)	3,22
Tuymazin	1,47	Uch-qizil (O'zbekiston)	1,82-6,32

8.3-jadval Neftning identifikatsiyalangan individual oltingugurtli birikmalarini

Uglevodorod sinfi, gomologik qatori	Uglerod atomlari soni	Identifikatsiyalangan birikmalar soni
Merkaptanlar		
Alifatik $\text{SHC}_n\text{H}_{2n+1}$	$\text{C}_1 - \text{C}_8$	39
Siklik $\text{SHC}_n\text{H}_{2n-1}$	C_6	8
Sulfidlar		
Alifatik $\text{C}_n\text{H}_{2n+2}\text{S}$	$\text{C}_2 - \text{C}_8$	46
Siklik $\text{C}_n\text{H}_{2n}\text{S}$	$\text{C}_4 - \text{C}_{14}$	48

Siklik $C_nH_{2n-2}S$	$C_7 - C_{11}$	21
Tioadamantan $C_nH_{2n-4}S$	C_9	1
Aromatik $C_nH_{2n-6}S$	C_{10}	5
Tioindanlar $C_nH_{2n-8}S$	$C_8 - C_{12}$	21
Disulfidlar va tionilsulfidlar		
Alifatik $C_nH_{2n-2}S$	$C_2 - C_4$	3
$C_nH_{2n-4}S_2$	C_8	1
Tiofenlar		
$C_nH_{2n-4}S$	$C_4 - C_9$	19
Sikloalkantiofenlar	$C_7 - C_8$	3
$C_nH_{2n-2}S$		
Benzo-, dibenzo-, nafto-benzonaftotiofenlar:		
$C_nH_{2n-16}S$	$C_8 - C_{11}$	16
$C_nH_{2n-16}S$	$C_{12} - C_{16}$	10
$C_nH_{2n-22}S$	$C_{12} - C_{13}$	2
Turli siklik strukturalar		
Tionotiofenlar $C_nH_{2n-8}S_2$	C_7	2
Benzoditiofenlar	$C_8 - C_9$	2
$C_nH_{2n-14}S_2$		
Asenaftenotiofenlar	C_{14}	2
$C_nH_{2n-18}S$		

8.4-jadval

Yuqori oltingugurtli neftlarda oltingugurtli birikmalarining taqsimlanishi

Region	Oltingugurt miqdori, % (mass.)	Oltingugurning umumiy miqdoriga nisbatan taqsimlanishi, ulushi		
		Mer-kaptanlar	Sulfid-lar	Tiofen gomologlari va yuqori molekulyar tuzilishlari
1	2	3	4	5
Boshqirdiston	1,9-4,0	0,10	6-40	50-94
Tatariston	0,9-4,0	0-2,6	11-36	61-89

Samara vil.	2,0-3,7	0,09-7,3	7,4-24	69-92
Orenburg vil.	2,6-3,2	0,72-2,7	7,3-20	77-92
Perm vil.	1,0-3,1	0-7,2	7,6-29	63-93
Sibir	0,9-3,0	0-74	0-28	26-92

8.5-jadval

Neftlarning 200÷250°S fraksiyasidagi oltingugurt miqdori

Kon	Oltingugurt miqdori, % (mass.)		
	Umumiy (C _{um})	Elementar (C _{el})	Disulfid (C _{dis})
Sovet (Tomsk vil.)	0,22	0,0001	0,0034
Medvedev (Tomsk vil.)	0,16	0	0,0022
Pravdin (Tyumen vil.)	0,02	0,0001	0,004
Ust-balik (Tyumen vil.)	0,12	0,0013	-
Markov (Irkutsk vil.)	0,75	0,0017	-

8.6-jadval

Po'lat korroziyasining intensivligi (Gidrotozalangan yoqilg'i + 0,01% merkaptanli oltingugurt, namlik)

Qo'shimchasiz	1,6 g/m ²
Desilmerkaptanli	2,5 g/m ²
Siklogeksilsilmerkaptanli	13,1 g/m ²
Benzilmerkaptanli	11,1 g/m ²
n - Tiokrezolli	10,4 g/m ²
α - Tionaftolli	17,0 g/m ²

Benzin fraksiyasidagi merkaptanlar


Etilmerkaptan	C ₂ H ₅ CH
Ikkilamchipropil-merkaptan	CH ₃ CH(CH)CH ₃
Ikkilamchi- butilmekaptan	CH ₃ SH(SH)C ₂ H ₅
Uchlamchibutilmekaptan	(CH ₃) ₃ CSH
α -Metilpropilmerkaptan	CH ₃ – CH ₂ – CH(CH ₃)SH
Butilmekaptan	C ₄ H ₉ SH
α, β -Dimetil- propilmerkaptan	CH ₃ CH(CH ₃)CH(CH ₃)SH
α -Metilbutilmekaptan	CH ₃ (CH ₂) ₂ CH(CH ₃)SH
Amilmerkaptan	C ₅ H ₁₁ SH

Benzin fraksiyasidagi sulfidlar

Sulfidlarning nomi	Qaynash harorati, °S
1	2
Dimetilsulfid	37,3
Metiletilsulfid	66,6
Metilizopropilsulfid	84,8
Dietilsulfid	92,06
Metilpropilsulfid	95,5
Etilizopropilsulfid	107,4
Etilpropilsulfid	118,5
Diizopropilsulfid	120,0
Propilizopropilsulfid	132,0
Etilikkilamchibutilsulfid	135,65
Dipropilsulfid	142,8
Propilizobutilsulfid	-
Butilpropilsulfid	-

Dimetilsulfid – CH₃SCH₃; Metiletilsulfid – CH₃SC₂H₅ va hokazo.

Kerosin va moy fraksiyalaridagi yuqori molekulyar oltingugurtli birikmalar:



6,7 – kondensirlanmagan sistemalar va unga o'xshashlar.

Neft haydalganda hosil bo'ladigan kerosin va moy fraksiyalari tarkibida yuqori molekulyar oltingugurtli birikmalar bo'ladi. Ular asosan polisiklik tuzilishga egadir.

Neftdan individual yuqori molekulyar oltingugurtli birikmalarni ajratib olish o'ta qiyin vazifadir.


Eng ehtimoli ko'p yuqori molekulyar oltingugurtli birikmalar turlari quyidagilardan iborat bo'lib, ularning asosiylari: benztiofen (1), benztiofan (2), tionafen (3), dibenztiofen (4), naftotiofen (5), kondensirlanmagan tizimlar va shunga o'xshashlar (6, 7). Neft tarkibida tiofan va

siklik sulfidlar (polimetilensulfidlar) topilgan bo'lib, to'yingan 5 yoki 6 a'zoli oltingugurt atomli geterosikkllardir. Shu bilan birgalikda tiofen va uning gomologlari neftni yuqori haroratlarda qayta ishlash mahsulotlarida topilgan.


Merkaptanlar

Merkaptanlar yoki tiospirtlar, yangi nomenklatura bo'yicha esa tiollar, R-SH tuzilishga ega. Metilmerkaptan (yoki metantiol) – CH₃SH 5,9°S qaynash haroratiga ega bo'lган gaz. Etilmerkaptan va yuqoriroq molekulyar gomologlari suvda erimaydigan suyuqlik. C₂–C₆ – merkaptanlarning qaynash harorati 35÷140°S chegarasida. Merkaptanlar o'ta badbo'y hidga ega. Quyi merkaptanlarda ushbu hid o'ta intensiv bo'lib, etilmerkaptan uchun ushbu ko'rsatkich 0,6·10⁻⁴–2·10⁻⁶% konsentratsiyalardayoq o'zini namoyon etadi. Merkaptanlarning ushbu xossasi shaharlarni gaz bilan ta'minlash amaliyotida gaz tizimidagi nosozliklardan ogohlantirish uchun, ular maishiy gazga odorant (xid beruvchi) sifatida qo'shiladi. Neft tarkibida merkaptanlar miqdori ko'p emas.

Merkaptanlar 300°C gacha qizdirilganda H_2S ga parchalanib, disulfid hosil bo'ladi. Yuqori haroratda esa u H_2S ga va mos holdagi to'yinmagan uglevodorodga parchalanadi.



Yumshoq sharoitlarda (kuchsiz oksidlovchilar va havo yordamida) oksidlansa, merkaptanlar disulfidlarni hosil qiladi:



Tabiiy oksidlovchi sifatida havo kislorodi, laboratoriya sharoitida esa – yod xizmat qiladi:




Oksidlanish darajasi faqatgina molekuladagi uglevodorod tuzilishigagina emas, balki C-H va S-H bog'larini mustahkamligiga ham bog'liqdir.

Neft mahsulotlari muhitida merkaptanlar bilan gidroperoksidlar va erigan holdagi kislorod quyidagi sxemaga oid reaksiyalarga uchraydi:




Merkaptanlar oson oksidlanishlari evaziga gidroperoksidlarni parchalaydilar va uglevodorodlarni oksidlanishini tormozlaydi.

Kuchli kislota (HNO_3) esa merkaptanlarni sulfokislotalargacha oksidlaydi:



Og'ir sharoitlarda, yuqori haroratlarda katalitik faol metallar ishtirokida kuchli oksidlovchilar (KMnO_4 , H_2O_2) ta'sirida tiollar sulkofislotalargacha, hattoki sulfat kislotagacha oksidlanishi mumkin.

Kimyoviy xossalari bo'yicha merkaptanlar spirlarni eslatadi. Ishqorlar va og'ir metall oksidlari bilan merkaptidlarni hosil qiladi. Merkaptanlarning og'irligi qanchalik yuqori bo'lsa, ularni merkaptidlari suv bilan shunchalik oson gidrolizlanadi va ishqor yordamida tozalashni qiyinlashtiradi.



Reaksiyaga kirishish xususiyati va metallarga korroziyaviy ta'siri merkaptanlardagi radikallarning tuzilishiga juda bog'liqdir.

Merkaptanlar o'ta reaksiyon xususiyatga ega birikmalar bo'lib, ularning ushbu xossalardan neft va neft mahsulotlarining kimyosi, texnologiyasi va ximmotologiyasida foydalanish mumkin.

Tovar neft mahsulotlarda merkaptanli oltingugurtning miqdori chegaralab qo'yilgan. Masalan: reaktiv yoqilg'ilarda 0,001–0,005%; dizel yoqilg'isida 0,01% gacha oltingugurt bo'lishi ruxsat etilgan. Yildan-yilga talablar yanada keskinlashib bormoqda.

Merkaptanlar tovar mahsulotlarda zararli qo'shimcha bo'lib, korroziyani vujudga keltiradi (ayniqsa, rangli metallarni); kreking benzinlarda smola hosil bo'lishiga olib keladi va neft mahsulotlariga esa qo'llansa hid beradi.

Merkaptanni ishqor va metall tuzlari (natriy sulfid) bilan o'zaro ta'sirlashuvi natijasida ularni engil va o'rta neft fraksiyalaridan ajratib olishda qo'llaniladi. Benzinlar demerkaptanizasiya qilinganda, ularga ishqor eritmasi bilan spirt va natriy sulfid qo'shiladi (Sol-yutayzer, Bender jarayonlari). Mis (I) xlорид va kobaltning ftalosianinli sulfo-hosilalari oksidlash katalizatorlari sifatida ishlatiladi.

* Elementar oltingugurt, vodorod sulfid

Ushbu birikmalar neft va neft mahsulotlari tarkibida kichik konseentratsiyalarda mavjud. Odatda elementar oltingugurt va

vodorod sulfid neft tarkibida bo'lmaydi. Ular asosan oltingugurtli organik birikmalarni parchalanishi, ikkilamchi mahsulotlari sifatida hosil bo'ladi (haydash jarayoniga termik ta'sir, destruktiv qayta ishlash, neft fraksiyalarini qayta tozalash). Merkaptanlarni oksidlash jarayonida esa disulfidlar hosil bo'ladi. Neft $180\text{--}260^{\circ}\text{S}$ da qizdirilganda vodorod sulfid hosil bo'lib, ajralib chiqadi. Bunda mavjud elementar oltingugurt miqdoriga qarab quyidagi reaksiyalar sababli hosil bo'ladigan H_2S miqdori ortib boradi:



Ushbu reaksiyalardan ko'rinib turibdiki, yuqori haroratlarda neft fraksiyalarida elementar oltingugurt, merkaptan va vodorod sulfidlar orasida bir – biriga aylanish reaksiyaları mavjud ekan. $265\text{--}310^{\circ}\text{S}$ ga uglevodorod fraksiyasi qizdirilganda (elementar oltingugurt ishtirokida) mahsulot tarkibi jarayon haroratiga bevosita bog'liq bo'lib qoladi. Ushbu jarayon konsentrangan sulfat kislota (ilgari oltingugurtdan tozalangan) ishtirokida uch soat davomida azot muhitida olib borilgan.

8.9-jadval

265 \div 310°S fraksiya tarkibidagi oltingugurt, merkaptan va vodorod sulfidlarning haroratga bog'liq holda o'zgarishi

Ko'rsatkichlar	Qizdirishsiz	Harorat, °S				
		30°	60°	100°	200°	250°
Oltingugurt miqdori, % da: elementar merkaptanli	0,44 0	0,44 0	0,44 0	0,44 0	0,36 0,007	0,005 0,024
H_2S ajralib chiqishi, % da	0	0	0	0	0,012	0,274

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 200°S harorat atrofida yuqorida keltirilgan reaksiyalar boshlanar ekan. Hosil bo'layotgan


merkaptanlar, elementar oltingugurt, vodorod sulfid neft mahsulotlarini ishlab chiqarishda va qo'llashda ishlatiladigan rangli metallardan tayyorlangan jihozlarning detallarini korroziyaga uchratadi.

Neft va neft mahsulotlari tarkibidagi elementar oltingugurt, vodorod sulfid va disulfidlar, kichik konsentratsiyalari tufayli, kimyoviy xom ashyo manbasi sifatida amaliy ahamiyatga ega emas.

Sulfidlar

Hozirgi vaqtida neft sulfidlari katta ahamiyatga ega. Ular distillatlardan ajratib olinib, maqsadli mahsulotlar, sulfoksidlar olishda oraliq mahsulot va analitik reagentlar sifatida ishlatiladi.

Neft va neft mahsulotlari tarkibida quyidagi asosiy turdag'i sulfidlar mavjud: alifatik (alkanli) tioalkanlar, tioalkenlar, tioalkinlar (I); arenli-diarilsulfidlar (II); sikloalkanli-tiosikloalkanlar (III); aralash tuzilishli-alkilarilsulfidlar, ariltioalkanlar (IV).



bu erda R, R'- to'yingan va to'yinmagan alifatik uglevodorod radikallari;

Ar - benzol halqasi.

I tur sulfidlarga - R va R' lari normal va tarmoqlangan alkil hosilalarini. II-siga difenilsulfidni, III-siga tiofan (tetragidrotiofen, tiosiklopentan), tiosiklogeksan, tiosiklogeptan va ularning gomologlarini, IV- siga turli xildagi radikalli hosilalarini keltirish mumkin.

Sulfidlar amalda hamma neftlar, hattoki kam oltingugurtli neft tarkibida ham mavjuddir.

Eng yuqori sulfidli neftni o'rta distillatlarda sulfidlarni miqdori yuqori bo'lib, 1 mln. tonna neftga hisob qilinganda 80÷100 ming tonna va undan ham ko'p.

Yuqori oltingugurtli O'rtal Osiyo neftlari fraksiyalarida juda ko'p miqdorda sulfidlar kuzatiladi.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, neftni o'rtal distillatlarida asosan alkiltiosikloalkanlar, alkiltobisikloalkanlar, alkiliouchsikloalkanlar mavjud bo'lib, oz miqdorda tioalkanlar va alkilsikloalkilsulfidlar kuzatiladi.

Sulfidlar, tuzilishi bo'yicha oddiy efirlarni analoglaridir.


Sulfidlarni xarakterli kimyoviy o'zgarishlari geteroatomlarni elektron tuzilishi bilan belgilanadi. Oltita valent elektronlardan 3p lari juftlashmagan bo'lib, qo'zg'atilgan holatda ular 3d-orbitalni egallaydi, gibridlangan [3p3d]– funksiyalar bilan ifodalanadi va π -elektronlar xususiyatlarini namoyon etadi.

Ayrim neft sulfidlari haqida quyida to'laroq ma'lumot keltiramiz.


Alifatik sulfidlar

Alifatik sulfidlar yoki tioefirlar, ya'ni, nomenklatura bo'yicha tioalkanlar R–S–R' tuzilishiga ega bo'lib, noxush (qo'llansa) hidga ega suyuq birikmalardir. C₂–C₇ sulfidlar yuqori bo'limgan qaynash haroratiga ega bo'lib, neftni haydaganda benzin distillatlari tarkibiga o'tadi. Alifatik sulfidlar (hammasi bo'lib 24 tasi aniqlangan) odatda benzin, kerosin, dizel yoqilg'isi tarkibida bo'lib, jami oltingugurt birikmalarining 50–80% gacha miqdorini tashkil qiladi. Sulfidlar kimyoviy xossalari bo'yicha neytral moddalar bo'lib, ishqorlar bilan reaksiyaga kirishmaydi. Sulfidlar sulfat kislotada yaxshi eriydi. Ularning xarakterli xususiyatlaridan biri, ko'pchilik birikmalar bilan turg'un kompleks birikmalar hosil qilishidir. Ushbu moddalarga HF, NVr, BF₃, HgCL, AlBr₃, SnCl₄, TiCl₄, RSO₂ va boshqalar misol bo'ladi.

Kuchli oksidlovchi ta'sirida sulfidlar sulfoksid orqali sulfon-largacha oksidlanadilar.





400°С va undan yuqorida sulfidlar parchalanib, H₂S va to'yinmagan uglevodorodlar hosil qiladi.



Ayrim neftlarda ko‘p bo‘lмаган мінде дисульфидтер R-S-S-R мавжуд болады, алар киздирілганданда S, H₂S және меркаптантер қосылып тұрады.

Tiofanlar


Tiofanлар ыкек сиклик сульфидтер (полиметилен сульфидтер) нефттегі таркытта топылған болады, тоғынан 5-6 атомдық олтингүргөткіш атомы мен қосылып тұрады.




Tiofan 121°S да қайнарады жаңа (коғалыса) қидыртулық.

Pentametilensульфид 141,8°S да қайнарады. Сиклик сульфидтер металдар мен реакцияға киришмейді, оның қалыптасынан шартанан артқылы тарбиялауда қолданылады. Түрлі нефтлардан 20 га яқын моносиклик сульфидтер ажыратылып өткізіледі.

Tiofan, қалғаны C-S болғанда барынча парчаланып орталық оксиген менеңде:




Tiofenлар




1883-жылда төшкөнмир смоласында тиофен топылған. Тиофен және оның қосылылары нефттегі ынтымаларда (керосин, дизель ынтымалысы, мазуттарда) 50-80% гана мінде мавжуд. Кейиншілік алар нефттегі ынтымаларда жаңа ынтымаларда да мавжуд болып тұрады.

Tiofenlarni termik barqarorligi bilan otingugurtli neftlarni pirolizi mahsulotlarida mavjudligi ko'rsatilgan. Tiofen va uning gomologlari aromatik birikmalarga o'xshash hidli suyuqliklardir. Ular o'z fizik-kimyoviy hossalari bo'yicha benzol uglevodorodlariga yaqindir. Tiofen sulfat kislotada yaxshi eriydi va ushbu xossasidan foydalanib toshko'mir benzolini tiofendan tozalashda foydalaniladi.


Neft fraksiyalarini konsentrangan sulfat kislotasi bilan ishlov berilganda, benzol halqasi kabi tiofen halqasi ham sulfolanadi. Simob (II) xlorid ($HgCl_2$) bilan ishlov berilganda esa tiofenni simobli birikmasi hosil bo'ladi.




Tiofen halqasi saqlovchi birikmalar konsentrangan nitrat kislotasi bilan o'zaro ta'sirlanganda tiofen halqasi nitrolanmay oksidlanib, H_2O , CO_2 va H_2SO_4 hosil qiladi.



Kerosin fraksiyasi gidrotozalanganda sulfidlarni uglevodorodлага to'la gidrogenolizi kuzatiladi va tiofen birikmasining qisman quyidagi reaksiyalari ham ketadi.




Tiofenlar oksidlovchilar ta'siriga barqarordir. Alkiltiofenlarni kimyoviy xom ashyo sifatida ishlatilganda, ular katalitik dealkilanishi, izomerlanishi va degidrirlanishi quyidagi chizma bo'yicha ketishi mumkin:



Alifatik sulfidlardan farqli o'laroq, termokatalitik jarayonlarda monosiklik sulfidlardan faqat vodorod sulfid hosil bo'ladi, merkaptanlar esa amalda kuzatilmaydi.

Katalitik kreking sharoitlarida diaril sulfidlari, aren va mos holdagi tiollarga aylanadilar:



Kuchli oksidlovchilar (nitrat kislota, KMnO₄, konsentrangan vodorod peroksid) sulfidlarni avval sulfoksidlargacha, so'ng sulfonlargacha oksidlaydi.

Disulfidlari

Neft tarkibida oz miqdorda disulfidlari uchraydilar. Ularni reaksiyon xususiyati sulfidlarga nisbatan yuqori bo'lib, kimyoviy hossalari bo'yicha ularga o'xshashdir. Ular qizdirilganda oson parchalanib, merkaptanlar, vodorod sulfid va uglevodorodlar hosil qiladi.


Neftdagi sulfidlarning termokimyoviy o'zgarishlari

Zamonaviy yoqilg'ilarni aksariyat qismi oltingugurtli xom ashyodan olinadi. Neft sulfidlari kimyoviy o'zgarishlarga uchraydi. Buni hamma neft va neft mahsulotlarini qayta ishlash kimyoviy texnologiyasida va ximmotologiyasida hisobga olish lozimdir.

Oltингуртли органик бирімдер ықилғасынан тубида олардың фильтрлерінен және агрегаттарынан күзеттіледі.


Бир-йыл давомында салынғанда ықилғасынан агрегаттар (исиqliк алмашырынчылар, фильтрлер, насостар) олтингуртли органик бирімдердегі 240 тоннасы мен олардың контакттағы бөлшектерінен 2-3 мартта, азоттың бирімдерінен esa тағынан 10 мартта камдиді.

Нефт сульфидтеріндең күйінде олар термик шарттарда барынан бирімдердің болынушылары. Улардың оның ортасында еркін RS^{\bullet} радикалдарынан хосилдейді. Ошбу радикалдар углеводороддан протонни олбасып, меркаптан, алкендер және соңғы водород сульфидтеріндең элементарлық олтингуртуның күйіндең шарттарда хосилдейді:



Декаліндегі диоктилсульфидтің атмосферада 190°C да меркаптаны хосилдейді, соңғы хосилдейдің олардың водород сульфидтеріндең элементарлық олтингуртуынан күзатылады. $\text{C}-\text{S}$ бөлшектесіндең узиліш энергиясы 238 kJ/mol ни түзілді. Инертті мұнда Арлан және Тұымазин нефтлеріндең $100\div120^{\circ}\text{C}$ да меркаптандар, 220°C да esa водород сульфидтеріндең элементарлық олтингуртуынан күзатылады.

Кислородтың іштірілгендең 150°C да $0,5\div10$ сағат давомында аліфатик сульфидтер оксидталады, шуның оксидталыш мәндеріндең хосилдейді. Жарынан күйіндең босқынчылықтың олардың элементарлық олтингуртуынан күзатылады:



Butil-, ikkilamchi-, oktilsulfidni oksidlanish mahsulotlari ichida sulfoksidlar, sulfonlar, sulfokislotalar, to'yinmagan birikmalar, aldegidlar va ketonlar hosil bo'ladi.

8.1.3. Neftning kislород saqlovchi birikmalari

Kislород saqlovchi birikmalar neft tarkibida juda kam 1,0% (mass.) atrofida bo'lishi mumkin. Neftni kislородli komponentlari: kislotalar, fenollar, ketonlar va efirlar bo'lib, kam hollarda laktionlar, angidridlar, furan birikmalari bo'lishi mumkin. Ushbu moddalar kislородli birikmalarning turli sinflariga mansub bo'lib, ularning tuzilishi neftni ushbu fraksiyasidagi uglevodorod tuzilishiga mansub bo'ladi. Kislород saqlovchi birikmalarning asosiy qismi yuqori qaynovchi fraksiyalarda bo'lib, kerosin fraksiyasidan boshlanadi. Dobryanskiy ma'lumotlariga ko'ra, kislород miqdorining 90–95% i smolalar va asfaltenlarga to'g'ri keladi.

Bestujevni umumlashtirilgan ma'lumotlariga asosan, neftni kislород saqlovchi birikmalarida normal tuzilishga ega bo'lgan C₁–S₂₄ kislotalar, izo tuzilishga ega bo'lgan C₄–C₇ alifatik kislotalar (1-metil-, 3-metil hosilali va 1-etil hosilali), C₁₁–C₁₅ izoprenoid kislotalar, siklopentankarbon kislotalar va ularni mono-, di- va trimetil hosilali gomologlari, siklogeksankarbon kislota va uni mono- va trimetil hosilali gomologlari hamda turli siklopentilsirka kislotalar va siklopentilpropion kislotalar, C₈– ikki asosli alifatik va aromatik kislotalar, C₃–C₆ alifatik va C₁₃ – C₁₅ siklik ketonlar, hamma (uch) krezzollardan iborat, turli ksilenollar va β-naftol hamda boshqa murakkab tuzilishli birikmalardan iborat fenollar mavjuddir.

Neft kislotalari

Ushbu termin oxirgi vaqtida ko'p qo'llanilib, neft va uning fraksiyalariga kiruvchi hamma kislotalar tushuniladi.

Buni naften kislotalardan farqlash lozim. Siklopentan- va siklogeksankarbon kislotalari oxirgi terminga oiddir. Neftning o'rta va yuqori fraksiyalarida uchraydigan kislotalar, asosan, naften kislotalardan iboratdir.

Fenollar

Fenollar, kislorod saqllovchi birikmalar ichida neftdagি miqdori bo'yicha kislotalardan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Neft tarkibida fenolning miqdori ko'p emas. Og'ir mahsulotlar ichidan fraksiya holida polistiklik fenollar ajratib olingan.

Efirlar

Efirlarning asosiy massasi 370°S dan yuqorida qaynovchi fraksiyada mavjud bo'lib, og'ir qoldiqlarning 1.3% miqdorini tashkil qiladi. Efirlar to'yingan xarakterga ega.

Ketonlar, laktonlar, furan birikmalar neft tarkibida juda oz bo'ladi.

8.1.4. Neftning smolali – asfaltenli birikmaları

Neftning eng yuqori molekulyar geteroorganik birikmalari tarkibiga bir vaqtda kirgan uglerod, vodorod, kislorod, oltingugurt, ko'pincha azot va metallar. Smolasimon – asfaltenli birikmalar deyladi.

Ularning uchuvchanligi yuqori emas. Shu bois neft haydalganda, ular asosan qoldiq neft mahsulotlarida yig'ilib qoladi. Benzin distillati tarkibida bo'lmaydi. Fraksiyani qaynash chegarasi yuqori bo'lgani sari, ular bilan shuncha ko'p smolalar haydaladi. Biroq ularning ulushi neftni umumiy miqdoriga nisbatan 15% dan oshmaydi. Smolasimon moddalar termik va kimyoviy beqaror bo'lib, ular nisbatan oson oksidlanadi, kondensirlanadi, qizdirilganda esa parchalanadi. Olimlarning fikricha smolalar neftning oltingugurtli va azotli birikmali parchalanganda hosil bo'ladi bo'lakchalardir. Ularni individual komponentlarga ajratish hozircha butunlay bajarib bo'lmaydigan vazifadir. Kimyoviy xususiyatlari bo'yicha smolalar massasidan faqat bir oz asfaltogen kislotalar deb nomlanuvchi normal xususiyatga ega bo'lgan moddalarini ajratib olish mumkin. Tabiiy asfaltlarda ularning miqdori 6-7% ga etadi. Tashqi ko'rinishi bo'yicha ushbu smolalar qovushqoq va qoramitir rangga ega. Ular spirt, benzol va xloroformda eriydi. Asfaltogen kislotalar juda kam

o'rganilgan. Ular ishqor bilan reaksiyaga kirishadi. Biroq ko'pchilik xossalari bo'yicha naften kislotalardan farqlanadilar. Ularning zichligi birdan yuqori. Karboksil guruhi bilan bir qatorda ularning molekulasida gidroksil guruhlari ham borligi ehtimoldan holi emas, ularni 120°S gacha qizdirilganda, ular angidridga o'tib, so'ngra esa ishqorlar bilan reaksiyaga kirisha olmaydigan smolasimon moddalarga aylanadi.

Neytral (moddalar) smolalar

Neytral smolasimon moddalar klassifikatsiyasi asosiga, ularning turli erituvchilarga nisbatan munosabati olingan. Bunday xususiyat bo'yicha ushbu moddalar quyidagi guruhlarga ajratilgan:

1-guruh: Neytral smolalar—engil benzin (petroleyn efiri), pentan, geksanda eriydi.

2-guruh: Asfaltenlar—petroleyn efirida erimaydi, biroq, qaynoq benzolda eriydi.

3-guruh: Karbenlar – faqat piridin va CS_2 da qisman eriydi.

4-guruh: Karboidlar – amalda hech narsada erimaydigan moddalar.

Hamma geteroorganik yuqori molekulyar moddalarning asosiy qismi neytral smolalarga mansubdir. Neytral smolalarga nisbatan asfaltenlar neftda kam. Karbenlar va karboidlar ham neftda deyarli yo'q. Ular neft fraksiyalarini termokatalitik qayta ishlashda hosil bo'ladigan qoldiq mahsulotlarni xarakterlaydi.

Turli neftlardagi smolasimon—asfaltenli moddalar umumiy miqdori keng oraliqda, 1-2% dan $40\div45\%$ gacha o'zgarib turadi. Dunyo bo'yicha neftni qazib chiqarishda yuqori smolasimon neftlarning ulushi keskin oshdi.

8.10-jadval

Smola va asfaltenlarni ayrim neftlardagi miqdori, %(mass.)

Neft konlari	Asfaltenlar	Neytral smolalar	Hajmi
1	2	3	4
Benoy (Grozniy)	0	2,0	2,0
Suraxan (Boku)	0	4,0	4,0
Tuymazin (Boshqirdiston)	2,8	16,8	19,6

Nebitdog' (Turkmaniston)	1,3	17,7	19,0
Uchqizil (O'zbekiston)	3,9	34,8	38,7
Xaudog' (O'zbekiston)	8,2	33,0	41,2
Qizil – Tumshuq (O'zbekiston)	5,7	38,7	44,4

Smolasimon-asfalten moddalarni o'rganish va miqdoran aniqlashda birinchi navbatda asfaltenlar ajratiladi. Bunda engil benzinda eritmadan ular cho'kmaga tushadilar. Neytral smolalarini ajratib olish uchun o'rganilayotgan namuna adsorbent (silikagel) bilan aralashtililadi. Yuqori sirt aktiv modda sifatida smolalar adsorbent yuzasida boshqa komponentlarga nisbatan mustahkam ushlanib qoladi.

Neytral smolalar – engil benzin, neft moylari hamda benzol, efir va xloroformda yaxshi eriydi.

Neft distillatlaridan ajratib olingan smolalar suyuq va yarim suyuq holatda bo'ladi. Ularning nisbiy zichligi 0,99-1,08 gacha bo'ladi. Geteroatomlar (O, S, N) miqdori 3÷12% gacha o'zgarib turadi. Smolalar kuchli bo'yash xususiyatiga egadir, xom neft va distillatlarining to'q ranglari asosan, ulardagagi neytral smolalari bilan bog'liqidir.

Neytral smolalarning xarakterli xususiyati, ularning ma'lum faktorlar ta'sirida asfaltenlarga zichlanish xususiyatidir. Ushbu faktorlar quyidagilardir: qizdirish, adsorbentlar bilan ishlov berish, sulfat kislota bilan ishlov berish.

Ushbu jarayon havo oqimida qizdirish natijasida oson ketadi. Havosiz yuqori haroratlargacha qizdirilgan neytral smolalar koks hosil qiladi.

Asfaltenlar

Asfaltenlar neftning eng yuqori molekulyar geteroorganik birikmalaridir. Tashqi ko'rinishi bo'yicha kulrang yoki qora rangli kukunsimon moddalar, ularning nisbiy zichligi birdan yuqori, molekulyar og'irligi 2000 atrofida. Asfaltenlar element tarkibi bo'yicha neytral

smolalardan vodorodning miqdori kamligi bilan (1-2% ga) va mos holda uglerod va geteroatomlarni ko'p miqdori bilan farqlanadilar.

Asfaltenlar benzol, CS₂, xloroform, yuqori molekulyar aromatik uglevodorodlar va smolalarda eriydi. Engil benzin, spirt, dietilefirda erimaydi. Asfaltenlar qizdirilganda yumshaydi, biroq erib ketmaydi. 300°С dan yuqori haroratda koks va gaz hosil qiladi. Havo oqimida gudron qizdirilganda, sulfat kislota ta'sirida asfaltenlar uglerod va kislorodga boyigan yuqori molekulyar moddalarga zichlashib, karbenlarga aylanadi. Asfaltenlar o'z kimyoviy tuzilishlariga ko'ra kuchli kondensirlangan polisiklik aromatik sistemalar bo'lib, halqalari 5 va 6 a'zoli geterosikllar bilan bog'langandir.

Hamma smolasimon moddalar va ayniqsa, asfaltenlar (karbenlar va karboidlar) surkov materiallari sifatiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatdilar. Ular moylarni rangini yomonlashtiradi, qurum hosil bo'lishini ko'paytiradi, moylash qobiliyatini pasaytiradi. Shu sababli, moyli distillatlarni tayyorlashda eng asosiy vazifalardan biri, smolasimon-asfaltenli moddalarni yo'qotishdir. Shu bilan birgalikda smolasimon moddalar qator qimmatli texnik xossalarga ham ega bo'lib, neft bitumlari tarkibiga kirgan holda, ularga xalq xo'jaligida turlicha qo'llanilishga ega bo'lган qoldiq mahsulotlarni keng ishlatishiga sabab bo'ladi.

Eng asosiy ishlatish yo'naliishlari: yo'lni qoplash, qurilish ishida gidroizolyatsiya materiallari, ruberoidlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

8.1.5. Neft mineral komponentlari

Neft mineral komponentlariga, neftda mavjud bo'lган metallar va kislotalardan hosil bo'lган tuzlar, metall komplekslari hamda kolloid-dispergirlangan mineral moddalar kiradi. Ushbu moddalar tarkibiga kirgan elementlar ko'pincha mikroelementlar deb ataladi. Ularning umumiy miqdori 0,02-0,03% (mass.) dan oshmaydi.

Hozirgi paytda neftlarda 40 dan ortiq turli elementlar (8.11-jadvalga qarang) topilgan bo'lib, ularni 3 guruhga ajratish mumkin:

- o'zgaruvchan valentli metallar (V, Ni, Fe, Mo, Co, W, Cr, Cu, Mn, Pb, Ga, Ag, Ti);
- ishqoriy va ishqoriy-er metallari (Na, K, Ba, Ca, Sr, Mg);

- galogenlar va boshqa elementlar (Cl, Br, I, Si, Al, Zn va boshqalar).

Ushbu elementlarning quyi konsentratsiyalari va ularning konsentrash usullarini yo'qligi, aniqlashni neft tarkibiga kirgan birikmalarni identifikatsiyalashni amalda qilib bo'lmaydigan etib qo'yadi. Porfirinlar bundan mustasnodir.

Mikroelementlar tarkibini va konsentratsiyalarini aniqlash, asosan neftni yoki uning og'ir qoldiqlarini yoqib, hosil bo'lgan kulni spektral tahlil qilishga asoslangan. So'nggi vaqtida mikroelementlarni aniqlash usullari spektral tahlilning turli variantlari, atomnoabsorption polyarografik va fotometrik tahlil usullari hisobiga birmuncha kengaytirildi.

Neftda boshqa elementlarga nisbatan taqqoslaganda sezilarli ko'proq miqdorlarda vanadiy va nikel (8.12-jadval) mavjuddir.

8.11-jadval

Turli neft kollaridagi turli elementlarning miqdori, neftga nisbatan % (mass.) da

Ele- ment	Neft					
	Tajigali, 0,95% (mass.) S	Karaar nin, 2,75% (mass.) S	Uzen	Atov, 0,04% (mass.) S	Povar- kov	Belozer, 1,8 % (mass.) S
1	2	3	4	5	6	7
Na	-	$5,3 \times 10^{-3}$	-	-	-	$2,2 \times 10^{-4}$
Fe	$1,3 \times 10^{-3}$	$5,4 \times 10^{-3}$	$3,6 \times 10^{-3}$	$4,8 \times 10^{-3}$	$2,6 \times 10^{-3}$	$1,3 \times 10^{-3}$
Mg	$1,7 \times 10^{-4}$	$1,3 \times 10^{-3}$	$2,1 \times 10^{-3}$	$4,0 \times 10^{-3}$	$7,8 \times 10^{-4}$	$9,2 \times 10^{-5}$
Ca	$2,6 \times 10^{-3}$	$3,2 \times 10^{-3}$	$4,5 \times 10^{-3}$	$1,7 \times 10^{-3}$	$4,2 \times 10^{-8}$	$1,7 \times 10^{-4}$
V	$4,8 \times 10^{-6}$	$3,2 \times 10^{-3}$	$1,6 \times 10^{-4}$	$3,8 \times 10^{-3}$	$8,7 \times 10^{-6}$	$2,0 \times 10^{-3}$
Ni	$3,2 \times 10^{-5}$	$1,2 \times 10^{-3}$	$2,5 \times 10^{-3}$	$8,1 \times 10^{-4}$	$4,8 \times 10^{-5}$	$5,0 \times 10^{-4}$
Si	$2,9 \times 10^{-3}$	$1,5 \times 10^{-3}$	-	$3,2 \times 10^{-3}$	-	$2,2 \times 10^{-4}$
Al	$7,9 \times 10^{-4}$	$1,5 \times 10^{-3}$	-	$2,2 \times 10^{-4}$	-	$2,2 \times 10^{-4}$
Zn	$1,0 \times 10^{-4}$	-	-	$7,2 \times 10^{-4}$	-	$1,0 \times 10^{-4}$
Co	$3,0 \times 10^{-6}$	$1,5 \times 10^{-4}$	-	$2,9 \times 10^{-5}$	-	$4,3 \times 10^{-5}$
Sr	$1,0 \times 10^{-5}$	$2,5 \times 10^{-3}$	-	$1,0 \times 10^{-5}$	-	$3,0 \times 10^{-7}$
Pb	$2,4 \times 10^{-5}$	$1,5 \times 10^{-4}$	-	$6,6 \times 10^{-5}$	izlari	-
Sn	-	$1,5 \times 10^{-5}$	-	$1,8 \times 10^{-5}$	>>	$1,2 \times 10^{-6}$

Mn	$2,0 \times 10^{-5}$	$3,0 \times 10^{-5}$	$3,8 \times 10^{-5}$	$1,2 \times 10^{-5}$	$1,2 \times 10^{-4}$	$1,4 \times 10^{-5}$
Cu	$4,3 \times 10^{-5}$	$1,8 \times 10^{-3}$	$2,1 \times 10^{-5}$	$1,9 \times 10^{-5}$	$2,3 \times 10^{-5}$	$3,6 \times 10^{-5}$
Ti	$2,5 \times 10^{-5}$	$1,5 \times 10^{-5}$	-	$2,0 \times 10^{-5}$	$3,5 \times 10^{-4}$	$2,1 \times 10^{-5}$
Cr	$6,0 \times 10^{-6}$	$2,5 \times 10^{-5}$	$1,0 \times 10^{-5}$	$2,0 \times 10^{-6}$	-	$9,7 \times 10^{-7}$

8.12-jadval

Neft tarkibidagi vanadiy va nikel miqdori [neftga nisbatan % (mass.)]

Neft	Vanadiy	Nikel
Ust-balik (aralash)	0,01200	-
G'arbiy – surgut	0,01700	0,00230
Samotlor	0,00180	-
Sovet (aralash)	0,00013	-
Dolin	0,00035	-
Bitkov	0,00023	-
Arlan (tovar)	0,01500	0,00490
Tuymazin	0,00180	0,00070
Shkapov	0,00440	0,00300
Uteybash	0,01100	-
Nojov	0,00670	-
Tajigalin	0,000005	0,000032
Karaarnın	0,00320	0,00016
Uzen	0,00016	0,00250
Atov	0,00380	0,00080
Belozer	0,00200	0,00050

Nisbatan ko'proq vanadiy oltingugurtli, nikel esa azotga boy kam oltingugurtli neftlarda bo'lishi aniqlangan. Ushbu metallar parafinli komplekslar tarkibiga kirib, neftning smolasimon – asfaltenli qismidan konsentrallab va ajratib olinishi mumkin. Vanadiy asosan asfaltenlarda konsentrangan bo'lib, smolalarda ham neftni moy va undan engilroq fraksiyalarida porfirinli komplekslar ko'rinishida topilgan. Nikel asosan smolalarda, porfirinli komplekslar ko'rinishida konsentrланади. Ammo, porfirinli komplekslar tarkibiga kiruvchi vanadiy va nikel neftdagi miqdorning 4÷20% ini tashkil qiladi.

Ushbu metallar neft komponentlari bo'lmish porfirinlar, noperfirin turdag'i birikmalar bilan turli kompleks birikmalar hosil qilishi mumkin. Bu birikmalar sirka va vodorod bromid kislotalari aralashmasida mos holda engil va juda qiyin parchalanadilar. Bestujev ma'lumotlariga ko'ra, agarda porfirinlar tarkibiga qo'shima-cha bir yoki ikki kondensirlangan aromatik halqalar kirsa, bunday birikmalar kislotalar ta'siriga inert bo'ladi.

Ayrim izlanuvchilar vanadiy neftni tarkibiga smolasimon-asfalten qismiga kirgan oltingugurtli va kondensirlangan aromatik birikmalar bilan kompleks birikmalar hosil qilishi mumkinligini tushuntiradilar.

Porfirin skeletidagi radikal yoki metallarni soni va tabiatiga bog'liq holda ajratib olingen va o'rganilgan porfirinlar 4 turga: etioporfirin, filloporfirin, dezoksofilloeritrioporfirin (drer), rodo-porfirinlarga bo'linadi. 8.13-jadvalda ushbu 4 turga bo'lingan alkil hosilalari strukturasi ko'rsatilgan porfirinlar keltirilgan.

8.13-jadval

Bestujev ma'lumotlari bo'yicha porfirinlar tarkibiga kirgan turli tur radikallar


Holati	Porfirin			
	etio-	fillo-	drer-	rodo-
R ^I	C ₂ H ₅ •	CH ₂ CH ₂ COO•H•	C ₂ H ₅ •	CH ₂ CH ₂ CO•OH•
R ^{II}	C ₂ H ₅ •	H•	CH ₃ •	COOH•
R ^{III}	H•	CH ₃ •	CH ₃ •	H•

Porfirin yadrosining tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin.

Neft yoshini va uni joylashish chuqurligini oshishi bilan vanadil-porfirinlarning yig'ma miqdorlari kamayadi va ulardag'i alkilporfirinlarning ulushi ortadi.

Neft mikroelementlarini o'rganish – uning genezisi haqida tu-shuncha olishda alohida qiziqish uyg'otadi. Porfirinlarni relikt komponentlardan deb hisoblash qabul qilingan bo'lib, neft tarkibiga o'simlik va hayvonot olamidan kam o'zgargan ko'rinishda o'tgan. Porfiringa o'xshash komplekslar xlorofill va gem kabi biologik

modda molekulalari tarkibiga kirishi ma'lum. Haqiqatda ushbu birikma komplekslari tarkibiga nikel va vanadiygina emas, balki magniy va temir ham kiradi. Shuning uchun, vanadiy va nikel ikkilamchi kelib chiqishga ega deb hisoblaydilar, biroq ular neft tarkibiga uni boshlang'ich hosil bo'lish bosqichlarida suv osti chirindilar bosqichida yoki «onalik» moddani neftga o'tishida kirib qolganlar.



Neftda o'simlik va hayvonlarga xarakterli ko'pgina elementlarni bo'lishi ham uni genetik yaqinligining tasdig'i idir.

Neftda qaysi mikroelement qancha miqdorda bo'lishini o'rghanish uni qayta ishlash muammolarining qanday echilishida ham ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina metallar va birinchi navbatda, vanadiy hamda nikel katalizatorlar uchun zaxarlardir. Shu sababli, katalizatorlarni to'g'ri tanlash uchun va ularni zaharlanishdan himoya qilish uchun, ushbu elementlarning xom ashyodagi miqdorini bilish lozim. Undan tashqari, sezilarli miqdorda vanadiy bo'lgan qozon yonilg'ilari yonganda vanadiy (V) oksidi hosil bo'lib, jihozni korroziyasiga sabab bo'ladi.

IX BOB. NEFT VA NEFT FRAKSIYALARINI SANOATDA QAYTA ISHLASH KIMYOVIY JARAYONLARI

9.1. Neft va neft mahsulotlarining termik jarayonlari

Neftni termik qayta ishlash asosiy jarayonlari quyidagilardir:

1. Termik kreking.
2. Piroliz.
3. Kokslash.

Termik jarayonlarni olib borish sharoitiga qarab xom ashyo turli agregat holatda bo'lib qolishi mumkin. Piroliz jarayonida reaksiyalar gaz fazada amalga oshiriladi, neft qoldiqlarini kokslash jarayoni esa suyuq fazada ketadi, og'ir xom ashyonи termik krekingida esa gaz va suyuq fazalar birgalikda mavjud bo'lishi mumkin.

Termik kreking

Neftni qayta ishlash og'ir qoldiqlarini termik krekingi quyidagi mahsulotlar olish uchun amalga oshiriladi; avtomobil benzini (hozirda ushbu jarayon eskirgan); qurum ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'lgan yuqori aromatlashtirilgan gazoyl, koks ishlab chiqarish uchun kreking qoldiq; kam qovushqoqlikka ega bo'lgan mazut yoqilg'isi.

Jarayon $470\div530^{\circ}\text{S}$, $2\div7 \text{ MPa}$ bosimda olib boriladi. Avtomobil benzини олиш учун xом ashyo sifatida nisbatan engil neft fraksiyaları ($200\div350^{\circ}\text{S}$) ishlatiladi. Kam qovushqoqlikka ega bo'lgan qozon yoqilg'isi hamda qurum va koks olish xom ashysi sifatida neft qoldiqlari bo'lmish yarim gudron va gudronlar ishlatiladi.

Termik krekingning asosiy mahsulotlari quyidagilar: uglevodorodli gaz, kreking–benzin, kerosin–gazoyl fraksiyasi, termogazoyl va kreking–qoldiq.

Uglevodorodli gaz

Tarkibida ko‘p miqdorda to‘yinmagan uglevodorod bo‘lgan termik–kreking gazi neft kimyosida neftkimyo xom ashyosi sifatida ishlatiladi (jadvalga qarang).

Termik kreking jarayonida maksimal miqdorda kreking–qoldiq (I) va termogazoyl (II) olishda hosil bo‘ladigan mahsulotlarning miqdori (%) da quyida keltirilgan:

9.1-jadval

Termik krekingda olingan mahsulotlar miqdori, % da

Mahsulotlar nomi	I	II
Uglevodorodli gaz	2,5	9,0
Stabillash golovkasi	3,4	3,0
Kreking – benzin	14,2	25,0
Kerosin – gazoyl fraksiyasi	3,9	-
Termogazoyl	-	22,0
Kreking – qoldiq	74,4	39,0
Yo‘qotishlar	1,6	2,0

Xom ashyo sifatida gudron va katalitik gazoyl aralashmasi ishlatiladi.

Kreking – benzin

Benzin quyi kimyoviy barqarorligi va yuqori bo‘lmagan oktan soni (66–68 motor usuli bo‘yicha) bilan xarakterlanadi.

Kreking benzинini avtomobil benzini komponenti sifatida ishlatish uchun uni qo‘srimcha barqarorlashtirish lozim.

Kerosin-gazoyl fraksiyasi

Kerosin–gazoyl fraksiyasi ($200\text{--}350^{\circ}\text{S}$) flot mazutining qimmatli komponentidir. U gidrotozalangandan so‘ng dizel yoqilg‘isi komponenti sifatida ham qo‘llanishi mumkin.

Termogazoyl

Termogazoyl texnik uglerod ishlab chiqarishda xom ashayodir.

Kreking – qoldiq

Kreking qoldiq (350°S dan yuqori fraksiya) qozon yoqilg'isi sifatida ishlatiladi. U to'g'ridan - to'g'ri haydab olingen mazutga nisbatan yuqori yonish issiqligiga va quyi qotish haroratiga va qovushqoqlikka egaligi bilan xarakterlanadi.

Piroлиз

Uglevodorod xom ashysining piroлиз jarayoni asosan quyi alkenlarni olishga bag'ishlangan bo'lib, jarayon $700\div1000^{\circ}\text{S}$ haroratda va atmosfera bosimiga yaqin bosimda olib boriladi.

Etilen olish uchun optimal xom ashyo etadir. Etilenning miqdori ushbu jarayonda 80% (mass.) ga etadi. Etilenning ko'p miqdori propan piroлизida 47% (mass.) va butan piroлизida 45% (mass.) olinadi. Tarmoqlangan alkanlarning piroлизida ko'proq propilen hosil bo'ladi. Yuqori haroratda alken va metilatsetilenlar ham hosil bo'ladi. Quyi alkenlarning miqdori sikloalkan va arenlarning piroлизida yuqori emas.

Etilen ishlab chiqarish sanoat sharoitlarida asosan individual birikmalar emas, balki neft fraksiyalari ishlatiladi. Etilen bilan birgalikda $\text{C}_3\text{--C}_4$ alkenlar, ko'p miqdorda suyuq mahsulotlar ham hosil bo'lib, tarkibida alkenlar, sikloalkenlar, C_5 va undan yuqori alkadienlar hamda $\text{C}_6\text{--C}_8$ arenlar va boshqa komponentlar hosil bo'ladi.

Benzinlar piroлизida hosil bo'ladigan mahsulotlar keng oraliqda o'zgarib turishi 9.2-jadvalda ko'rsatilgan (%), mass.).

9.2-jadval

Benzin piroлизida hosil bo'ladigan mahsulotlar

Mahsulotlar nomi	Miqdori, (% mass.)
Etilen	22-32
Propilen	10-17
C_4 – fraksiya	5-12
Arenlar	6-13

To‘g’ridan to‘g’ri haydab olingan benzin resurslari etish-maganligi bois va narxlarning uzluksiz o‘sishi oqibatida piroлиз xom ashyosi sifatida ko‘pchilik davlatlarda kerosin-gazoyl fraksiyasi ($170\text{--}380^{\circ}\text{S}$) qo’llanilmoqda.

Gazoyllarning piroлизida hosil bo‘ladigan mahsulotlar miqdori 9.3-jadvalda keltirilgan.

9.3-jadval

Gazoylning piroлизida hosil bo‘ladigan mahsulotlari

Mahsulotlar nomi	Miqdori, (% mass.)
Etilen	16 – 23
Propilen	15
Suyuq mahsulotlar	~50

Hozirda piroлиз jarayoni uchun yanada og‘ir bo‘lgan xom ashyoni ishlatish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Kokslash

Kokslash jarayonining maqsadi, neft koxsi va keng fraksion tar-kibli distillat olishdir.

Neft koksini olish uchun xom ashyo sifatida quyidagilar ishlatilishi mumkin: benzinsizlangan neft, birlamchi qayta ishlash qoldiqlari, mazutlar, yarim gudronlar, gudronlar; ikkilamchi kelib chiqish mahsulotlari, kreking qoldiqlar, katalitik kreking og‘ir gazoyllari, piroлиз smolalari hamda tabiiy asfaltlar va moy ishlab chiqarish jarayoni qoldiqlari (asfaltlar, ekstraktlar).

Kokslashning sanoat jarayonlari 3 turga bo‘linadi:

1. Davriy;
2. Yarim uzluksiz;
3. Uzluksiz.

Kokslash davriy usulining ko‘lami va texnik rasmiy lashtirilishi – neftni qayta ishlash zamonaviy talablariga mos kelmay qoldi.

Kokslashning uzluksiz usuli esa hozircha tajriba-sanoat bosqichida turibdi. Hozirda eng ko‘p tarqalgan yarim uzluksiz sanoat jarayoni, asta-sekin kokslash qurilmalarida amalga oshiriladi.

Neft qoldiqlarini asta-sekin kokslash $505-515^{\circ}\text{S}$ haroratda, 0,2–0,3 MPa bosimda olib boriladi. Kokslash natijasida neft koxsidan tashqari uglevodorodli gaz, benzin, o'rta va og'ir koks distillatlari hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan mahsulotlarning miqdori va sifati xom ashyoning kimyoviy va fraksion tarkibiga va kokslash sharoitlariga bog'liqdir.

Neftning birlamchi qayta ishlash qoldiqlaridan olingan koks miqdori $15\div25\%$, (mass.) ni, ikkilamchi mahsulotlardan olingani esa $30\div35\%$, (mass.) ni tashkil qiladi.

Koks bilan birgalikda ko'p miqdorda qimmatli suyuq va gaz holidagi mahsulotlar hosil bo'ladi. Ularning yig'ma miqdori xom ashyoga nisbatan hisoblaganda 70% , (mass.) ga etadi. Kokslash jarayonining eng katta effektivligi, hosil bo'layotgan hamma mahsulotlarni o'z o'rnida to'la ishlatilganda kuzatiladi.

Uglevodorod tarkibi bo'yicha asta-sekin kokslash gazlari termik kreking gazlarinikiga yaqin bo'lib, neftkimyoviy sintez uchun xom ashyo bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kokslash benzini quyi sifatli (motor usuli bo'yicha oktan soni 60-67, oltingugurt miqdori 1-2%) bo'lgani uchun uni ishlatishdan oldin tozalanishi va boshqa jarayonlarni o'tashi lozim. Uni gidrotozalash va katalitik riformingga uchratish lozim. Kokslash benzini tarkibida to'yinmagan uglevodorodlarning ko'pligi (37-60%) – uni neftkimyo mahsulotlarini ishlab chiqarishlarda (masalan, oksosintez) qimmatbaho xom ashyo hisoblanadi.

Kerosin-gazoyl fraksiyasi gaz turbina va motor yoqilg'ilarining komponenti sifatida, katalitik kreking va qurum ishlab chiqarish xom ashyolari sifatida qo'llaniladi.

9.2. Neft uglevodorodlari va tabiiy gazning termokatalitik o'zgarishlari

9.2.1. Katalitik kreking

Katalitik krekingda uglevodorod reaksiyalari zanjirli karbokation mexanizmi bo'yicha ketadi. Kreking bilan birga uglevodorodlar jarayon sharoitlarida alkillash, izomerizatsiya, polimerizatsiya, gidrirlash va dealkillash reaksiyalariga kirishadi.

Yuqori oktanli benzinlar va yuqori konsentratsiyali propan-propilen hamda butan – butilen fraksiyalar olish maqsadida turli xildagi distillat va qoldiq xom ashyolar katalitik kreking qilinadi.

Jarayonning maqsadli vazifasi, $300\div500^{\circ}\text{S}$ oraliqda haydaladigan xom ashyodan yuqori oktanli benzin olishdan iborat. Benzin bilan birga o'rtacha distillat fraksiyalar, gazoyllar va butan–butilenni yuqori miqdorda saqllovchi gaz hosil bo'ldi.

Katalitik kreking $450\div525^{\circ}\text{S}$ haroratda atmosfera bosimiga yaqin ($0,06\text{--}0,14 \text{ MPa}$) bosimda alyumosilikat katalizatori ishtirokida olib boriladi.

Katalitik kreking mahsulotlarining miqdori va sifati qayta ishlanayotgan xom ashyo va katalizatorning tavsifiga hamda jarayonning rejimiga bog'liqdir. Katalitik kreking qurilmalarida yog'liq gaz, beqaror benzin, engil va og'ir katalitik gazoyl olinadi. Ayrim hollarda ligroin ajratib olish ham ko'zda tutiladi.

Uglevodorodli gaz $80\div90\%$ $\text{C}_3\text{-C}_4$ fraksiyadan iborat bo'lib, ajratib olingandan so'ng alkillash. polimerlash jarayonlarida, etilen, propilen, butadien, izopren, poliizobutilen, sirt–aktiv moddalar va boshqa neftkimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Benzin fraksiyasi (qaynashning boshlanishi— 195°S)— avtomobil va aviatsiya benzini komponenti sifatida qo'llaniladi. Uning tarkibiga arenlar— $20\div30\%$ (mass.), sikloalkanlar— $8\div15\%$ (mass.) va alkanlar— $45\div50\%$ (mass.) kirib, fraksiyaning oktan soni 78-85 (motor usuli bo'yicha) ni tashkil etadi.

Engil gazoyl (Q.B. $175\text{-}200^{\circ}\text{S}$ —Q.O. $320\text{-}350^{\circ}\text{S}$)— dizel yoqilg'isini komponenti sifatida, qurum ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida hamda mazut olishda suyultiruvchi sifatida ham qo'llaniladi. Parafin xom ashyodan olingen engil katalitik gazoylning setan soni $45\div56$, naften — aromatika esa $25\text{-}35\%$ ni tashkil etadi.

Og'ir gazoyl — katalitik kreking qoldiq mahsuloti. Mazut tayyorlashda va qurum ishlab chiqarishda, termik krekingda va kokslashda xom ashyo sifatida ishlatiladi.

Katalitik krekingning termik krekingdan asosiy afzalliklari—katalizator ishtirokida reaksiya tezligining yuqori bo'lishi va olinadigan mahsulotlarning qimmatbaholigi.

Quyida katalitik va termik kreking jarayonlarini nisbiy baholash natijalari berilgan.

9.4-jadval

Termik va katalitik kreking ko'rsatkichlarini taqqoslash

Ko'rsatkichlar	Termik kreking	Katalitik kreking
Jarayon sharoitlari: harorat, $^{\circ}\text{S}$ bosim, MPa	470 – 540 2,0 – 7,0	450 – 525 0,06 – 0,14
Mahsulotlar tavsifi: gaz benzin engil gazoyl	Asosan S ₁ -S ₂ fraksiya Anchagina miqdorda normal tuzilishli alkanlar, alkenlar va dienlarni o'z ichiga olgan	Asosan S ₃ -S ₅ fraksiya Tarmoqlangan alkanlar va arenlarni o'z ichiga olgan Polisiklik arenlarga boy
Reaksiyalar mexanizmi	Radikal – zanjirli	Karbakationli, zanjirli

9.2.2. Katalitik riforming

Katalitik riforming jarayonining ilmiy asoslari XX asrning boshida yo'lga qo'yilgan. 1911-yili N.D.Zelinskiy olti a'zoli sikloalkanolarni arenlarga yonaki reaksiyalarsiz platinali va palladiyli katalizatorlarda degidrirlashni amalga oshirish mumkinligini ko'rsatdi. Shu-yilning o'zida V.V.Ipatev ushbu reaksiyani oksidli metall katalizatorda amalga oshirdi. 1936-yili bir vaqtning o'zida sobiq Ittifoqda alkanlarni arenlarga degidrosiklizatsiya reaksiyasi ochildi: B.D.Moldavskiy va G.Kamusherlar ushbu reaksiyani xrom oksidida 450÷470 $^{\circ}\text{S}$ da; B.A.Kazanskiy va A.F.Plate jarayonni aktivlangan ko'mirdagi platina katalizatori va 304÷310 $^{\circ}\text{S}$ haroratda amalga oshirdilar.

Sanoatda riforming benzin fraksiyalarining oktan sonini oshirishga va qimmatli neftkimyoviy sintez xom ashyosi bo'lgan arenlarni olishda ishlatiladi.

Jarayon vodorod saqlovchi gaz 70-90% (hajm.) H₂, qolganlari uglevodorodlar muhitida quyidagi sharoitlarda amalga oshiriladi:

harorat $480\div540^{\circ}\text{S}$;

bosim $2\div4 \text{ MPa}$:

xom ashyni berish hajmiy tezligi $1\div3 \text{ s}^{-1}$;

sirkulyatsiya qilinayotgan vodorodli gaz miqdorini xom ashyna nisbati $600\div1800 \text{ m}^3/\text{m}^3$.

Katalitik riforming xom ashysosi sifatida odatda neftni birlamchi haydash benzin fraksiyalari ishlatiladi. Riforming xom ashynosining fraksion tarkibi jarayonning maqsadga muvofiq mahsuloti bilan belgilanadi. Agar jarayonning maqsadi individual arenlar olish bo'lsa, ya'ni benzol, toluol va ksilollar uchun, mos holda, C₆(62-85⁰S), C₇(85-105⁰S) va C₈(105-140⁰S) uglevodorod fraksiyalari ishlatiladi. Agar jarayon yuqori oktanli benzin olish maqsadida amalga oshirilsa, xom ashyo sifatida C₇-C₉ uglevodorodlarga mos kelgan 85-180⁰S fraksiya ishlatiladi. Riformingning bifunksional katalizatorida ketadigan reaksiyalar natijasida benzin tarkibida ko'proq aromatik uglevodorodlar hosil bo'lishi bilan bog'liq chuqur o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Aromatik uglevodorodlar hosil bo'lish reaksiyalari:


- siklogeksan va uning gomologlarini degidrirlash;
- siklopentan gomologlarining izomerizatsiyasi va so'ng degidrirlanishi;

- parafinlarning degidrosiklizatsiyasi.

Ikkinchi guruh – gidrokrekking va izomerizatsiya reaksiyalari:

- parafinlar va naftenlarning gidrokrekkingi;
- parafinlarning gidrogenolizi;
- parafinlarning izomerizatsiyasi;
- aromatik uglevodorodlarning izomerizatsiyasi;
- benzol gomologlarini dealkillash.

Riformingning asosiy reaksiyalarini va ular orasidagi o'zaro bog'liqlik quyidagi sxema bo'yicha ifodalanishi mumkin:



Birinchi bosqich parafinlarning degidrosiklizatsiyasi, siklni tutashtirish va alkilsiklopentanlar (1) yoki alkilsiklogeksanlar (2) ni hosil qilishni o‘z ichiga oladi. Alkilsiklopentanlar izomerizatsiyasida, halqaning kengayishi (3) oqibatida ham alkilsiklogeksanlar hosil bo‘ladi. O‘zgarishlarning oxirgi fazasi, alkilsiklogeksanlarning aromatik uglevodorod hosil qilib degidrirlanishidir.

Normal parafinlar izomerlanadi (5) va izoparafinlarning keyingi o‘zgarishlari normal parafinlarnikiga o‘xshab analogik holda amalgamoshadi. Parafinlar degidrosiklizatsiyasida reaksiyaga kirishgan 1 mol xom ashyoga nisbatan 4 mol vodorod hosil bo‘ladi. Parafinlar o‘zgarishining boshqa yo‘li (6) nordon markazlarda karboniy – ion bo‘yicha propan va butanlarni hosil qilib, kreking va katalizatorning metall markazlarida metan hosil qilib parchalanishidir (gidrogenoliz).

Naften va parafin uglevodorodlardan aromatik uglevodorodlar hosil bo‘lishiga olib keluvchi riformingning eng muhim reaksiyalari issiqlik yutilishi bilan ketadi. Gidrokreking va gidrogenoliz reaksiyalari ekzotermik, parafin va naftenlarning izomerizatsiyalari 0 ga yaqin issiqlik effektiga ega.

9.5-jadval

Uglevodorodlarning detonatsiyaga turg‘unligi

Uglevodorodlar	Oktan soni				1,6 g/l TEQ li «boy» aralashma sortligi	
	Motor usuli		Izlanish usuli, TEQ qo‘shilmagan	1,6 g/l TEQ li		
	TEQ o‘shilmagan	1,6 g/l TEQ li				
1	2	3	4	5		
ALKANLAR						
Butan	92	-	94	150		
Izobutan (2-metilpropan)	99	-	101	160		
Pentan	62	83	62	2		
Izopentan (2-metilpentan)	90	-	92	142		

1	2	3	4	5
Geksan	25	-	25	-100
Izogeksan (2,2-dimetilbutan)	94	110	92	152
2,3-Dimetilbutan	95	110	102	205
2-Metilpentan	73	91	73	66
Geptan	0	47	0	-200
2,4-Dimetilpentan	93	111	93	143
Triptan (2,2,3-trimetilbutan)	102	112	106	255
Oktan	-20	28	0	-220
Izooktan (2,2,4-trimetilpentan)	100	112	100	154
2,5-Dimetilgeksan	54	83	55	44
ALKENLAR				
Propen	85	-	101	-
2-Penten	80	-	98	-
2-Geksen	78	-	89	-
2-Metil-2-geksen	79	-	90	-
2,2,4-Trimetil-1-penten	86	-	103	-
2-Okten	56	-	56	-
SIKLOALKANLAR				
Siklopentan	87	95	100	315
Metilsiklopentan	81	93	91	200
Etilsiklopentan	61	81	67	115
Siklogeksan	77	87	83	188
Metilsiklogeksan	72	86	75	120
Dekalin	38	-	-	-70
Tetralin	65	-	-	215
ARENLAR				
Benzol	107	-	113	220

1	2	3	4	5
Toluol	101	104	112	250
Etilbenzol	97	102	103	250
o-Ksilol	100	101	100	-15
m-Ksilol	103	105	100	265
n-Ksilol	103	105	100	265
Kumol (izopropilbenzol)				
	99	102	108	280

Naften va parafin uglevodorodlarning aromatik uglevodorodlarga aylanish reaksiyalarini qaytar bo'lib, muvozanatni o'zgarishlar chuqurligi, harorat va boshlang'ich uglevodorodlar molekulyar massalarining o'sishi bilan boradi.

Riformingning asosiy mahsulotlari, vodorod saqlovchi gaz va suyuq fraksiya, yuqori oktanli riformatdir (9,5-jadvalga qarang). Qisman vodorod sirkulyatsiyalanayotgan vodorod saqlovchi gazdag yo'qotishlar o'rnini to'latishga ishlataladi. Vodorodning ko'proq qismi neft mahsulotlarini gidrokrekking va gidrotozalash qurilmalariga yo'naltiriladi. Platinali katalizatordagagi riforming jarayonidagi 90% (hajm.) konsentratsiyali texnik vodorodning salmog'i 0,7÷1,5% (hajm.) ni tashkil etadi.

Barqarorlashtirish orqali vodorod saqlovchi gazdan quruq gaz (C_1-C_2 yoki C_1-C_3) va suyultirilgan gazlar (C_3-C_4) ham ajratib olinadi.

Riformat – avtomobil benzinlarini yuqori oktanli komponentidir (motor usuli bo'yicha oktan soni 85 yoki izlanish bo'yicha 95).

Katalitik riforming benzini tarkibida 50÷60% (mass.) arenlar, 30% (mass.) ga yaqin alkanlar, 10÷15% (mass.) sikloalkanlar va 2% (mass.) dan kam to'yinmagan birikmalardan iborat. Alkanlar asosan C_5-C_6 fraksiyada mavjud bo'lib, ularning izotuzilishi normalga bo'lgan yuqori nisbatlarida o'z aksini topgan. Arenlardan C_7-C_9 lar ko'pini tashkil etadi. Katalitik riforming benzinlarini ko'p qurum hosil qiluvchi arenlarining yuqori miqdorligi tufayli, ularni toza holda avtomobil yoqilg'ilarini sifatida ishlatib bo'lmaydi, shu bois kompaundlashga jo'natiladi.

Katalitik riforming benzinlaridan organik sintezda ishlataladigan individual arenlar: benzol, toluol, etilbenzol, ksilollar, naftalin, psevdokumol va boshqa mahsulotlarni ajratib olish mumkin.

Neftkimyoviy mahsulot sifatida eng ahamiyatli arenlar, benzol, o- va p-ksilollar ishlab chiqarilishi ma'lum; toluol va m-ksilollar esa mavjud ehtiyojlardan ancha ortiq miqdorda ishlab chiqarilmogda. Shuning uchun hozirgi vaqtida toluol va m-ksilollar asosida qimmatli mahsulotlar ishlab chiqarishga urinishlar bilan birgalikda, ularni dealkillash. disproporsiyalash va izomerizatsiyalash jarayonlari muvaffaqiyatli rivojlanayapti.

9.2.3. Izomerizatsiya

Normal uglevodorodlarni izomerizatsiyasi alkillashda qo'lla-niladigan izobutanni olishda, sintetik kauchuk xom ashyosi va benzinni yuqori oktanli komponenti bo'lgan izopentanni olishda ishlatiladi. Izomerizatsiya katalizatori bo'lib alyuminiy xlorid xizmat qiladi. Jarayon $120\div150^{\circ}\text{S}$ harorat va 0,1 MPa gacha bosimda olib boriladi. Xom ashyo sifatida pentan, butan va benzin fraksiyalari ishlatiladi.

Yoqilg'i yuqori oktanli komponentlarining sintezi

To'yinmagan uglevodorodlar bilan izoparafinlarni alkillash yuqori oktanli benzin komponentlarini olish maqsadida amalga oshiriladi. To'yinmagan uglevodorodlar sifatida propilen, butilenlar, amilenlar; izoparafin uglevodorodlar sifatida esa izobutan yoki izopantanlar ishlatiladi. Masalan, izobutanni butilenlar bilan alkillab izootkan olinadi.

Alkillash reaksiyasida katalizator sifatida sulfat kislota ishlatilsa, 0 dan -10°S gacha haroratda yoki vodorod storid ishtirokida bo'lsa, $25\div30^{\circ}\text{S}$ da amalga oshiriladi.

Benzolni alkillash

Benzolni to'yinmagan uglevodorodlar (etilen, propilen) bilan alkillashda katalizator sifatida fosfat yoki sulfat kislotalar, alyuminiy xlorid, alyumosilikatlar va boshqalar qo'llaniladi. Jarayon qaysi katalizator ishlatilishiga bog'liq bo'lib, u 50°S dan 450°S gacha harorat va 1 MPa dan to 3 MPa gacha bosimda ketadi. Benzolni

alkillash mahsulotlari sintetik va qator kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Degidrirlash

Degidrirlash, to'yingan uglevodorodlardan vodorod molekulasi tortib olinishi bilan to'yinmagan uglevodorodlarning hosil bo'lish jarayonidir. Masalan, butandan – butilen, butilendan – butadien, izopentandan – izoamilen, izoamilendan – izoprenlar. Jarayon xrom-alyuminiyli katalizatorlarda $530\div600^{\circ}\text{S}$ harorat va atmosfera bosimi yoki undan pastroq bosimda ketadi. Degidrirlash natijada etil-benzoldan stirol, izopropilbenzoldan esa α -metilstirol olinadi.

Polimerizatsiya

Quyi molekulyar moddalar, monomerlarning o'zaro ta'siri natijasida yuqori molekulyar moddalar, polimerlar olish jarayoni – polimerizatsiyadir. Ushbu jarayon plastmassalar, sintetik kauchuklar, moylar va boshqa mahsulotlar olishda ishlatiladi. Masalan, fosfat kislota ishtirokida (katalizator) propilenni polimerlab, yuvish vositasi ishlab chiqarishda qo'llaniladigan propilenning tetrameri olinadi.

Propilenni polimerlab, yuqori sifatli plastmassa – polipropilen olinadi. Izobutilenni polimerlab qattiq poliiizobutilen (molekulyar massasi 200000 ga yaqin) yoki suyuq poliiizobutilen (molekulyar massasi 10000 ga yaqin) olinadi.

9.3. Neftni qayta ishlashdagi gidrogenizatsiya jarayonlari Jarayonlarning sinflanishi

Gidrogenizatsion jarayonlar neftni qayta ishlashda va neft kimyosida keng qo'llaniladi. Ular yuqori oktanli barqaror benzinlar olishda, dizel va qozon yoqilg'ilarini hamda surkov moylarining sifatini yaxshilashda ishlatiladi.

Neftkimyo sanoatida gidrirlash reaksiyalari yordamida siklogeksan va uning hosilalari, ko'pgina aminlar, spirtlar va qator boshqa monomerlar olinadi.

Oxirgi paytdagi gidrogenizatsion jarayonlarning tez rivoji tovar-neft mahsulotlari sifatiga qo'yilgan talablarining oshishi, vodorod

ishlab chiqarish narxining ancha pasayishi va yuqori samarali katalizatorlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir.

Neftni qayta ishlashda gidrogenizatsion jarayonlar ikki yo‘nalish bo‘yicha rivojlanmoqda: neft fraksiyalarini gidrotozalash va og‘ir distillatlar hamda neft qoldiqlarini destruktiv gidrirlash (gidrokreking, gidrodealkillash) bilan amalga oshirilmoqda.

Gidrotozalashda xom ashayodagi geteroatomli birikmalarning destruksiyasi amalga oshirilib, parchalanish mahsulotlari vodorod yordamida to‘yintiriladi va vodorod sulfid, ammiak va suv ajralib chiqadi.

Gidrokrekingda xom ashyo komponentlari parchalanib, hosil bo‘lgan uglevodorod radikallari vodorod bilan to‘yintiriladi.

Gidrodealkillash, alkil hosilali arenlar yon zanjirlarining uzilishi hisobiga boradigan jarayon bo‘lib, bunda alkanlar va yon zanjirsiz arenlar hosil bo‘ladi.

9.3.1. Gidrokreking jarayoni va uning mahsulotlari

Yuqori haroratda qaynaydigan distillat fraksiyalarining gidrokrekingi rangsiz neft mahsulotlarini qo‘sishimcha miqdorda olish uchun qo‘llaniladi. Jarayon $370\div420^{\circ}\text{S}$ harorat va $14\div20$ MPa bosimda amalga oshiriladi.

Yuqori oltingugurtli mazatlarni gidrokreking qilish yo‘li bilan havo atmosferasining SO_2 bilan ifloslanishini kamaytirish maqsadida qozon yoqilg‘isidagi oltingugurt miqdori anchagina kamayishini ta’minlash mumkin.

Gidrokreking, yuqori bosim va haroratlarni qo‘llash bilan xarakterlanuvchi vodorod bosimi ostida neft xom ashyosini destruktiv qayta ishslash katalitik jarayonidir. Uglevodorod xom ashyonini chuqur parchalash va hosil bo‘lgan mayda radikalarini gidrirlashdan iborat.

Odatda gidrokreking xom ashyosi sifatida og‘ir neft distillatları ($t_{qav\text{n}} 350\div500^{\circ}\text{S}$) va qoldiq fraksiyalar, yarim mazut, mazut, gudronlar hizmat qiladi.

Gidrokreking (destruktiv gidrirlash, gidrodealkillash) hamda gidrotozalash jarayonlari odatda, gidrirlash va kreking reaksiyalarida faol bo‘lgan bifunksional katalizatorlar yordamida amalga oshiriladi. Katalizatorlarning krekinglash funksiyasini kislota xarakterli

birikmalar (alyuminiy oksidi, alyumosilikatlar, seolitlar) bajarib, reaksiyani karbokation mexanizmi bo'yicha yo'naltiradi, gidrirlash funksiyasini esa asosan VIII guruh metallari (Fe, Co, Ni, Pt, Pd va boshqalar) ta'minlaydi.

Gidrokreking mahsulotlari katalitik kreking mahsulotlariga anchagina o'xshashdir. Ular ko'p bo'lмаган miqdorda metan va etan saqlaydi; C₄ – fraksiya izobutanga boy, suyuq mahsulotlarda tar-moqlangan uglevodorodlar ko'pdir.

Katalitik krekingdan farqli gidrokreking mahsulotlari to'yingan xarakterga ega. C₃-C₄ fraksiyasi, propan va izobutanlar bilan ifodalangan. Hosil bo'lган benzin ham amalda alkenlar saqlamaydi. Gidrokreking gazoyllari, butandan tashqari, katalitik kreking gazoyllariga nisbatan kamroq aromatlashgan. Gidrokrekingda bir vaqtning o'zida, neft fraksiyalarini oltingugurtidan va boshqa geteroatomlardan tozalash jarayonlari ham ketadi. Shunday qilib, gidrokreking ba-misoli o'zida katalitik kreking, gidrirlash va gidrotozalashlarni mu-jassamlashtirgan.

Gidrokreking jarayonini neftni qayta ishlash sxemalariga kiritish orqali korxonalar ekspluatatsiyasida tez o'zgaruvchanlik ta'milanadi. Jarayon texnologik rejimini va suyuq mahsulotlarni rektifikasiya qilish sharoitlarini o'zgartirib, bir qurilmaning o'zida quyida zikr qilingan mahsulotlar, benzin, reaktiv yoki dizel yoqilg'isining istalganini olish mumkin.

9.3.2. Gidrotozalash jarayoni

Gidrotozalash neft fraksiyalarini oltingugurtsizlantirish hamda ikkilamchi qayta ishlash mahsulotlarida mavjud bo'lган to'yinmagan uglevodorodlarni vodorod bilan to'yintirish uchun qo'llaniladi. Ushbu jarayon moylar va parafinlarni yakuniy tozalash uchun ham ishlataladi. Jarayon 300÷420°S harorat va 3÷4 MPa bosimda amalga oshiriladi.

Katalitik gidrotozalash jarayoni

Gidrotozalash jarayoni natijasida olingan benzinda 1,2·10⁻⁴ ÷ 9·10⁻⁶ % (mass.), reaktiv yoqilg'ida 0,002÷0,005% (mass.), dizel

yoqilg'isida $0.02 \div 0.06\%$ (mass.) miqdorda oltingugurt bo'lishi lozim.

Gidrotozalash jarayonini texnologik sharoitlari:

$$t = 340 \div 420^{\circ}\text{C}.$$

$$p = 2.5 \div 6.0 \text{ MPa}.$$

$$V_{h,t} = 1 \div 10 \text{ soat}^{-1} \text{ (hajmiy tezlik).}$$

$$\text{H}_2 \text{ sarfi } 0.1 \div 1.3\% \text{ (mass.).}$$


Katalizator – Al–Ni–Mo, Al–Co–Mo va boshqalar.

9.3.3. Oltingugurtli organik birikmalarni giderlash


Oltingugurt saqlovchi birikmalarni giderlash jarayoni neft mahsulotlarini gidrotozalash jarayoni deb atalib, bunda C–C bog'i uziladi, chunki bu bog' energiyasi C–C bog'inikiga nisbatan 1,5 barobar kichik. Bundan tashqari, katalizator kompleksida MoS₂ yuzasida S–C bog'i energiyasi 23 kj/mol ga teng bo'lib, ushu kompleksdagi C–C bog'i energiyasidan 10 marta kam (parafinlarda 331 kj/mol).

Tiofen hosilalari eng qiyin giderlanadi. Tiofen, sulfidlar va merkaptanlar ancha engil giderlanadilar. Odatda jarayon Al–Co–Mo, Al–Ni–Mo katalizatorlarida $340 \div 420^{\circ}\text{S}$ va $2.5 \div 6.0 \text{ MPa}$ bosimda olib boriladi. Turli xil oltingugurtli birikmalardagi gidrogenizatsiya reaksiyalari mexanizmini quyidagicha tushuntirish mumkin:


Yumshoq sharoitlarda, quyi bosimda merkaptanlar sulfidlar-gacha degidrirlanadilar.




Qattiq sharoitlarda gidrogenizatsiya jarayoni uglevodorodlar hosil bo'lishigacha boradi:




O‘z navbatida sulfidlar va disulfidlar to‘la gidrirlanib, avval, tiol, so‘ngra uglevodorodlar hosil qiladi:



Tiofenlar ham ketma-ket gidrirlanadilar.



Keyingi paytlarda tiofenni gidrirlash reaksiyasi S–C bog‘i hisobiga ketishi, izlanishlar natijasida to‘liq tasdiqlangan bo‘lib, butadien hosil bo‘ladi va u o‘z navbatida gidrirlanib butilen va so‘ngra n-butan hosil qiladi:



Benzindan tashqari gidrotozalashga dizel va reaktiv yoqilg‘ilari hamda ayrim moy turlari ham jalb qilinadi. Ushbu holda oraliq mahsulot bo‘lgan alkenlarni gidrirlash istalgan jarayondir. Hozirgi vaqtida deyarli hamma neftni qayta ishlash zavodlari olinayotgan neft mahsulotlarini oltingugurtli birikmalardan gidrotozalash qurilmalariga ega.

Distillyatlarni gidrotozalash jarayoni

Katalitik gidrotozalash jarayoni neft mahsulotlarini yaxshilash va barqarorligini oshirish maqsadida ularni oltingugurtli, azotli,

kislородли ва metallorganik birikmalardan tozalashda qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda to'yinmagan uglevodorodlar ham qisman to'yinadilar. Gidrotozalash uchun deyarli hamma neft yoqilg'ilarini jalb qilinadi. Bu to'g'ridan-to'g'ri haydab va ikkilamchi kelib chiqishga ega bo'lgan benzin, kerosin, reaktiv va dizel yoqilg'isi, mazut va vakuum-gazoyllardir. Jarayon surkov moylari va parafin komponentlarini hidsizlantirish uchun ham qo'llaniladi.

Yuqorida keltirilgan eng ahamiyatli kimyoviy jarayonlarning qisqacha tavsifidan ko'rinish turibdiki, neftni qayta ishlash va neftkimyoviy sanoatdagagi kimyoviy reaksiyalar texnologik sharoitlari (bosim, atmosfera bosimidan to 20,0 MPa gacha, harorat. 100 dan 700⁰S gacha) va ishlatilgan katalizatorlar bilan bir-biridan anchagina farq qilar ekan.

X BOB. JARAYONLARNI KIMYOVİY ASOSLARI

10.1. Vodorod bilan katalitik reaksiyalarni sinflanishi

Vodorod bilan katalitik reaksiyalarni juda ko'p, turli-tumanligini quyidagicha sinflash mumkin:

1) Katalitik gidrirlash yoki vodorodni qo'shbog' bo'yicha ($C=C$, $C=C$, aromatik $C - C$, $N=N$, $N=C$ va shu kabilar) birikishi.

2) Destruktiv gidrirlash (gidrogenoliz, yoki gidrokrekting) - vodorod ishtirokidagi kreking. Ushbu tipga gidrodealkillash reaksiyalar ham kiradi.

3) Katalitik qaytarish - vodorodni kislorod-saqlovchi birikmalar bilan o'zaro ta'siri.



Neftni qayta ishlash sanoatida birinchi ikki reaksiya tiplari asosiy ahamiyat kasb etadi.



Katalitik qaytarish neft fraksiyalarini kislorod-saqlovchi birikmalardan gidrotozalash jarayonlarida qo'llaniladi.

Gidrogenizatsion jarayonlarini eng maqsadga muvosiq sharoitlari kimyo - termodynamik izlanishlari asosida tanlab olinadi.

10.2. Gidrirlash termodynamikasi va katalizatorlari

Gidrirlash reaksiyalari fizik-kimyoviy qonuniyatlar bo'yicha degidrirlash reaksiyalari bilan ko'p umumiylikka egadir. Gidrirlash hamma reaksiyalari ekzotermikdir. Gidrirlash reaksiyalari asosiyalarining issiqlik effektlari degidrirlash reaksiyalariniki kabi qiymatlarga ega bo'lib, faqat ishorasi bo'yicha qarama-qarshidir. Quyida ayrim reaksiyalar uchun ΔH°_{298} ni kDj/mol dagi qiymatlari berilgan:





Gidrirlanish xususiyati bo'yicha uglevodorodlar quyidagi qatorga joylashadi:

alkenlar > alkinlar > arenlar

Gidrirlash asosiy reaksiyalarining ekzotermikligi oqibatida haroratni ortishi bilan muvozanat degidrirlash endotermik reaksiyalari tomon suriladi. Shuning uchun gidrirlash reaksiyalarini iloji boricha quyiroq haroratda olib borish lozim. Biroq, sanoatda ma'qul bo'lган reaksiya tezligiga erishish maqsadida, jarayon 100-400°S (katalizator aktivligiga va xom ashyoni reaksiyon qobiliyatiga bog'liq holda) va 0,15÷0,5 MPa dan 30÷40 MPa gacha bosimda olib boriladi.

Katalizator to'g'ri va teskari sintez reaksiyalarini birday tezlatishini hisobga olganda gidrirlash va degidrirlash reaksiyalarini bir moddalar tomonidan katalizga uchrashi darkor. Bular asosan I va VIII guruh metallari (Su, Ag, Fe, So, Ni, Pt, Pd), ayrim oksidlar (MgO , Fe_2O_3 , Sr_2O_3 , MoO_3 , WO_3), sulfidlar (M_0C_3 , WS_3) va ko'p funksiyali katalizatorlardir.




10.3. Qo'shbog' bo'yicha gidrirlash

To'yinmagan uglevodorodlar katalizator ishtirokida oson gidrirlanadilar (hattoki xona haroratida ham). Gidrirlashga birinchi navbatda alkadienlar, sung molekulasida qo'shbog' oxirida bo'lган alkenlar va nihoyat, qo'shbog'i molekulani o'rtasidagi alkenlar uchraydilar. Vodorodni chekka qo'shbog'li birikmalarga engil birikishi bunday molekulalarni qo'shbog'i o'rtasida joylashganlarga nisbatan kamroq barqarorligi bilan tushuntiriladi.

Alkinlar, xuddi alkenlar kabi, vodorod bilan engil reaksiyaga kirishadi. Nikelli katalizator ishtirokida atsetilen vodorod bilan xona haroratidayoq reaksiyaga kirisha boshlaydi. Biroq reaksiya 150°S da yaxshiroq ketadi:

10.4. Arenlarni gidrirlash


Benzol halqasi to'yinmagan alifatik birikmalarga nisbatan ancha qiyinroq gidrirlanadi. Vodorodni istalgan turli qo'shbog'larga birikishi ekzotermikdir, benzolni 1,2-digidrobenzolga gidrirlanishi esa endotermikdir. O'zaro ta'sirlashgan qo'shbog'li digidrobenzol oson gidrirlanib, reaksiyalar ekzotermikdir:



Benzolga nisbatan uning gomologlari qiyinroq gidrirlanadi. Agarda benzolni gidrirlash tezligini 1 deb qabul qilsak, gomologlari uchun nisbiy tezliklar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Toluol	0,6	Izopropilbenzol	0,3
Etilbenzol	0,4	1,3,5-Uchmetilbenzol	0,2

To'yinmagan yon zanjirli arenlar katalizator va jarayon sharoitiga bog'lik holda turlicha gidrirlanishi mumkin. Aktiv nikelli katalizatorda ham yonaki zanjir, ham halqa gidrirlanadi; misli katalizatorda esa faqat yon zanjir gidrirlanadi. Shunday qilib, stiroldan etilsiklogeksan yoki etilbenzol olish mumkin:




Kondensirlangan arenlar benzolga nisbatan engilroq gidrirlanadi. Nikelli katalizator ($Ni - Al_2O_3$, 20-30 MPa, 120-200°C) da polisklik arenlarni gidrirlash nisbiy tezliklari quyidagichadir:

Benzol → siklogeksan . 1

Naftalin → tetralin 3,14

Antratsen → 9,10-digidroantratsen... 3.26

Kondensirlangan aromatik sistemalarni gidrirlashdagi asosiy konsepsiya - benzol halqalarini vodorod bilan birin-ketin to'yintirishdir, bunda to'yinishga bog'liq holda reaksiyaning tezligi pasayib boradi. Masalan, antratsenni 9,10-digidroantratsenga gidrirlash nisbiy tezligini (o'rta halqadagi u - uglerod atomlarini tuyinishi) 1 ga teng, deb olinsa, keyingi vodorod mol ini birikish tezligi 0,94 ga, oxirgi halqani gidrirlash tezligi esa 0,01 ni tashkil etadi (nuqtali verguldan keyingi raqamlar reaksiyani nisbiy tezligini ko'rsatadi):



Aromatik halqalarni ketma-ket gidrirlanishi bilan birga hosil bo'lgan to'yingan halqalarni parchalanishi va alkilli arenlar ajralib chiqishi ham mumkin. Aromatik birikmalarni destruktiv gidrirlash reaksiyalari quyida ko'rib chiqiladi.

10.5. Alkenlarni gidrokrekinci


Katalizatorni nordon markazlarida alkenlar karbaktionga aylanib, ushbu zarrachalarga oid reaksiyalarga kirishadi. Ular izomerlanib, β -parchalanishga uchraydi. Bir vaqtning o'zida gidrirlovchi markazlarda ilk alkenlarni va parchalanishda hosil bo'lganlarni ham to'yinishi amalga oshadi. Alkenlarni gidrirlash reaksiyasi bilan ularni ion yo'li bilan o'zgarishlari tezliklari nisbati katalizatorning faolligi bilan belgilanadi.

Yuqori kislotali faollikka ega katalizatorlarda izomerlanish va ionlarni parchalanish tezliklari to'yinish reaksiyasi tezligidan yuqoridir. Bu holat asosan izobutandan tashkil topgan quyimolekulyar tarmoqlangan birikmalarni hosil bo'lishiga olib keladi. Yuqori gidrirlash xususiyatiga ega bo'lgan katalizatorlarda alkenlarni intensiv to'yinishi amalga oshib, natijada katta molekulyar massali kamroq darajada izomerlangan alkanlar hosil bo'ladi.

10.6. Alkanlarni gidrokrekingi

Alkanlar birikish reaksiyasiga noqobil sistema bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun gidrirlash jarayonidan avval albatta destruktsiya (kreking) va ko'pincha - izomerizatsiya jarayonlari keladi. Hosil bo'lgan molekula bulakchalar va qo'shbog'lar usha zahoti vodorod bilan tuyinadi. Birinchi yaqinlashishda gidrokrekingni katalitik kreking bilan gidrirlash jarayonlarini uygunlashtirib ko'rish mumkin.

Alkanlarni destruktiv gidrirlash reaksiyasini quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin:



Gidrokreking jarayonida alkan molekulasi duch kelgan C-C bog'i uzilishi mumkin. Termodinamik hisoblar metan hosil bo'lish reaksiyasi eng katta muvozanat doimisiga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq, sanoat jarayonlarida kinetik faktorlar asosiy ahamiyatga ega bo'lib, turli C-C bog'larni uzilish tezligi tanlab olingan katalizatorga bog'liqidir.

Destruktiv gidrirlashni issiqlik effekti krekingni endoterm i k reaksiyalaridan va gidrirlashni ekzotermik reaksiyalaridan iborat yig'indi bo'lib, keng chegarada tebranib turadi.

Bifunktional katalizatorlardagi alkanlarni gidrokrekingi bir necha bosqichda boradi deb hisoblaydilar. Avvaliga gidrirlash - degidrirlash aktiv markazlarida uglevodorodlar degidrirlanib alkenlar (juda kam konsentratsiyada) hosil bo'ladi. Alkenlar katalizatorni nordon markazlarida karbkationga oson aylanadilar va katalitik krekinga analogik holda zanjirli karbkation jarayonini initsiirlaydi.

Katalitik krekingni gidrokrekingdan asosiy farqi - gidrokrekingda alkanlarni umumiyligi konversiyasi katalitik krekingdagidan yuqori bo'ladi. Bu - gidrokreking katalizatorlarining gidrirllovchi markazlarida alkenlarni oson hosil bo'lishi oqibatidir.

Alkenlar katalitik krekingda ancha qiyin - asosan termik parchalanish hisobiga hosil bo'ladi. Shunday qilib, butun jarayonning tezligini belgilab beruvchi zanjirni initsiirlash bosqichi - eng sekin va energiya ko'p talab qilinadigan zanjir jarayonidir. Ushbu jarayon

gidrokrekingda katalitik krekingga nisbatan tezroq. Gidrokreking mahsulotlari chegaralangan xarakterga egadir. Gidrokreking katalizatorlari kokslanmaydi, chunki alkenlar tezda gidrirlanadilar va polimerlanish hamda zichlashish yuli orqali keyingi o'zgarishlarga uchrashga ulgurmay qo'ladi.

10.7. Sikloalkanlarni gidrokrekingi

Gidrirlovchi katalizatorlar ishtirokida sikloalkanlarni o'zgarishi asosan halqani mumkin bo'lgan barcha bog'larini parchalanishi va undan keyin keluvchi, hosil bo'lgan zarracha ikki chekkasining to'yinishi bilan xarakterlanadi.

Sikloalkan hosilalari alkil guruhiga nisbatan β - bog' bo'yicha ko'proq parchalanadi:

Metilsiklopentan alyumoplatinali katalizatorda 250-270°S da va vodorodni boshlang'ich bosimi 2,1 MPa bo'lganda 7:2:1 nisbatda 2-metilpentan, 3- metilpentan va geksanlarga aylanadi.

Nordon katalizatorlar ishtirokida besh- va olti a'zoli sikloalkan xalqalari kam miqdorda parchalanadi. Asosan olti a'zoli sikloalkanlarni besh a'zolilarga izomerlanishi kuzatiladi. Alkil hosilali sikloalkanlar alkil guruhining holatiga ko'ra izomerlanadilar. Uzun alifatik guruhdi yon zanjir gidrokrekingga uchraydi va oz miqdorda halqaning uzilishi oqibatida C3-C5 alkanlar hosil bo'ladi.


Polisiklik sikloalkanlarni gidrokrekingi, masalan, dekalinniki xuddi shuncha uglerodi bor alkanlarga nisbatan osonroq kechadi. Bisiklik sikloalkanlar asosan monosiklik uglevodorodlarga aylanadi, mahsulotda siklopentan hosilalari yuqori salmoqda kuzatiladi.

10.8. Arenlarni gidrokrekingi


Benzol va uning gomologlarini metangacha gidrokrekingi termodinamik mumkindir:

Undan tashqari, arenlar uglerod va vodorodga elementar parchalanishi ham mumkin. Ammo, amaliyotda ishlab chiqarish sharoitlarida alkil guruhsiz arenlar barqarordir.


Yuqori gidrirlash faolligiga ega katalizatorlarda arenlarni alkilli hosilalari birlin - ketin metan hosil qilib hidrodealkillashga uchratiladi:



Polisiklik arenlarni gidrokrekingi odatta halqalardan birining gidrirlash oraliq bosqichi orqali ketadi; parchalanishga ilk uglevodorodlar emas, balki ularni gidrirlangan hosilalari uchraydi:




Reaksiya o'rin almashmagan va metil hosilali monosiklik arenlar hosil bo'lishigacha ketaori nordon faoliyka ega katalizatorlarda arenlar reaksiyalari gidrirlash katalizatorlarinikiga nisbatan anchagina turli-tuman va murakkabrokdir. Metil — va etilbenzollar izomerlanishga asosan alkil guruhdarini holatiga qarab va disproporsionirlanish reaksiyalariga uchraydi:




Reaksiyani ionli mexanizmiga binoan metil- va etilbenzollarni dealkillash kuchli endotermik jarayon bo'lib, amalda ketmaydi.

Yon zanjirida 3 yoki undan ortik uglerod atomi bor alkilbenzollar xuddi katalitik krekingdag'i kabi dealkillanadi:



Alifatik karbkation izomerlanadi va vodorodga to‘yinishda barqarorlanadi:



Ko‘p sonli uglerod atomli alkilli karbkationlar izomerizatsiyadan so‘ng oxir-oqibatda parchalanib, tarmoqlangan alkanlar aralashmasini hosil qiladi.

Yuqori nordonlikka ega bo‘lgan katalizatorlarda polisiklik arenlar turli alkil guruhli monosiklik arenlargacha gidrirlanib, so‘ngra alkilbenzollar kabi parchalanadilar. Polisiklik arenlarni gidrokrekingi natijasida ancha ko‘p miqdorda tetralin va indanlarning hosilalari ham hosil bo‘ladi.

Turli sinf uglevodorodlarining gidrokrekingi tezliklarini taqqoslash polisiklik tarkiblarni bir aromatik - yoki bir alisiklik halqali uglevodorodlarga gidrirlash tez amalga oshishidan guvohlik beradi. Arenlar va sikloalkanlarning oxirgi halqasini ham parchalab gidrirlash nisbatan sekinroq ketadi. Alkanlarni gidrokrekingi ham nisbatan sekinroq ketadi. Alkanlarni gidrokrekingi ham nisbatan sekinroq boradi. Shunday qilib, reaksiya mahsulotlarida monosiklik aren va sikloalkan hosilalari, hamda ko‘proq tarmoqlangan tarkibli alkanlar yig‘ila boradi.

10.9. Oltingugurtli birikmalarni gidrirlash

Gidrotozalash jarayonlarida oltingugurt - organik birikmalarni destruktiv gidrirlash asosiy reaksiyalar hisoblanadi. Oltingugurt - organik birikmalarni ushbu reaksiyalari birlamchi gidrogenoliz reaksiyalarini bulib, S-S bogini uzilishi va hosil bo‘lgan zarrachalarga vodorodni birikishi kiradi. Natijada mos ravishdagi uglevodorodlar va vodorod sulfid hosil bo‘ladi.

Merkaptanlar bir zumda uglevodorod va vodorod sulfidga aylanadi:




Sulfidlar merkaptanlar hosil bo‘lish bosqichi bo‘yicha gidrirlanadi:






Disulfidlar ham vodorod sulfid va mos holdagi uglevodorodlarga merkaptanlar hosil bo'lish bosqichi orqali gidrirlanadilar:



Siklik sulfidlarda, masalan, tiofanda avval halqa parchalanadi, sung vodorod sulfid uzilib chiqib, mos ravishdagi uglevodorod hosil bo'ladi:



Tiofen, benz - va dibenztiofenlar avval tetragidrotiofen hosilari gida gachalarga gidrirlanib, hosil bo'lgan oralik mahsulotlar alkanlar va arenlarni alkilli hosilalariga aylanadilar:



Gidrotozalash sharoitlarida aromatik halqalarni to'yinishi amalgamoshmaydi; u qattiqroq sharoitlardagina borishi mumkin. Vodorodni oltingugurt - saqlovchi birikmalar bilan o'zaro ta'siri ekzotermikdir. Oltingugurt — organik birikmalarni gidrirlash uchun 300-800 K harorat oraligida termiodinamik chegaralanishlar yo'qdir. Gidrirlashga tiofen va uning hosilalari eng barqarordir. Neft mahsulotlarini tiofen holi da mayjud bo'lgan oltingugurtdan chukur tozalash vodorodni yuqori partsial bosimida (ZMPa va undan yuqori) va 700K dan past haroratlardagina mumkin.

Oltingugurtsizlantirish chuqurligini chegaralovchi faktor sifatida reaksiya tezligini ko'rsatish mumkin. Oltingugurt - organik birikmalarni gidrirlash kinetikasi ularni tuzilishiga bevosita bog'liqidir.

Umuman olganda gidrirlash tezligi quyidagi qatorda oshib boradi: tiofenlar < tetragidrotiofenlar ~ sulfidlar < disulfidlar < merkaptanlar.

Aromatik va alisiklik halqalar sonining oltingugurt - organik birikma molekulalarida oshib borishi ularning barqarorligini oshiradi.

Individual oltingugurt - organik birikmalarni vodorod bilan o'zaro ta'siri birinchi tartibli reaksiyalardagi kabi ketadi.

10.10. Azotli birikmalarni gidrirlash

Azot - organik birikmalar oltingugurt - organik birikmalarga nisbatan anchagina qiyin gidrirlanadilar. Bir xil tuzilishga ega bo'lgan birikmalarda gidrirlashga nisbatan barqarorlik qatorda quyidagicha o'sib boradi: oltingugurt — organik < kislород — organik < azot-organik.

Ushbu tartib bog'larni mustahkamligining o'zgarish tartibiga (K_j/molda) mos kelmaydi:


$S-S$	$S-O$	$C-S$	$C-N$
365,6	292,2	227,5	202,8

Biroq, Balandin ko'rsatganidek, bog'lar gidrogenolizining osonligini molekula bulakchalarini katalizator yuzasidagi atomlar bilan hosil qilgan yangi bog'lari hosil bo'lish energiyasini hisobga olgan holda baholash lozimdir. Nikelli katalizator uchun u (k_j/molda):


$S-S$	$C-N$	$S-S$	$S-O$
187,8	108,5	20,9	16,7

Ushbu kattaliklar uglerodni geteroatomlar bilan hosilq bog'ining nisbiy mustahkamligi ma'lumotlari bilan qoniqarli darajada mos tushadi.


Aminoguruh holida azot saqllovchi birikmalar eng engil gidrirlanadi:




Aromatik halqa bilan bog'langan aminoguruh saqllovchi anilin ancha qiyin gidrirlanadi:




Siklik tarkibda azot ushlagan birikmalar hammasidan ham qiyinroq azotini yuqotadi. Piridin quyidagi sxema bo'yicha pentan va ammiakka aylanadi:



Pirrol gidrirlanib butan va ammiak hosil qiladi:



Bitsiklik - va polisiklik arenlar geteroatom - saqllovchi halqasi bo'yicha gidrirlanishi boshlanadi:



Odatdag'i hidrotozalash katalizatorlari ishtirokida azot - saqllovchi birikmalar amalda tula gidrirlanadi.

10.11. Kislород - saqllovchi va metall - organik birikmalarni o'zgarishlari

Neft mahsulotlarining o'rta distillat fraksiyalarida kislород - spirtlar, efirlar, fenollar va naften kislotalar tipidagi birikmalar holida uchraydi. Yuqori qaynaydigan fraksiyalarda esa kislород asosan «kuprik» boglarda va molekula sikllarida mavjud bo'ladi. Kislород - saqllovchi birikmalarni eng ko'p miqdori smolalar va asfaltenlarda konsentrangan bo'ladi. Fraksiyaning qaynash haroratini oshishi bilan smolalarni miqdori ham ortadi. Masalan, benzinda — 0.1 %, vakuum distillatda 2-3%.

Kislород - saqllovchi birikmalarni hidrogenizatsiyasida mos holda uglevodorod va suv hosil bo'ladi. Smola va asfaltenlar quyiroq molekulyar birikmalarga aylanadilar.

Kislород - saqllovchi birikmalarni hidrotozalash jarayoni ham oltingugurtli qo'shimchalarni yuqotish sharoitlarida olib boriladi. Odatdag'i hidrotozalash katalizatorlari ishtirokida amalda kislорodni tula yuqotilishiga erishiladi.

Neft fraksiyalarida mavjud bo'lgan metall — organik birikmalar faol katalizatorlar yordamida parchalanib, katalitik zarar bo'lmish erkin metall hosil qiladi. Gidrotozalash jarayoni metall — organik birikmalarning ko'p qismini (75-95%) yuqotishga yordam beradi.

Jarayon makrokippetikasi

Yuqorida ayтиб utilganidek, geteroorganik birikmalardan gidrotozalash $27\text{-}527^{\circ}\text{S}$ harorat oraligida termodinamik cheklanishlar ega emas, va tozalash darajaei esa kinetik faktorlar bilan aniqlanadi. Reaksiya tezligi harorat bilan oshadi, biroq gidrokrekting reaksiyalarning ulushi ham ortadi. Odatda harorat $250\text{-}420^{\circ}\text{S}$ oraliqda tanlab olinadi.

Engil neft fraksiyalarini gidrotozalashda gaz-fazali reaksiyaning tezligi vodorodni partsial bosimi $2\text{-}3 \text{ MPa}$ bo'lguncha oshib boradi va undan sung deyarli o'zgarmaydi.

Yuqori qaynovchi fraksiyalarini tozalash suyuq - fazali jarayonida vodorod bosimini oshirishning yuqori ko'rsatkichlarida ham reaksiya tezligi osha boradi; bunda vodorodni katalizator yuziga suyuqlik pardasi orqali transporti tezlashadi. Bosimni ortishi uskunalarini qimmatlashiga sabab bo'ladi va shu bois bosim $7\text{-}8 \text{ MPa}$ bilan chegaralanadi.

Real sanoat xom ashyolarini gidrotozalash jarayonining kinetikasini o'r ganish bortalay murakkablikka egadir. Ushbu qiyinchiliklar oltingugurt -, azot — saqlovchi va boshka geteroatomli birikmalar turli sinflari reaksiyalarining tezligi 10 va undan ham yuqori barobar qiyatlarga farqlanishi, hamda jarayon davomida katalizator faolligining o'zgarishlari tufaylidir.

Individual oltingugurt — organik birikmalarni vodorod bilan o'zaro ta'siri birinchi tartibli reaksiya bo'yicha ketadi. Biroq, neft fraksiyalarini gidrotozalash jarayoni uchun u ikkinchi tartibli bo'lib ko'rindigan reaksiya tajriba ma'lumotlariga eng yaxshi yaqinlashadi. Reaksiya tartibining o'zgarishi, ko'rinishdan, eng reaksiyaga qobiliyatli birikmalarni gidrirlanishish oqibatida reaksiya tezlik doimiyini doimiy pasayishi bilan tushuntiriladi. Yuqori haroratda, kimyoviy reaksiyani tezligi keskin ortganda yigma o'zgarishlar tezligi xom ashyoni katalizator govaklariga diffuziyasi bilan belgilanadi. Bunda reaksiya tartibi pasayib, birinchi tartibliga

yaqinlashadi. Ogir xom ashyo turlarini tozalashda ichki diffuziya tormozlanishlarni kamaytirish uchun g'ovaklik ulchamlari 10 nm dan kattaroq bo'lган katalizatorlar ishlashish tavsiya etiladi. Distillat mahsulotlarni oltingugurtsizlantirish aktivlanish energiyasini zoxiriy kattaligi 340-425°S intervalda 54 dan 113 KDj/kg gacha o'zgaradi; neft qoldiqlari uchun ushbu ko'rsatkich 58 KDj/kg ga tengdir. Ushbu harorat intervalida hamma hollarda, ko'rinishcha, reaksiya ichki diffuziya oblastida ketadi. Xom ashynoni hajmiy berish tezligi xom ashydagi geteroatomli birikmani miqdoriga va tipiga, xom ashynoni olinish texnologiyasiga (birlamchi, ikklamchi) va tozalashni talab qilingan chuqurligiga bog'liq bo'ladi. Odatda u juda keng chegarada (0,5 dan Yus' 'gacha) o'zgarib turadi. Yukori miqdorda tiofenli xom ashynoni gidrotozalash oltingugurti merkaptanlar va sulfidlar holida bo'lган xom ashyoga nisbatan kamroq hajmiy tezlikda olib boradilar.

Ogir xom ashynoni va ikklamchi kelib — chiqishga ega bo'lган xom ashynoni qayta ishslash to'yinmagan uglevodorodlar va polisiklik arenlarni yuqori miqdorlari bois, hamda yuqori molekulyar geteroatomli birikmalarni yuqotish qiyinchiligi sababli quyi hajmiy tezlik talab qilinadi.

10.12. Vodorodni sarfi. Gidrotozalashni issiqlik effekti

Gidrotozalash jarayoni narxiga katta ta'sir etuvchi faktorlardan biri vodorodni sarfidir. Vodorod geteroatomli birikmalarni, alkenlarni to'yinishi va polisiklik arenlarni gidrirlash reaksiyalariga sarf bo'ladi.

Quyida gidrotozalash jarayonida vodorodni sarfi (% massaviy)	
bo'yicha ayrim ma'lumotlar keltirilgan (xom ashyoga nisbatan):	
To'g'ridan-to'g'ri haydab olingan benzin - katalitik riforming xom ashysosi	0,1
Piroliz benzini (selektiv tozalash)	0,3
Ikklamchi kelib chiqqan benzin	1,1-1,3
To'g'ridan-to'g'ri haydab olingan dizel yokilgisi	0,5-1,0
Moy fraksiyalar (gidrirlash)	1,65-2,0
Mazut (oltingugurtdan tozalash 75%).....	1,0
Gudron (oltingugurtdan tozalash 70%).....	1,0

To'yinmagan uglevodorodlari yuk to'g'ridan-to'g'ri haydab olingan mahsulotlari ni gidrotozalash nisbatan kup bulmagan issiqlik (50-84 kDj/kg xom ashyoga) ajralishi bilan ketadi, shu sababli reaksiya zonasida haroratni tuslab turish uchun maxsus tadbirlashni qo'llash talab qilinmaydi. Ko'p miqdorda to'yinmagan uglevodorodlari mavjud ikkilamchi kelib chiqishga ega bo'lган xom ashyoni gidrotozalashda issiqlik ajralib chiqishi shu darajadagi, u reaktorni seksiyalanishi zaruratini yuzaga keltiradi.

10.13. Benzin fraksiyalarini gidrotozalash

Katalitik riforming uchun • mo'ljallangan benzin fraksiyalarini gidrotozalash jarayoni riformingni platinali katalizatorini zaxarlovchi oltingugurt - va azot saqlovchi birikmalarni, to'yinmagan uglevodorodlar va metall-organik birikmalarni yuqotish uchun mo'ljallangan. Odatda katalitik riforming qurilmasida gidrotozalash alohida blok holida rasmiylashtiriladi.

Tozalashga to'g'ridan-to'g'ri neftdan haydab olingan, katalitik kreking, termik kreking va kokslash jarayonlari benznlari jalb qilnadi. Jarayon alyumokobaltmolibdenli katalizatorda 380-420°S da, 2,5-5 MPa bosimda, xom ashyoni hajmiy tezligi 5,0s⁻¹ da va vodorod - saqlovchi gazni sirkulyatsiyasi 100-600 m³/m xom ashyoga nisbatan bo'lгanda olib boriladi. Gidrotozalash jarayonida odatda katalitik riformingda hosil bo'ladigan vodorod - saqlovchi gaz ishlataladi. Ushbu gazdagagi vodorodning konsentratsiyasi 60 dan 90% (hajmiy) gacha o'zgarishi mumkin.

To'g'ridan-to'g'ri haydab olingan 0,5% (mass.) gacha oltingugurti bo'lган benzin fraksiyasini yuqorida ko'rsatilgan sharoitlarda tozalash natijasida mahsulot tarkibida oltingugurt miqdori 0,002% (mass.) dan, azot miqdori esa 0,001% (mass.) dan oshmaydi. Smolasimon va metall-organik birikmalar esa deyarli tula yuqotiladi.

Termik kreking va kokslash jarayoni benznlarida 40% gacha to'yinmagan uglevodorodlar, 1% dan ortik oltingugurt va 0,01-0,001% azot bo'ladi. Bunday mahsulotlarni gidrotozalash qiyinroq amalga oshadi. Jarayondan sung tuyinmagan birikmalarni miqdori 0,5-1,0% gacha qisqaradi, oltingugurtni miqdori esa 0,01% gacha

pasayadi. Ushbu benzinni riforming xom ashyosi qilib ishlatsa oltingugurt birikmalaridan qo'shimcha tozalash talab qilinadi.

Sirkulyatsiya qilinayotgan vodorod-saqlovchi gazdagi oltingugurti monoetanolamin bilan yuqotiladi.

Kerosin - gazoyl va moy fraksiyalarini gidrotozalash

Kam oltingugurtli reaktiv, dizel va qozon yoqilg'ilarini, hamda oltingugurtli distillat fraksiyalaridan olinadigan katalitik kreking xom ashyosini ishlab chiqarishda gidrotozalash ahamiyatli o'rinni egallaydi. Ko'pchilik hollarda jarayon alyumokobaltmolibdenli yoki alyumonikelmolibdenli katalizatorlarda amalga oshiriladi. Jarayonni olib borish harorati xom ashya turiga va olinayotgan mahsulotlarni kaerda ishlatilishiga bog'liq bulib, 380-420°С oralivda bo'ladi. Xom ashyoni berish tezligi 2-5s'', sirkulyatsiya qilinayotgan gazni tezligi 300-600 m'/m' xom ashyyoga nisbatan bo'ladi. Geteroatomli birikmlarni yuqotilishi bilan bir qatorda polisiklik arenlarni gidrirlash ham amalga oshadi.

Gidrotozalash jarayonida hosil bo'lган suyuq mahsulotlarni salmogi 97-98% (massaviy)ga etadi. Maksadli yonilgi bilan birga katalitik riforming xomashyosiga qushimcha 1-2% (mass) quyi oktanli benzin, 1.5-3% (mass.) vodorod sulfid (oltingugurt va sulfat kislota ishlab chiqarishda - xom ashya) va 0,5-1,0% (mass) S_{GS}4 uglevodorod gazlari hosil bo'ladi.

Moy fraksiyalarini gidrotozalash natijasida ularni rangi yaxshilanadi, oksidlanishga barqarorligi va qovushqoqlik indeksi ortadi. Gidrotozalangan moylar sifati bo'yicha kontaktli tozalangan moylari ustundir.

Neft qoldiqlarini gidrotozalash

Neftni to'g'ridan-to'g'ri haydash qoldiqlari qozon yoqilg'isi sifatida ishlatuvchi mazutlar odatda gidrotozalashga uchratiladi.

Odatda yuqori haroratda qaynovchi geteroatomli - va metall — organik birikmalar hamda smolalar va asfaltenlar qoldiq neft fraksiyalarida konsernlananadilar. Oltingugurti mazutdag'i miqdori deyarli ikki barobar ilk neftdag'i miqdoridan ko'proqdir.

Qoldiq neft fraksiyalarini gidrotozalash ko'pgina qiyinchiliklar bilan o'zaro bog'langan: birinchidan, yuqori qaynash fraksiyalarida oltingugurtni barqaror bo'lgan tiofen, benz - va dibenztiofen tuzilishli birikmalari mavjuddir; ikkinchidan, qoldiq mahsulotlarni yuqori kovushkokligi vodorodni katalizator yuzasiga diffuziyasini qiyinlashtiradi; va nihoyat, xom ashyoda kondensirlangan arenlarni, smolalarni, asfaltenlarni hamda metall - organik birikmalarni yuqori miqdorlari bois, katalizator tez kokslanadi va aktivligini yuqotadi.

Hozirgi vaqtida qoldiqlarni tozalash bo'yicha ikki usul mavjud: bilvosa va to'g'ridan-to'g'ri. Bilvosa gidrotozalashda mazutdan vakuumda 60% mahsulot xaydaladi, so'ngra gidrotozalanadi va tozalanmagan qoldiq bilan aralashtirib yuboriladi. Natijada oltingugurt miqdori 40-45% ga pasayadi, kukun hosil bo'lishi va vanadiyni miqdori kam uzgaradi.

Qoldiqlarni to'g'ridan-to'g'ri oltingugurt-sizlantirish fakatgina xom ashyoni avvaldan tayyorlash yo'li bilan mumkindir. Katalizatorni tezda dezaktivlanishini oldini olish uchun qator hollarda arzon yoki ishlatib bo'lingan katalizatorli forreaktor o'rnatish kuzda tutiladi. Forrektor tez va tez-tez katalizatorni almashtirish qurilmasi bilan ta'minlanadi. Katalizatorni ko'p sarflanishi gidrotozalangan mazut narxini anchagina ko'tarilishiga olib keladi.

Qoldiqlarni avvaldan deasfaltlash, vnsbreking qilish yoki koks-lashlardan sung gidrotozalash jarayonlari ishlab chikilgan.

Neft qoldiqlarini gidrotozalash jarayonlari oldida turgan asosiy muammo - koks va metall qatlamlari hosil bo'lishi sharoitida ishlochi yuqori barqarorlik va mustahkamlikka ega maxsus katalizatorlar sintez qilishdir.

Ushbu vazifani umumkabul qilingan yollaridan biri — makro-govak tuzilishli katalizatorlar tayyorlashdir.

Gidrootingugurtsizlanishda texnik progressi asosiy yunalishi — jarayonlar tezligini ko'tarish va nafaqat distillatli mahsulotlarni gidrotozalash, kam oltingugurtli qozon yoqilgilarini olishda qo'llaniladigan «xom» neft va neft qoldiqlari bo'l mish tobora og'irroq xom ashyo ham qayta ishlanmoqda.

Jarayon makrokinetikasi

Iqtisodiy samarali jarayonlarni vujudga keltirish uchun va ularga optimal reaktor turlarini tanlash uchun jarayon mikrokinetikasi, vodorodni sarfi va reaksiyalarni issiqlik effekti bo'yicha ancha keng ma'lumotlar bo'lishi lozim.

Gidrokreking jarayoni sharoitlarida xom ashyo quyidagi yo'nallishlar bo'yicha reaksiyaga kirishadi: birinchi navbatda, gidrogenolizga nouglevodorod birikmalar uchraydi, natijada xom ashydadan geteroatomli birikmalar N_2O , NH_3 va H_2S holida chiqib ketadi.

Bir vaqtning o'zida to'yinmagan xarakterli uglevodorodlar gidrirlanadi. Alkenlarni gidrirlanishining to'liqligi ularni molekulyar massasiga, jarayonni rejimiga va qo'llanilgan katalizatorga bog'liqdir. Gidrirlash tezligi to'yinmagan uglevodorod molekulasi dagi uglerod atomlari sonini ortishi bilan pasayib boradi. Etilenga nisbatan oktilen deyarli ikki marotaba sekinroq gidrirlanadi.

Alkenlarga nisbatan arenlar ancha qiyin gidrirlanadi. Gidrokreking jarayoni sharoitlarida yon zanjirni uzilishi, oddiyrok arenlar, hamda sikloalkanlar va tarimoqlangan alkanlarni hosil bo'lishiga olib keluvchi polisiklik arenlarni gidrirlash amalga oshadi. Aromatik halqalarni kondensatsiyasi va koksni hosil bo'lishi kuzatilmaydi.

Polisiklik sikloalkanlar monosiklik hosilalarigacha gidrirlanadi. Alkanlar parchalanishga va izomerlanishga uchraydi.

Shunday qilib, sanoat katalitik jarayoni sharoitlarida ko'pgina, turli-tuman paralel — ketma-ket reaksiyalar ketadi.

Gidrokreking natijalari — ayrim reaksiya turlarini turlicha tezlatuvchi katalizator xususiyatlariga ko'proq bog'liqdir.

Jarayon kinetikasini o'rganish ayrim reaksiyalarni o'zaro ta'sirlashuvi tufayli murakkablashadi. Tahlil qilishni soddalashtirish uchun ularni shartli ravishda o'zaro bog'liq emas, deb qurilishi mumkin. Ammo bunday yondoshish orqali ham tula jarayon haqida analistik talqin berish qiyin. Jarayonni asosiy yunalishlarini va oxirgi natijalarini urganib, ayrim xulosalar chiqarish mumkin.

Parchalanish va izomerizatsiya tipik I tartibli reaksiyalardir. Gidrirlash va destruktiv gidrirlash - II tartibli reaksiyalardir. Biroq, sistemada vodorod katta ortikchilikda bo'lgani bois bular ham I tartibli reaksiya tenglamasi bilan izoblanadi. Shunday qilib,

gidrokreking yaxlit olganda psevdomolekulyar jarayondir va I tartibli reaksiyalar kinetik tenglamalari bilan qoniqarli ifodalanishi mumkin.

Gidrokrekingni olib borish optimal harorati odatda $300\text{-}425^{\circ}\text{S}$ dir. Quyirot haroratda reaksiya kichikroq tezlikda ketadi. Haroratni o'ta yuqori ko'tarish gidrirlash reaksiyasi termodinamik faktorlari bilan chegaralangan. Undan tashqari, yuqorirok haroratda eng katta aktivlanish energiyasi bilan boruvchi parchalanish reaksiyalar an-chagina tezlashadi, buni natijasida engil fraksiyalar va gaz salmoqlari oshadi.

Jarayonni minemal haroratda olib borish ma'qulligi bois gidrokreking xom ashyni berish hajmiy tezligi $0.3\text{-}0.7\text{s}^{-1}$ - quyidir. Vodorodsakpovchi gaz $500\text{-}2000 \text{ m}^3/\text{m}^3$ xom ashyyoga — miqdorda beriladi. Mayjud xom ashyodan olinayotgan mahsulotlar qanchalik engil bo'lsa, vodorodni sarfi shuncha kup va vodrod: xom ashyo nisbati ham shuncha yuqori bo'lishi kerak.

Engil gazoillarni qayta ishlashda kerakli bosimni minemal qiymati $400\text{-}425^{\circ}\text{S}$ da taximidan 7 MPa ni tashkil etadi. Ogor gazoillar va ayniqsa qoldiq xom ashylar uchun polistiklik sistemadagi sikloalkanlar halqalarini kaytar degidrirlash reaksiyasini oldini olish maqsadida yuqorirok bosim talab qilinadi.

Amaliyotda to'g'ridan-to'g'ri haydab olingan engil gazoilni qayta ishslash uchun 7 MPa bosim qo'llaniladi; ogor xom ashyo - vakuum gazoil va katalitik kreking gazoil uchun - $10\text{-}15 \text{ MPa}$; neft qoldiqlarini gidrokrekingi esa 20 MPa bosimda amalga oshiriladi.

Vakuum-gazoil, kreking-qoldiq va mazutni $380\text{-}460^{\circ}\text{S}$ harorat oraligidagi tuyulma aktivlanish energiyasi $125\text{-}210 \text{ kj/mol}$ ni tashkil etadi. Reaksiya uchun vodorodni sarfi - jarayonni maqsadi, ishlatilayotgan xom ashyo, katalizator, jarayon rejimi va boshqa faktorlarga bog'liqidir. Vodorod sarfi (% massaviy) haqidagi ba'zi-bir ma'lumotlar turli gidrokreking jarayonlar uchun xom ashyyoga hisob qilingan holda quyida keltirilgan:

Vakuum-distillatlarni bir bosqichli gidrokrekingi:	
Resirkulyatsiyasiz	0,9-1,2
Resirkulyatsiya bilan	1,5-1,8
Vakuum-distillatlarni ikki bosqichli gidrokrekingi	2,4-4,1
Katalitik kreking engil gazoillarini gidrokrekingi va gidrodeai qo'llash	4,6-5,7

Gidrokrekingni issiqlik effekti gidrirlash va parchalanish reaksiyalarini nisbatlari bilan aniqlanadi. Odatda parchalanishni manfiy issiqlik effekti gidrirlash reaksiyasini musbat issiqlik effekti bilan yopiladi. Umuman olganda, gidrokreking jarayonini issiqlik effekti -208 dan to 834 kJ/kg xom ashyogacha o'zgarishi mumkin.

Oltингуртли нефт вакуум - дистиллятори гидрокрекинг маҳсулотлари

Jarayon shartlari: bosim - 15 MPa; har bir bosqichdagi xajmiy tezlik vodorod saqlovchi gazni sirkulyatsiya soni - 1000-1700 m³/m³ xom ashyodaga; I bosqich harorati 420°С, katalizator - Al-So-Mo; II bosqich harorati 320-425°С, katalizator – alyumosilikatdagi Ni yoki Pt

Ko'rsatkichlar	Maqsadli mahsulot (olish varianti)			
	benzin	reaktiv yoqilg'i	dizel yoqilg'i	benzin va dizel yoqilg'i
1	2	3	4	5
100 % li vodorodni sarfi	4,10	3,82	2,40	3,63
salmogi, xom ashyoga nisbatan, % da:				
Tsuruk gaz (+ yukotishlar)	6,50	7,62	5,70	6,83
Vodorod sulfid	2,30	2,30	2,30	2,30
C3-C4 fraksiya (suyultirilgan gaz)	10,60	10,20	4,30	8,40
benzin fraksiyaları				
C ₅ -C ₈	-	23,20	-	-
C ₅ -Cb (engil benzin)	17,62	-	2,60	9,20
C7-C10	33-40	-	12,80	20,40
kerasin fraksiyasi				
120-240°С	-	41,50	-	-
dizel fraksivasi				
180-350°С	25,40	-	66,90	47,00
240-350°С	-	10,00	-	-
gazoil fraksiyasi				
350-450°С	8,30	10,00	7,90	9,50

Benzin varianta xom ashyo nisbatan hisob qilganda 51 % benzin olish imkoniyatini beradi. Bunda 0,01 % oltингуртли mahsulotlar - engil benzin (C₅-C₆ fraksiya) ni oktan soni 82 ga, C₇-C₁₀ fraksiyaniki esa 66 (motor usuli) ga ega bo'ladi. C₇-C₁₀ fraksiya oktan sonini oshirish uchun riformingga uchratilishi mumkin. Ushbu variantda 25,4 % salmoqda (xom ashyoga nisbatan) olinadigan dizel yoqilg'isi (180-

350°S fraksiya) 50-55 tsetan soniga ega bulib, uzida 0,01 % oltingugurt saqlaydi va – 10°S dan yuqori bulmagan haroratda qotadi. Ushbu fraksiya yozgi dizel yokilgisi standarta hamma talablariga javob beradi.

Reaktivli - yokilgi varianti 41,5 % gacha, reaktiv yoqilg'i standarti talablariga javob beruvchi 120-240°S fraksiyasini olish imkoniyatini beradi. Dizelli - yoqilg'i yo'nalishi bo'yicha ikki boshqa variantlarda 47 va 67 % miqdorda tsetan soni 50 bo'lgan dizel yoqilg'isi olish mumkin.

Hamma to'rttali variantlarda ham yuqorida ko'rsatilgan mahsulotlardan tashqari vodorod sulfid, quruq va suyultirilgan gazlar olinadi. Benzin variantidagi C₃-C₄ fraksiyada 30 % gacha izobutan mavjud.

Gidrokreking jarayonini istikboliy yunalishi - moy fraksiyasini qayta ishlashdir. Moylarni chuqur gidrirlash ularni qovushqoqlik indeksini 36 dan 85-100 gacha oshirishga, oltingugurt miqdorini 2 % dan 0,04-0,1 % gacha pasaytirishga va kokslanishni deyarli 10 martaga kamaytirishga olib keladi. Jarayon ikki bosqichda amalgamashiriladi. Birinchi bosqichda oltingugurt — va azotga chidamli katalizatorlar ishtirotida * 400°S da polisiklik birikmalarni gidrotozalash va gidrirlash jarayoni ketadi, ikkinchi bosqichda esa - 320-350°S da qushimcha tozalash va gidroizomerizatsiya. Xom ashyo sifatida vakuum - distillatlar va deasfaltizatlar ishlatiladi. Yukori indeksli moylar olish uchun polisiklik arenlar va sikloalkanlarni chukur gidrirlash va parchalash talab qilinadi, shu sababli lozim bo'lgan bosim 10,0-30,0 MPa ni tashkil etadi.

Yukori bosim uskunalarini uchun katta kapital mablag'lar hamda anchagina miqdorda vodorod istemol qilinishlari bog'liq bo'lgan hidrokreking - nisbatan qimmat turuvchi jarayon bo'lishga qaratmay, u tez sanoat rivojiga ega bo'ldi va qator hollarda katalitik krekingga konkurensiya qilish qobiliyatiga ega.

Neft fraksiyalarini kayta ishlashni boshqa jarayonlariga nisbatan hidrokrekinni asosiy avzalliklari quyidagilardir:

1. Jarayonni tez o'zgaruvchanligi - ya'ni, bir xom ashysidan maqsadli turli mahsulotlarni olish mumkinligi, hamda og'ir benzindan tortib to neft qoldiqlariga turli-tuman xom ashyo turlarini qayta ishslash imkoniyatlarini borligi;


2. Rangsiz mahsulotlarni katta salmog'i; masalan, reaktiv yoqilg'ini neftga nisbatan salmog'ini 2-3% dan 15 % gacha, qishki dizel yoqilg'i salmog'i esa 10-15% dan 100 % gacha;
3. Olinadigan mahsulotlarning yuqori sifatdaligi.

Arenlarni alkilli hosilalarini gidrodealkillash

Hamma arenlar ichida benzol eng ko'p sanoat ahamiyatiga ega. Hozirgi vaqtda u quyidagi 5 asosiy usullar bilan olinadi: ko'mirni kukslashda olinadigan engil moydan ajratib olish; piroliz; dealkillash va gidrodealkillash; geksinni degidrosiklizatsiyasi.


Gidrodealkillash jarayonini asosiy mazmuni - arenlarni alkilli hosilalarini yon zanjirsiz arenlarga va alkanlarga aylantirishdan iborat.

Ko'pincha ushbu usul yordamida toluoldan benzol, metil - va dimetilnaftalinlardan esa naftalin quyidagi reaksiyalar bo'yicha olinadi:



Agarda gidrodealkillashga nest fraksiyasi duchor qilinsa, bir vaqtning o'zida azot - va oltingugurt - saqllovchi birikmalarni parchalanishi amalga oshadi.

Asosiy yonaki reaksiyalar - aromatik halqalarni kondensatsiyasi va arenlarni chuqur gidrirlanishi hisoblanadi. Kondensatsiya reaksiyasi maqsadli mahsulotni salmog'ini pasayishiga va katalizatorni kokslanishiga olib keladi. Gidrirlash reaksiyalarida nafaqat arenlar va vodorod sarflanadi, shuncha miqdorda issiqlik ajralib chiqadiki, ayrim hollarda jarayonni boshqarish mumkin bo'lmay ham qoladi:




Gidrirlash jarayonini oldini olish uchun reaksiyani arenlar boshqa sinf uglevodorodlariga nisbatan yuqoriroq termodinamik barqarorlikka egaligi bois, yuqori harorat oblasti (540°S dan yuqori) da olib boriladi.

Koks hosil bo'lishiga sababchi bo'ladigan reaksiyalarni oldini olish uchun vodorodni yuqori partsial bosimi talab qilinadi, biroq shu bilan birgalikda aromatik halqalarni gidrirlash termodinamik ehtimoli oshadi. Ushbu faktorlarni ustma-ust tushishi oqibatida bosimning yuqori chegarasi odatda 7-8 MPa dan oshmaydi.

Sanoatda gidrodealkillash jarayoni termik va katalitik usullar bilan amalga oshiriladi.

Termik gidrodealkillash

Termik gidrodaalkillash $\approx 700^{\circ}\text{S}$, 3-10 MPa bosimda olib boriladi. Tuluolni benzolga aylanishi 209-230 kJ/mol aktivlanish energiyası bilan birinchi 1-tartibli reaksiya kabi ketadi. Konversiya 98 % ga etadi. Reaksiya mezanizmi - radikal-zanjirli:



Toluol ni gidrodemetillash natijasida ~ 543 kDj/kg xom ashyoga energiya ajralib chiqadi. Yuqorimolekulyar birikmalar hosil bo'lishini oldini olish uchun reaksiyon zonaga 10-15 % suv bugi kiritiladi.

Katalitik gidrodealkillash


Toluol va metilnaftalinlarni katalitik gidrodealkillash — gidrokrekinqi xususiy holidir. Katalitik jarayon termikka nisbatan pastrok haroratda, odatda 550 - 650°S da; 4-8 MPa bosim, $0,5$ - 1 s $^{-1}$ hajmiy tezlik va vodorod: xom ashyoni 5:1 dan 10:1 gacha molli nisbatlarida ketadi.

Gidrodealkillash reaksiyalari eng tula va etarli selektivlik (95 % dan yuqori) da alyuminiy oksididagi molibden, kobalt, xrom oksidli katalizatorlar ishtirotida ketadi. Kislotali aktiv markazlarda afzalrok keturchi koks hosil bo'lishini oldini olish uchun katalizatorga


ishqoriy metallar birikmasi yoki suv kiritiladi. Suv Al₂O₃ tipdag'i oksidlarga xemosorbsiyada yuqori qobiliyatga ega bo'lib, ehtimol, koks hosil bo'lishini oldini oluvchi yuqorimolekulyar birikmalarni katalizator yuzasidan sitib chiqaradi. Suv bug'ini uglerod oksidi va (II) oksidi hosil qiluvchi uglerodli qatlamlaridagi uglerod bilan o'zaro ta'siri ham mumkindir.

Molibden va kobalt birikmalari qushimcha tseolitli - NpAX katalizatorlar qo'llash gidrodealillashni ≈ 500°С va 3.0 MPa bosimda olib borish imkoniyatini beradi.

Toluol va boshqa arenlarni dealkillash pastrok harorat (≈375°С) da suv bugi bilan atmosfera bosimida nikelli yoki nikelxromli katalizator ishtirokida amalga oshirish mumkin. Ushbu jarayonda benzol quyidagi reaksiyalar natijasida hosil bo'ladi:



Jarayonni o'ziga xos illati - vodorod dealkillash jarayoniga tash-qaridan sarflanmaydi, balki jarayonda hosil bo'ladi. Bu esa amali-yotda hech ikkilanmay, qiziqish uyg'otadi. Yonaki reaksiyalar sifatida quyidagilar ketadi:



Jarayonni optimal sharoiti - 350-400°С, suv: toluol molli nisbati 3-4 ga teng. Jarayonga berilgan toluolga nisbatan benzolni salmog'i 40-50 % ga etadi; reaksiyaga kirishgan bo'yicha esa - 90 % gacha.

Gidrodealkillash bilan benzol olish uchun optimal xom ashyo katalitik riforming mahsulotlaridan ajratib olinadigan toluoldir. Benzol ishlab chiqarish uchun istiqbolli xom ashyo bo'lib neft asosidagi xom ashyonи pirolizi suyuq mahsulotlaridir.

Naftalin olish xom ashysosi sifatida asosan bitsiklik arenlar saqlovchi katalitik riforming, kreking, piroliz jarayonlari distillatlarini yuqori aromatlangan fraksiyalari va boshqa mahsulotlar xizmat qilishi mumkin.

NEFT VA GAZ KIMYOSI FANI BO'YICHA GLOSSARIY

Absorber	Gazlarni suyuq yutuvchilar yordamida qo'shimchalardan tozalash uchun qurilma	Аппарат для сушки и очистки газа от примесей с помощью жидких поглотителей. Для увеличения поверхности контакта газа с жидкостью, газ направляется снизу вверх, а встречный поток поглотителя разбрызгивается на специальных тарельчатых или сетчатых поверхностях в верхней части колонны.	The device for drying and cleaning gas from impurities with the help of liquid absorbers. To increase the contact surface of the gas with the liquid, the gas is directed from the bottom up, and the counterflow of the absorber is sprayed on special plate or mesh surfaces at the top of the column.
Absorbsiya	Gaz aralashmasidagi propilendan pentangacha bo'lган fraksiyalarni ajratib olish uchun ishlatalidi. Ajralayotgan	Поглощение вещества веществом, характеризующееся проникновением абсорбированного вещества в массу абсорбента.	Absorption of a substance by a substance, characterized by the penetration of the absorbed substance into the mass of

	qismda etan va etilen ham uch-rashi mumkin		the absor-bent.
Adsorber	Gazlarni qattiq yutuvchilar yordamida qo'shimchalar-dan tozalash uchun qurilma	аппарат для осушки и очистки газа от примесей с помощью твердых поглотителей. В системах подготовки газа обычно устанавливают несколько адсорберов, с периодическим переключением режимов работы аппарата: «осушка» — «регенерация адсорбента»; это обеспечивает непрерывность процесса очистки газа. Регенерацию адсорбента проводят нагреванием до 200 — 300°C.	The device for drying and cleaning gas from impurities with the help of solid absorbers. In gas treatment systems, there are usually installed several adsorbers, with periodic switching of the operating modes of the apparatus: "drying" - "regeneration of the adsorbent"; This ensures the continuity of the gas purification process. The regeneration of the adsorbent is carried out by

			heating to 200-300 ° C.
Adsorbsiya	<p>Qattiq yutuv-chi-adsorbent yuzasigasuyuq yoki gazsimon moddalarni yutilishi.</p> <p>поглощение поверхностным слоем тела жидкого или газообразного вещества твердыми поглотителями – адсорбентами.</p> <p>Адсорбенты обычно имеют развитую удельную поверхность – до нескольких сотен $\text{m}^2/\text{г}$. В нефтегазопромышленной практике в качестве адсорбентов используют силикагель, цеолиты, безводный хлористый кальций и др. Адсорбция используется в технике, в частности, при очистке нефтепродуктов.</p>	<p>поглощение поверхностным слоем тела жидкого или газообразного вещества твердыми поглотителями – адсорбентами.</p> <p>Адсорбенты обычно имеют развитую удельную поверхность – до нескольких сотен $\text{m}^2/\text{г}$. В нефтегазопромышленной практике в качестве адсорбентов используют силикагель, цеолиты, безводный хлористый кальций и др. Адсорбция используется в технике, в частности, при очистке нефтепродуктов.</p>	<p>Absorption by the surface layer of the body of a liquid or gaseous substance by solid adsorbents-adsorbents. Adsorbents usually have a developed specific surface - up to several hundred m^2/g. In oil and gas industry, silica gel, zeolites, anhydrous calcium chloride, etc. are used as adsorbents. Adsorption is used in engineering, in particular, in the purification of petroleum products.</p>

Gazokondensat	Tarkibida ko'rmiqdorda metan, hamda nefstni benzin, kerosin, ayrim holatlarda dizel fraksiyasiga kiruvchi yuqori molekulalgi uglevodorodlar bo'ladi.	жидкие углеводороды, встречающиеся в соединении с природным газом.	Liquid hydrocarbons encountered in conjunction with natural gas.
Uglevodorod	Uglerod va vodoroddan tashkil topgan kimyoviy birikma	химическое соединение, в состав которого входят только углерод и водород.	A chemical compound containing only carbon and hydrogen.
Termik kreking	Kimyoviy jarayon bo'lib, yuqori temperatura va bosim ta'sirida, ma'lum t'ichida boradi. Bunda uglevodorodlar bir vaqt ni o'zida, parchalanish, boshqa guruhga o'tish, zichlanish kabi reaksiyalar bo'rishi mumkin.	высокотемпературная переработка нефти и ее фракций с целью получения, как правило, продуктов меньшей мол. массы-легких моторных и котельных топлив, непредельных углеводородов, высоконасыщенных, сырья, кокса нефтяного.	High-temperature processing of oil and its fractions in order to obtain, as a rule, products of a smaller molecular weight. Mass-light motor and boiler fuels, unsaturated hydrocarbon, and high-matinizir. Raw materials, petroleum coke.

Масла нефтяные	Yuqori haroratda qaynovchi suyuq uglevodorodlar aralashmasi.	жидкие смеси высококипящих углеводородов (температура кипения 300-600 °C), главным образом, алкил-нафтеновых и алкилароматических, получаемые переработкой нефти. Применяются для смазки двигателей, промышленного оборудования и приборов, для электроизоляционных целей, в качестве рабочих жидкостей в гидросистемах, при обработке металлов, в медицине, парфюмерии и т. п.	Liquid mixtures of high-boiling hydrocarbons (boiling point 300-600 ° C), mainly alkyl-naphthenic and alkyl-aromatic, obtained by oil refining. They are used for the lubrication of engines, industrial equipment and instruments, for electrical insulation purposes, as hydraulic fluids in hydraulic systems, for metal processing, in medicine, perfumes, etc.
Октановое число	Gaz aralashmasidagi propilendan pentangacha bo'lgan	один из показателей детонационных свойств бензина. О. ч. бензина	One of the indicators of detonation properties of gasoline. O. ch.

fraksiyalarni ajratib olish uchun ishlataliladi. Ajralayotgan qismda etan va etilen ham uchrashi mumkin.

определяют на стандартном одноцилиндровом двигателе с переменной степенью сжатия. Неизвестный бензин сравнивают с эталонными топливами по их способности вызывать детонацию в двигателе. Эталонные топлива составляют путем смешивания двух химически чистых углеводородов: изооктана, имеющего высокие антидетонационные свойства, условно принятые за 100 единиц. и н-гептана, имеющего низкие антидетонационные свойства, условно принятые за нуль. При смешивании изооктана и н-гептана в различных пропорциях полу-

Gasoline is determined on a standard single-cylinder engine with variable compression ratio. Unknown gasoline is compared with reference fuels for their ability to cause detonation in the engine. Reference fuel up by mixing of two chemically pure hydrocarbon: iso-octane having a high anti-knock properties, conventionally taken as 100 units, and n-heptane having a low anti-knock properties, conventionally taken as zero.

чают ряд эталонных топлив с различными антидетонационными свойствами.

Чем больше изооктана содержится в смеси, тем выше ее антидетонационные свойства. При испытании неизвестного бензина на одноцилиндровом двигателе повышают степень сжатия до появления детонации.

When mixing iso-octane and n-heptane in various proportions, a number of reference fuels with different anti-knock properties are obtained. The more iso-octane is contained in the mixture, the higher its anti-knock properties.

When testing an unknown gasoline on a single-cylinder engine, the compression ratio is increased until detonation occurs.

1.	Absorbsiya	Gazlarni suyuqlikda yutilishi.
2.	Absorbsiva	Gazlarni suyuqlikda erishi
3.	Adsorbent	Yutish qobiliyatiga ega bo'lgan g'ovaksimon qattiq donador materiallar.
4.	Adsorbsiya	Gaz va suyuqlik aralashmalaridagi komponentlarning qattiq jism sirtida va g'ovaklarda yotilishi.
5.	Azeatrop aralashma	Qaynash harorati bir biriga yaqin bo'lgan suyuqliklar.
6.	Degidrator	Neft aralashmalaridagi suvni ajratib beruvchi kurilma.
7.	Desorber	Adsorbentga yutilgan ajratib beruvchi qurilma.
8.	Desorbsiya	Adsorbentga yutilayotgan moddani reagentlar yordamida ajratib olish. Adsorbentga yutilgan moddani bug' va boshqa reagentlar yordamida ajratib olish.
9.	Distillyat	Asosan engil komponentlardan tashkil topgan bo'ladi yoki hosil bo'lgan toza eritma.
10.	Ekstragent	Erituvchi sifatida ishlataladigan organik suyuqliklar.
11.	Ekstraktor	Qattiq jism va suyuqlik aralashmasidagi komponentni erituvchida eritib beradigan kurilma.
12.	Ekstraktsiya	Biron ta suyuqlikdagi qattiq jismlardagi komponentni erituvchidan eritib ajratib olish.
13.	Ekstraktsiya	Erituvchida erigan komponent.
14.	Ekzotermik	Reaksiya natijasida issiqlik chiqishi bilan bo'ladijan jarayon.
15.	Endotermik	Reaksiya natijasida issiqlik yutilishi bilan bo'ladijan jarayon.
16.	Faza	Bu moddalarning agregat holatini xarakterlab, u qattiq jism, suyuqlik, gaz va bug' bo'lishi mumkin.

17.	Filtrlash	Filtr to'siqlaridan gaz va suyuqlik aralashmalaridagi qattiq va mayda zarrachalarni ushlab qolish.
18.	Fizik absorbsiya	Yutilgan modda faqat yutayotgan moddaning sirtiga yutilib, ular bir biri bilan birikmaydi.
19.	Flegma	Hosil bo'lgan distillyatning bir qismini kelonnaga qavtarish.
20.	Flegma soni	Flegma miqdorining distillyat miqdoriga nisbati flegma soni deyiladi.
21.	Geometrik sig'im	Qurilmaning hajmi bo'lib, unga solinadigan mahsulot bo'yicha hajmini ko'rsatadi.
22.	Gidratatsiya	Neft va naft mahsulotlaridan suvni ajratib olish.
23.	Gidravlik aralashtirish	Suyuqlik yordamida aralashtirish.
24.	Ingibitor	Reaksiyani tezlashtiradigan yoki sekinlashtiradigan reagent.
25.	Ionit	Yuqori molekulali birikma bo'lib, o'z tarkibida xarakatchan kation va anion gruppalarini bo'ladi.
26.	Ionizatsiya	Gaz aralashmalarini yuqori kuchlanishli elektr toki ta'sirida ionlarga ajralishi.
27.	Izolyator	Elektr tokini o'tkazmaydigan moslama.
28.	Katalizator	Reaksiya protsessini tezlashtiradigan reagent.
29.	Kondensator	Bug'sovituvchi yordamida kondensatga aylanadigan kurilma.
30.	Kondensatsiya	Bug'larni sovitib, suyuqlikka aylanshi.
31.	Korroziya	Qurilmaning suyuqlik ta'sirida zanglashi.
32.	Kreking	Neft mahsulotlarini yuqori bosim va haroratda parchalash.
33.	Kub qoldig'i	Qurilmaning tag qismida yig'iladigan fraksiya.
34.	Lyuk	Xomashyo solinadigan aylana shaklidagi moslama.

35.	Moddiy balans	Xomashyo bilan hosil bo'lgan tayyor mahsulot va ikkilamchi moddalarning o'zaro tengligi
36.	Polimerizatsiya	Yuqori harorat ta'sirida monomerlarning bir-biri bilan birikishi.
37.	Reaktor	Kimyoiy rekatsiyalar amalga oshiriladigan kurilma.
38.	Rektifikatsiya	Ikkita gomogen suyuqlik aralashmasi dan engil uchuvchan komponentni ajratib olish.
39.	Rektifikatsiya	Ikkita suyuqlik aralashmasini bir necha marta bug'latib, bug' va kondensatini aralashtirib engil uchuvchan komponentini ajratib olish.
40.	Reynolds	Suyuqlik va gaz aralashmalaridagi harkat rejimini aniqlovchi mezon.
41.	Tsentrifuga	Suyuklik aralashmalaridagi og'irroq fraksiyalarni markazdan qochma kuch ta'sirida ajratib beradigan qurilma.
42.	Tseolit	Tuproq jinsi bo'lib, suyuqlik aralashmalarini tozalash uchun ishlataladi.
43.	Silikagel	Gaz aralashmali tozalovchi natriy silikat eritmalariga mineral kislota va ularning nordon tuzlari ta'sir ettirib olinadi.
44.	Solishtirma yuza	Hajmga nisbatan egallangan yuza.
45.	Termopara	Elektr toki ta'sirida ichiga spiral o'rnatilgan metall trubachalari.
46.	Uzluksiz	Qurilmaga bir tomondan xomashyo berilib, ikkinchi tomondan tayyor mahsulotning ajralib olinishi, jarayonning to'xtamasdan davom etishi.
47.	Xemosorbtсиya	Yutilayotgan modda bilan yutayotgan moddaning o'zaro birikishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Рекламный проспект национальной холдинговой компании «Узбекнефтегаз». Т.: Н.Х.К Узбекнефтегаз. 2003. 96 с.
2. Вчера, сегодня и завтра нефтяной и газовой промышленности России. М.: Химия. 1995.
3. Терентьев Г.А., Тюков В.М., Смаль Ф.В. Моторные топлива из альтер-нативных сырьевых ресурсов. М.: Химия. 1989.
4. Аbrasimov A.A., Gureeva A.A. Экологические аспекты применения нефтепродуктов. М., Химия. 1997.
5. Данилов А.М. Присадки и добавки. Улучшение экологических характеристик нефтяных топлив. М.: Химия. 1996.
6. Данилов А.М., Емельянов В.Е., Митусова Т.Н. Разработка и производство экологически улучшенных моторных топлив. Тематический обзор. М.: ЦНИИТЭ Нефтехим. 1994.
7. Окружнов В.А. и др. Экологические свойства отечественных и зарубежных бензинов и дизельных топлив. Тематический обзор. М.: Информавтотранс. 1995.
8. Бекиров Т.М., Ланчаков Г.А. Технология обработки газа и конденсата. -М.: Недра, 1999-595с.
9. Lindsan R. // 13 World Petroleum Congress. Buenos Aires. 20-25 oct. 1991.
10. Гуреева А.А., Азев В.С. и. др. Топливо для дизелей. Свойство и применение М.: Химия. 1993.
11. Гилсдарф Н.Л. Труды конференции ЮОПи по нефтепереработке. 14-15 мая 1997. Москва.

12. Левинтер М.Е., Ахметов С.А. Глубокая переработка нефти. М.: Химия. 1992.
13. Абросимов А.А. Экологические аспекты производства и применения нефтепродуктов. М.: Химия. 1999.
14. Топлива, смазочные материалы, технические жидкости (ассортимент и применение) / Справочник. Под ред. Школьникова В.М. М.: ИЦ Техинформ. 1999.
15. Ашитко С.Г., Карпова Н.М. и др. Нефть, процессы и продукты ее углубленной переработки // Труды ВНИИ НП. 1993. Ч.5. 98 с.
16. Нефти СССР. Справочник. Т.IV. М.: Химия. 1974.
17. Туманян Б.П. Научные и прикладные аспекты теории нефтяных дисперсных систем. М.: Техника. ООО «ТУМА ГРУПП». 2000.
18. Petroleum Technology Quarterly. Winter 1999-2000. Р. 261.
19. Черныш М.Е. // Сю. «Нефтегазовый комплекс в годы Великой Отечественной войны» Вып. 2. М. 1995. С.5.
20. Ахметов С.А. Физико-химическая технология глубокой переработки нефти и газа. Ч.2. Уфа. 1997.
21. Фукс И.Г. Отечественные научные школы и их роль в становлении химии и переработки нефти. М.: Нефть и газ. 1996.
22. Орочки Д.И., Сулимов А.Д.. Осипов Л.Н. Гидрогенизационные процессы в нефтепереработке. М.: Химия. 1997.
23. Капустин В.М., Кукас С., Берталусини Р. Нефтеперерабатывающая промышленность США и бывшего СССР. М.: Химия. 1973.

24. Нефедов Б.К., Радченко Е.Д., Алиев Р.Р. Катализаторы процессов углубленной переработки нефти. М.: Химия. 1992.
25. Тараканов Г.В. Основы технологии подготовки и глубокой переработки нефтяного сырья // Дисс. на соискание ученой степени д.т.н. 1999.
26. Владимиров А.И. Каталитический крекинг с «кипящим» слоем катализатора. Реакторно-регенераторный блок. М.: Нефть и газ. 1992.
27. Гульмисарян Т.Г. Основы сажеобразования // Труды ГАНГ им. И.М. Губкина. 1996.
28. Сюняев З.И., Сюняев Р.З., Сафиева Р.З. Нефтяные дисперсные системы. М.: Химия. 1990.
29. Шахназаров А.Р. // В сб. Производство, прокалка и направления нефтяного кокса. Материалы совещания. Омск. 26-27 января 1999. С.8.
30. Petroleum Technology Quarterly. 1998-1999. P.29.
31. Осипова Л.Н. и др. В сб. Разработка ОАО «ВНИИ ИП» технологий производства экологически чистых дизельных топлив и автомобильного бензина на предприятиях отрасли по современным требованиям. Материалы совещания. Москва. 21 апреля 1999. С.5.
32. J. Bousquet M. Valas // Large Chemical Plants. 9th Int. Symp. Belgium, Antwerpen 1995. P.241.
33. Levinbuk M.J., Usachev N.J. 3rd World Congr. On Oxide Catalysis. Studies in Surface and Catalysis. San Diego, Elsevier. 1997. V. 110. P.734.

34. David V. Law // Petroleum Technology Quarterly Winter 2001. P.55.
35. А.К. Маноян. Технология первичной переработки нефти и природного газа. М.: Химия. 2001. 568 с.
36. Дональд Л. Бардик, Уильям Л. Леффлер. Нефтехимия / Перевод с английского. М.: Олимп-Бизнес. 2001. 416 с.
37. Форест Грей. Основы нефте и газодобычи / Перевод с английского. М.: Олимп-Бизнес. 2002. 280 с.
38. Уильям Л. Леффлер. Переработка нефти. М.: Олимп-Бизнес. 2001. 224 с.
39. Сафиева Р.З. Физикохимия нефти. Под ред. В.Н. Кошелева. М.: Химия. 1998. 448 с.
40. Каминский Э.Ф., Хавкин В.А. Глубокая переработка нефти: технологический и экологический аспекты. М.: Техника. 2001. 384 с.
41. Ракеш К. Бхаргава. Нефтегазовые технологии. 2003. № 5.
42. Xolismatov I.S., Xayitov O.G., Mavlonov A.V. Neftgaz geologiyasi va geokimyosi. Darslik. T.: ToshDTU. 2003. 172 b.
43. Turobjonov S.M., Azimov O.G., Obidov B.O. Neftkimyoviy sintez asoslari. O'quv qo'llanma. T.: ToshDTU. 2005. 162 b.
44. Turobjonov S.M., Azimov O.G., Obidov B.O. Kimyoning maxsus boblari. O'quv qo'llanma. T.: ToshDTU, 2006. 119 b.
45. Скобло А.И., Молоканов Ю.К., Владимиров А.И., Щелкунов В.А. Процессы и аппараты нефтегазопереработки и нефтехимии. Учебник. М.: Недра. 2000. с. 676.
46. Диляров И.Н. и др. "Химия нефти" руководство к лабораторным занятиям. Л.: Химия. 1990.

47. Технология переработки нефти и газа. Процессы глубокой переработки нефти и нефтяных фракций : учеб. Комплекс. Ч.1.Курс лекций/ сост. и общ. ред. С.М. Ткачева –Новополоцк: ПГУ, 2006.-392 с.
48. Справочник современных нефтехимических процессов. Нефтегазовые технологии №3, 2001 г.
49. Щелкачев В.Н. Отечественная и мировая нефтедобыча-история, современное состояние и прогнозы.-М.: Недр. 2002. с.132.
50. Ахметов С.А. Технология глубокой переработки нефти и газа: Учебной пособие для вузов. Уфа: Гилем, 2002. с.672.
51. <http://www.muctr.ru/newht>
52. <http://www.chem.msu.su/ru>
53. <http://www.gubkin.ru/>
54. <http://old.gubkin.ru/chem>

LITERATURES

1. Advertisement prospect of national holding company "Uzbekneftgaz" National Holding Company Uzbekneftgaz 2003 P. 96
2. Yesterday, today and tomorrow of oil and gas industry of Russia. Chemistry. 1995
3. G. A. Trentev, V. M. Tyukov. F.V. Smal motor fuels from alternative raw resources. Chemistry. 1989
4. A.A. Abrasimov, A.A. Gureeva Ecological aspects of using of oil products. Chemistry. 1997
5. A.M. Danilov Additives. Improvement of Ecological characteristics of Oil fuels. Chemistry. 1996
6. A.M. Danilov, V.E. Emelyanov, T.N. Mitusova. Development and Production of environmentally improved motor fuels. Thematic review. TSNIITE Oil chemistry. 1994
7. V.A. Okrujnov and others. Ecological properties of native and foreign benzenes and diesel fuels. Thematic review. Informautotrans. 1995
8. Bakirov TM, Lanchakov GA The technology of processing gas and condensate. : Nedra, 1999-595p.
9. R. Lindsan // 13 World petroleum congress. Buenos Aires. 20-25 oct. 1991
10. A.A. Gureeva, V.S. Azev and others. Fuel for diesels. Properties and using. Chemistry. 1993
11. N.L. Gilsdorf . Proceedings of conference UOP and oil process. 14-15 May . 1997. Moscow

12. M.E. Levinter, S.A. Akhmetov. Deep process of Oil. Chemistry. 1992
13. A.A. Abrosimov. Ecological aspects of production and using Oil products. Chemistry. 1999
14. Fuels, lubricants, technical liquids (assortment and using) / reference book. Edited by V. M. Shkolnikova. ITS Techinform. 1999
15. S.G. Ashitko, N.M. Karpova and others. Oil, processes and products of it's deep process. // Proceedings VNII NP. 1993.P 5.98
16. Oil of USSR. Reference book. Edited by T. JV. Chemistry. 1974
17. B.P. Tumanyan. Scientific and applied aspects of theory of Oil disperse systems. Technique. LLC "TUMA GROUP" 2000
18. Petroleum Technology Quarterly. Winter 1999-2000. P. 261
19. M.e. Chernish // Su. "Oil Gas complex in years of Great Patriotic War". Edition 2 1995. P 5.
20. S.A. Akhmetov. Physical- Chemical technology of deep process of Oil and Gas. Part 2. Ufa. 1997
21. I.G. Fuks. Native scientific schools and their role in formation of Chemistry and Oil process. Oil and Gas. 1996
22. D.I. Orochko, A.D. Sulimov, L.N. Osipov. Hydrogenation processes in Oil process. Chemistry. 1997
23. V.M. Kapustin, S. Kukes, R. Bertalusini. Oil processing industry of USA and former USSR. Chemistry. 1973
24. B.K. Nefedov, E.D. Radchenko, R.R. Aliev. Catalysts of processes of deep refining. Chemistry. 1992

25. G. V. Tarakanov. Basics of Technology of preparing and deep processing of Oil raw. Dissertation of researching of educational degree. 1999
26. A.I. Vladimirov. Catalytic cracking with “boiling” coat of catalyst. Reactor Regenerator unit. Oil and Gas. 1992
27. T.G. Gulmisaryan. Basics of sooting. // Proceedings State Institute of Oil and Gas named after Gubkin. 1996
28. Z.I. Syunyaev, R.Z. Safieva. Oil disperse systems. Chemistry. 1990
29. A.R. Shakhnazarov // In collection. Production Calcination and direction of Oil coke. Materials of Meeting. Omsk. 26-27 January. 1999. Page 8.
30. Petroleum Technology Quarterly. 1998-1999. P 29
31. L. n. Osipova and others. In collection. Process Joint Stock Venture “VNII IP” technologies of production ecological pure diesel fuels and automobile benzene at enterprises on modern demands. Materials of meeting. Moscow. April 21 1999. P. 5
32. J. Bousquet M. Valas // Large Chemical Plants. 9th Int. Symp. Belgium, Antwerpen. 1995. P 241
33. M. J. Levinbuk, N.J. Usachev, 3rd World Congr. On Oxide Catalysis. Studies in Surface and Catalysis. San Diego. Elsevier. 1997 V. 110. P. 734
34. David V. Law // Petroleum Technology Quarterly Winter 2001. P. 55
35. A.K. Manovyan. Technology of elementary process of Oil and Natural Gas. Chemistry. 2001. P. 568

36. Donald L. Bardik, L. William Leffler. Oil Chemistry/
Translation from English Language. Olymp Business. 2002 P. 280
37. Fotrest Grey. Basics of Oil and mining of Gas. / Translation from
English Language. Olymp Business 2002 P 280
38. William L. Leffler. Oil process. Olymp Business 2001. P. 224
39. R. Z. Safieva. Physical Chemistry of Oil. Edited by V.N.
Koshelyova Chemistry 1998. P 448
40. E.F. Kaminski, V.A. Khavkin. Deep process of Oil: Technological and Ecological aspects. Technique 2001. P 384
41. Rakesh K. Bkhargava. Oil Gas technologies. 2003. № 5.
42. I.S. Kholismatov, O.G. Khaitov, A.V. Mavlonov. Geology and
Geochemistry of Oil and Gas. Book Tashkent State Technical University
2003. P. 172
43. S. M. Turobjonov, O.G. Azimov. B.O. Obidov. Basics of Oil chemical synthesis. Book: Tashkent State Technical University. 2005. P. 162
44. S. M. Turobjonov, O. G. Azimov, B.O. Obidov. Special chapters of Chemistry. Book: Tashkent State Technical University. 2006. P. 119
45. A.I. Skoblo, Yu. K. Molokanov, A.I. Vladimirov, V.A. Shelkunov. Processes and Apparatus of Oil Gas process and Oil Chemistry. Book: Nedr. 2000 P. 676
46. I.N. Diyarov and others. "Oil of Chemistry" Head of Laboratory studies. Chemistry. 1990
47. Technology of Process of Oil and Gas. Processes of deep refining of Oil and Oil fractions. Complex of book. Part 1 Course of lectures/ comp. and general edition. S. M. Tkachev – Novopolotsk. State Pedagogical University, 2006 – P. 392

48. Reference book of Modern Oil chemical Processes. Oil and Gas technologies № 3. 2001
49. V.N. Shelkachyev. Native and World Oil mining – History of modern condition and prognosis. Nedr. 2002. P. 132
50. S.A. Akhmetov. Technology of deep process of Oil and Gas: Training aids for Institutes. Ufa: Gilem, 2002 P. 672
51. <http://www.muctr.ru/newht>
52. <http://www.chem.msu.su/ru>
53. <http://www.gubkin.ru/>
54. <http://old.gubkin.ru/chem>

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BOB. Jahon bo'yicha neft va gaz zaxiralari

1.1. O'zbekistonda neft va tabiiy gaz sanoatini tarixi	8
Neft va gazni qayta ishlashni zamонавиј ahvoli.....	9
O'zbekistonda neft, gaz va gazokondensatini qazib chiqarish.	11
1.2. Tabiiy gazni qayta ishlash va undan mahsulotlar ishlab chiqarish.....	12
1.3. Neft va gaz kondensatini qayta ishlash, undan olinadigan mahsulotlar.....	13
1.4. Neft va gazning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.....	13

II BOB. Neft, tabiiy gazlar va kondensatlar

2.1. Neft, gaz va gazo kondensatlar va ularning xossalari.....	18
Aromatik uglevodorodlar (arenlar).....	20
Neftning fizik xossalari.....	23
2.1.2. Tabiiy gazlar.....	24
Gazokondensatlar.....	30
2.2. Neft va gazning hosil bo'lish gipotezalari.....	33
Organik gipoteza tarafdarlari.....	33
Neft va gazning anorganik hosil bo'lishidagi gipotezalar.....	37
Neft va gazning hosil bo'lishidagi mikstgenetik gipotezalar....	45

III BOB. Neft va neft mahsulotlarining tavsifi

3.1.Tabiiy energiya tashuvchilarni tavsiflash tizimlari.....	47
Kimiyoiy sinflanish.....	48
Texnologik sinflanish.....	50
3.2. Neft yoqilg'iları.....	54

Uglevodorodli gaz yoqilg'iları.....	57
Tabiiy gaz.....	57
Suyultirilgan neft gazi (MDH).....	58
Benzinlar.....	59
Reaktiv yoqilg'ilar (aviatsion kerosinlar).....	62
Dizel yoqilg'iları.....	66
Gazoturbina yoqilg'iları.....	69
Pech yoqilg'iları.....	69
Bug' qozoni yoqilg'iları.....	70
3.3. Neft moylari.....	72
3.4. Qattiq neft mahsulotlari.....	74
Serezinlar va mumlar.....	75
Neft mumları.....	75
Vazelinlar.....	76
Plastik surkov moylari.....	76
Bitumlar.....	76
Neft koksları.....	77
3.5. Neft mahsulotlarining boshqa sohalarda ishlatalishi.....	78
Neft asosidagi erituvchilar.....	78
Yorituvchi kerosin.....	78
Suyuq parafinlar.....	79
Moylovchi sovituvchi suyuqliklar (MSS).....	79
Texnik uglerod.....	79
IV BOB. Neft va neft mahsulotlarining fizik-kimyoviy xossalari	
4.1. Neft va neft mahsulotlarining fizik xossalari.....	81

Neft fraksiyalarining o'rtacha qaynash harorati.....	81
Zichlik.....	85
Absolyut Zichlik.....	85
Nisbiy Zichlik.....	85
Molyar massa.....	89
Molyar massani tajribada aniqlash	89
Qovushqoqlik.....	92
Xarakterli haroratlar.....	93
Optik xususiyatlari.....	93
Neft mahsulotlarining elektrik xossalari.....	93
Issiqlik xossalari.....	94
Plastik xossalari.....	94
Kritik parametrlar va keltirilgan doimiyiliklar.....	94
Siqiluvchanlik koeffitsiyenti.....	98
To'yingan bug' bosimi.....	99
Uchuvchanlik.....	101
4.2. Neft sistemalari fazoviy muvozanati.....	105
4.3. Kolloid-dispers xossalari.....	107
4.4. Motor yoqilg'ilarli va surkov materiallarining ekspluatatsion xossalari.....	112
Ichki yonish dvigatellarida yoqilg'i detonatsiyasi.....	112
Uglevodorodlar va yonilg'ilarning detonatsiyaga turg'unligi	123
Normal tuzilishli alkanlar.....	126
Tarmoqlangan tuzilishli alkanlar (izoparafinlar).....	126
Alkenlar (monoolefinlar).....	126
Siklanlar (naften uglevodorodlar).....	127

Aromatik uglevodorodlar (arenlar).....	127
Uglevodorodlar va dizel yoqilg'ilarining alangalanish xususiyatlari.....	129
Dizel yoqilg'ilarining tez alangalanishi.....	135
4.4.1. Reaktiv dvigatellar yoqiligi.....	137
V BOB. Neft va gaz tarkibini aniqlash usullari	
5.1. Neftning elementli va gruppaga tarkibi.....	141
5.2. Neftning elementli kimyoviy tarkibi.....	145
5.2.1. Neftning element tarkibini aniqlash.....	149
5.3. Neftning guruh kimyoviy tarkibini aniqlash.....	149
5.3.1. Benzinlarning guruh tarkibi.....	152
5.3.2. Kerosin va moy fraksiyalarning strukturaviy guruh tarkibi.....	153
VI BOB. Neft va gaz tarkibining aniqlash va komponentlarni ajratib olish usullari	
6.1. Neftni birlamchi haydash.....	157
6.2. Azeotrop va ekstraktiv rektifikatsiya. ekstraksiya, absorbsiya.....	159
Azeotropli rektifikatsiya.....	162
Ekstraktiv rektifikatsiya.....	163
Absorbsiya desorbsiya.....	165
Adsorbsiya desorbsiya	168
6.3. Kristallizatsiya.....	172
6.4. Xromatografik usullar.....	178
6.5. Neftni fraksiyalarga ajratish.....	179

VII BOB. Neftning kimyoviy tarkibi

7.1 Neft alkanlari.....	181
Gaz holidagi alkanlar.....	181
Suyuq alkanlar.....	182
Qattiq alkanlar.....	184
7.2. Alkanlarning fizik xossalari.....	185
n-Alkanlarni karbomid bilan komplekslari.....	187
7.3. Alkanlarning asosiy reaksiyalari.....	189
7.4. Neft sikloalkanlari.....	194
Gaz kondensat va quyi fraksiyalardagi sikloalkanlarning fizik xossalari.....	195
Sikloalkanlarning asosiy reaksiyalari.....	197
7.5. Neft arenlari va gibrild birikmalari.....	202
Umumiy ma'lumotlar.....	202
Arenlarning fizik xossalari.....	204
Arenlarning kimyoviy xossalari.....	205
Kondensirlangan arenlarning kimyoviy xossalari.....	210
Gibril sikloalkan– arenlar.....	212
Arenlarning neft kimyoviy sintezda ishlatilishi.....	212
7.6. Neftni qayta ishlashda hosil bo'ladigan to'yinmagan uglevodorodlar.....	221
Umumiy ma'lumotlar.....	221
To'yinmagan uglevodorodlarning (alkenlarning) xossalari...	223
Alkenlarni ajratib olish.....	224
Alkenlarning kimyoviy xossalari.....	228
Alkadienlarning kimyoviy xossalari.....	231

VIII BOB. Neftning getroatomli birikmalari va mineral komponentlari

8.1. Neftning geteroatomli birikmalari.....	233
8.1.1. Neftning azotli birikmalari.....	234
Neftning oltingugurtli birikmalari	235
Merkaptanlar.....	241
Elementar oltingugurt. vodorod sulfid	243
Sulfidlar.....	245
Tiofanlar.....	247
Tiofenlar.....	247
Disulfidlar.....	249
Neftdagি sulfidlarning termokimyoviy o'zgarishlari.....	249
8.1.3. Neftning kislород saqlovchi birikmalari.....	251
Neft kislotalari.....	251
Fenollar.....	252
Efirlar.....	252
8.1.4. Neftning smolali – asfaltenli birikmalari.....	252
Neytral moddalar (smolalar).....	253
Asfaltenlar.....	254
8.1.5. Neftning mineral komponentlari.....	255

IX BOB. Neft' va neft' fraksiyalarini sanoatda qayta ishlash kimyoviy jarayonlari

9.1. Neft va neft mahsulotlarining termik jarayonlari.....	260
Termik kreking.....	260
Piroлиз.....	262
Kokslash.....	263

9.2. Neft uglevodorodlari va tabiiy gazning termokatalitik o'zgarishlari.....	264
9.2.1. Katalitik kreking.....	264
9.2.2. Katalitik riforming.....	266
9.2.3. Izomerizatsiya.....	271
Yoqilg'i yuqori oktanli komponentlarining sintezi.....	271
Benzolni alkillash.....	271
Degidrirlash.....	272
Polimerizatsiya.....	272
9.3. Neftni qayta ishlashdagi gidrogenizatsiya jarayonlari.....	272
Jarayonlarning sinflanishi.....	272
9.3.1. Gidrokreking jarayoni va uning mahsulotlari.....	273
9.3.2.-Gidrotozalash jarayoni	274
9.3.3. Oltingugurtli organik birikmalarni gindrirlash.....	275
Distillyatlarni gidrotozalash jarayoni.....	276
X BOB. Jarayonlarni kimyoiviy asoslari	
10.1. Vodorod bilan katalitik reaksiyalarni sinflanishi.....	278
10.2. Gidrirlash termodinamikasi va katalizatorlari.....	278
10.3.Qo'shbog' bo'yicha gindrirlash.....	279
10.4. Arenlarni gindrirlash.....	280
10.5. Alkeilarni gidrokrekingi.....	281
10.6. Alkanlarni gidrokrekingi.....	282
10.7. Sikloalkanlarni gidrokrekingi.....	283
10.8. Arenlarni gidrokrekingi.....	283
10.9.Oltingugurtli birikmalarni gindrirlash.....	285
10.10. Azotli birikmalarni gindrirlash.....	287

10.11. Kislorod - saqlovchi va metall - organik birikmalarni o‘zgarishlari.....	288
Jarayon makrokipetikasi.....	289
10.12. Vodorodni sarfi. Gidrotozalashni issiqlik effekti.....	290
10.13. Benzin fraksiyalarini gidrotozalash.....	291
Neft va gaz kimyosi fani bo'yicha glossariy.....	301
Foydalaniman adabiyotlar.....	310

AZIMOV ABID GANIEVICH,
YULDASHEV RAXMATILLA XODJIYEVICH,
YUSUPXODJAYEVA ELLEONORA NARIMANOVNA

NEFT VA GAZ KIMYOSI

(O‘quv qo‘llanma)

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2017

Muharrir:	Sh.Kusherbayeva
Tex. muharrir:	F.Tishaboyev
Musavvir:	D.Azizov
Musahhit:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.

Nashr.lits. AIN №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 18.12.2017.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 20,5. Nashriyot bosma tabog‘i 20,75.

Tiraji 300. Buyurtma №235.